Multidisciplinary scientific online journal ISSN: 3030-3125

Volume 3 №11 (2025)

JOURNAL OF EFFECTIVE LEARNING AND SUSTAINABLE INNOVATION

SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI

- Aniq fanlar
- Tibbiyot fanlari
- Filologiya fanlari
- Iqtisodiyot fanlari
- Pedagogik fanlar
- Tarix fanlari
- Turizm fanlari
- Texnika fanlari

Google Scholar zenodo doi OpenAIRE OPEN ACCESS Innovativepublication.uz

Volume 3 №11 (2025)

INNOVATIVE PUBLICATION

Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation

innovativepublication.uz

«Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation » ilmiy-uslubiy jurnali: №11

Ushbu to’plamda **« Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation »** ilmiy-uslubiy jurnali 2025 yil 11-sonida qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.

« Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation » ilmiy-uslubiy jurnali O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan olingan №141091-sonli guvohnomaga ega.

Jurnal tarkibidagi barcha maqolalar **Google Scholar, Zenodo, Open Aire, Citefactor, Directory of Research Journals Indexing, Researchbib, Index Copernicus, Internet Archive, Base Search va bir qancha boshqa** xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

Jurnal materiallaridan professor-o’qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktarantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o’qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Jurnal materiallari to‘plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

“INNOVATIVE PUBLICATION” MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). October
innovativepublication.uz

OILAVIY MUNOSABATLARNING BUZILISHI VA AJRIM MOTIVLARI

Bosh muharrir: Ro`ziyev Jamshidbek Komiljon o`g`li
Toshkent Amliy Fanlar Universiteti,
Pedagogika va psixologiya yo`nalishining 4-bosqich talabasi.
Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti,
Psixologiya Kafedrasi Katta o‘qituvchisi:
Ilmiy raxbari: Mirsidikova Azizaxon.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada oilaviy munosabatlarning buzilishi va ajrim motivlari psixologik, ijtimoiy hamda ma’naviy omillar asosida tahlil qilingan. Oila institutining barqarorligini ta’minlashda o‘zaro hurmat, ishonch va kommunikativ madaniyatning o‘rni yoritilgan. Shuningdek, ajrimga olib keluvchi asosiy sabablar, ularning shaxs psixologiyasiga ta’siri hamda zamonaviy oilalarda kuzatilayotgan psixologik inqirozlar tahlil etilgan [1].

TAYANCH SO‘ZLAR:

Oila, ajrim, oilaviy munosabat, nizolar, psixologik moslik, emotsional ziddiyat, ijtimoiy omillar, kommunikativ muammolar.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются мотивы распада семейных отношений и разводов, обусловленные психологическими, социальными и духовными факторами. Подчёркивается роль взаимного уважения, доверия и культуры общения в обеспечении стабильности института семьи. Также анализируются основные причины, приводящие к разводам, их влияние на психологию личности и психологические кризисы, наблюдаемые в современных семьях [1].

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

Семья, развод, семейные отношения, конфликты, психологическая совместимость, эмоциональный конфликт, социальные факторы, коммуникативные проблемы.

ANNOTATION

This article analyzes the motives for the breakdown of family relationships and divorce based on psychological, social and spiritual factors. The role of mutual respect, trust and communicative culture in ensuring the stability of the family institution is highlighted. The main reasons leading to divorce, their impact on the psychology of the individual and the psychological crises observed in modern families are also

analyzed [1].

KEYWORDS:
Family, divorce, family relations, conflicts, psychological compatibility, emotional conflict, social factors, communicative problems.

KIRISH

Oila – jamiyatning eng kichik, ammo eng muhim bo‘g‘ini bo‘lib, inson hayotining barcha jabhalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Oila nafaqat ijtimoiy, balki ma’naviy qadriyatlarning shakllanishi uchun ham asosiy makon hisoblanadi. Ammo zamonaviy jamiyatda oilaviy munosabatlarning buzilishi, ajrimlar sonining ortishi, shuningdek, er-xotin o‘rtasidagi psixologik ziddiyatlarning ko‘payishi dolzarb muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda [2].

Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ajrim faqat huquqiy jarayon emas, balki chuqur psixologik inqirozdir. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksida oilani mustahkamlash, er-xotin o‘rtasida o‘zaro hurmat va sadoqatni ta’minlash muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan [3]. Shu bois, oilaviy inqirozlarni tahlil qilish, ularning sabablarini aniqlash va profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish psixologiya fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biridir.

MAVZUNING DOLZARBLIGI

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ajrimlar sonining ortishi jamiyatda jiddiy psixologik muammolarga sabab bo‘lmoqda. Oilaning barqarorligi shaxsning ruhiy sog‘lomligi, farzandlarning tarbiyasi va ijtimoiy muhitning barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [4]. Shu boisdan, oilaviy munosabatlardagi ziddiyatlarni erta aniqlash va ularni psixologik yo‘l bilan hal etish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biridir.

Mutaxassislarning fikricha, ajrimlarning asosiy sabablari orasida quyidagi omillar yetakchi o‘rinni egallaydi:

- psixologik moslikning yo‘qligi;
- iqtisodiy muammolar;
- o‘zaro ishonchsizlik;
- xiyonat va rashk;
- oilaviy rollarni noto‘g‘ri taqsimlanishi [5].

ASOSIY QISM

Oila psixologiyasi fanida ajrim jarayoni ko‘pincha shaxslararo nizolarning chuqurlashuvi bilan bog‘liq bo‘ladi. Har bir nizo bosqichma-bosqich rivojlanadi: avval emotsional beqarorlik, keyin kommunikativ to‘siqlar, so‘ng esa o‘zaro begonalashuv yuzaga keladi. Ushbu jarayonlar o‘z vaqtida psixologik yondashuv bilan hal etilmasa, ajrim bilan yakunlanadi [6].

Psixologlar ajrim sabablari orasida kommunikatsiyaning buzilishini eng xavfli omil deb bilishadi. Er va xotin o‘rtasida to‘g‘ri muloqot o‘rnatilmagan taqdirda, muammolar to‘planib boradi va kichik nizo ham katta inqirozga aylanadi. Shu sababli, oilaviy psixologik maslahatlar, treninglar va mediatsiya usullarining ahamiyati ortib bormoqda.

O‘zbekistonda ajrimlarning ko‘payishi nafaqat oilaning, balki butun jamiyatning ijtimoiy-psixologik barqarorligiga tahdid soladi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi yillarda ajrimlarning katta qismi yosh oilalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa, yoshlarning oilaviy hayotga tayyorgarligi yetarli emasligidan dalolat beradi [7].

Shuningdek, ajrim bolalarning psixik rivojlanishiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Psixologlar bunday holatlarda farzandlarda qo‘rquv, xavotir, tajovuzkorlik yoki ijtimoiy moslashuvda muammolar paydo bo‘lishini qayd etishgan. Shu bois, ajrim oldi profilaktikasi va psixologik yordam tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Oilaviy munosabatlarning buzilishi va ajrimlar — bu faqat ijtimoiy yoki huquqiy muammo emas, balki psixologik muammo hamdir. Ajrimning oldini olish uchun eng avvalo oilada o‘zaro hurmat, ishonch va muloqot madaniyatini rivojlantirish zarur. Shuningdek, oilaviy psixologlar faoliyatini kengaytirish, yoshlar uchun “Nikoh va oila psixologiyasi” bo‘yicha treninglar tashkil etish muhim hisoblanadi.

Oila — bu shunchaki ikki inson ittifoqi emas, balki jamiyatning poydevori. Shu sababli, har bir ajrim — jamiyat barqarorligiga zarba sifatida qaraladi. Shu jihatdan, har bir psixolog, pedagog va ijtimoiy mutaxassis oilani saqlash, nizolarni oldini olish bo‘yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarga tayanishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[1] Karimova N. “Oila psixologiyasi asoslari”. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti, 2019.
[2] Xo‘jayev A. “Shaxs va oila psixologiyasi”. – Toshkent: Fan, 2020.
[3] O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023.
[4] Rasulova D. “Oilaviy ziddiyatlar psixologiyasi”. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.
[5] Mahmudova G. “Oila sotsiologiyasi va psixologiyasi”. – Toshkent, 2018.
[6] Sharipov M. “Oilaviy muhitda muloqotning o‘rni”. – Toshkent, 202
[7] Qodirova Z. “Ajrim motivlari va ularning ijtimoiy-psixologik tahlili”. – Buxoro, 2023.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

O'ZBEK OILALARIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA RUS TILIDA NUTQNI RIVOJLANTIRISH.
РАЗВИТИЕ РЕЧИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА НА РУССКОМ ЯЗЫКЕ В УЗБЕКСКИХ СЕМЬЯХ
SPEECH DEVELOPMENT IN PRESCHOOL CHILDREN IN RUSSIAN LANGUAGE WITHIN UZBEK FAMILIES

Abdulloyeva Anora Otabekovna
Ilmiy rahbar
Raxmonova Mehriniso Toshpulotovna
ZARMED Universiteti Buxoro kampusi
Filologiya va tillar rus tili yo'nalishi BFR0222 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada o'zbekistonlik oilalarga xos bo'lgan ikki tilli muhitda bolalarining maktabgacha yoshdagi nutq rivojlanishining o'ziga xos jihatlari rus tilida o'rganilishi muhokama qilinadi. Rus tilini ikkinchi til sifatida o'zlashtirishda bolalar duch keladigan qiyinchiliklar tahlil qilinadi va rus nutqining samarali rivojlanishiga qaratilgan pedagogik usullar taklif etiladi.
Kalit so'zlar: nutq, maktabgacha yosh, bilingvizm, o'zbek oilasi, rus tili, nutq rivoji.
Аннотация: В статье рассматриваются особенности речевого развития детей дошкольного возраста на русском языке в условиях билингвальной среды, характерной для узбекских семей. Анализируются трудности, с которыми сталкиваются дети при усвоении русского языка как второго и предлагаются педагогические методы, направленные на эффективное развитие русской речи.
Ключевые слова: речь, дошкольный возраст, билингвизм, узбекская семья, русский язык, развитие речи.
Abstract: This article examines the features of speech development in preschool children speaking Russian in a bilingual environment typical for Uzbek families. The difficulties faced by children in acquiring Russian as a second language are analyzed and pedagogical methods aimed at the effective development of Russian speech are proposed.
Keywords: speech, preschool age, bilingualism, Uzbek family, Russian language, speech development.

ВВЕДЕНИЕ:

Развитие речи в дошкольном возрасте — ключевой этап формирования личности ребёнка. В Узбекистане, где большинство детей растут в узбекско-язычных

семьях, русский язык часто выступает как второй язык. Учитывая его значимость в образовании, профессиональной сфере и межнациональном общении, раннее речевое развитие на русском языке становится актуальной задачей как для родителей, так и для педагогов.

Общая характеристика проблемы

Развитие речи у дошкольников — важнейший этап в формировании личности ребёнка, его мышления, познавательных процессов и успешной социализации. В узбекских семьях, где русский язык является не родным, а вторым (неродным, иностранным), процесс овладения им имеет свои особенности.

ОСОСБЕННОСТИ РЕЧЕВОГО РАЗВИТИЯ ДОШКОЛЬНИКОВ

1. Сенситивный период (1–6 лет)

Дети особенно восприимчивы к языкам.

В это время закладывается база для двуязычия.

2. Формирование словаря:

В узбекских семьях русский язык часто ограничивается бытовым словарём (одежда, еда, предметы). Богатый словарь формируется в детском саду при просмотре мультфильмов или чтение в книгах.

3. Фонетические трудности:

Узбекский язык не имеет некоторых звуков, характерных для русского («ш», «щ», «ы», мягкие согласные), поэтому детям трудно произносить их правильно.

Например: «лыжи» → «лижи», «щука» → «сука».

4. Грамматические трудности:

В русском языке богатая система падежей а в узбекском — агглютинативная структура.

Ошибки: «иду к школа» вместо «к школе»; «у мамы есть телефон» → «у мама телефон есть».

5. Смешение языков (интерференция)

Дети часто используют элементы узбекского языка при построении русских предложений.

Например: «Я кушал палов»; «Давай идём базар».

Факторы, влияющие на развитие речи на русском языке:

1. Языковая среда

В семье чаще говорят на узбекском, поэтому ребёнок мало практикует русский язык.

Русский язык становится активным только в детском саду или при общении с

соседями/друзьями.

2. Роль семьи

Родители, владеющие русским языком, быстрее формируют у ребёнка навыки речи.

Если родители не владеют, то речевое развитие в основном ложится на детский сад.

3. Образовательные учреждения

Детский сад с русскоязычной средой ускоряет усвоение языка.

Дети, которые посещают узбекский садик, часто позже осваивают русский.

4. Мультимедиа

Русские мультфильмы, песни, книги играют большую роль в словарном запасе.

Важно сочетать с живым общением, иначе речь может быть «пассивной» (понимает, но не говорит). Теоретические основы речевого развития. Речевое развитие включает в себя несколько аспектов:

Зинченко В.П. «Психология речевого развития детей», 2010

1	Фонетический — произношение звуков
2	Лексический — словарный запас
3	Грамматический — правильное построение фраз и предложений
4	Коммуникативный — умение использовать речь в общении. в виде таблицы сделай

Лурия А.Р. «Основы нейропсихологии», 1973

По Л. С. Выготскому и А. А. Леонтьеву, усвоение второго языка у ребёнка происходит в тесной связи с его речевой средой и мотивацией общения.

2. Особенности речевого развития в узбекских семьях

В большинстве узбекских семей доминирует узбекский язык. Русский язык, как правило, вводится через:

-мультфильмы и телевизионные передачи,

-русскоязычные детские сады,

-общение с родственниками или педагогами,

-подготовительные курсы к школе.

Проблемы, с которыми сталкиваются дети:

-Ограниченный словарный запас на русском языке;

-Трудности в произношении и грамматике;

-Перемешивание узбекской и русской лексики (интерференция);

-Стеснение в русскоязычном общении.

3. Практические рекомендации по развитию русской речи

1. Создание речевой среды

-Чтение русских сказок и рассказов вслух.

-Прослушивание детских песен и аудиосказок.

-Обсуждение увиденного или услышанного на русском языке.

2. Игровые методы

-Использование картинок и настольных игр с русскими подписями.

-Игры на повторение и описание предметов.

3. Включение родителей

Родителям рекомендуется учить простые фразы на русском и использовать их в быту.

Совместное выполнение заданий, где требуется речь: описание, пересказ, рифмовка.

4. Посещение русскоязычных кружков или детских садов

Это даёт ребёнку возможность услышать и использовать русский язык в реальных ситуациях.

4. Роль педагога и логопеда

-Педагог дошкольного учреждения должен:

-Учитывать билингвальную особенность ребёнка,

-Постепенно вводить русскую лексику с опорой на визуальные и игровые материалы,

-Регулярно проводить занятия по развитию речи,

-Сотрудничать с родителями и логопедом при необходимости.

Важно сочетать с живым общением, иначе речь может быть «пассивной» (понимает, но не говорит).

1. 2–3 года

Появляются отдельные русские слова.

Много ошибок в произношении.

Смешение узбекских и русских слов в одной фразе.

2. 3–4 года-Активное пополнение словаря.

Простые предложения на русском языке.

Ошибки в грамматике («Я гулял дома» вместо «Я гулял по дому»).

3. 4–5 лет-Начало связной речи.

Ребёнок рассказывает короткие истории.

Активное использование падежей, но с ошибками.

4. 5–6 лет-Развивается монологическая речь.

Ребёнок может пересказывать сказки, объяснять свои мысли.Всё ещё сохраняются акцент и грамматические трудности.

Типичные ошибки у детей дошкольного возраста

Фонетика: «рыба» → «либа», «шапка» → «сапка».

Грамматика: «Я сказал маме, что я кушал» → «Я сказал мама, я кушал».

Словообразование: «стулов» вместо «стульев».

Синтаксис: «Я хочу кушать плов» вместо «Я хочу поесть плова».

Методы и приёмы развития речи

1. Чтение сказок и рассказов на русском языке (ежедневно).
2. Игры со словами: загадки, считалки, скороговорки.
3. Совместное обсуждение картинок — описывать героев, действия.
4. Развивающие мультфильмы и аудиосказки с последующим обсуждением.
5. Ролевые игры (магазин, школа, семья).
6. Общение с русскоязычными сверстниками.
7. Развитие мелкой моторики (лепка, рисование, аппликация) — стимулирует речевые зоны мозга.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Развитие речи у детей дошкольного возраста на русском языке в узбекских семьях происходит в условиях двуязычия. Это обогащает мышление ребёнка, но также вызывает трудности в фонетике, грамматике и синтаксисе. Для полноценного речевого развития необходима поддержка семьи, образовательных учреждений и русскоязычной среды. Русская речь в узбекских семьях может развиваться успешно при условии регулярного и систематического подхода. Важно не только создать условия для восприятия языка, но и мотивировать ребёнка к активному речевому взаимодействию. Совместные усилия родителей, педагогов и логопедов помогут сформировать устойчивые навыки владения русским языком, что в дальнейшем благоприятно скажется на обучении в школе и социальной адаптации ребёнка.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Выготский Л.С. Мышление и речь. — М.: Педагогика, 1982. (Vygotsky L.S. Thought and Language. — Moscow: Pedagogy, 1982)
2. Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. — М.: Смысл, 1997. (Leontiev A.A. Fundamentals of Psycholinguistics. — Moscow: Smysl, 1997.)
3. Мещерякова С.Ю. Развитие речи дошкольников. — М.: Академкнига, 2010. (Meshcheryakova S.Yu. Development of speech in preschool children. — Moscow:

Akademkniga, 2010)
4. Юсупова З.А. Билингвизм в Узбекистане: проблемы и перспективы. — Ташкент, 2015. (Yusupova Z.A. Bilingualism in Uzbekistan: Problems and Prospects. — Tashkent, 2015.)
5. Практика логопеда в дошкольных учреждениях: пособие для педагогов. — М.: Просвещение, 2012. (Speech therapy practice in preschool institutions: a guide for educators. — Moscow: Prosveshchenie, 2012.)
6. Д.Б. Эльконин – о развитии речи и мышления дошкольников. (D.B. Elkonin – on the development of speech and thinking in preschoolers)
7. Эльконин Д.Б. Психология игры. – М., 1978. (Elkonin D.B. The Psychology of Play. – Moscow, 1978.)
8. А.А. Леонтьев – про двуязычие и усвоение второго языка детьми. (A.A. Leontiev – on bilingualism and children's acquisition of a second language.)
9. Ф.А. Сохин, М.М. Алексеев – методика развития речи в детском саду. (F.A. Sokhin, M.M. Alekseev – Methodology for Speech Development in Kindergarten.)
10. Г.Ф. Кумарова, Н.Р. Рахимова – исследования билингвизма в Узбекистане. (G.F. Kumarova, N.R. Rakhimova – studies on bilingualism in Uzbekistan.)
11. Кумарова Г.Ф. Двуязычие и его влияние на развитие речи детей дошкольного возраста. – Ташкент, 2015. (Kumarova G.F. Bilingualism and Its Influence on the Speech Development of Preschool Children. – Tashkent, 2015.)
12. О.А. Султанова – развитие русской речи у узбекских детей. (O.A. Sultanova – the development of Russian speech in Uzbek children.)

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

KREATIV PEDAGOGIKA FANINI O‘QITISHDA IJODKORLIK VA O’QUVCHILARDA IJODKORLIK HISLATLARINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Muallif: Iminjonova Durdona Kamoliddin qizi
Ilmiy rahbar: Hoshimova Masuda
Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti
Pedagogika fakulteti pp08-guruh 3-bosqich talabasi.
Telefon: +998943100817

Annotatsiya: Xozirgi zamon oliy ta’lim tizimida ijodkorlikning axamiyati, pedagogik faoiliyatdagi ijodkorlik tushunchasi, ijod, ijodiy qobiliyat, ijodiy faoliyat va ijodiy topshiriq tushunchalari, talabalarda ijodiy qobiliyatlarni shakillantirish hususiyatlari, ijodiy topshiriqlar va ulardan dars davomida foydalanish.

Kalit so’zlar: pedagogika, ijodkorlik, kreativlik, pedagogik innovatsiyalar, kadrlar, pedagogik amaliyot,

Xalqaro mehnat tashkilotining 2018 yilgi Rossiya federatsiyasi uchun tayyorlagan Inson taraqqiyoti hisobotida (UNDP) ijodkorlikni 21-asrning asosiy insoniy fazilatlari qatoriga qo’shgan1. Xalqaro mehnat tashkiloti ijodkorlikni zamonaviy hayotda zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalardan biri sifatida belgilaydi va ijodkorlikni akademik ta'lim va kasbiy tayyorgarlik jarayoniga integratsiyalashuvining bir qismi sifatida rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi2. Ijodkorlik hozirgi dunyo ta’limining asosiy muammolaridan biridir. Xususan yevropada “Oliy ta’limda ijodkorlik” loyihasi ishlab chiqilgan bo‘lib u EUA (Yevropa Unversitetlar Assotsatsiyasi) tomonidan Sokrat dasturi asosida moliyalashtiriladi3. Shuningdek, Mostar unversiteti tomonidan “Ta’limda ijodkorlikning holati” nomli 13 ta davlatda (Avstraliya, Yangi Zelandiya, Xitoy, Hogkong, Tayvan, Hindiston, Filippin, Indoneziya, Vetnam, Tailand) ta’lim sohasidagi shaxslar (1014 nafar o‘qituvchi) o‘rtasida o‘tkazilgan tadqiqot davomida so’rovnomada qatnashgan respodentlarning 62% o'qituvchilarni o'zlari o'qitadigan fanlardan ijodkorlik xislatlariga ega bo’lishi zarur deb hisoblaydilar, respondentlarning ko'pchlik qismi bu faoliyat uchun birinchi navbatda otaonalar emas, balki o'qituvchilar javobgar deb hisoblaydilar4.Shularni inobatga olgan xolda aytishimiz mumkinki ijodkor kadrlarni tarbiyalash dunyo oliy ta’lim muassasalarining asosiy muammolaridan biridir.

Malakali kadrlar deganda nafaqat yetuk bilimli balki vujudga kelgan nostandart

vaziyatlardan o‘zining intiluvchanligi va ijodiy yondashuvi asosida chiqib keta oladigan mutaxassislarni tushunishimiz lozim. Bu shuni anglatadiki, oliy o‘quv yurtlarida talabalarni tayyorlash darajasiga talablar ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan hozirgi kunda kreativ kadrlarni yetishtirib beruvchi ijodkor pedagogni tayyorlash ta’lim tizimining asosiy muamosi hisoblanadi. Bu muammolarni hal etish uchun esa pedagogika oliygohi talabalarining kasbiy faoliyatga tayyorligini shakllantirishda ijodiy topshiriqlardan foydalanish mavzusini o’rganish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Z.Davronovning “Ilmiy ijod metodologiyasi” nomli o’quv qo’llanmasi yaratilgan (2007 yil) bo’lib, u kirish 12 bobdan iborat. Mazkur o’quv qo’llanmada falsafa va fan tarixida ijod muammolarining ishlab chiqilishi, ijodning nazariy muammolarini ishlab chiqishda sharq mutafakkirlarining qo’shgan hissasi, ijodiy jarayonni ifoda etish shakllari va metodlari, ilmiy tadqiqot va ijod tizimida dalil, hozirgi zamon axborot tizimlarining globallashishi va ilmiy ijod kabi masalalar atroflicha yoritib berilgan.

Shuningdek, informatika fani va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi umumiy bilim va ko’nikmalar I.Isoqov, M.Aripov, S.V.Simonovich, S.Qulmamatov, A.Abduqodirov, Rossiyalik pedagoglardan E.E.Smirnova, T.E.Tlegenova, Danilenko S.V. va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida yoritib berilgan bo’lib ular quyidagilarni o’z ichiga oladi: informatika fanlarini o’qitishning zamonaviy usullari; fanni o’qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish; muammoli o’qitish texnologiyalarining imkoniyatlari, ijodiy topshiriqlardan foydalangan holda darslarni tashkil etish; ijodiy topshiriqlar va ularning turlari, ijodiy topshiriqlardan foydalanish metodikasi, ijodiy topshiriqlarning talabalarni o’qituvchilik kasbiga tayyorlashdagi o’rni.

“Pedagogik ijodkorlik va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Ijod deganda keng ma’noda shaxs yoki jamiyatning tabiiy, ijtimoiy va ma'naviy olamni insonning maqsad va topshiriqlariga, uning ehtiyojlari, istaklari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda o‘zgartirish borasidagi bunyodkor faolligi tushuniladi”6. Yaqin-yaqingacha ham insonlar tomonidan ijodni - bu insonga ollox tomonidan ehson etilgan noyob qobiliyat bo’lib, u hammaga ham berilavermaydi, deb ishonib kelingan. “Aslida ijod - bu insonning moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratish faoliyati bo‘lib, unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati va irodasi faol ishtirok etadi hamda butun bilimi, tajiribasi va iste’dodi namoyon bo‘ladi”.

Xose G.Gomesning “Ijodkorlik xaqida nimalarni bilamiz?” nomli maqolasida ijodkorlikning turlari xaqida quyidagi ma’lumotlarni keltiradi: “Donald N. MacKinnon (2005) Berkli, Kaliforniya, Shaxsni baholash va tadqiqot laboratoriyasida tadqiqot

uchun asos sifatida foydalaniladigan uch xil ijodkorlikni belgilab berdi. Birinchisi, ijodkorning ichki ehtiyojlari, idrok va motivlarini aks ettiruvchi badiiy ijoddir. Ikkinchi tur - ilmiy va texnologik ijodkorlik, u atrof-muhitning ba'zi muammolari bilan shug'ullanadi va yangi echimlarni beradi, lekin ixtirochining shaxsiyatini juda kam namoyon qiladi. Uchinchi tur - gibrid ijodkorlik bo'lib, arxitektura kabi sohalarda mavjud bo'lib, u ham muammoning yangi yechimini, ham ijodkorning shaxsiyatini namoyish etadi".

Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'atida esa mazkur tushunchaga quyidagi tarzda ta'rif berilgan: "Ijod (arab. yaratish, kashf etish, vujudga keltirish) - badiiy, ilmiy, amaliy asar yoki moddiy boylikni yaratish, vujudga keltirish. Ijod mohiyatan yaratuvchanlik faoliyati bo'lib, inson Ma'naviyatining amaldagi ko'rinishini ifoda etadi"

Ijodkorlik - shaxsning turli muammoli vaziyatlarda noodatiy vaziyatlarda muammoni hal qilishning noodatiy va samarali yechimini topa olish, moddiy va ma'naviy qiymatga ega fikrlarni o'ylab topa olish qobilyatidir deyishimiz mumkin.

Albaniyaning Mostar unversiteti tomonidan dunyoning 13 na davlati pedagoglari orasida o'tkazilgan tadqiqotda ham so'rovnomada qatnashgan o'qituvchilarning asosiy qismi o'zi dars beradigan fanda ijodkorlik bo'lishi muhim ekanligini, talabalarda ijodiy xislatlarni aynan darsda o'qituvchilar tomonidan berilishi kerakligini bildirishgan.

Yuqorida aytib o'tganimizdek har bir shaxsda ijodkorlikka moyillik mavjud bo'lib uni dars davomida sekin astalik bilan rivojlantirib boriladi. Fanlarda har bir mavzuni o'quvchilarga ijodiy topshiriqlardan foydalangan xolda yetkazilishi ularda ijodiylik ko'nikmalarini rivojlanishiga olib keladi. Bunday darslarda ta'lim olgan talaba o'z navbatida kelajakda ijodkor pedagog sifatida tarbiya topadi.

Ijodkorlikni talabalarga faqat bilimlarni berish emas balki yangi bilimlarni o'rgangan xolda va shu bilimlardan foydalanib o'ziga xos nostandart va oqilona yechimlarni topa olish xususiyati hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda shaxs ijodini uch turi mavjud ekanligi ko'rsatiladi. Birinchisi xissiy ijod bo'lib bu asosan insonning his tuyg'ulari asosida shakillanadi. Bunga badiy ijod(she'r, kuy, tasvir, xaykaltaroshlik kabilar)ni misol qilib keltirishimiz mumkin. Ikkinchi ko'rinishi ilmiy ijod bo'lib bu ilm-fan, texnikada erishilgan yutuqlar va kashfiyotlarni tushunishimiz mumkin. Uchinchi ijod ko'rinishi esa gibrid ijod bo'lib bunda ham ilm-fan bo'yicha bilmlar ham hissiy xususiyatlar talab qilinadi. Bunga arxitektura, 3D modellashtirish, Web dizayn kabilarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Ijodiy salohiyat - bu kishining shunday xususiyattiki, u ijodiy muammolarni hal

qilishda qo'llaniladigan vositalar va usullar ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ijodiy salohiyatning o'ziga xos xususiyati muammolarni xal qilishda ko'proq imkoniyatga egaligi, imkoniyatlarning "zaxirasi" mavjudligidir.

Ijodiy qobiliyat - bu shunday insoniy sifatlar majmuyi bo'lib unda muammoni ifodalay olish, yangi g'oyalarni yaratish uchun kerak bo'ladigan bilimlardan foydalanish, muammoni hal qilishni yo'llarini izlash hamda yechimini topish, natijada mutlaqo yangi o'ziga xos g'yalar yaratiladi.

Ijodiy faoliyat bu – shaxsning mehnat qilish jarayonida muammoni yechishga ijodiy yondashishi hisoblanadi.

O'qituvchi shaxsining ijodkorligi deganda dars davomida o'quvchilar bilimini va ularni darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, mavzuni samarali tushuntirish uchun turli noananaviy o'qitish usul va vositalarini qo'llay olishi va o'z kasbiga ijodiy yondashishini tushunishimiz mumkin.

Darslarni ijodiy tashkil etishning zarurligini anglatuvchi yana bir hususiyati shundan iboratki fan dasturlarida mavzularni o'zlashtirish uchun ajratilgan soatlar mavzuni to'liq o'zlashtirish uchun yetarli bo'lmaydi, shu sababdan ham darslarda ijodiy topshiriqlardan foydalanish talabalarni mavzuni o'rganishga tanqidiy va ijodiy yondashishga o'rgatishi mumkin. Shuningdek o'qituvchilar va o'quvchiiar jamoalaridagi ijodiy izlanish muhiti ijod va ijodkorlikni rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Talabalarning mustaqil, ijodiy faoliyat ko'rsatishlariga ko'maklashish ularning o'z mavqelarini aniqlashlari va amalda tatbiq etishlari uchun sharoit yaratish, ijodiy faoliyatlarini pedagogik qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan topshiriqlarni taqdim etishni anglatadi.

O'zbekistonda milliy mustaqillikni mustahkamlash va qat'iy qaror toptirish nihoyatda murakkab tarixiy va ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarga to'g'ri kelmoqda. Fuqarolar ongi va dunyoqarashi, ruhiyatini eskicha qarashlardan, boqimandalik, tashabbussizlik, mute'lik, qaramlik kabi illatlardan soqit etish, tozalash yana ham murakkab ijtimoiy muammodir. Bu darajada ulkan va keng miqyosli tadbirlarni jamiyat hayotining barcha jabhalarida bosqichma-bosqich, bir tekisda uyg'un va izchil amalga oshira borish uchun yangi zamon talablariga javob bera oladigan, yangicha ong va dunyoqarashga ega bo'lgan, erkin, ijodiy va mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalab yetishtirish eng muhim topshiriqlarimizdan biridir.

Har qanday faoliyat tajribasi kasbiy bilimlarning ko'payib borishi natijasida egallanadi. Shuning uchun ham shaxs o'zining ijodkorligi bilan kasbiy tajribasini yaratishi, boyitishi, to'ldirishi lozim. Pedagogik ta'lim muassasalarida o'zlashtirilishi

boshlangan bunday tajribalarni talaba umri davomida boyitib boradi. Ijodjor Pedagog har doim muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ijodiy faoliyat ko‘nikmalarini namoyon eta olishi kerak. Shundagina u o‘z professional faoliyati davomida ijodkorligini ko’rsata oladi. Bugungi kunda o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv talabalardagi ijodkorlik sifatlarini shakllantirishda yetakchi vositalardan biri ekanligini «o‘zini-o‘zi boshqarish», «o‘zini-o‘zi rivojlantirish», «shaxsiy faollik», «o‘zini-o‘zi tashkil qilish» kabi tushunchalarning shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim amaliyotida qo‘llanishi ham asosiy dalil bo‘lishi mumkin.

Turli yondashuvlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, talaba pedagogik faoliyatining ijodkorlikka yo‘naltirilganligini to‘laqonli tarzda o‘rganish uchun munosabat nazariyasi nuqtai nazaridan yondashish kerak. Chunki munosabat shaxsning xoxishlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Shu asnoda shaxsning kasbiy yo‘nalganligini aniqlash imkoniyati paydo bo’ladi.

O‘qituvchilik kasbini tanlagan talabalarni ularning mazkur faoliyatni egallashga moyilligi, ularning o‘quvchilarga bo‘lgan qiziqishlari nuqtai nazaridan mujassamlashtiradigan bo‘lsak, 60% talabalar ushbu kasbni o‘zlarining kasbiy qiziqishlari va o‘quvchilar bilan ishlashga bo‘lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tanlaganliklari ma’lum bo‘ldi.

Talabalarning ijodiy faoliyatlarini pedagogik qo‘llab-quvvatlashning natijalari ularning o‘ziga xosliklari va ijodiy sifatlarini chuqurlashtirishda namoyon bo‘ladi. Ijodiy fikrlash o‘z navbatida Talabalarni:

- mustaqil va ongli ravishda bilim olish;
- doimo olg‘a intilish;
- turli ziddiyatli va muammoli vaziyatlarni oqilona hal etish;
- noan’anaviy va yangicha fikr yuritishga o‘rgatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan xolda ijodiy topshiriqlarga quyidagicha ta’rif berish mumkin.

Ijodiy topshriq – talabalarni mustaqil va ongli ravishda bilim olish, doimo olg‘a intilish, turli ziddiyatli va muammoli vaziyatlarni oqilona hal etish, noan’anaviy va yangicha fikr yuritishga o‘rgatuvchi o’quv faoliyatidir.

Tadqiqotimiz natijasi shuni ko‘rsatdiki, talabalar faoliyatiga ko‘ra, ijodiy topshiriqlarni uch guruhga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Ular:

- ijodiy mustaqil ish;
- ijodiy mashq;
- o‘quv muammolari

1. Ijodiy mustaqil ish ijodiy topshiriqlarning boshqa turlaridan ikki jihati bilan farq qiladi: operativ tashkil etish va o‘quv-biluv faoliyatini davom ettirish imkoniyatiga ega ekanligi. Ijodiy mustaqil ish ta’limning shunday vositasiki, uni ta’limga tatbiq etish yo‘li bilan:

– o‘qish, bilim olishga ishtiyoq davom ettiriladi, dars doirasida paydo bo’lgan motivlar davom ettiriladi;

– talabalarning bilishga, bilim, malakalar doirasini kengaytirishga olib keladi; – o‘rganilayotgan mavzu bo’yicha talabalarning o‘z faoliyatlarini mustaqil davom ettirishga zamin tayyorlaydi;

– talabalar faoliyatiga rahbarlik qilish osonlashadi.

2. Ijodiy mashq. Har doim bilimlarni esga tushirib, mashq qildirish ta’limda Talabalarning zerikishiga sabab bo‘ladi. Mashq qilish jarayonida Talabalarning zerikishini bartaraf etish uchun ijodiy mashqlardan foydalaniladi.

Ijodiy mashq ikki xil xususiyatga ko‘ra farq qiladi:

1) o‘rganilgan bilimlar doirasini kengaytiradi. Bunda Talaba oldin o‘rganilgan o‘quv materialiga takroriy qaytib kelganda, o‘z tushunchasi doirasini keng bilimlar, tasavvurlar, faktlar, bog‘lanishlar bilan yanada boyitadi;

2) ijodiy mashqlar doimiy shug‘ullanishga mo‘ljallangan mashqlardan farqli ravishda ham xotiraga, ham tafakkurga moslab tuziladi. Bunda Talaba mavzu bilan birga qo‘shimcha axborot, faoliyat usullarini ham ijodiy o‘rganadi. Muammoli mashq – Talabadan unga noma’lum bilimlarni talab etuvchi o‘quv materiallaridan foydalanishdir. Bu undan faol fikrlashni talab etadi.

3. O‘quv muammolari «o‘quv topshiriqlar majmui» bo‘lib, ularni ijodiy topshiriqlar tizimi shaklida tasavvur qilish mumkin.

Talabalarni ijodiy faoliyatga tayyorlashda, avvalo ularning o‘zlari ushbu faoliyatga mas’ul ekanliklarini anglatish lozim. Ularning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda muammoli ta’lim boshqa ta’lim turlaridan farqli ravishda Talabalarda bilim, ko‘nikma va malakalar tizimini tarkib toptirish bilan birga, ularda yuqori aqliy faoliyat, o‘z-o‘zini rivojlantirishni shakllantiradi. Muammoli topshiriq talabani mustaqil ijodiy harakat qilishga yo’naltirishda iborat. Masalan, referat, insho yozish, tajribadan o‘tkazish yoki biror narsa ixtiro qilish kabilar muammoli topshiriq yordamida amalga oshiriladi, bu esa o‘z navbatida interfaol ta’lim muhitini yaratadi.

Interfaol ta’limda talaba dars jarayonining faol tashkilotchisi bo‘lib, talaba bu faoliyatning subyekti sifatida paydo bo‘ladi. Bunda o‘qitishning maqsad va vazifalari, uning mazmuni va kutilayotgan natijalar bevosita ta’lim oluvchining individual imkoniyatlari doirasida belgilanadi va shunga moslashtiriladi.

Bular talabadan faol fikrlashni talab etadi, u dalillarni tahlil qiladi, ob'ektlarning kelib chiqishini o'rganadi. Bu texnologiyaning tayanch tushunchasi turli murakkablik darajasidagi muammoli topshiriqlarda o'z ifodasini topadi, ularni yechish orqali o'quvchi yangi bilimlar va faoliyat usullarini egallaydi, natijada unda ijodiy layoqat: mahsuldor tafakkur, tasavvur, bilish motivatsiyasi, intellektual tuyg'u shakllanadi. Muammoli savol oddiy savoldan farq qiladi, u orqali Talabaning o'zlashtirgan bilimlariga shunchaki murojaat etilmay, balki undan o'z mustaqil fikrini bildirish talab etiladi. Fan o'qituvchisi dars jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan muammoli ta'lim texnologiyasini yaxshi o'zlashtirib olgani ma'qul. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari tarkibida taqdim etiluvchi sinkveyn, «Beshinchisi ortiqcha», «Charxpalak», BBB («Bilaman, bilishni xohlayman, bilib oldim»), «Bumerang», «Muloqot treningi», «Blits-o'yin», «Zanjir», «Munozara»,«Guruhlarda ishlash», «Taqdimot», yangi mavzuni bayon qilishda «Kichik ma'ruza», «Rolli o'yin», «Aqliy hujum», «Hamma hammaga o'rgatadi», «Impuls», «Hayot yo'li», «Vaziyatlar», «Aql charxi» kabi qator interfaol usullar va kichik texnologiyalarni darsning maqsadidan kelib chiqqan holda loyihalashtirib qo'llash dars sifatini oshirishda katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Z.Davronov "Ilmiy ijod metodologiyasi" o'quv qo'llanma Toshkent. Iqtisod va moiliya 2007 yil.
2. Inson taraqqiyoti bo'yicha Milliy hisobot 2018. Onlayn manzilda http://hdr.undp.org/en/year/2018
3. 1.2. Siyosat haqida qisqacha ma'lumot: Yoshlarning bandligini oshirish: asosiy mehnat ko'nikmalarining ahamiyati. 2013. Onlayn: http://www.ilo.org/skills/pubs/WCMS_234467/lang--en/in dex.htm
4. 1.3. Journal of Education and Human Development December 2014, Vol. 3, No. 4, pp. 131-154. 2014
5. Ibragimova G.N. «Oliy ta'lim tizimida interfaol texnologiyalar vositasida talabalardagi ijodiy fikrlashni rivojlantirish» Zamonaviy ta'lim / sovremennoye obrazovaniye 2017.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

RAQAMLI DAVRDA BOLALAR ADABIYOTI: ELEKTRON VA AUDIO KITOBLARNING O‘RNI

Normurodova Nigora Abdusattorovna
O‘zMPU ”Boshlang’ich ta’lim nazariyasi va metodikasi “kafedrasi Dots.PhD
Radjabova Nargis Tajimuradovna
O‘zMPU, 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar taraqqiyotining bolalar adabiyotiga ko‘rsatgan ta’siri, elektron va audio kitoblarning o‘quv jarayonidagi ahamiyati, shuningdek, ularning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Bundan tashqari, ayrim muammoli jihatlar ham yoritilgan.
Kalit so‘zlar: bolalar adabiyoti, raqamli davr, elektron kitob, audio kitob, raqamli ta’lim platformalari, kitobxonlik madaniyati, o‘qish kompetensiyasi, texnologik savodxonlik.
Аннотация. В данной статье анализируется влияние развития цифровых технологий на детскую литературу, рассматривается значение электронных и аудиокниг в образовательном процессе, а также их роль в формировании культуры чтения. Кроме того, освещаются некоторые проблемные аспекты данной темы.
Ключевые слова: детская литература, цифровая эпоха, электронная книга, аудио книга, цифровые образовательные платформы, культура чтения, читательская компетенция, технологическая грамотность.
Annotation. This article analyzes the impact of digital technology development on children's literature, the importance of electronic and audiobooks in the educational process, and their role in shaping reading culture. In addition, several problematic aspects of the topic are also discussed.
Keywords: children's literature, digital age, e-book, audio book, digital learning platforms, reading culture, reading competence, technological literacy.

Bugungi globallashuv jarayonida ta’lim va madaniyatning barcha sohalari kabi adabiyot ham raqamli inqilob ta’siriga tushgan. Endilikda kitob nafaqat bosma shaklda, balki turli elektron qurilmalar orqali o‘qiladigan multimedia mahsulotiga aylangan. Bu holat, avvalo, bolalar adabiyotiga ham yangi mazmun kiritmoqda. Chunki bolalar axborot texnologiyalariga eng tez moslashuvchi qatlam hisoblanadi.
Shu bois raqamli adabiyot, xususan, elektron va audio kitoblarning o‘rganilishi

bugungi kunda nazariy, psixologik va pedagogik jihatdan muhim masala sanaladi. Maqolaning maqsadi raqamli asr sharoitida bolalar adabiyotining o‘qish va tarbiyadagi rolini yangicha talqinda yoritish hamda elektron vositalarning o‘quvchilarga ko‘rsatadigan ta’sirini ilmiy jihatdan tahlil qilishdir.

Bolalar adabiyoti bu bolalar dunyoqarashiga, yosh psixologiyasiga, til imkoniyatlariga va badiiy idrokiga mos ravishda yaratilgan badiiy asarlar majmuasidir. Adabiyotshunos olima Q. Yo‘ldoshevaning ta’kidlashicha, bolalar adabiyoti milliy madaniyatning eng ta’sirchan bo‘g‘ini bo‘lib, u bola tafakkurini, hissiyotini va qadriyatini shakllantirishda asosiy manba hisoblanadi.

Raqamli davrda esa bu manba o‘z ifodasini elektron platformalar, audio kitoblar va interaktiv o‘quv dasturlari orqali topmoqda. Demak, adabiyot endi faqat matn emas, balki ko‘rish, eshitish, his etish jarayonlarini birlashtiruvchi ko‘p tarmoqli o‘rganish vositasiga aylanmoqda.

Elektron kitoblar, jurnallar, onlayn o‘yinlar — bularning barchasi bolalarda kitobga nisbatan yangicha tarzda qiziqish uyg‘otadi. Chunki raqamli o‘qish orqali bola o‘zini jarayon ishtirokchisi sifatida his qiladi.

Elektron kitob an’anaviy bosma kitobning raqamli ko‘rinishidir. Ammo uning imkoniyatlari ancha keng. Matnni kattalashtirish, ovoz imkoniyatlari, rangli tasvirlardan foydalanish, interaktiv testlar bilan birlashtirish — bularning barchasi yosh kitobxonning diqqat-e’tiborini faol saqlab turadi.

Raqamli ta’lim platformalarida (masalan, “Kitob.uz”, “Bilimland”, “Kutubxona.uz”) joylashtirilgan elektron asarlar o‘qituvchi uchun ham qulay, chunki bunday turdagi platformalar o‘quvchi faoliyatini kuzatish, mustaqil ishlashini rag‘batlantirish imkonini beradi. Bundan tashqari, elektron kitoblar imkoniyati cheklangan bolalar uchun ham juda qulay. Ular matnni ovozli tarzda tinglay oladi, shrift o‘lchamini o‘zgartiradi, hatto so‘zlarni tarjima qilib o‘rganadi. Bu esa inkluziv ta’lim tamoyillarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Audio kitob — o‘qish jarayonini eshitish faoliyatiga asoslovchi zamonaviy vosita. U bolalarda tinglab tushunish qobiliyatini rivojlantiradi. Pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, audio kitoblar bolalarning hissiy qabul qilishini kuchaytiradi. hunki ovoz, ohang, musiqiy fon va ovoz effektlari orqali bola matnga chuqurroq kirib boradi. Masalan, xalq ertaklari yoki Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asarining audioversiyasi bolani nafaqat hikoyani tinglashga, balki u haqda o‘ylashga undaydi. Tinglovchi bola qahramonlar nutqini eshitadi, ularning his-tuyg‘usini ovoz orqali tasavvur qiladi. Bu esa badiiy tafakkurning shakllanishida katta ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muntazam audio kitob tinglaydigan bolalarda ijodiy

tasavvur darajasi yuqoriroq bo‘ladi.

Raqamli adabiyotning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- bolalar uchun qulay va interaktiv muhit yaratadi;
- kitoblarga istalgan joyda, istalgan paytda kirish imkonini beradi;
- o‘qituvchilar uchun o‘qish jarayonini monitoring qilishni osonlashtiradi;
- ekologik jihatdan qog‘oz sarfi kamayadi.

Ammo bu jarayonda quyidagi muammolar ham uchraydi:

1) bolalar ko‘rish qobiliyatiga salbiy ta’sir ehtimoli;
2) ekran qarshisida ortiqcha vaqt o‘tkazish;
3) diqqatning tez chalg‘ishi.

Shu bois, pedagog va ota-onalar raqamli adabiyotdan me’yorida va maqsadli foydalanishni nazorat qilishlari lozim.

Bugungi ta’lim sharoitida raqamli adabiyotdan foydalanish uchun o‘qituvchi nafaqat bilim, balki raqamli savodxonlik ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishi zarur. Quyidagi usullar esa raqamli ta’lim muhitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda samarali hisoblanadi:

1. Elektron kitoblar asosida virtual o‘qish klublarini tashkil etish;
2. Audiokitoblardan tinglab tushunish mashg‘ulotlarida foydalanish;
3. Onlayn o‘qilgan asarlar yuzasidan muhokamalar o‘tkazish;
4. O‘quvchilarga elektron o‘qilgan asarlar yuzasidan chiqarilgan xulosalarini yozish va og‘zaki qayta hikoyalash.

Bunday yondashuvlar bolalarda nafaqat o‘qishga, balki ijodkorlikka bo‘lgan qiziqishni ham shakllantiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, raqamli asrda bolalar adabiyoti o‘z shaklini o‘zgartirmoqda, ammo mohiyatan bola qalbiga yo‘l topuvchi badiiy so‘z san’ati bo‘lib qolmoqda. Elektron va audio kitoblar bu yo‘lda vosita sifatida xizmat qiladi. Ular bolani kitobxonlikka yaqinlashtiradi, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda badiiy tafakkur va o‘qish kompetensiyasini rivojlantiradi. Asosiy maqsad esa texnologiyani maqsadli yo‘naltirish, o‘qishni raqamli muhitda ham qadriyat sifatida saqlab qolishdan iborat bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev Q. Bolalar adabiyoti nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
2. Karimova M. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta’limdagi o‘rni. – T.: Fan, 2021.
3. Nuriddinova D. Bolalar o‘qish madaniyatida audiokitoblarning ahamiyati. – “Til va Adabiyot Ta’limi” jurnali, №2, 2024.

4. UNESCO. Digital Reading and Early Literacy Development. – Paris, 2023.
5. Abdullayeva M. Innovatsion pedagogika va raqamli adabiyot o‘qitish metodlari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

VISUALIZING ADAPTIVE ONLINE EDUCATION SYSTEMS: A DESIGN APPROACH

Kholbekov Asadbek Kholbek's son
Information Systems 2401 2st year Master
asadbekxolbekov01@gmail.com

Abstract

The design of adaptive online education systems plays a crucial role in enhancing personalized learning experiences. This paper presents a visualization-based approach to designing adaptive learning environments, focusing on the structural and functional components required for system efficiency. Using **draw.io**, we model the architecture of adaptive online education systems, integrating key elements such as machine learning algorithms, user analytics, and dynamic content delivery. The study highlights the benefits of visualization tools in improving system design and implementation.

ВИЗУАЛИЗАЦИЯ АДАПТИВНЫХ СИСТЕМ ОНЛАЙН-ОБРАЗОВАНИЯ: ПОДХОД К ПРОЕКТИРОВАНИЮ

Аннотация

Проектирование адаптивных онлайн-образовательных систем играет важную роль в создании персонализированного образовательного опыта. В данной статье рассматривается подход, основанный на визуализации, для проектирования адаптивных образовательных сред, уделяя внимание структурным и функциональным компонентам, необходимым для эффективности системы. Используя **draw.io**, мы моделируем архитектуру адаптивных образовательных систем, интегрируя ключевые элементы, такие как алгоритмы машинного обучения, анализ пользователей и динамическую доставку контента. Исследование подчеркивает преимущества инструментов визуализации для улучшения проектирования и внедрения систем.

MOSLASHUVCHAN ONLAYN TA’LIM TIZIMLARINI VIZUALIZATSIYA QILISH: DIZAYN YONDASHUVI

Annotatsiya

Moslashuvchan onlayn ta’lim tizimlarini loyihalash shaxsiylashtirilgan ta’lim tajribasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada moslashuvchan ta’lim muhitlarini loyihalash uchun vizualizatsiya asosidagi yondashuv taqdim etiladi va

tizim samaradorligi uchun zarur bo‘lgan struktura va funksional komponentlarga e’tibor qaratiladi. **draw.io** dan foydalanib, biz moslashuvchan ta’lim tizimlari arxitekturasini modellashtiramiz va bu jarayonda mashinaviy o‘rganish algoritmlari, foydalanuvchi tahlillari hamda dinamik kontent yetkazib berish kabi asosiy elementlarni integratsiya qilamiz. Tadqiqot vizualizatsiya vositalarining tizim dizayni va amalga oshirish jarayonlarini yaxshilashdagi ahamiyatini ta’kidlaydi.

Key words: Adaptive learning systems, online education, visualization, draw.io, machine learning, personalized learning, system design, UX/UI design, learning analytics.

INTRODUCTION

The rise of adaptive learning systems has revolutionized online education by providing personalized and flexible learning experiences. Unlike traditional e-learning models, adaptive systems dynamically adjust learning materials based on user behavior, progress, and preferences. However, designing such complex systems requires a structured visualization approach to ensure seamless integration of various components.

This paper focuses on visualizing the design of adaptive online education systems using **draw.io**, a diagramming tool that facilitates system architecture modeling. The study aims to provide a structured design framework for developing effective adaptive learning environments that incorporate AI-driven personalization, user engagement analytics, and automated content adaptation.

Literature Review:

Research on adaptive learning systems highlights the importance of **artificial intelligence (AI), machine learning (ML), and learning analytics** in delivering personalized education. Studies have shown that adaptive systems significantly enhance student engagement and learning outcomes by tailoring content to individual needs.

Key previous works include:

- **Knewton and Smart Sparrow** platforms, which use **AI-driven content adaptation** to personalize learning pathways.
- **User-Centered Design (UCD)** frameworks that emphasize intuitive interface design for enhanced learner interaction.
- **Visualization in system design**, particularly using tools like **draw.io**, which helps in creating scalable and structured learning models.

Despite these advancements, many online education platforms lack a **comprehensive**

visualization approach, which this study aims to address.

Research Methodology:

The research follows a **design-based approach**, incorporating:

1. Data Collection:
   - Reviewing existing adaptive learning platforms and their architectural structures.
   - Analyzing system components such as **content management, assessment algorithms, and user feedback mechanisms**.
2. System Modeling Using draw.io:
   - Developing **flowcharts, architecture diagrams, and component interactions** of adaptive education systems.
   - Integrating elements like **AI-driven decision-making, real-time analytics, and personalized feedback loops**.
3. Evaluation of the Proposed Design:
   - Comparing the visualized model with existing systems to assess **efficiency and scalability**.
   - Conducting expert reviews with educators and instructional designers.

Analysis and Results:



Fig -1. Block 1 represents the core structure of an adaptive online education system, managing users, their roles, courses, enrollments, feedback, collaboration rooms, and messages.

1. Visualization of Adaptive Learning System Architecture

The proposed design consists of **three main layers**:

- **User Interaction Layer:** Includes the learner interface, personalized dashboards, and assessment modules.
- **Data Processing Layer:** Handles real-time learning analytics, ML-based content adaptation, and performance tracking.
- **Content Delivery Layer:** Provides structured course content, multimedia resources, and adaptive assessments.

2. Benefits of Visualizing System Design Using draw.io

- **Enhanced Clarity:** Helps educators and developers understand system workflows.
- **Improved Collaboration:** Facilitates communication among **UX/UI designers, AI engineers, and instructional designers**.
- **Scalability and Flexibility:** Enables easy modifications and updates to system architecture.

3. Case Study Analysis

A comparison of existing adaptive platforms shows that those with **structured visualization frameworks** demonstrate higher **efficiency in content adaptation and user engagement**.

Conclusion:

The study highlights the importance of **visualizing adaptive online education systems** in their design phase. Using **draw.io**, we have demonstrated how system components interact and function to deliver a **personalized learning experience**.

Recommendations:

- **Adopt a visualization-first approach** in designing online education systems.
- **Leverage AI and learning analytics** to enhance adaptability and content personalization.
- **Develop user-friendly interfaces** to ensure seamless learner interaction.
- **Further research** should explore **real-time adaptive learning models** that utilize deep learning for predictive personalization.

References:

1. Brusilovsky, P., & Millán, E. (2007). Adaptive hypermedia and adaptive web. *The Adaptive Web*, 3-53.
2. Dabbagh, N., & Kitsantas, A. (2012). Personal Learning Environments, social media, and self-regulated learning. *The Internet and Higher Education, 15*(1), 3-8.
3. Siemens, G., & Long, P. (2011). Penetrating the fog: Analytics in learning and education. *EDUCAUSE Review*, *46*(5), 30-40.

4. Paredes, P., & Rodriguez, P. (2004). A mixed approach to modeling learning styles in adaptive educational hypermedia. *Advanced Learning Technologies, 2004. Proceedings. IEEE International Conference.*
5. VanLehn, K. (2011). The relative effectiveness of human tutoring, intelligent tutoring systems, and other tutoring systems. *Educational Psychologist*, *46*(4), 197-221.
6. Chen, C. M. (2008). Intelligent web-based learning system with personalized learning path guidance. *Computers & Education*, *51*(2), 787-814.
7. Conati, C., & Kardan, S. (2013). Student modeling: Supporting personalized instruction, from problem-solving to exploratory open-ended activities. *AI Magazine*, *34*(3), 13-26.
8. Romero, C., & Ventura, S. (2020). Educational data mining and learning analytics: An updated survey. *Wiley Interdisciplinary Reviews: Data Mining and Knowledge Discovery*, *10*(3), e1355.
9. Aleven, V., McLaughlin, E. A., Glenn, R. A., & Koedinger, K. R. (2017). Instruction based on adaptive learning technologies. In R. E. Mayer & P. A. Alexander (Eds.), *Handbook of Research on Learning and Instruction* (pp. 522-560). Routledge.
10. Graf, S., & Kinshuk. (2012). Adaptive technologies. In N. M. Seel (Ed.), *Encyclopedia of the Sciences of Learning* (pp. 141-144). Springer.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

CHET TILLARINI O'RGANISHDA YOSHLARDA PAYDO BO'LAYOTGAN STRESS VA DEPRESSIYA: UNING SABAB VA YECHIMLARI

Andijon davlat chet tillari instituti talabasi
Nurillayeva Muazzamoy Shukurullo qizi
Ilmiy rahbar: **Nabiyeva Gulbahor**

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlar orasida chet tillarini o'rganish jarayonida yuzaga keladigan stress va depressiya holatlari tahlil qilinib, til o'rganishdagi psixologik bosim, baholash tizimi, ota-onalar va jamiyatning yuqori talablar qo'yishi kabi omillarning yoshlarning ruhiy salomatligiga ta'siri ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga mazkur holatlarning asosiy sabablari va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar yoritilgan. Mazkur ilmiy ish chet tilini o'rganish bilan shug'ullanayotgan talabalar, o'qituvchilar va ota onalar uchun yuqori ahamiyatga ega bo'lib, ularning yoshlar orasida sog'lom psixologik muhit yaratish borasidagi faoliyatiga ko'mak berishi mumkin.

Kalit so'zlar: chet tili, yoshlar, stress, depressiya, psixologik bosim, motivatsiya, til o'rganish, ruhiy salomatlik, baholash tizimi, tensiya.

Annotation: This article analyzes the issues of stress and depression that arise among youth during the process of learning foreign languages. It examines the impact of psychological pressure in language learning, assessment systems, and the high expectations of parents and society on the mental health of young people. Furthermore, the article highlights the main causes of these issues and offers recommendations for overcoming them. This research is of great importance for students learning foreign languages, as well as for teachers and parents, as it can support their efforts in creating a healthy psychological environment for youth.

Keywords: foreign language, youth, stress, depression, psychological pressure, motivation, language learning, mental health, assessment system, tension.

Аннотация: В данной статье анализируются случаи стресса и депрессии, возникающие среди молодежи в процессе изучения иностранных языков. Рассматривается влияние психологического давления, системы оценивания, а также высоких требований со стороны родителей и общества на психическое здоровье молодежи. Кроме того, в работе освещаются основные причины данных явлений и предлагаются рекомендации по их преодолению. Это научное исследование представляет особую ценность для студентов, изучающих иностранные языки, а также для преподавателей и родителей, так как может способствовать созданию здоровой психологической атмосферы среди молодежи.

Ключевые слова: иностранный язык, молодежь, стресс, депрессия, психологическое давление, мотивация, изучение языка, психическое здоровье, система оценивания, напряжение.

Bugungi tez rivojlanib borayotgan globallashuv zamonida xorijiy tillarni puxta egallagan yosh kadrlarga bo'lgan talab kun sayin oshib bormoqda. Bu esa yoshlar orasida xorijiy tillarga qiziquvchilarning soni ortishiga va chet tillarini o'rganishning keng ommalashuviga zamin yaratmoqda. Qisqa qilib aytganda, chet tillarini o'rganish zaruratdan ko'ra ehtiyojga aylanib qolmoqda. Yoshlarning til bilishga bo'lgan talabi kundan kunga ortmoqda. Biroq bu jarayon ko'plab yoshlar uchun ruhiy bosim, stress va hattoki depressiyaga olib kelmoqda.

Yoshlar orasida chet tillarini o'rganish jarayonida uchraydigan stress holatlarining sabablari turlicha. Avvalo, bu – o'ziga bo'lgan ishonchsizlik. Til o'rganishda xatolar qilishdan qo'rqish, noto'g'ri talaffuz yoki grammatik xatolar tufayli boshqalarning tanqidiga uchrashdan cho'chish – bu holatlar yoshlarda ichki siqilish, xavotir va norozilik kayfiyatini keltirib chiqaradi. Yangi tilni o'rganish jarayoni ba'zida charchatishi, tushkunlik yoki motivatsiya yo'qolishiga olib kelishi mumkin, ayniqsa, natija tez sezilmasa.

Sabablarning yana biri – haddan tashqari yuqori talablar. Ota-onalar, ustozlar yoki jamiyat tomonidan qo'yiladigan orzu-umidlar ba'zan yoshlar uchun og'ir yukka aylanadi. Bundan tashqari ko'p hollarda test sinovlari, sertifikatlar olish yoki grantlar yutish uchun bo'lgan kuchli raqobat ham stressning oshishiga ''ko'maklashadi''. Ba'zan til o'rganish jarayoni juda zerikarli, faqat grammatikalarga aasoslanib, amaliyotdan yiroq bo'ladi. Bu esa o'rganuvchining qiziqishini so'ndiradi va motivatsiyasini pasaytiradi.

Shuningdek, til o'rganishdagi xavotir, yolg'izlik, depressiya va o'zini past baholash kabi psixologik muammolar talabalar o'rtasida keng tarqalgan. Biroq to'g'ri yondashuv bilan til o'rganish ruhiy salomatlikka ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Muammoni bartaraf etish yo'llari. Birinchi navbatda, chet tillarini o'rganishda xatoga yo'l qo'yish tabiiy ekanligini tushunishimiz kerak. O'quvchilar o'zlarini erkin qiladigan, ochiq va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish muhimdir. Chunki psixologik xavfsizlik – til o'rganishning eng muhim asoslaridan biridir.

Ikkinchidan, o'quv metodlarini zamonaviylashtirish, ya'ni interaktiv darslar, kino va musiqalar orqali o'rganish, real hayotiy suhbatlar taskil qilish orqali til o'rganishni qiziqarli va samarali qilish mumkin.

Uchinchidan, stressni kamaytiruvchi psixologik trening va mashqlar va maslahatlar ham yordam beradi. Masalan, nafas mashqlari, toza havoda biroz sayr qilish, vaqtni to'g'ri rejalashtirish, dam olish uchun vaqt ajratish kabilar yoshlarning ruhiy holatini yaxshilab barqarorlashtiradi.

Til o'rganish xavotiri va uning ta'siri.

Chet tilini o'rganishdagi xavotir talabalar orasida quyidagi salbiy holatlarga olib keladi:

Tensiya va xavotir: o'rganish jarayonida doimiy tensiya va xavotir holati.

Nutq qo'rquvi: gapirishdan qo'rqish, ayniqsa, grammatik xatolar yoki notog'ri talaffuzdan qo'rqish

Til o’rganish va ruhiy salomatlik

Til o’rganish, agar tog’ri yondashilsa, ruhiy salomatlikka ijobiy ta’sir ko’rsatishi mumkin. Bu jarayon quyidagi yo’llar bilan amalga oshiriladi:

Ijobiy chalg’itish: til o’rganish salbiy fikrlardan chalg’itadi.

Yangi maqsadlar: til o’rganish yangi maqsadlar qo’yishga yordam beradi.

Ijtimoiy aloqalar: til o’rganish yangi do’stlar orttirishga yordam beradi.

Chet tilini o’rganish – bu katta imkoniyatlar eshigini ochuvchi kalitdir. Ammo bu jarayonni sog’lom tarzda olib boorish, yoshlarning ruhiy holatini e’tiborsiz qoldirmaslik, har bir o’qituvchi, ota-ona va jamiyatning vazifasidir. Stress va depressiyaga sabab bo’ladigan holatlarni aniqlab, vaqtida chora ko’rilsa, har bir yosh til o’rganishda muvaffaqiyatga erisha oladi.

Muallif: Muazzamoy Nurillayeva

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

a) Karimova N. “Yoshlar psixologiyasi”, Toshkent, 2020

b) Qodirov B. “Chet tillarini o’qitish metodikasi”, Andijon 2021.

c) Akbaralievna, N.G. (2024). TARJIMADAGI TIL VA MADANIYAT MUVOFIQLIKLARI. PEDAGOG , 7 (9), 135-137.

d) www.ziyouz.com – ilmiy marifiy maqolalar sayti.

e) www.pschologytoday.com – psixologiyaga oid maqolalar.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

ЎЗБЕКИСТОНДА ЁШЛАРНИНГ ФУҚАРОЛИК ПОЗИЦИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ДИАЛЕКТИКАСИ

Маликов Турдали Тошмирзаевич,
Наманган давлат техника университети “Ижтимоий фанлар” кафедраси доценти, фалсафа фанлари номзоди. e-mail: malikov.turdali@mail.ru.
+998936667771,

Калит сўзлар: фуқаролик позицияси, толерантлик ва ҳамжиҳатлик, оила, мактаб, маҳалла, жамият, оммавий ахборот воситалари, тадбиркорлар кластерлари, ёшлар «беш ташаббуси», ёшлар тараққиёт индекси, интернетдан фойдаланиш маданияти, ёшларнинг маънавий қадрияти.
Аннатация: мазкур мақолада бугунги кунда Янги Ўзбекистонда ёшларнинг фуқаролик позицияси - бу жуда долзарб масала эканлиги, ёшларнинг маънавий ривожланишида ва ўзининг фуқаролик позициясини танлашида оила, мактаб, маҳалла, жамият, оммавий ахборот воситаларининг аҳамияти юқори эканлиги, республикамизда ёшларга берилаётган эътибор ва имкониятлар, ҳамда бугунги кунда дунё миқёсидаги ижтимоий, сиёсий, иқтисодий ва маданий жараёнларнинг интеграциялашуви, халқаро миқёсдаги ғоялар, янгиликлар ҳамда ижтимоий қарашларнинг бошқа ҳудудларга тезкорлик билан ёйилишини бунда халқаро глобаллашувнинг ажралмас феномени сифатида ёшлар қатламининг ўрни ва роли беқиёс эканлиги асослаб берилган.

Ёшлар ва фуқаролик позицияси - бу жуда муҳим ва долзарб масала. Ёшлар - бу жамиятнинг келажаги, уларнинг фуқаролик позицияси эса жамиятнинг ривожи ва барқарорлиги учун муҳим аҳамиятга эга. Ёшларнинг фуқаролик позицияси деганда нимани тушунамиз? Бу - жамиятга бўлган масъулият ҳисси, ўз юрти, халқи ва келажаги учун ғамхўрлик қилиш, ҳуқуқ ва бурчларни англаш, демократик қадриятларни ҳурмат қилиш, инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, толерантлик ва ҳамжиҳатликни тарғиб қилиш кабиларни англатади. Ёшларнинг фуқаролик позициясини шакллантиришда қуйидаги омиллар муҳим роль ўйнайди: оила, мактаб, маҳалла, жамият, оммавий ахборот воситалари. Оила - бу боланинг биринчи таълим маскани, унда бола ҳаётдаги асосий қадриятлар, ҳуқуқ ва бурчлар, толерантлик ва ҳамжиҳатлик кабиларни ўрганади. Давлатимизда оила институти ва уни ҳимоя қилиш алоҳида эътиборга молик. Асосий қонунимизнинг 76-моддасида оиланинг жамият ва давлат томонидан ҳимоя

қилиниши алоҳида мустаҳкамланган.[1] Оила ёшлар томонидан қадрият сифатида баҳоланиб қадрланадиган жамоа бўлиши керак, сабаби у инсон ва инсоният учун, миллат ва элатнинг ривожланишинг асосий пойдеворидир. Қадриятлар сермазмун ва кўп қиррали тушунча булиб, уз ичига табиий, ижтимоий-сиёсий, хуқуқий, моддий, маънавий, диний, ахлоқий, бадиий-эстетикларни олади. Мактаб - бу боланинг ижтимоийлашув жараёнида муҳим роль ўйнайдиган муассаса, унда бола фуқаролик таълими, ҳуқуқ ва бурчлар, демократик қадриятлар, инсон ҳуқуқлари, толерантлик ва ҳамжиҳатлик кабиларни ўрганади. Таълим тизимидаги асосий принциплар ҳам шу мақсадга йўналтирилган. Яъни таълим ва тарбияга миллий ҳамда умуминсоний қадриятларнинг сингдирилганлиги, таълим ва тарбиянинг инсонпарварлик, демократик хусусияти, билимлилик, қобилиятлилик ва истеъдоднинг рағбатлантирилиши ва ҳакозалар.[2] Жамият - бу боланинг ҳаётидаги муҳим омил, унда бола турли хил одамлар билан мулоқот қилади, турли хил ғоялар ва қарашлар билан танишади, ўз ҳуқуқлари ва бурчларини англайди. Жамият бу катта ижтимоий маскан шахс ҳам, оила ҳам унинг ичида ҳаракат қилади, давлат ҳам жамиятнинг вазифаларини бажарувчи сиёсий ташкилот. Оммавий ахборот воситалари - бу боланинг дунёқарашини шакллантиришда муҳим роль ўйнайдиган омил, улар орқали бола жамиятдаги воқеалар, муаммолар ва ечимлар ҳақида маълумот олади.

Бугунги кунда дунё миқёсидаги ижтимоий, сиёсий, иқтисодий ва маданий жараёнларнинг интеграциялашуви, жаҳоннинг бир бурчагида пайдо бўлган ғоялар, янгиликлар ҳамда ижтимоий қарашларнинг бошқа ҳудудларга тезкорлик билан ёйилишини халқаро глобаллашувнинг ажралмас феномени сифатида таъкидлашимиз мумкин. Мазкур ижтимоий жараёнларда ҳаракатлантирувчи куч сифатида ёшлар қатламининг ўрни ва роли беқиёсдир.

Одатда айрим кишилар кўпинча икки ишда катта хатога йўл қўядилар. Биринчиси - ёшларни ҳали ёш деб, уларга ишонмаганида, иккинчиси - кексаларни қария деб четга суриб қўйганида. Ёшларда келажакка интилиш билан боғлиқ бўлган катта ташаббус, куч ва ғайрат бўлади.

Кексалар эса ҳаёт йўлида кўп иссиқ ва совуқ кунларни бошдан кечириб, бой тажриба орттиргани учун уларда узоқни ўйлаб, босиқлик билан иш қилиш, етти ўлчаб бир кесиш сингари маънавий бойлик ва етук тафаккур салоҳияти бор. Ўзбекларнинг «қари билганни пари билмас», деган ҳикматида кўп маъно бор.

[1] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси Т.,-2025
[2] Ўзбекистон Республикаси «Таълим тўғрисида»ги қонуни 2020 й

Ёшларнинг ташаббуси, кучи, ғайрати кексаларнинг бой ҳаётий тажрибаси билан боғлангандагина яхши ижобий самара беради. Кекса авлоднинг билихчи, ҳаёт тажрибаси ёшлар учун маънавий камолот ва ибрат мактабидир.

Халқимизнинг ахлоқ, андиша, шарму-ҳаё, ҳалоллик ва покизалик, инсон қадр-қиммати тўғрисидаги маънавий қадриятларига зид бўлган европача анъаналар ёшлар маънавиятига салбий таъсир ўтказди. Шу туфайли айрим ёшларда маънавий тубанлик юзага келди. Айрим ёшларда асрий миллий маънавиятимизга зид бўлган бағритошлик, худбинлик, маиший бузуқлик, гиёҳвандлик каби маънавий қиёфа юзага келиб, илдиз ота бошлади.

Ёшлар - жамиятнинг алоҳида мақомга эга бўлган ижтимоий-биологик гуруҳи. Айрим тадқиқотчиларнинг таъкидлашича, ёшлар қатлами жамият томонидан ҳар томонлама қўллаб-қувватланувчи, алоҳида имтиёзларга эга, лекин айрим ижтимоий муносабатларда фаол ҳаракати чекланган инсонлар социумидир. Ёшлар - ҳар бир суверен давлатнинг стратегик салоҳияти ҳисобланади. Мамлакатнинг демократик тараққиёти, энг аввало, ёшларнинг ижтимоий-сиёсий ҳаётдаги позицияси, уларнинг эртанги кунга ишончи ва ижтимоий фаоллиги билан ўлчанади. Шу ва бошқа омиллар сабабли эндиликда ёшлар масаласи давлат сиёсатининг асосий йўналишларидан бирига айланиб улгурди. Ўзбекистонда ҳам ёшлар масаласига давлат ва жамият ривожининг муҳим омили сифатида қаралади ҳамда ҳуқуқий-демократик давлат ва кучли фуқаролик жамияти шакллантирилиши жараёнида ёшларга ўзига хос ўрин ажратилган. Маълумки, жамиятимизнинг кўпчилик қисмини айнан 30 ёшгача бўлган ёшлар қатлами ташкил этади. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 30 июндаги “Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини тубдан ислоҳ қилиш ва янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-6017-сонли Фармони ҳамда 2016 йил 14 сентябрдаги “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида»ги қонуни ва бошқа бир қанча норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар айнан ёшларга қаратилган бўлиб, давлат сиёсатини ишлаб чиқиш ҳамда уларни жамиятнинг ижтимоий модернизациясига жалб қилиш бўйича асос бўлиб хизмат қилмоқда.

Ёшларни бугунги кунда гўзалликка ошно қилиш, уларда ҳаётий воқеаларни тўғри тушуниш олижаноб ҳис-туйғуларни ва интилишларни шакллантиришга ёрдам беради. Ёшларда гўзалликни идрок қилишни тарбиялаш орқали уларда бошқа кишиларнинг кечинмаларини ҳис эта билиш, кишиларнинг хурсандчиликларига шерик бўлиш, қайғусини бирга баҳам кўриш каби хусусиятлар шакллантирилади.

Айрим ёшлар ясама, сунъий «гўзаллик» билан ўзларини бадбашара қилиб қўядилар, улар ҳақиқий гўзаллик юзнинг табиий латофатида, содда ва хушбичим кийимда эканини унутиб қўядилар. Кишининг ташқи гўзаллиги кийим рангларининг бир-бирига мос келишида, табиийлик ва соддаликда яққол кўринади. Кўзга ташланмаган ҳолда ҳуснига табиий латофат ва нафосат берадиган, айрим камчиликларини билинтирмай кетадиган уст-бош кийган инсон кўркам ва гўзалдир.

Ёшларнинг дид-фаросати кийим-бошида, хатти-ҳаракатларида, ўзини тута билишида кўзга ташланади. Самимий, оққўнгил, ўзига талабчан, тарбияланган ёшлар ташқи кўринишида сунъийлик, қалбакиликни кўрсатувчи бирон-бир бемаъниликка йўл қўймайдиган тарзда кийинишга, ўзини шунга муносиб тутишга ҳаракат қилади. Дидли-фаросатли ёшлар ҳамиша ана шу қиёфани сақлаб қолади. Ташқи қиёфага эътибор бериш ички, маънавий гўзалликнинг ифодаси ҳисобланади.

Сўнгги йилларда мамлакатимиз Президенти Шавкат Мирзиёев ташаббуси билан ёшларга оид давлат сиёсати доирасида ёш авлодни ҳар томонлама қўллаб-қувватлашга қаратилган қатор амалий чора-тадбирлар белгиланди. Хусусан, учта қонун ҳамда давлат раҳбари ва ҳукуматнинг ўндан зиёд фармон, қарор ва фармойишлари қабул қилинди. 2017 йил 30 июнь куни Ўзбекистон Республикаси Президенти иштирокида «Камолот» ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IV қурултойи бўлиб ўтди. Унда ушбу тузилмани Ўзбекистон ёшлар иттифоқи сифатида қайта ташкил этиш тўғрисида қарор қабул қилинди ҳамда ушбу сана Ёшлар куни сифатида кенг нишонланадиган бўлди. Қайта ташкил этилган Ўзбекистон ёшлар иттифоқи фаолиятининг асосий йўналишлари сифатида ёшларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари, қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш, ёш йигит-қизларнинг замонавий касб эгалари бўлиб етишишлари учун муносиб шароитлар яратиш, бандликни таъминлаш, қобилиятларини ривожлантириш, уларни тадбиркорликка кенг жалб этиш ҳамда ташаббусларини рағбатлантириш, интеллектуал ва ижодий салоҳиятларини рўёбга чиқаришда кўмаклашиш, ёш оилалар, ногиронлиги бўлган ва ижтимоий ҳимояга муҳтож ёшларга моддий ва маънавий ёрдам кўрсатиш бўйича мақсадли ишларни амалга ошириш, улар учун муносиб уй-жой ва бошқа ижтимоий шароитлар яратиш каби вазифалар белгиланган эди.[3] Ҳаракатлар стратегияси доирасида ҳудудларда ёш

[3] Ёшларга оид давлат сиёсати: ёшларнинг фикрини инобатга олган ҳолда, мажбурий аъзоликсиз ва соҳа харажатлари ошкоралигини таъминлаб. — URL: https://yumh.uz/uz/news_detail/93 (10.08.2019)

тадбиркорлар кластерлари пайдо бўлди, ёш оилаларга мўлжалланган уй-жойлар тез суръатларда қуриб битказилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси қошида Ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти ташкил этилди. Шунингдек, 2020 йил 30 июнда «Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини тубдан ислоҳ қилиш ва янги босқичга олиб чиқиш чора тадбирлари тўғрисида» Президент фармони қабул қилинди. Унга кўра, Ёшлар ишлари агантлиги ва унинг ҳудудий бўлимлари ташкил этилди. Шу билан бирга, ушбу фармонда агентликнинг ёшлар билан боғлиқ соҳа ва йўналишларда ягона давлат сиёсати, стратегик йўналишлар ва давлат дастурларини ишлаб чиқиш ҳамда уларни амалга ошириш каби асосий вазифаси ва фаолият йўналишлари белгилаб қўйилди. Янги босқичга чиққан ёшларга оид давлат сиёсати долзарблиги боис Бош вазир раислигида ёшлар масалалари бўйича идоралараро кенгашлар иш бошлади. Жойларда ушбу масалага маҳаллий ҳокимлар масъул этиб белгиланди. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасида Ёшлар масалалари бўйича комиссия ташкил этилди. Бу соҳада кўплаб ишлар амалга оширилишига қарамай, ҳозирги кунда жойларда ёшларнинг ижтимоий-иқтисодий фаоллигини ошириш, салоҳиятини рўёбга чиқариш, шу жумладан ёшлар тадбиркорлигини комплекс ривожлантириш учун зарур инфратузилма йўқлиги, йигит-қизларнинг соғлом турмуш тарзига риоя этиш, спорт билан шуғулланиш, китоб ўқиш ва ижод қилиш, қисқача айтганда, жамиятга наф келтирувчи ишларни амалга оширишларида тўсқинлик қилувчи тизимли муаммолар ҳануз сақланиб қолмоқда.

Энг долзарб масала — ёшларнинг иш билан бандлиги. Меҳнат вазирлиги маълумотларига кўра, ҳар йили 500 мингга яқин ёшлар меҳнат бозорига кириб келади. Улар етарли тажриба ва билимга эга бўлмаганликлари сабабли иш топиш ҳамда рақобат қилишда қийинчиликларга учрайдилар. 2018 йил июль ойида ёшлар билан манзилли ва тизимли ишлаш масалаларига бағишлаб ўтказилган видеоселектор йиғилишида давлатимиз раҳбари томонидан 1700 дан зиёд ярмаркалар ўтказилганига қарамай, иштирокчиларнинг атиги беш фоизи иш билан таъминлангани, 509 минг нафар ёшлар эса пул ишлаш учун хорижга кетгани танқид қилинди.

Ёшлар сиёсатининг амалга оширилишидаги муаммо ва камчиликларни, «Ўзбекистон ёшлари: интилиш, эҳтиёж ва хавфлар» мавзусидаги тадқиқот натижалари ҳам кўрсатди. Тадқиқот «Юксалиш» умуммиллий ҳаракати ва ЮНИСЕФ ташкилоти билан ҳамкорликда «Ёшлар — Ўзбекистоннинг келгуси

етакчилари» лойиҳаси доирасида ўтказилди. Унда 14 ёшдан 30 ёшгача бўлган 4,5 минг нафар йигит-қиз иштирок этди. Респондентларнинг деярли ярми ижтимоий ҳимоя, бандлик, айниқса ногиронлиги бўлган ёшларни иш билан таъминлаш, соғлиқни сақлаш, таълим, ёшлар тадбиркорлигини қўллаб-қувватлаш каби соҳалар яхшиланишига муҳтожлигини таъкидладилар. Шунга қарамай, иштирокчиларнинг деярли 70 фоизи ҳар қандай шароитда ҳам Ўзбекистонни тарк этишни истамаётганликларини билдиришган. Бироқ, айни вақтда, ёшлар ўзлари учун муносиб иш топишда қийинчиликларга дуч келаётганликларини маълум қилишган .

Бандлик муаммоси, ўз навбатида, ёшларнинг бузғунчи кучлар таъсирига тушиб қолиши хавфини ҳамда ноқонуний миграция оқимини оширади. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 27 июндаги Фармонига мувофиқ амалга оширилаётган «Ёшлар — келажагимиз» давлат дастури ёшларнинг ишбилармонлик ташаббусларини, стартап лойиҳалари, ғоя ва таклифларини қўллаб-қувватлаш, уларга меҳнат бозорида талаб юқори бўлган касбларни ўргатиш, уларнинг ижтимоий-иқтисодий фаоллигини оширишга қаратилган эди. Ушбу мақсадда Ўзбекистон ёшлар иттифоқи ҳузурида «Ёшлар —келажагимиз» жамғармаси, унинг туман ва шаҳар филиаллари ташкил этилди. 2019 йилнинг март ойида ёшлар масаласига бағишланган кенгайтирилган йиғилишда давлатимиз раҳбари томонидан ёшларимизга бўлган эътиборни янада кучайтириш, уларни маданият, санъат, жисмоний тарбия ва спортга кенг жалб этиш, ёшларда ахборот технологияларидан фойдаланиш кўникмаларини шакллантириш, юртимиз ёшлари ўртасида китобхонликни тарғиб қилиш, хотин-қизлар бандлигини оширишга қаратилган «беш ташаббус» илгари сурилди.

Давлатимиз раҳбари томонидан ижтимоий, маънавий-маърифий соҳалардаги ишларни янги тизим асосида йўлга қўйиш бўйича илгари сурилган 5 та муҳим ташаббус ёшларнинг мусиқа, рассомлик, адабиёт, театр ва санъатнинг бошқа турларига қизиқишларини оширишга, истеъдодини юзага чиқаришга хизмат қилади. Ёшларни жисмоний чиниқтириш, уларнинг спорт соҳасида қобилиятини намоён қилишлар учун зарур шароитлар яратишга йўналтирилган. Аҳоли ва ёшлар ўртасида компьютер технологиялари ва интернетдан самарали фойдаланишни ташкил этишга қаратилган. Ёшлар маънавиятини юксалтириш, улар ўртасида китобхонликни кенг тарғиб қилиш бўйича тизимли ишларни ташкил этишга йўналтирилган ҳамда хотин-қизларни иш билан таъминлаш масалаларини назарда тутади.

Юқоридаги фикрлардан келиб чиқиб, Ўзбекистон Республикасининг ёшларга оид давлат сиёсатини янада кучайтириш, шу жумладан, давлат раҳбарининг беш ташаббусини амалга ошириш, ёшларни тарбиялаш ва таълим олишлари учун қулай шарт-шароитлар яратиш мақсадида қуйидагиларга алоҳида эътибор қаратиш лозим:

– Ўзбекистоннинг ёшлар масалалари бўйича халқаро рейтинглардаги ўрнини яхшилаш мақсадида ёшлар сиёсатига масъул бўлган ташкилотларнинг объектив статистик ва таҳлилий маълумотларини рейтинг шакллантирувчи халқаро агентликларга тақдим этиб бориш. Масалан, ёшларнинг яшаш сифати бўйича тузиладиган «Youth Progress Index 2017» Ёшлар тараққиёт индексининг 2017 йилги натижаларига кўра: Норвегия, Финляндия, Дания мамлакатлари кучли учликда қайд этилган. Ушбу рейтингда Қозоғистон 63-ўринни, Қирғизистон 58, Россия 65-ўринни эгаллаган бўлиб, унда Ўзбекистон қайд этилмаган.[4] иккинчи рейтинг —«The 2017 Youth Wellbeing Index» Ёшлар фаровонлиги индекси. Ушбу индекс ёшлар фаолиятини фуқаролик иштироки, иқтисодий имкониятлар, таълим, соғлиқни сақлаш, ахборот-коммуникация технологиялари, хавфсизлик ва ҳимояланганлик каби мезонлар асосида баҳолайди. Ўзбекистон бу рўйхатга ҳам киритилмаган.[5]

– Ёшларни қўллаб-қувватлаш ва ҳимоя қилиш дастурларини рағбатлантириш, уларга бошқа ёшлар ташкилотларини ҳам жалб қилиш ва иштирокига кўмаклашиш;

– Ўзбекистон ёшлар иттифоқи қаторида бошқа ёшлар бирлашмаларига ҳам имтиёз ва рағбатлантиришлар тақдим этиш, шу жумладан ижтимоий аҳамиятга эга ёшлар лойиҳалари ва ташаббусларини илгари суришда молиявий қўллаб-қувватлаш зарурати мавжуд;

Шу билан бирга, бугунги глобаллашган дунё ва ахборот технологиялари асрида ёшларнинг ижтимоий қарашлари, ижтимоий муаммолари ҳам барқарор тамойил асосида ўзгариб бормоқда. XXI асрга хос хусусият сифатида бошланган компьютерлаштириш жараёнлари, Интернет ва ижтимоий тармоқларнинг ривожи ёшлар ўртасида том маънодаги виртуал ижтимоий муносабатлар тизимини шакллантирди. Буни реал воқелик сифатида эътироф этган ҳолда, мазкур жараёнлар ёшлар социумида салбий ижтимоий омилларни ҳам келтириб чиқараётганини эътироф этиш лозим.

[4] Youth Progress Index. — URL: http://www.youthforum.org/youth-progress-index (21.09.2019 й.)
[5] The Global Youth Wellbeing Index. — URL: https://www.youthindex.org/ (22.09.2019 й.)

БМТнинг Халқаро электрон уюшмаси маълумотларига кўра, ҳозирги кунда бутунжаҳон Интернет тармоғидан ер шарининг 3,2 млрд аҳолиси кенг миқёсда фойдаланиб келади. Ўзбекистон Республикаси Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлигининг ҳисоботида республикамизда Интернет тизимидан фойдаланувчилар сони 13 миллиондан, мобиль алоқа операторлари сони эса 20,8 миллиондан ошганлиги ҳақида маълумот берилади.[6] Шуни таъкидлаш жоизки, бутун дунёда бўлгани каби, юртимизда ҳам Интернет ва ижтимоий тармоқларнинг асосий фойданувчилари ёшлардир. Ёшларимизда интернетдан фойдаланиш маданиятини шакллантириб бориш лозим.

Хулоса қилиб таъкидлаш лозимки, мамлакатимизда ёшларнинг ижтимоий муносабатлар тизимини доимий равишда мониторинг қилиб бориш, ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш, уларни ижтимоий фойдали ишларга жалб қилиш, тадбиркорлик ташаббусларини қўллаб-қувватлаш, уларга шахсий ва касбий ривожланишида кўмаклашувчи турли ижтимоий-психологик, ҳуқуқий, ахборот ва маслаҳат хизматлари кўрсатиш, турли функцияларни бажарувчи ижтимоий хизматлар марказларини шакллантириш ва Ўзбекистон ёшларига XXI асрга хос янги инновацион билимлар бериш долзарб ва хал этилиши лозим бўлган масала хисобланади.

МУАЛЛИФ АНКЕТАСИ

Фамилия	Маликов
Исми	Турдали
Шарифи	Тошмирзаевич
Иш жойи	Наманган давлат техника университети
Эгаллаб турган лавозими	“Ижтимоий фанлар” кафедраси доценти
Илмий даражаси	фалсафа фанлари номзоди
Илмий унвони	доцент
Телефон рақами	+998936667771

[6] Международный союз электросвязи. — URL: www.itu.int/newsroom (05.10.2019 й.)

Материалнинг номи	Ўзбекистонда ёшларнинг фуқаролик позициясини шакллантириш диалектикаси

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2025. – 72 б.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. – Тошкент: “Адолат”, 2020. – 38 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2021. – 464 б.
4. “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни. – Тошкент: “Адолат”, 2016. – 24 б.
5. Маликов Т.Т. Ёшларнинг фуқаролик позициясини шакллантиришда ижтимоий институтларнинг ўрни. – Наманган: НДТУ нашриёти, 2024. – 156 б.
6. Ахмедов А. Глобаллашув шароитида ёшлар дунёқарашининг шаклланиши. – Тошкент: “Маънавият”, 2021. – 192 б.
7. Ёшлар сиёсати ва маънавият. – Тошкент: “Академнашр”, 2023. – 184 б.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

Pedagogical Opportunities of Using Historical and Cultural Heritage in the Training of Engineering-Pedagogical Personnel

13.00.01- Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
Ahrorbek Ahmadjonov Shuhratbek o'g'li
Magistr, O'zbekiston Milliy universiteti bitiruvchisi
E-mail: ahrorahmedov721@gmail.com
https://orcid.org/0009-0006-5408-4707
Tel: +998773830464
Akhrorbek Akhmadjonov Shuhratbek o'g'li
Master's Degree, Graduate of the National University of Uzbekistan
E-mail: ahrorahmedov721@gmail.com
https://orcid.org/0009-0006-5408-4707
Tel: +998773830464
Ахрорбек Ахмаджонов Шухратбек угли
Магистр, выпускник Национального университета Узбекистана
E-mail: ahrorahmedov721@gmail.com
https://orcid.org/0009-0006-5408-4707
Тел: +998773830464

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada muhandis-pedagoglar tayyorlash jarayonida tarixiy-madaniy merosdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Tarixiy va madaniy boyliklar – texnik tafakkur, axloqiy qarashlar va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim resurs sifatida qaraladi. UNESCO, EQF va OECD kabi xalqaro standartlar asosida tarixiy merosdan ta'limda foydalanishning metodik asoslari ochib berilgan. Shuningdek, muhandislik ta'limiga tarixiy kontekstni integratsiyalash orqali ko'rgazmali, tarbiyaviy va innovatsion yondashuvlarni amalga oshirish yo'llari ko'rsatilgan. Maqola xalqaro tajribalarni mahalliy ta'lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlarini ham o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar
muhandis-pedagog, tarixiy-madaniy meros, pedagogik imkoniyatlar, texnik tafakkur, kasbiy kompetensiya, merosga asoslangan ta'lim, UNESCO standartlari, integratsiyalashgan yondashuv

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются педагогические возможности использования историко-культурного наследия в процессе подготовки инженерно-педагогических кадров. Историческое наследие анализируется как источник формирования технического мышления, нравственных качеств и профессиональных компетенций. Раскрыты методологические подходы на основе международных стандартов (UNESCO, EQF, OECD). Показаны формы интеграции исторического контекста в инженерное образование через визуальные, воспитательные и инновационные методы. Также обоснованы возможности адаптации зарубежного опыта в условиях образовательной системы Узбекистана.

Ключевые слова

инженер-педагог, историко-культурное наследие, педагогические возможности, техническое мышление, профессиональные компетенции, обучение на основе наследия, стандарты ЮНЕСКО, интегративный подход

ABSTRACT

This article examines the pedagogical potential of utilizing historical and cultural heritage in the training of engineering-pedagogical personnel. Heritage is analyzed as a resource for developing technical thinking, ethical awareness, and professional competencies. The paper is grounded in international frameworks such as UNESCO, EQF, and OECD, highlighting methodological approaches to integrating heritage-based content into technical education. It outlines strategies for using heritage in visual, moral, and project-based learning, and discusses how international practices can be adapted to the local educational context.

Keywords

engineering pedagogue, historical and cultural heritage, pedagogical opportunities, technical thinking, professional competencies, heritage-based education, UNESCO standards, integrative approach

1. The Need to Integrate Historical and Cultural Heritage into Engineering-Pedagogical Education

Engineering-pedagogues are professionals who combine technical expertise with the

pedagogical skills required to transfer this knowledge to students in vocational and technical institutions. Their training must go beyond technical content to include cultural, ethical, and social competencies. This aligns with international educational standards:

📘 «UNESCO (2015)»: The "21st Century Competencies" framework identifies the integration of cultural heritage into education as a key element of sustainable development and civic responsibility.

In this context, the inclusion of «historical and cultural heritage» into engineering-pedagogical training serves as a vital tool not only for identity formation but also for «developing critical thinking, ethical responsibility, and social cohesion».

2. Didactic Classification of Historical and Cultural Heritage

Historical and cultural heritage can be utilized in pedagogical practice across three categories, each offering unique educational value:

Type of Heritage	Examples	Pedagogical Function
Tangible Heritage	Architecture, craft tools, ancient technologies	Visual aids, technical inspiration
Intangible Heritage	Traditional crafts, apprenticeship traditions	Cultural transmission, professional identity
Scientific Heritage	Works by al-Farabi, Ulugh Beg, al-Birun	Foundations of scientific thinking

📗 «European Qualifications Framework (EQF, 2008)»: Cultural and historical knowledge is essential for fostering critical thinking and developing transversal competencies across all professional domains.

3. Enhancing Technical Instruction through Heritage-Based Content

The integration of historical content into technical instruction enriches the learning process and supports deeper student engagement.

3.1. Visual and Experiential Learning:

* Use of «historical tools, traditional engineering methods», and visual materials supports conceptual understanding and technical creativity.
* For example, analyzing ancient irrigation systems (e.g., «sardobas, ariqs») promotes systems thinking in environmental engineering courses.

3.2. Problem-Based Learning:

* Students can be tasked with «updating historical technologies» to meet modern standards.
* Example: “How can ancient Khorezmian water management systems be adapted for climate-resilient infrastructure today?”

3.3. Competency-Based Education:

* Integrating heritage fosters not only technical skills but also «ethical conduct, national identity, responsibility», and «professional pride».
* This reflects the «OECD Education 2030 Framework», which emphasizes “soft skills” and personal agency in career development.

4. Educational and Moral Development Functions

By engaging with cultural heritage, engineering-pedagogical students develop values essential for effective teaching and ethical professional conduct.

Educational Aim	Means of Implementation	Expected Outcome
Civic and national pride	Study of local scientific and craft traditions	Stronger social identity
Aesthetic appreciation	Exposure to traditional design and art	Developed artistic taste
Ethical responsibility	Learning from historical apprenticeship systems	Improved work ethic and discipline

📘 «UNESCO Intangible Cultural Heritage (ICH)» guidelines stress that heritage

must be transmitted through education to remain relevant and sustainable.

5. International Best Practices and Adaptability

Several countries successfully integrate historical and cultural heritage into vocational and engineering education:

* «Germany»: In the «dual education system», traditional craftsmanship is preserved alongside modern industry practices.
* «Japan»: Engineering programs incorporate «Shinto philosophy and ethical responsibility» in applied sciences.
* «Finland»: Technology subjects are taught with local cultural references to stimulate social and spatial awareness.

These practices offer replicable models for Uzbekistan, where historical engineering knowledge can be applied to contemporary pedagogy and design thinking.

6. Practical Models for Using Heritage in Engineering-Pedagogical Training

Method of Integration	Description	Educational Benefit
Research Projects	Students analyze local historical technologies	Enhances scientific inquiry skills
Virtual Tours and Simulations	Museums and ancient sites explored in digital formats	Improves digital literacy and cultural awareness
Project-Based Learning	Students design tools inspired by heritage	Boosts creativity and innovation
Integrated Courses	Combining history, technology, and pedagogy in one module	Promotes systemic thinking

Preliminary Conclusion (as part of the main body)

The integration of historical and cultural heritage into the training of engineering-

pedagogical personnel represents an effective approach to developing both professional and personal competencies. It contributes to «technological creativity, cultural continuity, and responsible teaching practice». Moreover, it is fully aligned with global educational frameworks such as those of «UNESCO, OECD, and EQF», ensuring that national identity and international quality standards are harmonized in the process of workforce development.

Reference List:

1. UNESCO. (2015). *Rethinking Education: Towards a Global Common Good?* Paris: UNESCO Publishing. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000232555

2. OECD. (2018). *The Future of Education and Skills: Education 2030*. OECD Publishing. https://www.oecd.org/education/2030-project/

3. European Commission. (2008). *European Qualifications Framework (EQF) for Lifelong Learning*. Luxembourg: Office for Official Publications of the European Communities.

4. Abduqodirov, A. (2020). Tarixiy-madaniy meros va zamonaviy ta’lim o‘rtasidagi uzviylik. *Pedagogik ta’lim va fan*, 3(1), 22–28.

5. Nazarova, D. (2021). Muhandislik ta’limida milliy qadriyatlarning integratsiyasi. *Kasb-hunar ta’limi*, 2(4), 14–19.

6. Ibragimov, I. (2019). Professional kompetensiyalarni shakllantirishda tarixiy merosning ahamiyati. *Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar*, 7(2), 35–41.

7. Saidova, N. (2022). Tarixiy texnologiyalar asosida texnik tafakkurni rivojlantirish. *Innovatsion ta’lim texnologiyalari*, 4(1), 48–54.

8. ЮНЕСКО. (2003). *Конвенция об охране нематериального культурного наследия*. Париж: ЮНЕСКО.

9. Kadirova, M. (2018). Integrativ yondashuv orqali texnik va madaniy kompetensiyani rivojlantirish. *Oliy ta’limda pedagogika*, 1(1), 16–22.

10. Исмоилов, А. (2020). Устоз-шогирд анъанасининг касбий таълимдаги аҳамияти. *Маънавият ва мафкура*, 2(3), 30–34.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

Pedagogical Opportunities of Using Historical and Cultural Heritage in the Training of Engineering-Pedagogical Personnel

13.00.01- Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
Ahrorbek Ahmadjonov Shuhratbek o’g’li
Magistr, O‘zbekiston Milliy universiteti bitiruvchisi
E-mail: ahrorahmedov721@gmail.com
https://orcid.org/0009-0006-5408-4707
Tel: +998773830464
Akhrorbek Akhmadjonov Shuhratbek o’g’li
Master’s Degree, Graduate of the National University of Uzbekistan
E-mail: ahrorahmedov721@gmail.com
https://orcid.org/0009-0006-5408-4707
Tel: +998773830464
Ахрорбек Ахмаджонов Шухратбек угли
Магистр, выпускник Национального университета Узбекистана
E-mail: ahrorahmedov721@gmail.com
https://orcid.org/0009-0006-5408-4707
Тел: +998773830464

Annotatsiya

Ushbu maqolada muhandis-pedagoglar tayyorlash jarayonida tarixiy-madaniy merosdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tarixiy obidalar, texnologik meros va xalq an’analari kasb-hunar ta’limi sifatini oshirish, shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish vositasi sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada UNESCO, EQF, OECD kabi xalqaro tashkilotlarning me’yoriy hujjatlari asosida merosga asoslangan ta’lim yondashuvlari tavsiflanadi. Shuningdek, ta’lim jarayonida tarixiy-madaniy komponentlarni integratsiyalashning shakl va metodlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar

muhandis-pedagog, tarixiy-madaniy meros, kasbiy kompetensiya, pedagogik yondashuv, xalqaro standartlar, texnologik tafakkur, ko‘rgazmali ta’lim, UNESCO

Аннотация

В статье научно обоснованы педагогические возможности использования историко-культурного наследия в подготовке инженерно-педагогических

кадров. Исторические памятники, технологическое наследие и народные традиции рассматриваются как инструменты повышения качества профессионального образования и формирования профессиональных и личностных компетенций. Описаны подходы к обучению на основе наследия на основе документов ЮНЕСКО, EQF и OECD. Также рассмотрены формы и методы интеграции историко-культурных компонентов в учебный процесс.

Ключевые слова
инженер-педагог, историко-культурное наследие, профессиональные компетенции, педагогический подход, международные стандарты, технологическое мышление, наглядное обучение, ЮНЕСКО

Abstract
This article explores the pedagogical potential of integrating historical and cultural heritage into the training of engineering-pedagogical personnel. Historical monuments, technological heritage, and local traditions are examined as tools for improving vocational education quality and fostering both professional and personal competencies. The study draws upon international frameworks such as UNESCO, EQF, and OECD to present models of heritage-based learning. It also outlines the practical forms and methods for integrating cultural content into educational programs.

Keywords
engineering pedagogue, historical and cultural heritage, professional competencies, pedagogical approach, international standards, technological thinking, visual learning, UNESCO

Pedagogical Opportunities of Using Historical and Cultural Heritage in the Training of Engineering-Pedagogical Personnel

1. Problem Statement and Relevance

In training engineering-pedagogical personnel, it is necessary to develop not only technical knowledge and skills but also professional ethics, cultural awareness, and social responsibility. International frameworks (e.g., UNESCO, OECD) recognize integrated education models as most effective, where instruction connects subject content with historical, social, and cultural dimensions.

In a country like Uzbekistan, with rich historical and cultural heritage, ignoring these

resources in technical and vocational education means limiting pedagogical potential. Therefore, integrating historical-cultural heritage into engineering-pedagogical education is both necessary and timely.

2. Pedagogical Functions of Historical and Cultural Heritage

a) «Didactic Function»

* Historical objects, ancient tools, and artifacts of craftsmanship serve as visual materials in the teaching of technical subjects.
* This facilitates the development of technological imagination and spatial thinking among students.

b) «Educational Function»

* Master-apprentice traditions, traditional schools of craftsmanship, and historical figures are used to instill professional values such as diligence, discipline, and respect for national values.

c) «Cultural Identity Formation»

* Students not only learn technical knowledge but also gain awareness of their national engineering heritage, which contributes to professional motivation and self-awareness.

3. International Experience and Standards

* «UNESCO (2015)» emphasizes that “education for sustainable development must include cultural heritage as a key component.”
* «OECD Education 2030» framework lists “cultural literacy, historical understanding, and social responsibility” as essential soft skills in modern vocational education.
* Countries such as «Germany», «Japan», and «Finland» have successfully integrated cultural-historical content into their technical and vocational education systems through practice-based learning and local heritage studies.

These approaches support the development of key competencies aligned with the «European Qualifications Framework (EQF)» and can be adapted within Uzbekistan’s

national curriculum for engineering-pedagogical education.

4. Methods and Models for Integrating Heritage into Engineering-Pedagogical Training

Form of Integration	Method of Implementation	Pedagogical Outcome
Visual learning	Use of museums, objects, and historical devices	Improved visual-spatial reasoning
Project-based tasks	Reconstructing or modernizing historical technologies	Applied thinking, innovation skills
Historical analysis	Studying technological development stages	Systemic thinking and historical literacy
Apprenticeship model	Traditional methods applied to modern workshops	Social-emotional skills, professional ethics

5. Pedagogical Advantages of Using Heritage

Historical-cultural heritage offers the following pedagogical benefits in the preparation of engineering-pedagogues:

* «Development of technological thinking» – Through the analysis of ancient irrigation systems, architecture, and tools, students learn engineering principles.
* «Cultural competence» – Students gain respect for their national identity, which strengthens motivation and professional responsibility.
* «Localized curriculum design» – Learners explore heritage relevant to their region, enabling context-based education and regional customization.

6. Recommendations

* Technical education courses (e.g., material science, design, pedagogy) should include «modules on comparative historical technologies».

* All vocational schools and universities should offer a «"Local Technological Heritage"« course to link students to their regional craft history.
* Incorporating «digital tools» (virtual tours, 3D models, AR/VR applications) can expand access to heritage-based content without geographical limitations.

Interim Conclusion (within main body)

The integration of historical and cultural heritage into engineering-pedagogical education enhances the formation of technical skills, ethical behavior, and cultural awareness. This approach supports the creation of a competency-based, value-driven education model that aligns with international standards (UNESCO, EQF, OECD) while preserving national identity and tradition.

References:

1. UNESCO. (2015). “Rethinking Education: Towards a Global Common Good?” Paris: UNESCO Publishing.
2. OECD. (2018). “The Future of Education and Skills: Education 2030 Framework”. Paris: OECD.
3. European Commission. (2008). “European Qualifications Framework (EQF) for Lifelong Learning”. Brussels.
4. Abduqodirov, A. (2020). The link between historical-cultural heritage and modern education. “Pedagogical Education and Science”, 3(1), 22–28.
5. Nazarova, D. (2021). Integrating national values into engineering education. “Vocational Education Review”, 2(4), 14–19.
6. Ibragimov, I. (2019). The role of heritage in forming professional competencies. “Scientific Research and Innovation”, 7(2), 35–41.
7. UNESCO. (2003). “Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage”.
8. Kadirova, M. (2018). Development of cultural competencies through an integrative approach. “Pedagogy in Higher Education”, 1(1), 16–22.
9. Ismoilov, A. (2020). The tradition of mentorship in vocational education. “Spirituality and Ideology”, 2(3), 30–34.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA INSON KAPITALINI TIJORATLASHTIRISH PARADIGMASI O'ZGARISHI

Nazarov Jasurbek Azamat O'gli
Toshkendagi Singapur Menejmentini rivojlantirish instituti 3-bosqich talabasi,
nazarovjasurbek2005j@gmail.com

Annotatsiya: Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi XXI asrning asosiy paradigmalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bunday iqtisodiyotda asosiy e'tibor ekologik barqarorlik va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan. Shu bilan birga, inson kapitali, ya'ni bilim, ko'nikmalar, salohiyat va innovatsiyalar iqtisodiyotning muhim omili hisoblanadi. Inson kapitali tijoratlashtirish jarayoni yangi yashil iqtisodiyot sharoitida yangicha yondashuvlarni talab etadi. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini tijoratlashtirish paradigmasining qanday o'zgarishi, ushbu jarayonning qiyinchiliklari va imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Yashil iqtisodiyot, yashil texnologiya, innovatsion salohiyat, inson kapital, inson kapitalini tijoratlashtirish, ijtimoiy mas'uliyat.

Yashil iqtisodiyot - ekologik barqarorlikni ta’minlash, ijtimoiy adolatni oshirish va iqtisodiy samaradorlikni yaxshilash maqsadida amalga oshirilgan iqtisodiy transformatsiyalarning yig'indisidir. Ushbu kontseptsiya ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik omillarni integratsiyalash orqali barqaror rivojlanishni rag‘batlantirishni ko‘zlaydi. Yashil iqtisodiyotning muvaffaqiyati va samaradorligi ko‘p jihatdan inson kapitalining sifatiga va uning yashil iqtisodiyotga moslashtirilishiga bog‘liqdir.

Bugungi kunda iqtisodiyot barqarorligining muhim omillaridan biri inson kapitali hisoblanadi. Shu munosabat bilan inson kapitalini, uni boshqarish samaradorligi va tijoratlashtirish darajasini baholash zarurati yuzaga keladi. Shu bilan birgalikda qo’shimcha qiymatni shakllantirish jarayoni inson tomonidan yaratilgan aniq axborot va bilim resurslariga asoslanadi. Inson kapitalini shakllantirish, rivojlantirish va boshqarish, shuningdek, innovatsion o’zgarishlar va inson kapitalini qo’llab-quvvatlash ekologik, iqtisodiy barqarorlikni va ijtimoiy farovonlikni ta’minlashda strategik jihatdan hal qiluvchi rol o’ynaydi. “Inson kapitalini rivojlantirish va kreativ yosh avlodni tarbiyalash – O’zbekiston o’z oldiga qo’ygan strategik vazifalardan biridir”, –deya ta’kidladi Prezidentimiz. “Biz hamma uchun ochiq va sifatli ta’limni kambag’allikka barham berish, xalq farovonligini oshirish va barqaror iqtisodiy o’sishga erishishning eng samarali omili, deb bilamiz”[1]. E’tibor beradigan bo’lsak,

so’nggi yillarda respublikamizda inson taraqqiyotiga e’tibor kuchaydi, chunki, cheklangan resurslar, jumladan, tabiiy resurslar, mehnat va kapitaldan maksimal foyda olishga asoslangan an’anaviy iqtisodiy fikrlar va tushunchalar o’z ahamiyatini kun sayin yo’qotib bormoqda.

Bugungi kunda “Yashil iqtisodiyot”ga o’tish, uning asosi bo’lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko’rsatkichlarini keskin oshirish, jumladan, bunda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 25 ming MVt hamda jami iste’moldagi ulushini 40 foizga etkazish, sanoatda «yashil sertifikat»lar bozorini rivojlantirish va «ekologik markirovkalash» amaliyotini joriy qilish, shaharlarda jamoat transportini ekologik toza yoqilg’iga o’tkazish [2] va boshqalar respublikamizda yashil iqtisodiyot sharoitida hal qilinishi zarur bo’lgan ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Yashil iqtisodiyot tabiat va iqtisodiy faoliyat o'rtasidagi muvozanatni saqlashga intiladi. Bu esa an'anaviy iqtisodiyot modellaridan tubdan farq qiladi. Inson kapitali yashil iqtisodiyotda o'zining markaziy o'rnini saqlab qoladi, chunki innovatsiyalar, texnologik rivojlanish va barqaror biznes modellari inson salohiyatiga bog'liq.

Inson kapitalining asosiy unsurlari quyidagilardir:

- Bilim va ko'nikmalar: Yashil texnologiyalarni joriy qilish va qo'llash uchun maxsus bilim va ko'nikmalar zarur.
- Innovatsion salohiyat: Yangi texnologiyalar va jarayonlarni rivojlantirish inson kapitalining innovatsion imkoniyatlariga tayanadi.
- Ijtimoiy va ekologik ong: Yashil iqtisodiyot sharoitida insonlar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik mas'uliyatni ham e'tiborga olishlari zarur.

Inson kapitalini tijoratlashtirish bu – bilim, ko'nikma va innovatsiyalarni iqtisodiy qiymatga aylantirish jarayonidir. Bu jarayon ilm-fan va texnologiyalarni ishlab chiqarishga, yangi mahsulotlar va xizmatlarga aylantirish orqali amalga oshiriladi. An'anaviy iqtisodiyotda inson kapitalini tijoratlashtirish sanoat va texnologiya sohalarida asoslangan bo'lsa, yashil iqtisodiyotda bu jarayon ko'proq ekologik innovatsiyalar bilan bog'liq.

Yashil iqtisodiyotda inson kapitalining tijoratlashtirilishi birinchi navbatda innovatsiyalar orqali amalga oshiriladi. Barqaror rivojlanishga qaratilgan innovatsiyalar yangi texnologiyalar, mahsulotlar va xizmatlar yaratishga yordam beradi. Masalan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya samaradorligi, chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalari – bularning barchasi yashil innovatsiyalarga asoslangan bo'lib, inson kapitali bilan bevosita bog'liqdir.

Yashil iqtisodiyotning bir qismi bo'lgan ijtimoiy innovatsiyalar inson kapitalini tijoratlashtirishning yangi usullarini taqdim etadi. Ijtimoiy mas'uliyatni inobatga olgan holda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish yangi bozorlar va imkoniyatlar yaratadi. Ijtimoiy innovatsiyalar o'z-o'zini ta'minlash, adolatli mehnat sharoitlari va barqaror hayot tarziga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Bugungi kunga kelib, amalga oshirilayotgan innovatsion islohotlar jarayonida yashil texnologiyani rivojlanishida inson kapitalining o’rni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko’rishimiz mumkin. Ayniqsa, ta’lim va sog’lom inson kapitalini yashil iqtisodiyotdagi, jumladan, yashil texnologiya innovatsiyasidagi o’rniga asosiy e’tibor qaratilmoqda. Yashil texnologiya innovatsiyasi texnologik taraqqiyot va energiyani tejash masalalarida foyda keltirishi mumkin bo’lgan jarayon hisoblanadi.

Tahlillarga ko’ra, yurtimizda quyosh va shamol energiyasi salohiyati elektrga bo’lgan hozirgi ehtiyojni 10-12 barobar ortig’i bilan qoplashga yetarli ekanligi aniqlangan. Shunday ulkan imkoniyatni ishga solish masalasiga ancha yillar davomida e’tibor berilmay kelingan, lekin so’nggi yillarda bu sohada huquqiy baza yaratilganligi sababli investorlar uchun jozibador muhit shakllandi.

“Yashil energiya” manbalarini barpo qilish bo’yicha yurtimizda katta dasturlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunga qadar sohaga 2,1 milliard dollar to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiya kiritilgan, 2024 yilda 13 milliard dollarlik loyihalar amalga oshirilishi kutilmoqda.

Yashil iqtisodiyotda tijoratlashtirish jarayoni tadbirkorlikka ham ta'sir ko'rsatmoqda. Barqaror tadbirkorlik, ya'ni ekologik mas'uliyatli biznes modellarini joriy qilish, bozor talablariga javob beruvchi innovatsiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi. Inson kapitali bu jarayonda asosiy rol o'ynaydi, chunki barqaror biznes modellarni yaratish uchun kerakli bilim va tajriba zarur.

Inson kapitalini tijoratlashtirishning qiyinchiliklari quyidagilardan iborat:

- Bilim va ko'nikmalar yetishmasligi. Yashil iqtisodiyotning rivojlanishi uchun kerakli bilim va ko'nikmalar yetarli darajada rivojlanmagan bo'lishi mumkin. Ekologik innovatsiyalarni joriy qilish uchun mutaxassislar va texnik kadrlarning yetishmasligi bu jarayonning rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin.
- Moliyalashtirish. Inson kapitalini tijoratlashtirish ko'pincha moliyaviy resurslarga bog'liq. Innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy qilish uchun katta sarmoyalar talab etiladi. Yashil iqtisodiyotda barqaror texnologiyalar va yechimlarni moliyalashtirish qiyin bo'lishi mumkin, chunki bunday loyihalar uzoq muddatli va yuqori xavfga ega.

- Huquqiy va tartibga solish to'siqlari. Yashil iqtisodiyot sharoitida tijoratlashtirishni qo'llab-quvvatlash uchun huquqiy va tartibga solish muhitining moslashuvchan bo'lishi muhimdir. Ammo ba'zi davlatlarda tegishli qonunchilik va tartiblar yetarli darajada rivojlanmagan bo'lishi mumkin, bu esa inson kapitalini tijoratlashtirish jarayoniga to'sqinlik qiladi.

Yashil iqtisodiyot sharoitida tijoratlashtirish imkoniyatlari quyidagilar hisoblanadi:

- Yangi texnologiyalar va bozorlar. Yashil iqtisodiyot innovatsiyalarni rivojlantirish va yangi bozorlarni ochish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Qayta tiklanadigan energiya, yashil qurilish materiallari, chiqindilarni qayta ishlash va energiya samaradorligi sohalarida inson kapitali tijoratlashtirilishi mumkin.
- Ijtimoiy mas'uliyat va korporativ barqarorlik. Korporativ darajada ijtimoiy mas'uliyat va ekologik barqarorlikka qaratilgan strategiyalar inson kapitalini tijoratlashtirishning yangi usullarini ochib beradi. Yashil iqtisodiyotda mas'uliyatli kompaniyalar o'z mijozlariga va investorlarga ekologik masalalarga qaratilgan innovatsiyalarni taklif qilish orqali raqobatbardoshlikni oshirishi mumkin.
- Hukumat ko'magi va xalqaro hamkorlik. Ko'plab davlatlar yashil iqtisodiyotga o'tishni qo'llab-quvvatlash maqsadida rag'batlantiruvchi choralar ko'rmoqda. Bu esa inson kapitalini tijoratlashtirish uchun katta imkoniyatlarni yaratadi. Xalqaro tashkilotlar va davlatlar o'rtasida ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha hamkorliklar inson kapitalining tijoratlashtirilishiga yordam beradi.

Yashil iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini tijoratlashtirish an'anaviy iqtisodiyotdagi yondashuvlardan farqlanadi. Ushbu jarayon ekologik barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyatni e'tiborga olgan holda amalga oshiriladi. Innovatsiyalar, ijtimoiy tadbirkorlik va barqaror biznes modellar inson kapitalining tijoratlashtirilishiga yangi imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, bilim va ko'nikmalar yetishmasligi, moliyalashtirish va huquqiy muammolar kabi qiyinchiliklar ham mavjud. Inson kapitalining tijoratlashtirilishi yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda asosiy omil bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Î‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasidagi nutqi. 5-sentabr 2023-yil.
2. Î‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to’g’risidagi PF–158-son Farmoni, 11.09.2023-y.
3. Braun E., Wield D. Regulatiîn as a means fîr the sîñial ñîntrîl îf teñhnîlîgy. Technol. Anal. Strateg. Manag. 1994;6:259–272.
4. Klassem R.D., Whybank M.A. The Impañt îf Envirînmental Teñhnîlîgies în Manufañturing Perfîrmanñe. Acad. Manag. J. 1999;42:599–615.
5. Zhîu P., Sîng F.M., Huang X. Envirînmental regulatiîns and firms’ green innîvatiîns: Transfîrming pressure intî inñentives. Int. Rev. Financ. Anal. 2023;86:102504.
6. Zhang M., Yan T., Gaî W., Xie W., Yu Z. Hîw dîes envirînmental regulatiîn affeñt real green teñhnîlîgy innîvatiîn and strategiñ green teñhnîlîgy innîvatiîn? Sci. Total Environ. 2023;872
7. Zan Ñ., Jun J., Meng L. Dîes media ñîverage influenñe firm green innîvatiîn? The mîderating rîle îf regiînal envirînment. Technol. Soc. 2022;70.
8. Kemp R., Pîntîgliî S. The innîvatiîn effeñts îf envirînmental pîliñy instruments—A typiñal ñase îf the blind men and the elephant? Ecol. Econ. 2011;72:28–36. doi: 10.1016/j.ecolecon.2011.09.014.
9. Ìàõìóäîâ Ø. ÈÍÍÎÂÀÖÈßËÀÐÍÈ ÒÈÆÎÐÀÒËÀØÒÈÐÈØ ÌÎÄÅËËÀÐÈÍÈ ÒÀÊÌÈËËÀØÒÈÐÈØ //Eñînîmiñs and eduñatiîn. – 2022. – Ò. 23. – ¹. 2. – Ñ. 23-32.
10. Wang M., Xu M., Ma S. The effeñt îf the spatial heterogeneity of human capital structure on regional green total factor productivity. Struct. Chang. Econ. Dyn. 2021;59:427–441. doi: 10.1016/j.strueco.2021.09.018.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

INTERNET MAKONIDA O‘SMIRLARNING HISSIY BARQARORLIGINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Nabiyeva Madina
Buxoro xalqaro universiteti, psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
Latipova Chinnigul Nasriddinovna
Buxoro davlat Universiteti psixologiya kafedrasi doktoranti

Kirish

So‘nggi o‘n yillikda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib, internet makoni inson hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib keldi. O‘smirlar bu jarayonning eng faol ishtirokchilari sifatida internetdan muloqot, o‘yin, o‘rganish va o‘zini ifoda etish vositasi sifatida foydalanmoqdalar. Shu bilan birga, ularning psixologik holati, emotsional muvozanati va ijtimoiy moslashuv darajasi ham virtual muhit omillariga kuchli bog‘liq bo‘lib bormoqda.

O‘smirlik — bu shaxsning o‘zini anglash, mustaqillikka intilish va ijtimoiy identifikatsiya jarayoni faol kechadigan davrdir. Shu bois, internet makonidagi bosim, taqqoslash, salbiy kontent, “like” va “follow” kabi baholovchi mexanizmlar o‘smirning o‘ziga bo‘lgan ishonchi hamda emotsional barqarorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Ushbu maqola internet makonida o‘smirlarning hissiy barqarorligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi psixologik va pedagogik mexanizmlarni tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqsad — raqamli muhitda o‘smirlarning hissiy o‘zini boshqarish, empatiya va stressga qarshi tura olish ko‘nikmalarini shakllantirish omillarini aniqlashdir.

Materiallar va usullar

Tadqiqot Buxoro viloyatidagi uchta umumta’lim maktabida 14–17 yoshdagi 120 nafar o‘quvchi ishtirokida o‘tkazildi. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. **So‘rovnoma** – “Internetdan foydalanish odatlari va hissiy holat” savolnomasi yordamida o‘smirlarning onlayn faoliyat turlari va emotsional holatlari o‘rganildi.

2. **Kuzatuv** – o‘quvchilarning onlayn muloqotdagi xatti-harakatlari, ularning his-tuyg‘ularni ifoda etish uslublari tahlil qilindi.

3. **Psixologik test** – D. Goulman metodikasi asosida “Hissiy intellekt darajasi” testi o‘tkazildi.

4. **Suhbat va intervyu** – o‘smirlar bilan internetdagi his-tuyg‘ular, stress va muloqot odatlari haqida suhbat o‘tkazildi.

Statistik tahlil uchun SPSS dasturidan foydalanildi. Ma’lumotlar o‘rtacha ko‘rsatkichlar, foiz nisbati va korrelyatsion bog‘liqliklar asosida qayta ishlangan.

Natijalar

Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy tendensiyalarni ko‘rsatdi:

O‘smirlarning **64%** qismi internetdan kuniga 3 soatdan ortiq foydalanadi.

53% o‘smirlar “like” va “obunachi” soni ularning kayfiyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini bildirdi.

41% respondentlarda internetdan ortiqcha foydalanish natijasida hissiy charchoq va e’tibor tarqoqligi kuzatildi.

Shu bilan birga, **27%** o‘smirlar internetdan ta’limiy va ijobiy maqsadlarda foydalanganda o‘zini yanada ishonchli va motivatsiyalangan his qilishlarini ta’kidladi.

Goulman testlari natijalariga ko‘ra, yuqori hissiy intellekt darajasiga ega o‘smirlar virtual stress holatlariga nisbatan bardoshliligi, muloqotda ijobiy tilda so‘zlashi va o‘z fikrini xotirjam ifoda etishi bilan ajralib turgan.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, **hissiy intellektning rivojlanganlik darajasi bilan internetdagi salbiy ta’sirlarga qarshi tura olish qobiliyati o‘rtasida ijobiy korrelyatsiya ($r = 0.63$, $p < 0.05$)** mavjud.

Muhokama

O‘smirlarning internetdagi hissiy beqarorligi ko‘pincha shaxsiy identifikatsiya jarayonining noaniqligi, o‘zini boshqalar bilan taqqoslash, va onlayn baholovchi tizimlarga haddan ortiq bog‘liqlik bilan izohlanadi.

O‘tkazilgan suhbatlarda ko‘plab o‘smirlar “ijtimoiy tarmoqlarda ideal obraz yaratish bosimi”ni his qilishlarini bildirishdi. Bu holat ularning real hayotdagi o‘zini qabul qilish jarayonini murakkablashtiradi. Shu bois, o‘smirlarni hissiy barqarorlikka o‘rgatish nafaqat shaxsiy salomatlik, balki ijtimoiy moslashuv uchun ham zarurdir.

Psixologik treninglar tajribasi shuni ko‘rsatdiki, quyidagi yondashuvlar o‘smirlarning hissiy barqarorligini samarali rivojlantiradi:

1. **Hissiy intellekt mashg‘ulotlari** – o‘z his-tuyg‘ularini aniqlash va boshqarish ko‘nikmasini shakllantiradi;

2. **Empatiya va kommunikatsiya o‘yinlari** – boshqalar his-tuyg‘ularini anglashni kuchaytiradi;

3. **Art-terapiya va musiqiy terapiya** – salbiy emotsiyalarni konstruktiv yo‘nalishga buradi;

4. **Raqamli gigiyena treninglari** – internetdan ongli va xavfsiz foydalanish madaniyatini rivojlantiradi.

Shuningdek, o‘qituvchi va ota-onalarning raqamli madaniyat darajasi ham o‘smirlarning onlayn barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Oilaviy qo‘llab-quvvatlash mavjud bo‘lgan hollarda o‘smirlar internetdagi salbiy kontentni tanqidiy qabul qiladilar, hissiy stressga bardoshliroq bo‘ladilar.

Xulosa

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Internet makoni o‘smirlarning hissiy holatiga sezilarli psixologik ta’sir ko‘rsatadi, bu ta’sir ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin.

2. Hissiy barqarorlikning asosiy komponentlari — o‘zini anglash, o‘zini boshqarish va empatiya — o‘smir shaxsining internetdagi faoliyatida yetakchi rol o‘ynaydi.

3. Hissiy intellektni rivojlantirish, raqamli gigiyena madaniyatini shakllantirish va oilaviy-psixologik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari o‘smirlarning virtual stressga bardoshliligini oshiradi.

4. Ta’lim jarayonida psixologik treninglar, raqamli madaniyat darslari va hissiy savodxonlik mashg‘ulotlarini joriy etish zarur.

5. Internetdan ijobiy, maqsadli foydalanish o‘smirlarning o‘ziga ishonchini oshirib, shaxsiy o‘sish uchun zamin yaratadi.

Tasdiqlash

Ushbu tadqiqot Buxoro xalqaro universitetining psixologiya kafedrasi huzurida 2025-yil mart–may oylarida o‘tkazilgan. Tadqiqot jarayonida barcha respondentlarning roziligi olingan, natijalar shaxsiy maxfiylikni saqlagan holda tahlil qilindi.

Ma’lumotnomalar

1. G‘ulomova, M. (2021). *O‘smirlarning hissiy intellektini rivojlantirishda oilaning roli.* Toshkent: TDPU nashriyoti.

2. Bazarova, N. (2020). *Psixologik xavfsizlik va emotsional barqarorlik muammolari.* Toshkent: Fan.

3. Twenge, J. M. (2019). *iGen: Why Today's Super-Connected Kids Are Growing Up Less Happy.* New York: Atria Books.

4. Goleman, D. (2018). *Emotional Intelligence.* New York: Bantam Books.

5. Valkenburg, P. M., & Peter, J. (2021). *Media Effects and Youth Well-being. Journal of Communication, 71*(2), 30–49.

6. Karimov, A. (2021). *Raqamli psixologiya asoslari.* Toshkent: Yangi asr avlodi.

7. Hojimatova, D. (2023). *Raqamli makonda shaxsning psixologik moslashuvi.* Toshkent: Innovatsion ta'lim markazi.

8. Nuritdinov, B. (2020). *Shaxs psixologiyasi va emotsional rivojlanish.* Samarqand: SamDU nashriyoti.

9. Kadirova, S. (2022). *Virtual muloqot va o'smirlarning psixologik xususiyatlari.* Psixologiya jurnali, 4(3), 41–47.

10. Anderson, M., & Jiang, J. (2018). *Teens, Social Media & Technology 2018.* Pew Research Center.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

Buyurtmali kalkulyatsiyada bosh kitob va yordamchi registrlar

Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Buxgalteriya hisobi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Tel: +998937284308
e-mail: dilnozaxudaynazarova17@gmail.com
Rustamova Aziza Baxtiyarovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Baxolash ishi” yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Buyurtmali kalkulyatsiya maxsulot tannarxini aniqlash usullaridan biri bo‘lib, har bir aloxida buyurtma yoki maxsulot birligi bo‘yicha xarajatlarni xisoblashga yo‘naltirilgan. Ushbu yondashuv ishlab chiqarish jarayoni o‘ziga xos bo‘lgan va xar xil buyurtmalar asosida shakllanadigan korxonalar uchun muxim axamiyatga ega. Buyurtmali kalkulyatsiya tizimi materiallar, mexnat va ishlab chiqarish bilan bog‘liq bilvosita xarajatlarni alohida xisobga olish orqali maxsulotning aniq tannarxini aniqlash imkonini beradi. Ushbu maqolada buyurtmali kalkulyatsiya usulining moxiyati, boshqaruv jarayonidagi o‘rni, uning korxona faoliyatiga ko‘rsatadigan ta’siri hamda ishlab chiqarilayotgan maxsulot tannarxini buyurtmali usul orqali hisoblash juda oddiy va qulay ekanligi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Hisob tizimi, boshqaruv, tannarx, kalkulyatsiya, buyurtmali kalkulyatsiya, samaradorlik, tahlil, yillik budjet, ma’lumotlar tizimi, xarajatlar xisobi.

Kirish.

Moliyaviy hisobot va hisob-kitob tizimlarida buyurtmali kalkulyatsiya (customized accounting) — bu korxona yoki tashkilotning o‘ziga xos ish jarayonlari, mahsulotlar va xizmatlarga moslashtirilgan hisoblash tizimi hisoblanadi. Bu tizim, standart moliyaviy hisob-kitob shakllari bilan cheklanmay, korxonaning individual ehtiyojlariga moslashadi, resurslarni optimal boshqarish va moliyaviy nazoratni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Buyurtmali kalkulyatsiyada hisob-kitobning asosiy elementlari sifatida bosh kitob (general ledger) va yordamchi registrlar (subsidiary ledgers) ajralib turadi.

- Bosh kitob — korxona moliyaviy harakatlarini yagona tizimli ravishda aks ettiradigan asosiy hisob. U moliyaviy hisob-kitobning markaziy manbai bo‘lib, barcha aktiv, passiv, daromad va xarajatlarni umumlashtiradi.
- Yordamchi registrlar — bosh kitobdagi ma’lumotlarni yanada batafsil va tahliliy ko‘rinishda aks ettirishga xizmat qiluvchi hisoblar. Masalan, mijozlar, yetkazib beruvchilar yoki mahsulot turlari bo‘yicha individual hisoblar yordamchi registrlarda yuritiladi.

Buyurtmali kalkulyatsiyada bosh kitob va yordamchi registrlar o‘rtasidagi integratsiya va uyg‘unlik hisobning aniqligi, tezkorligi va moliyaviy tahlil sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, bu mavzu zamonaviy moliyaviy boshqaruv, korporativ hisobot va axborot texnologiyalari kontekstida katta ahamiyatga ega.

Buyurtmali (job-order) kalkulyatsiya ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarida har bir buyurtma yoki ish bo‘yicha alohida xarajatlarni aniqlash va nazorat qilish usulidir. Bu hisoblash tizimi korxona uchun mahsulot yoki xizmatning aniq tannarxini hisoblash, narx belgilash va foyda tahlili o‘tkazishda asosiy vosita vazifasini bajaradi. Buyurtma asosida ishlab chiqarishda xarajatlar turli buyurtmalar o‘rtasida to‘g‘ri taqsimlanishi hamda har bir buyurtma bo‘yicha material, mehnat va umumiy ishlab chiqarish xarajatlari alohida qayd etilishi zarur.

Bosh kitob va yordamchi registrlar buyurtmali kalkulyatsiya tizimida hisob-kitobning asosiy elementlaridan hisoblanadi. Bosh kitob korxonaning umumiy moliyaviy holatini aks ettiruvchi, hisob hisobvarag‘lari bo‘yicha konsolidatsiyalangan ma’lumotlarni beradi; yordamchi registrlar esa har bir buyurtma, mijoz yoki joylashuv bo‘yicha batafsil xarajatlar va hisoblar tarixini saqlaydi. Yordamchi registrlar orqali bosh kitobdagi umumiy ko‘rsatkichlar aniqroq, shaffof va tekshiriladigan bo‘ladi — bu esa hisobdorlik, ichki nazorat va qaror qabul qilish sifatini oshiradi. Ushbu maqolada buyurtmali kalkulyatsiya asoslari, bosh kitob va yordamchi registrlarning o‘rni hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi, amaliy tashkil etilishi va samarali foydalanish usullari tahlil qilinadi. Maqolaning maqsadi — nazariy asoslarni amaliy misollar bilan bog‘lab, korxonalarda xarajatlarni to‘g‘ri hisoblash va nazorat qilish uchun aniq va foydalanishga qulay tavsiyalar berishdir.

Korxonada ishlab chiqarilayotgan maxsulot (ish, xizmat) birligining tannarxini aniqlashda quyidagi to‘rtta usulning biridan foylalaniladi:

- Oddiy usul

- Buyurtmali usul
- Jarayonli usul
- Normativ usul.

Ba’zi bir mamlakatlarda bu usullardan tashqari yana boshqa, xususan o‘rtacha tannarx, koeffisiyentlar usulida ham foydalaniladi.

Korxonada boshqaruv hisobini tashkil qilish va yuritish uchun eng samarali ishlatilishi mumkin bo‘lgan usullar-bu tannarxni xisoblashning **buyurtmali** va **jarayonli** usullaridir.

Xarajatlarning xisobga olishning va maxsulot tannarxini hisolashning buyurtmali usuli-bu faqat bir maxsulot turini ishlab chiquvchi shuningdek, maxsus buyurtma asosida ishlovchi korxonalar tomonidan foydalniladigan usuldir. Bu usulda barcha xarajatlar alohida bo‘linmalar yoki xisobot davri uchun emas, har bir buyurtma bo‘yicha yig‘iladi.

Ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlar hisobini turli usullar bilan tashkil etish mumkin:

1) xarajatlarni baholash usuli bo’yicha;

2) ishlab chiqarishning texnologik jarayonlariga nisbatan xarajatlar nisbati bo’yicha;

3) xarajatlarni mahsulot tannarxiga kiritishning to’liqligi bo’yicha.

Xarajatlarini baholash usuli bo’yicha haqiqiy, normativ va rejaviy (taxminiy) tannarx bo’yicha xarajatlar hisobi usullarini ajratib olish zarur.

Buyurtmalar bo’yicha usul mohiyati shundan iboratki, xarajatlar hisobi bir buyum yoki bir xildagi buyumlarning uncha katta bo’lmagan turkumini tayyorlashda buyurtmalar bo’yicha amalga oshiriladi.

Buning uchun har bir buyurtmaga buxgalteriyada alohida kartochka ochiladi, unda buyurtma bo’yicha xarajatlar uni bajarishning butun muddati mobaynida hisobga olinadi. Xarajatlarni hisobga olish va tannarxni kalkulatsiya qilishning buyurtmali usuli quyidagi o’ziga xos xususiyatlarga ega:

– alohida buyurtmalar bo’yicha, shuningdek, bir martalik mahsulot turi ishlab chiqarilayotganda qo’llaniladi;

– bu usulda xarajatlar muayyan hisobot davri (bir oy, chorak, yil) oralig’ida emas, balki bajarilayotgan buyurtma davri bo’yicha aniqlanadi.

– qo’shimcha analitik ma‘lumotlarni yig’ib borish uchun buyurtmalar kartochkasidan foydalanish mumkin.

Ushbu buyurtmalar kartochkasidan xarajatlar tegishli javobgarlik markazlari bo’yicha yig’ib boriladi. Bu usulda barcha bevosita xarajatlar ishlab chiqarilgan yoki

buyurtma birligiga olib boriladi. Buyurtmali usulda umumishlab chiqarish xarajatlari maxsus usullar bo'yicha aniqlanadi va mahsulot tannarxiga olib boriladi.

Umumishlab chiqarish xarajatlari taqsimlanishining eng muqobil usuli normativ koeffitsiyentlar usulidir.

Koeffitsiyentlar hisoblash uch bosqichda amalga oshiriladi:

– umumishlab chiqarish xarajatlari rejasining yillik budjeti tuziladi;

– xarajatlarining umumiy summasi rejalashtirilayotgan ishlab chiqarish hajmida qarab aniqlanadi. *(Bunda xodimlarning mehnat haqi sarflangan kishi-soat, sarflangan mashina-soat va hokazo)*;

– rejalashtirilayotgan hisobot davri uchun aniqlangan umumishlab chiqarish xarajatlari summasi rejalashtirilgan ishlab chiqarish hajmiga bo'linadi.

Buyurtmalar bo'yicha kalkulatsiyalar yakka tartibda ishlab chiqarishda mahsulotning takrorlanmaydigan yoki kamdan kam takrorlanadigan turlarini ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Bu usulda barcha xarajatlar alohida bo'linmalar yoki hisobot davri bo'yicha emas, balki har bir buyurtma bo'yicha to'planadi.

Korxonada bitta «Tugallanmagan ishlab chiqarish» hisobvarag'i yuritiladi va shu hisobvaraq bo'yicha detallashtirish (tafsillashtirish) hamda tahliliy axborot buyurtmalar kartochkalarida olib boriladi. Aniq bir buyurtmani bajarishga barcha bo'linmalar bo'yicha xarajatlar ayni shu kartochkalarda to'planadi.

Buyurtmali kalkulatsiya qilishning asosiy vazifalari:

– ko'p buyurtmalar belgilangan davr davomida bajariladi;

– ishlab chiqarish materiallariga, ishlab chiqarishda band bo'lgan ishchilarning mehnatiga haq to'lashga xarjatlar va ishlab chiqarish ustama xarajatlari har bir buyurtma bo'yica yig'iladi;

– buyurtma bo'yicha kartochka asosiy hujjat hisoblanadi;

– xarajatlar buyurtmalar bajarilishiga qarab hisobdan chiqariladi.

Xarajatlarni aniq bir buyurtmaga o'tkazish uchun quyidagi amallarni ko'rsatish mumkin:

1. Buyurtmani xarajatlar obyekti sifatida aniqlash.
2. Buyurtma bilan bog'liq xarajatlarni (materiallar, asosiy mehnat) aniqlash.
3. Buyurtmaga ustama xarajatlarni taqsimlash uchun bazani tanlash.
4. Ustama xarajatlarni taqsimlash bazasiga kiritish.
5. Ustama xarajatlarni taqsimlash stavkasini hisoblash.
6. Ustama xarajatlarni taqsimlash stavkasidan foydalanib, ustama xarajatlarni buyurtmaga o'tkazish.
7. Buyurtma bo'yicha umumiy xarajatlarni (materiallar, mehnat, ishlab chiqarish

ustama xarajatlarini) aniqlash.

Mehnat va materiallar kabi to'g'ridan to'g'ri qilinadigan xarajatlar mahsulot yoki xizmatning aniq bir turiga bevosita o'tkazilishi mumkin. Umumiy ishlab chiqarish xarajatlari faqat maxsus sun'iy usullar yordamida mahsulot turlariga taqsimlanishi mumkin. Ularni hisobdan chiqarish chog'ida umumiy ishlab chiqarish xarajatlarining har bir bo_linma yoki faoliyat yuritayotgan obyekt uchun belgilangan me'yoriy stavkalaridan foydalaniladi.

Buyurtmalar bo'yicha kalkulatsiya poligrafiya sanoati, kemasozlik, konsalting kompaniyalarida qo'llaniladi.

Taqsimlash stavkasini aniqlash:

1. Yillik budjet, umumiy ishlab chiqarish xarajatlari rejasini tuzish. Umumiy ishlab chiqarish xarajatlarining taxmin qilingan miqdorini hisoblash xarajatlar dinamikasi va ishlab chiqarishning nazarda tutilgan hajmi asosida amalga oshiriladi. Bu operatsiyani kelgusi hisobot davriga har bir ishlab chiqarish bo'linmasi uchun bajarish zarur.

2. Umumiy ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash bazasini tanlash. Buning uchun ishlab chiqarish faoliyatining biror o'lchagichidan (mezonidan), masalan, ishlangan kishi soat soni, mashina-soat miqdori, ishlab chiqarishda band bo'lgan ishchilarga hisoblangan ish haqi summasidan foydalanib, ishlab chiqarish umumiy xarajatlari bilan tayyor mahsulot hajmi o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanadi. Tanlangan baza ishlab chiqarishning umumiy xarajatlarini ishlab chiqarilgan mahsulotning hajmi bilan bog'liq qilishi kerak.

3. Kelgusi davrga prognoz qilingan ishlab chiqarish umumiy xarajatlari miqdorini ishlab chiqarishning prognoz qilingan va tanlangan taqsimlash bazasi ko'rsatkichlarida (soatlar, pulda) ifodalangan miqdoriga taqsimlash. Bu operatsiya natijasida ishlab chiqarish umumiy xarajatlarini taqsimlashning me'yoriy stavkasi olinadi.

So'ngra ishlab chiqarish umumiy xarajatlari ana shu stavkadan foydalanib, mahsulotning har bir turiga o'tkaziladi, buning uchun taqsimlash bazasi ko'rsatkichininig haqiqiy qiymati taqsimlashning me'yoriy stavkasiga ko'paytiriladi. Bu summa materiallar sarfiga va ishlab chiqarish ishchilariga hisoblangan mehnat haqiga qo'shiladi.

Natijada mahhsulotning hisoblangan tannarxi kelib chiqadi, unda faqat ikkita haqiqiy element bo'ladi, ishlab chiqarish umumiy sarflari taqsimlashning me'yoriy bazasi asosida mahsulotga o'tkazilgan bo'ladi. Hisobot davri oxirida umumiy ishlab chiqarish xarajatlari hisobvarag'ida oxirgi qoldiq ma'lum bo'ladi, ya'ni haqiqatan

qilingan ishlab chiqarish umumiy xarajatlari bilan mahsulot tannarxiga o'tkazilgan xarajatlar o'rtasidagi tafovut aniqlanadi.

Ortiqcha taqsimlangan ishlab chiqarish umumiy ustama xarajatlari «Sotilgan mahsulot tannarxi» debet hisobvarag'iga o'tkaziladi. Haqiqiy kalkulatsiyalashda haqiqiy xarajatlar: bevosita materiallar, bevosita mehnat va ishlab chiqarish ustama xarajatlaridan foydalaniladi.

Me'yoriy kalkulatsiyalashda haqiqiy xarajatlar: bevosita materiallar, bevosita mehnatdan foydalaniladi, ishlab chiqarish ustama xarajatlari esa ustama xarajatlar baza mezonining haqiqiy miqdoriga ko‗paytirilib, ustama xarajatlarni taqsimlashning reja stavkasidan foydalanib, buyurtmalarga o'tkaziladi. Mahsulot (ish xizmat)lar tannarxini hisoblashning buyurtmali usulida kalkulatsiya obyekti muayyan miqdordagi mahsulotni ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‗rsatish)ga olingan buyurtma hisoblanadi. Mahsulotni ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko‗rsatish)da buyurtmachi va ishlab chiqaruvchi o‗rtasida tuzilgan shartnoma asosiy buxgalteriya hisobi hujjati hisoblanadi.

Mazkur shartnomada quyidagilar o'z ifodasini topadi:

shartnoma obyekti,

shartnoma su'bektlari va ularning manzillari,

mahsulot (ish, xizmat)ning hajmi va yuklab jo'natish (qabul qilib olish) muddati,

shartnoma bahosi,

to'lov shakllari va hokazo.

Buyurtmali usulda mahsulot tannarxini hisoblash yakka va turkumli ishlab chiqarishlarda qo'llaniladi. Buyurtmalar bo'yicha material, mehnat haqi va shu kabi xarajatlar alohida taqsimlash jadvallarida guruhlanadi. Buyurtma obyektining tannarxi ochilgan kundan boshlab amalda ishlab chiqarish xarajatlarining yig'indisi summasi orqali aniqlanadi.

Buning uchun har bir buyurtmaga buxgalteriyada alohida kartochka ochiladi, unda buyurtma bo'yicha xarajatlar buyurtma bajarishning butun muddati mobaynida hisobga olinadi. Bevosita xarajatlar birlamchi hujjatlar asosida sexlar va buyurtmalar nuqtayi nazaridan hisobga olinadi. Bunday xarajatlar hisobi bo'yicha birlamchi hujjat har bir buyurtmaga alohida rasmiylashtiriladi.

Bevosita xarajatlar korxonada mutanosib ravishda qabul qilingan taqsimot bazasida taqsimlash yo'li bilan tannarxga kiritiladi. Buyurtmani bajarish muddati davomida xarajatlar tugallanmagan ishlab chiqarish (mahsulot) sifatida hisobga olinadi. Ishlar tugagandan keyin kartochka yopiladi va buyurtmani bajarishga ketgan xarajatlar chiqiladi.

Bu xarajatlar qaytib kelgan chiqindilar, mutlaqo yaroqsiz va foydalanilmagan materiallar omborga qaytarish xarajatlari chiqarib tashlangach, buyurtma bo_yicha ishlangan mahsulotning haqiqiy tannarxi bo_lib qoladi. Bordi-yu, buyurtmaga muvofiq bir necha xil buyum tayyorlansa, birlik tannarx xarajatlar summasini ishlab chiqilgan mahsulot miqdoriga kalkulatsion moddalari bo'yicha bo'lish bilan aniqlanadi.

Sut va sut mahsulotlarida buyurtma bo'yicha usul sut mahsulotlari korxonasida, savdo va texnologik jihozlar va h.k. ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Ko'pgina hollarda tashkilot, korxona amaliy faoliyatida qayta ishlov bo'yicha usul bilan bir qatorda buyurtma bo'yicha usulning unsurlarini qo'shib yuboruvchi aralash tizimlardan foydalaniladi.

Bunday tizimlardan turkumli va oqimli ishlab chiqarishlarda foydalaniladi: qandolatlar ishlab chiqarish, sut va sut ishlab chiqarish sanoati va h.k. Jumladan, operatsiyalar bo'yicha usul eng istiqbolli aralash tizimlardan biri hisoblanadi, undan foydalanishda xarajatlarni kiritishning asosiy obyekti operatsiya hisoblanadi. Har bir operatsiyaga xarajatlar mazkur operatsiyadan o'tgan mahsulotlar birliklari bo'yicha qo'shimcha xarajatlarning o'rtacha salmog'iga mutanosib ravishda taqsimlanadilar.

Asosiy materiallarga ketgan xarajatlar buyurtma bo'yicha usulga o'xshab mahsulotning muayyan turiga kiritiladi. Operatsiyalar bo'yicha usulning afzalligi kalkulatsiyani texnologik sharoitga —tirkashdan iborat.

Ishlab chiqarish korxonalari xarajatlarni mahsulot tannarxi to'lanishiga bog'liq holda xarajatlar hisobini to'liq yoki cheklangan tannarx (marjinal usul) bo'yicha tashkil etish mumkin.

To'liq tannarx bo'yicha xarajatlar hisobi usulida mahsulot tannarxi doimiy va o'zgaruvchan bevosita va bilvositaga bo'linishdan qat'i nazar korxonaning barcha chiqimlari kiritiladi. Bevosita mahsulotga kiritib bo'lmaydigan xarajatlarni avvaliga ular kelib chiqqan javobgarlik markazlari bo'yicha taqsimlanadi, keyin esa tanlangan bazaga mutanosib ravishda mahsulot tannarxi olib o'tiladi.

Ko'pincha taqsimlash bazasi sifatida ishlab chiqarish ishchilarining ish haqi, ishlab chiqarish tannarxi va h.k. lar hisoblanadi. To'liq tannarx bo'yicha xarajatlar hisobi usuli birgina buyumni chiqarish va sotish munosabati bilan korxona qiladigan barcha xarajatlar haqida tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi.

Doimiy xarajatlar marjinal daromadni kamaytirishga hisob qilingandan keyin operatsion foyda-netto foydasi olinadi. Marjinal daromad butun mahsulot kabi alohida buyum rentabelligining umumiy darajasi haqida darak beradi.

Binobarin, buyumlar sotuv bahosi va o'zgaruvchan xarajatlar summasi o'rtasidagi farq qancha baland bo'lsa, marjinal daromad va rentabellik darajasi ham

shuncha baland bo'ladi. Bundan tashqari xarajatlarning doimiy va o'zgaruvchanlarga bo'linishi korxona faoliyatini boshqarish va tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi, jumladan, assortiment siyosati, shuningdek, zararli faoliyat yuritish holda yopib qo'yish yoki kasod topganligini e'lon qilish haqida qaror qabul qilish uchun ham kerak.

Xulosa. Buyurtmali kalkulyatsiyada bosh kitob korxonaning moliyaviy harakatlarini umumlashtiruvchi asosiy hisob bo'lib, moliyaviy ma'lumotlarning yagona manbai sifatida xizmat qiladi. Yordamchi registrlar esa bosh kitobdagi ma'lumotlarni batafsil va tahliliy shaklda aks ettirib, moliyaviy nazorat va hisobotni optimallashtirishga yordam beradi.

Bosh kitob va yordamchi registrlar o'rtasidagi uyg'unlik korxona moliyaviy hisobotining aniqligi va tezkorligini ta'minlaydi. Buyurtmali kalkulyatsiya tizimi bu jarayonni korxonaning o'ziga xos ehtiyojlariga moslashtiradi, shu bilan moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Buyurtmali kalkulyatsiya tizimida bosh kitob va yordamchi registrlar bir-birini to'ldiruvchi muhim komponentlar bo'lib, ularning samarali integratsiyasi korxonaning moliyaviy boshqaruvi va hisobot tizimini modernizatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida bu jarayonlarni avtomatlashtirish va optimallashtirish imkoniyatlari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.R. O. Xolbekov. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2011-yil

2. B. I. Isroilov. R.O.Xolbekov. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Tafakkur nashriyoti.2020.

3. M. Ostonaqulov. Byudjet hisobi. Talqin nashriyoti. 2008-yil.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА В НЕФИЛОЛОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ

С.Н. Шониёзова
и.о. доцента кафедры «Узбек(рус) тили» ТГТрУ

Аннотация

В статье рассматриваются современные возможности применения технологий искусственного интеллекта (ИИ) в процессе преподавания русского языка в нефилологических вузах. Анализируются особенности восприятия языкового материала студентами технических, экономических и естественнонаучных направлений. Показано, что ИИ способен выполнять функции интерактивного ассистента, индивидуализировать обучение, стимулировать речемыслительную активность и развивать метаязыковую компетенцию. Автор обосновывает методическую ценность использования цифровых инструментов на основе ИИ и указывает на риски чрезмерной автоматизации учебного процесса.

Ключевые слова: искусственный интеллект, русский язык, цифровизация, методика преподавания, высшее образование, индивидуализация обучения, нейросети.

Annotatsiya

Maqolada sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining nofilologik yo‘nalishdagi oliy ta’lim muassasalarida rus tili darslarida qo‘llanilishi masalalari yoritilgan. Texnik, iqtisodiy va tabiiy fanlar yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun SI asosidagi vositalarning o‘quv jarayoniga ta’siri tahlil qilingan. Maqolada sun’iy intellekt vositalari o‘qituvchiga yordamchi sifatida til o‘rganishni individuallashtirish, talabalarning fikrlash va nutq faolligini rivojlantirish, o‘quv motivatsiyasini oshirish imkonini berishi ko‘rsatilgan. Shu bilan birga, ta’lim jarayonining haddan tashqari avtomatlashtirilishi xavflari ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, rus tili, raqamlashtirish, o‘qitish metodikasi, oliy ta’lim, individuallashtirilgan o‘qitish, neyrotarmoq.

Abstract

The article explores the modern possibilities of applying artificial intelligence (AI) technologies in teaching Russian as a subject in non-philological universities. It analyzes the specific features of students’ language perception in technical, economic,

and natural science programs. The author demonstrates that AI can serve as an interactive assistant, personalize learning, and enhance students' linguistic and cognitive activity. The methodological value of AI-based digital tools is emphasized, along with potential risks of excessive automation in education.
Keywords: artificial intelligence, Russian language, digitalization, teaching methodology, higher education, personalized learning, neural networks.

Современная система высшего образования переживает глубокие трансформации, обусловленные процессами цифровизации и внедрением технологий искусственного интеллекта (ИИ). Если еще десятилетие назад компьютер рассматривался лишь как вспомогательный инструмент для работы с текстом, то сегодня интеллектуальные системы выступают как полноценные субъекты образовательного взаимодействия, способные анализировать, интерпретировать и даже генерировать языковую информацию.

Особое значение эти процессы приобретают в контексте преподавания русского языка в нефилологических вузах. Для студентов инженерных, экономических, медицинских, информационно-технологических и других направлений гуманитарные дисциплины традиционно воспринимаются как второстепенные. Однако именно русский язык — как средство профессиональной и научной коммуникации — формирует способность будущих специалистов к точному выражению мысли, аргументированию, созданию отчетов, аннотаций, презентаций и научных текстов.

Поэтому возникает задача: как сделать обучение русскому языку в нефилологических вузах не только необходимым, но и увлекательным, практикоориентированным и современным. В этой связи технологии ИИ открывают принципиально новые возможности для индивидуализации и активизации учебного процесса.

Степень изученности проблемы достаточно высока. В последние годы внимание исследователей привлекают педагогические аспекты цифровизации (А.А. Андреев, 2020; Т.В. Кравченко, 2021), вопросы методики преподавания русского языка в цифровой среде (Е.В. Тарасова, 2022; Н.В. Богданова, 2023), а также влияние нейросетевых технологий на когнитивные процессы обучающихся (J. Lin, 2022; M. Zawacki-Richter, 2023). Однако именно применение ИИ в нефилологических вузах изучено недостаточно: наблюдается дефицит системных исследований, связывающих когнитивную, лингвистическую и методическую составляющие обучения. Таким образом, цель

данной статьи — рассмотреть педагогические и методические возможности применения искусственного интеллекта на уроках русского языка в нефилологических вузах, определить потенциальные преимущества и ограничения этого процесса.

Использование ИИ в образовательном процессе предполагает взаимодействие человека и машины в режиме совместного познания. Искусственный интеллект, обученный на огромных корпусах текстов, способен выполнять широкий спектр функций: от генерации примеров и упражнений до анализа ошибок и построения индивидуальных траекторий обучения.

В контексте преподавания русского языка студентам нефилологических специальностей ИИ выполняет прежде всего адаптивно-диагностическую функцию. Например, при помощи систем ChatGPT, YandexGPT или Bing Copilot преподаватель может быстро получить персонализированные задания, ориентированные на уровень владения языком конкретного студента. Нейросеть способна определить типичные ошибки, объяснить их причины и предложить рекомендации по исправлению.

Следующая важная функция — интерактивно-коммуникативная. Применение ИИ позволяет моделировать речевые ситуации, имитировать диалог с собеседником, тренировать навыки устной и письменной коммуникации. Например, студент, обучающийся по технической специальности, может использовать ИИ для составления отчета о лабораторной работе или для подготовки аннотации к научной статье, получая мгновенную обратную связь.

Особое значение имеет мотивационный аспект. Многие студенты нефилологических направлений испытывают трудности при работе с теоретическими категориями лингвистики. Однако взаимодействие с интеллектуальными системами, способными объяснять правила в разговорной, понятной форме, вызывает интерес и вовлекает обучающихся в процесс.

Применение ИИ способствует формированию метаязыковой компетенции — умения осознавать и анализировать языковые явления. Когда студент видит, как нейросеть редактирует текст, объясняя, почему выбран именно тот или иной вариант, он не просто запоминает правило, но учится рассуждать о языке. Это приближает обучение к когнитивно-деятельностному типу, где знание не сообщается, а конструируется в совместной деятельности.

Кроме того, ИИ активно используется для создания цифровых образовательных сред, где студент может самостоятельно работать с текстом: проводить стилистический анализ, выявлять речевые клише, оценивать

лексическую насыщенность. Примером служат системы Grammarly, DeepL Write, Text Analyzer и платформы на базе ИИ «Сферум».

Однако использование искусственного интеллекта в учебном процессе требует осознанного педагогического сопровождения. Существует опасность превращения нейросети в «автомат по ответам», когда студент перестает мыслить самостоятельно. Поэтому ключевая роль преподавателя состоит не в замене традиционных методов, а в интеграции ИИ как инструмента развития критического и лингвистического мышления.

Примером успешной интеграции может служить методика «диалог с искусственным интеллектом». Преподаватель задает студентам задание: составить текст делового письма, затем проверить его при помощи ChatGPT, после чего проанализировать, какие изменения внесла система, согласны ли они с ними и почему. Такой подход формирует рефлексивную компетенцию, критическое отношение к цифровым источникам и понимание того, что искусственный интеллект — не истина в последней инстанции, а партнер по обучению.

Еще одно направление — использование ИИ для разработки тестов и заданий в автоматизированных обучающих системах. Например, нейросеть может составить тест на знание пунктуации или грамматических конструкций в зависимости от изучаемой темы, варьируя уровень сложности. Это особенно важно для массовых вузов, где у преподавателей ограничены временные ресурсы.

В то же время необходимо учитывать этические и академические риски. ИИ может способствовать плагиату, подмене самостоятельной работы студента, нарушению принципов академической честности. Поэтому в вузах важно формировать цифровую грамотность и культуру ответственного использования интеллектуальных систем.

В перспективе преподавание русского языка при участии ИИ может перейти на новый уровень — гибридное обучение, сочетающее живое взаимодействие и цифровую поддержку. Такие модели, как «flipped classroom» («перевернутый класс») или «smart education», уже успешно применяются в Корее, Китае, Финляндии, и их адаптация к российскому контексту открывает большие возможности для нефилологических направлений подготовки.

Использование искусственного интеллекта на уроках русского языка в нефилологических вузах представляет собой инновационное направление методики преподавания, объединяющее когнитивные, лингвистические и

технологические аспекты. ИИ способен не только облегчить работу преподавателя, но и повысить мотивацию студентов, индивидуализировать обучение, развить навыки критического и аналитического мышления.

Однако полная эффективность возможна лишь при грамотной педагогической интеграции: искусственный интеллект должен выступать средством, а не целью обучения. Главной задачей остается формирование у студентов способности осознанно и ответственно использовать цифровые ресурсы для совершенствования собственной речевой культуры и профессиональной коммуникации.

Таким образом, ИИ не заменяет преподавателя, а помогает ему создавать новое образовательное пространство, где человек и машина становятся соавторами учебного процесса.

Список литературы

1. Андреев А.А. Цифровизация образования: вызовы и перспективы // Высшее образование сегодня. — 2020. — №5. — С. 12–19.
2. Богданова Н.В. Искусственный интеллект в преподавании русского языка как иностранного // Русистика XXI века. — 2023. — №2. — С. 45–53.
3. Кравченко Т.В. Педагогические аспекты цифровой трансформации образования. — М.: Просвещение, 2021.
4. Тарасова Е.В. Методика преподавания русского языка в цифровой среде. — СПб.: РГПУ им. Герцена, 2022.
5. Lin, J. AI in Language Learning: Opportunities and Challenges. — London: Routledge, 2022.
6. Zawacki-Richter, M. Artificial Intelligence in Higher Education: A Review of Research and Practice. — Springer, 2023.
7. UNESCO. Artificial Intelligence in Education: Guidance for Policy Makers. — Paris: UNESCO Publishing, 2021.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

O‘ZBEKISTONDA DUTOR SAN’ATI: RIVOJLANISH JARAYONI, TARIXI, BUGUNGI KUNI VA ERTASI.

O‘zDK huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati institute Iqtidorli talabalarning ilmiy -tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i
Toxtaoxunova Guliniso Shavkatbek qizi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda dutor san’atining shakllanish va rivojlanish bosqichlari, tarixiy ildizlari, hududiy ijrochilik maktablari hamda zamonaviy davrdagi ahamiyati yoritilgan. Dutor san’ati xalqning ma’naviy merosi, estetik qarashlari va milliy o‘zligining ifodasi sifatida tahlil qilinadi. Shu bilan birga, bugungi kunda dutor ijrochiligining ta’lim tizimidagi o‘rni, ustoz-shogird an’analari, xalqaro e’tiroflar va istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlari tahliliy asosda ko‘rib chiqiladi.
Kalit so‘zlar: dutor, milliy cholg‘u, musiqa san’ati, maqom, ijrochilik maktablari, madaniyat, ma’naviyat.
Аннотация: В статье рассматриваются этапы становления и развития искусства дутарного исполнительства в Узбекистане. Анализируются исторические корни, региональные школы, выдающиеся мастера и современное состояние дутарного искусства. Автор подчёркивает значение дутарной традиции как важнейшего элемента нематериального культурного наследия узбекского народа, раскрывает её роль в формировании национальной идентичности, а также рассматривает перспективы дальнейшего развития в условиях глобализации.
Ключевые слова: дутар, народные инструменты, музыкальное искусство, маком, традиции, культура, духовность.
Abstract: The article explores the formation and development of the dutar art in Uzbekistan, highlighting its historical roots, regional performance schools, and current significance. The dutar is analyzed as a reflection of the Uzbek people's spiritual values, musical heritage, and national identity. The paper also discusses the role of dutar art in modern education, its recognition by UNESCO, and future development prospects in the context of cultural globalization.
Keywords: dutar, national instruments, musical heritage, maqom, performance schools, culture, spirituality.

O‘zbek xalqining ma’naviy madaniyati asrlar davomida turli san’at turlarini o‘zida mujassam etib kelgan. Ulardan eng qadimiy va xalq orasida keng tarqalgan yo‘nalishlardan biri bu dutor san’atidir. Dutor – ikki torli cholg‘u bo‘lib, o‘zining

jozibali, sokin, ammo chuqur ma’noli ohangi bilan inson qalbiga kirib boradi.

Musiqa – xalq ruhining tili, dutor esa o‘zbek xalqining qalb sadosidir. Shu boisdan dutor nafaqat musiqiy asbob, balki madaniy va ruhiy meros sifatida qadrlanadi. Uning tarixi, shakli, ijro uslublari va maktablari – bularning barchasi xalqning madaniy taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir.

Tarixiy manbalarga ko‘ra, dutorga o‘xshash ikki torli cholg‘ular qadimgi Sharq madaniyatlarida keng tarqalgan. Xorazm, Baqtriya, So‘g‘d, Marg‘iyona kabi hududlarda topilgan haykalchalar va devor rasmlarida torli cholg‘ularni chalayotgan sozandalar tasvirlari uchraydi. Bu esa torli cholg‘ularning qadimiyligini isbotlaydi [1]. XI–XII asrlarda yashagan mashhur musiqashunos Al-Farobiy “Kitob al-musiqa al-kabir” asarida torli cholg‘ularning tuzilishi va ularning inson ruhiyatiga ta’siri haqida yozadi. Dutor singari cholg‘ular, asosan, xalq bazmlari, to‘ylar, diniy marosimlarda ishlatilgan. XVI asrda dutor shaklan hozirgi ko‘rinishga yaqinlashgan — ikki tor, uzun bo‘yin, rezonans qutisi va yupqa ovoz pardasidan iborat bo‘lgan [2]. XVIII–XIX asrlar O‘rta Osiyo musiqa madaniyatida yuksalish davri bo‘ldi. Aynan shu davrda dutor ijrochiligi professional tus ola boshladi. Har bir hududda o‘ziga xos ijro maktablari shakllandi.

Xorazmda tez ijro, kuchli ritmik usullar, Buxoroda maqom tizimiga mos ohanglar, Farg‘onada esa lirizm va emotsional yumshoqlik ustuvor bo‘ldi.

Sovet davrida (1920–1980-yillar) dutor san’ati yangi bosqichga ko‘tarildi. Musiqa maktablari, konservatoriyalar, filarmoniyalar tashkil etildi. Xalq artistlari Matyoqub Xarratov, To‘xtasin Jalilov, Komiljon Otaniyozov, Orif Xo‘jayev, Munojot Yo‘lchiyeva kabi ustozlar bu san’atni professional sahnaga olib chiqdi [3]. Shu davrda dutor uchun maxsus notalar, o‘quv qo‘llanmalar yaratildi.

Hududiy ijrochilik maktablari va uslublari

Xorazm maktabi: Bu maktabda dutor o‘tkir ritmik ifoda va jo‘shqin ohanglar bilan ajralib turadi. Xorazm dutor ijrochiligi ko‘pincha “Lazgi” kuylariga asoslangan.

Farg‘ona–Toshkent maktabi: Bu yo‘nalishda lirizm, mayin ohanglar, ayol ovoziga mos kuylar ko‘p uchraydi. “Tanovar”, “Dilxiroj”, “Guliston” singari kuylar bu maktabga xos.

Buxoro–Samarqand maktabi: Bu hudud maqom ijrochiligi markazi hisoblanadi. Dutor “Shashmaqom” tizimining muhim cholg‘usi sifatida shakllangan.

Qashqadaryo–Surxondaryo maktabi: Bu maktab xalq lapar va yalla janrlariga yaqin bo‘lib, dutor asosan xalq qo‘shiqlari bilan uyg‘unlashgan.

Mustaqillik yillarida dutor san’atiga davlat miqyosida e’tibor kuchaydi. Madaniyat va san’at markazlarida, ixtisoslashtirilgan musiqa maktablarida dutor bo‘yicha

В реализации НПД важное значение имеет **система оценки достигнутых успехов и перспектив** в этой сфере. В частности, **Канадский план действий «Канада для всех»** предусматривает отслеживание прогресса и информирование канадцев о состоянии дел в сфере борьбы с расизмом, а также приоритетных целях и задачах в этой области. При этом разработчики НПД исходят из невозможности точного определения даты начала и даты окончания работ по достижению расового равенства и социальной справедливости. Это – непреривный процесс, требующий постоянных усилий, а также оценки

достижений и перспектив на основе конкретных индикаторов.

НПД Эквадора[19] предусматривает подготовку ряда взаимосвязанных и взаимодополняющих документов по борьбе с расовой дискриминации:

• изучение передового национального и зарубежного, международного опыта, НПО по борьбе с расовой дискриминацией, а также выработка на этой основе «показателей (индикаторов) расовой дискриминации»;

• изучение норм международного права прав человека в этой области в контексте применимости их в Эквадоре;

• выявление первоочередных действий и мер, а также определение местности (районов и областей), где предусматривается осуществление деятельности в рамках НПД и т.п.

При этом важно, что каждый этап подготовки и реализации НПД *(разработка проекта, его обсуждение, внесение необходимых изменений и одобрение на общенациональном уровне, мониторинг его выполнения, выработка на этой основе предложений и рекомендаций по корректировке НПД и переход к новому циклу выработки и реализации обновленного НПД)* предусматривает тесное взаимодействие государственных органов, граждан, институтов гражданского общества, а также международного сотрудничества в этой сфере.

Договорные органы ООН, в частности, КЛРД придают приоритетное значение сотрудничеству с неправительственными организациями в целях содействия эффективному осуществлению международных договоров в сфере прав человека[20].

Особо подчеркивается роль НПО в процедуре представления отчетности, рассмотрении докладов государств, в частности в:

• выработке перечней тем и вопросов до представления доклада, а также до и во время рассмотрения доклада государства-участника;

• реализации последующих мер в связи с заключительными замечаниями, внося таким образом ценный вклад в процедуру представления доклада;

• предоставлении альтернативных (параллельных) отчетов или материалов в других формах, которые содержат: информацию об осуществлении некоторых или всех положений Конвенции; замечания по докладу государства-участника; информацию об осуществлении государством-участником предыдущих заключительных замечаний Комитета; информацию о позитивных аспектах или

[19] Plan Plurinacional para eliminar la discriminación racial y la exclusión étnica y cultural - https://biblio.flacsoandes.edu.ec/shared/biblio_view.php?bibid=142521&tab=opac

[20] Guidelines on the cooperation of the Committee on the Elimination of Racial Discrimination with NGO (CERD/C/506, 2022) - https://tbinternet.ohchr.org/_layouts/15/treatybodyexternal/Download.aspx?symbolno=CERD%2fC%2f506&Lang=ru

возникающих проблемах, зарегистрированных в государстве-участнике. Неоценима также роль НПО в разработке и распространении общих рекомендаций Комитета, а также информации о его работе.

В вопросах борьбы с дискриминацией все чаще используется также механизм двустороннего сотрудничества государств мира. Например, в 2008 г. **США и Бразилия** подписали **Совместный план действий по ликвидации расовой и этнической дискриминации и обеспечению равенства (СПД)**[21]. В 2010 г. аналогичный СПД подписан между США и Колумбией.

[21] Joint Action Plan Between the Government of the Federative Republic of Brazil and the Government of the United States of America To Eliminate Racial and Ethnic Discrimination and Promote Equality (Washington, DC, March 13, 2008) – https://2009-2017.state.gov/p/wha/rls/2008/111446.htm; Supporting the values and goals of the ‘‘Joint Action Plan Between the Government of the Federative Republic of Brazil and the Government of the United States of America to Eliminate Racial and Ethnic Discrimination and Promote Equality’’, signed by Secretary of State Condoleezza Rice and Brazilian Minister of Racial Integration Edson Santos on March 13, 2008 (110th Congress 2d session H. RES. 1254) - https://www.govinfo.gov/content/pkg/BILLS-110hres1254ih/pdf/BILLS-110hres1254ih.pdf

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA MEDIASAVODXONLIK UNSURLARINING TALQINI

Normurodova Nigora Abdusattorovna
Nizomiy nomidagi O‘zMPU Boshlang’ich ta’lim nazariyasi va metodikasi kafedrasi dotsenti, PhD
Malika Nasimova Oybek qizi
Nizomiy nomidagi O‘zMPU “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim)” yo‘nalishi 1-bosqich magistranti
+998913343091
malikanasimova03@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek bolalar adabiyotida mediasavodxonlik unsurlarining shakllanishi, rivoji, badiiy talqini va pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy raqamli muhitda bolalarning ongiga ta’sir qiluvchi omillar, adabiy asarlarda media bilan ishlash madaniyati, axborotni tanlash, uni qayta ishlash, axborotga tanqidiy yondashuv kabi kompetensiyalarning badiiy modellashtirilgan shakllari ilmiy asosda o‘rganiladi. Tadqiqot milliy bolalar adabiyoti namunalari – Xudoyberdi To‘xtaboyev, Qudrat Hikmat va zamonaviy bolalar yozuvchilarining asarlaridagi media bilan bog‘liq obrazlar va vaziyatlar asosida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: mediasavodxonlik, bolalar adabiyoti, axborot madaniyati, media ta’lim, raqamli muhit, tanqidiy fikrlash.

Аннотация. В данной статье анализируются формирование, развитие, художественная интерпретация и педагогическое значение элементов медиаграмотности в узбекской детской литературе. Научно изучаются факторы, влияющие на сознание детей в современном цифровом пространстве, культура работы с медиа в литературных произведениях, умение выбирать и перерабатывать информацию, а также критическое отношение к источникам, моделируемое в художественных текстах. Исследование проводится на примерах национальной детской литературы – произведений Худойберди Тухтабоева, Кудрата Хикмата а также современных узбекских детских авторов, с анализом медиаобразов и ситуаций, отражающих медиапрактики.

Ключевые слова: медиаграмотность, детская литература, информационная культура, медиаобразование, цифровая среда, критическое мышление.

Annotation. This article examines the formation, development, artistic interpretation,

and pedagogical significance of media literacy elements in Uzbek children's literature. It scientifically explores factors influencing children's consciousness in the contemporary digital environment, the culture of working with media in literary texts, the ability to select and process information, and critical attitudes toward sources as modeled in artistic works. The study is based on examples from national children's literature – works by Xudoyberdi To‘xtaboyev, Qudrat Hikmat and contemporary Uzbek children's authors – analyzing media-related characters and situations that reflect media practices.
Keywords: media literacy, children's literature, information culture, media education, digital environment, critical thinking.

XXI asr – axborot va raqamli texnologiyalar davri. Zamonaviy bolalar "ekran avlodi" hisoblanib, ularning dunyoqarashi, bilim olishi va vaqtini o'tkazish an'anaviy o'qishdan ko'ra raqamli mediaga ko'proq bog'liq. Shu sababli, butun dunyoda mediasavodxonlik – turli xil mediaformatlarni tanib olish, tahlil qilish, baholash va yaratish ko'nikmalari – maktab ta'limining ajralmas qismiga aylanmoqda. O'zbekistonda ham raqamlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivoji va "Aqlli Maktab" loyihalari doirasida mediasavodxonlikka bo'lgan ehtiyoj o'sib bormoqda. Biroq, bu jarayon ko'pincha alohida fan yoki trening sifatida qaraladi, adabiyot, xususan bolalar adabiyoti bilan integratsiyasi etarlicha o'rganilmagan. O'zbek adabiyotshunosligida an'anaviy adabiy tahlil (syujet, personaj, til va boshqalar) ustunlik qiladi. Bolalar adabiyotining zamonaviy bolaning mediamuhitiga ta'sirini, mediaga moslashuvchanligini yoki mediaga qarshilik ko'rsatish qobiliyatini shakllantirishdagi roli keng yoritilmagan. Shuning uchun, mavzu nafaqat adabiyotshunoslik, balki mediafanlari va pedagogika chorrahasida yangi yondashuvni talab qiladi.

Xalqaro adabiyotshunoslik doirasida mediasavodxonlikning bolalar adabiyotiga singdirilishi masalasi so‘nggi yillarda alohida ilmiy e’tibor markaziga aylangan. Xususan, K. G. Kening (2018), E. M. Daltonning (2020) hamda boshqa tadqiqotchilarning izlanishlarida mediasavodxonlikni bolalar dunyoqarashini shakllantirish jarayoniga integratsiya qilishning nazariy va amaliy asoslari batafsil tahlil etilgan. Ushbu olimlarning umumiy xulosalariga ko‘ra, global axborot maydonining shiddat bilan kengayib borishi sharoitida an’anaviy bolalar adabiyotiga yangi, zamonaviy vazifalar yuklanmoqda. Adabiyot endilikda nafaqat estetik didni tarbiyalash, balki bolalarni raqamli muhitda ongli harakat qilish, axborotni tanqidiy idrok etish, uning manbalarini farqlashga o‘rgatish funksiyasini ham bajarishi zarurligi ta’kidlanadi.

O‘zbek bolalar adabiyoti tarixiy rivojlanishiga nazar tashlasak, media mazmunga ega bo‘lgan motivlar qadimiy xalq og‘zaki ijodi namunalaridayoq uchraydi. Biroq mediasavodxonlik tushunchasining bugungi ilmiy talqiniga yaqin keladigan unsurlar, ya’ni axborotni tekshirish, yolg‘on va haqiqatni ajratish, mish-mishlarning ijtimoiy ta’sirini anglash kabi jihatlar badiiy matnlarda ayniqsa 1960–1980-yillardan boshlab yanada aniqroq ko‘zga tashlana boshlaydi. Mazkur davr adabiy jarayoni bolalar ongida axborotning o‘rnini, uning ijtimoiy mohiyatini badiiy vositalar orqali tushuntirishga yo‘naltirilgani bilan xarakterlanadi. Shu boisdan ushbu yillar o‘zbek bolalar adabiyotida mediasavodxonlik elementlarining shakllana boshlagan ilk bosqichi sifatida ilmiy asosda baholanishi mumkin.

Xalq ertaklari va rivoyatlarda bola xabarga ishonib qolganda aldanishi, vaziyatlarni noto‘g‘ri baholashi ko‘p uchraydi. Bu mediasavodxonlikning eng dastlabki shakllaridir. Masalan: "Zumrad va Qimmat"da yolg‘on ma’lumot beruvchi qahramonlar va "Ur, to‘qmoq" ertagida manipulyatsiya va yolg‘on axborot motivlari bolani axborotni tanlashga o‘rgatadi.

1960–1980-yillardagi asarlarda bolalarning radio, gazeta, kino orqali olgan axboroti, ularning noto‘g‘ri talqinlari ko‘proq ko‘rsatiladi. 200-yildan boshlab bolalar adabiyotida internet, mobil telefon, yangi axborot texnologiyalari bilan bog‘liq syujetlar paydo bo‘ldi. Badiiy matnlar axborot madaniyatini badiiy talqin qilishga ko‘proq e’tibor qarata boshladi.

Mediasavodxonlik adabiyotda a**xborot manbalarini farqlashga o‘rgatish, media manipulyatsiyalardan himoyalanish, media orqali ijtimoiy muloqot kabi** holatlarda bolani **madaniy muloqot**, **internet odobi**, **digital etiketa** bilan tanishtiradi. **Xudoyberdi To‘xtaboyev**ning bolalar uchun yozilgan asarlari nafaqat badiiy-estetik qimmatga, balki mediasavodxonlik kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi dolzarb g‘oyalarga ham ega. Adib syujetni ko‘pincha hazil, mubolag‘a va fantastik elementlar bilan boyitgan holda, bolalarning axborotga munosabati, yolg‘on ma’lumotlarga ishonishi yoki tashqi manipulyatsiyaga berilishini juda nozik tarzda tasvirlaydi. Uning asarlarida bolalar duch keladigan quyidagi mediasavodxonlik muammolari ko‘tariladi:

- ✧ *“Shirin qovunlar mamlakati”* asarida bolalarning haqiqatni fantastik tasavvur bilan almashtirishi, tasdiqlanmagan ma’lumotlarga tez ishonishi kabi holatlar yengil hazil vositasida yoritiladi. Asar o‘quvchini axborotni tekshirish, manbalarni solishtirish va “ishonchli axborot” tushunchasini anglashga undaydi.

✧ ***“Sehrli qalpoqcha”*** **asarining qahramonlari bir qarashda oddiy ko‘ringan axborotning asl manbasi, undan kelib chiqadigan oqibatlar va ma’lumotning ijtimoiy mas’uliyati haqida o‘ylashga majbur bo‘ladi. Bu bolalarda tanqidiy fikrlashni, har qanday xabarni darhol qabul qilmaslikni shakllantiradi.**

Qudrat Hikmat**ning bolalar uchun yozilgan she’riyati mediasavodxonlik mavzusini badiiy shaklda ifodalashda o‘ziga xos ahamiyatga ega. Shoir she’rlarida reklama va tashviqotning shishirilgan, haddan oshirilgan ko‘rinishlari, yolg‘on va haqiqatning to‘qnashuvi, shuningdek,** *“eshitdim — lekin tekshirmadim”* **kabi motivlar bolalar ongiga o‘tkaziladi. Ushbu poetik motivlar bolaga axborotni tanlashda nafaqat mantiqiy, balki hissiy-estetik yondashuvni o‘rgatadi, ya’ni bola matn orqali voqelikni his etib, xabar manbasi, mazmuni va oqibatlarini baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu tariqa, Qudrat Hikmat she’riyati bolalarda mediasavodxonlikning asosiy komponentlarini — tanqidiy qabul qilish, axborot manbalarini aniqlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi, bu esa uning ijodini zamonaviy raqamli muhit sharoitida ham dolzarb va pedagogik jihatdan qimmatli qiladi.**

O‘zbek bolalar adabiyotida mediasavodxonlik unsurlari mavjud bo‘lsa-da, hali ayrim jihatlar to‘liq rivojlanmagan. Masalan, zamonaviy media muhitga oid badiiy syujetlar nisbatan kam, internetdagi xavflar va ijtimoiy tarmoqlardagi tahdidlar yetarli darajada tasvirlanmagan, shuningdek, global mediasavodxonlik konseptlari —media etikasi amaliyotda keng qo‘llanilmaydi, ilmiy-metodik asoslar esa hozircha cheklangan. Shu bilan birga, adabiyotda “raqamli mas’uliyat” mavzusi kengayishi, faktlar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantiruvchi badiiy syujetlar paydo bo‘lishi, media-psixologik jarayonlar va ijtimoiy tarmoqlarga oid masalalarning badiiy matnlarda ko‘proq yoritilishi, shuningdek, yozuvchilar va pedagoglar uchun maxsus qo‘llanmalar ishlab chiqilishi kutilmoqda. Bu esa o‘zbek bolalar adabiyotida mediasavodxonlikni yanada samarali rivojlantirish uchun qulay zamin yaratadi.

O‘zbek bolalar adabiyotida mediasavodxonlik unsurlari tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, bugungi raqamli jamiyat talablariga mos holda takomillashib bormoqda. Adabiyot bolada axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantiruvchi eng samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Asarlarda axborotni tanlash, manbalarni farqlash, yolg‘on axborotdan himoyalanish, media manipulyatsiyalarni anglash kabi kompetensiyalar badiiy obrazlar orqali modellashtirilgan.

Xulosa o’rnida aytadigan bo’lsak, bolalar adabiyoti mediasavodxonlik ta’limining nazariy va amaliy asoslarini boyitishga, bolalarning axborotga ongli, tanqidiy yondashuvini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Jumaboyev Bolalar adabiyoti. Toshkent, 2010.
2. N. Xodjayeva Media madaniyat asoslari. Toshkent, 2019.
3. X. To‘xtaboyev Asarlar to‘plami. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, turli yillar.
4. Q. Hikmat Bolalar uchun she’rlar. Toshkent: Yoshlar nashriyoti, 2018.
5. UNESCO. Media and Information Literacy Curriculum for Teachers. Paris, 2011.
6. B. Jamilova O’zbek bolalar adabiyoti Toshkent, 2019.
7. Hobbs, R. Digital and Media Literacy: Connecting Culture and Classroom. Corwin, 2011
8. Buckingham, D. Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture. Polity Press, 2003.

ELEKTRON MANBALAR:

1. www.edu.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.kun.uz

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

RAQAMLI KITOBXONLIKNING SHAKLLLANISHI: BOLALAR o‘QISH MADANIYATIDA YANGI TENDENSIYALAR

Normurodova Nigora Abdusattorovna
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti Boshlang’ich ta’lim nazariyasi va metodikasi kafedrasi dotsenti, PHD

Yaxshilikova Durdona Sobir qizi

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika
universiteti ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang’ich ta’lim)

+998954540401

durdonayaxshilikova72@gmail.com

Annotatsiya: Zamonaviy davrda raqamli texnologiyalar bolalar adabiyoti va o‘qish madaniyatida juda ko‘plab yangiliklarni olib kirdi. Raqamli kitoblar, interaktiv hikoyalar va ertaklar, audiokitoblar va elektron darsliklar bolalarning o‘qishga bo‘lgan qarashlarini va qiziqishlarini salmoqli darajada oshirdi, shuningdek, ularning nutq madaniyati, ijtimoiy va intellektual rivojiga ta’sir qilishi bilan ajralib turadi.Ushbu maqolada raqamli kitobxonlikning shakllanishi, bolalar o‘qish madaniyatidagi yangi tendensiyalari va ularning pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Raqamli tendensiya, multimedia, raqamli kitob, animatsiya, gamifikatsiya.

Аннотация: В современную эпоху цифровые технологии внесли множество новшеств в детскую литературу и культуру чтения. Цифровые книги, интерактивные истории и сказки, аудиокниги и электронные учебники значительно повысили интерес детей к чтению и их отношение к нему, а также оказали влияние на развитие их речи, социальные и интеллектуальные способности. В данной статье анализируются формирование цифровой грамотности чтения, новые тенденции в культуре чтения детей и их педагогическое значение.

Ключевые слова: цифровая тенденция, мультимедиа, цифровая книга, анимация, геймификация.

Annotation: In the modern era, digital technologies have introduced numerous

innovations in children's literature and reading culture. Digital books, interactive stories and fairy tales, audiobooks, and electronic textbooks have significantly increased children's interest in reading and their attitudes toward it, while also influencing their speech culture, social, and intellectual development. This article analyzes the formation of digital reading literacy, new trends in children's reading culture, and their pedagogical significance.

Keywords: digital trend, multimedia, digital book, animation, gamification.

Avvallari o‘qish faqat bosma matn orqali amalga oshirilgan bólsa, bugungi kunda texnologiyalar taqdim etayotgan multimodal imkoniyatlar bolalar ongining rivojlanishiga yangi sur'at bag‘ishlamoqda. Raqamli kitobxonlik shunchaki "ekrandan o‘qish" emas, balki o‘qish jarayonini faol, moslashuvchan va interaktiv tajribaga aylantiruvchi murakkab ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida qaralmoqda. Raqamli kitobxonlik bolalar o‘qish madaniyatini o‘zgartiribgina qolmay, balki o‘qishning mazmuni, shakli va metodikasiga yangicha yondashuv olib kirmoqda. Bu jarayon o‘quvchi shaxsining ijodiy fikrlashi, media savodxonligi, mustaqil o‘rganishi,ijtimoiy kompetensiyalari uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi. Eng muhim jihat — raqamli va an'anaviy o‘qish o‘rtasidagi muvozanatni ta'minlash, har bir bolaning yosh va psixologik xususiyatlariga mos o‘quv muhiti yaratishdir. Bugungi o‘quvchilar "digital native" sifatida ta'riflanadi, ya'ni texnologiya bilan yashamoqda, u bilan o‘smoqda, natijada, bolalar ongining tez o‘sishi kuzatilmoqda. Bolalar ma'lumotlarni ekrandan qabul qilish jarayoni anchagina jadallashgan, ular multimediali vositalari orqali tezroq anglab yetadi va juda osonlik bilan qabul qiladi. Raqamli kitobxonlik – bu elektron qurilmalar yordamida matn, audio va multimodal kontentlarni o‘qish, tinglash, ko‘rish va tahlil qilish jarayonidir. Uning bu darajada ommalashishiga va rivojlanishiga bir necha omillar ta'sir qilmoqda. Bular quyidagilardir:

-axborot texnologiyalarining rivojlanishi;
-global Internet tarmog‘iga kirish imkoniyati;
-bolalarning vizual va dinamik axborotga qiziqishi;
-ta'lim tizimining raqamlashtirilishi;
-pandemiya davrida masofaviy o‘qishning kengayishi.

Raqamli kitobxonlik (digital reading)-tahlil qilish jarayoni bo‘lib, u quyidagi vositalarni o‘z ichiga oladi:

E-kitoblar (PDF, ePub, MOBI)-kitoblar matn, rasm, audio yozdi interaktiv elementlarni o‘z ichiga oladigan raqamli formatdagi kitoblardir.

Audiokitoblar- bu kitoblarning yoki matnlarning ovozli shaklda o‘qib berilgan shakli

bo‘lib, professional diktorlar, aktyorlar yoki muallifning o‘zi tomonidan yozib olingan audio formatdagi kitobdir.

Interaktiv ilovalar va dasturlar-bu foydalanuvchi bilan ikki tomonlama faol muloqot qiluvchi, uning harakati, tanlovi va javobiga ko‘ra o‘z funksiyasini o‘zgartiradigan raqamli ta’lim vositalaridir. Bunday ilovalarda foydalanuvchi shunchaki tomoshabin emas, balki jarayonning faol ishtirokchisiga aylanadi.

Multimedia hikoyalar va animatsion asarlar. Multimedia hikoyalar.

Bu — ovoz, animatsiya, matn, rasm, video, musiqa va interaktiv tugmalar kabi turli raqamli elementlarning birlashtirilgan ko‘rinishidagi hikoyalardir. Ular odatiy matnga nisbatan ko‘proq sezgi organlarini jalb qiladi va bolalarning o‘qish jarayonini qiziqarli, faol va tushunarli qiladi.

Animatsion asarlar. Animatsiya yordamida yaratilgan video-hikoyalar yoki multfilmlar bo‘lib, bolalar uchun maxsus badiiy, ta’limiy va tarbiyaviy mazmunga ega bo‘ladi. Ular kompyuter grafikasiga asoslangan bo‘lib, harakatlanayotgan obrazlar orqali voqealarni vizual tarzda yetkazadi.

Raqamli kitobxonlik nafaqat o‘qish jarayonini soddalashtiradi, balki bolalarning kreativ fikrlashi, mustaqil o‘rganishi va texnologik savodxonligini ham rivojlantiradi.

Barchamizga ma’lumki, 21-asr “Axborot texnologiyalar asri”, texnologiyalarning jadal rivojlanishi, albatta bolalar o‘qish madaniyatiga ta’sir o‘tkazmasdan qolmaydi. An’anaviy kitobxonlik bilan bir qatorda interaktiv platformalar, raqamli resurslar, Audiokitoblar va ijtimoiy o‘qish tizimlari bolalarning o‘qishga bo‘lgan munosabatini tubdan yangilamoqda. Bu jarayonda olib borilayotgan o‘zgarishlar bolaning dunyoqarashini, shaxsiy rivoji va madaniy savodxonligiga bevosita ta’sir qiladi. Shuning uchun zamonaviy tendensiyalarni ilmiy jihatdan tahlil qilish muhim hisoblanadi.Raqamli qurilmalarning ommalashuvi bolalar orasida elektron kitoblarga murojaat qilishni sezilarli darajada oshirdi. Planshet va smartfonlarda o‘qishga mo‘ljallangan ilovalar matnni oson o‘qish, eslatma qo‘shish, lug‘at bilan ishlash, hatto ovozli o‘qish kabi funksiyalarni taklif qiladi. Tadqiqotlar raqamli o‘qish:

matnni tezda topish va qayta ko‘rib chiqish imkonini beradi, interaktiv elementlar orqali o‘quvchini faol ishtirokchiga aylantiradi, o‘qish motivatsiyasini oshiradi. Biroq uzoq vaqt ekran bilan ishlash ko‘z charchoqlariga sabab bo‘lishi mumkinligi, shuningdek, raqamli chalg‘ituvchi omillarning ko‘pligi ham e’tiborga olinadi. Shu bois raqamli o‘qish va bosma kitoblar o‘rtasida muvozanatni saqlash muhim. So‘nggi yillarda audiokitoblar bolalar orasida eng keng tarqalgan o‘qish vositalaridan biriga aylangan. Audiokitoblar bolaning tinglash orqali qabul qilish, eshitgan hikoyalarini xayolan tasavvur qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Ham eshitib, ham tasavvur qilish

orqali o‘quvchilarda hikoya mazmunini chuqurroq anglab yetish imkoniyatiga ega bo‘ladi.Psixologik tadqiqotlarga ko‘ra, audiokitoblar:

eshitib tushunish malakasini mustahkamlaydi,

nutq boyligi va talaffuzni oshiradi,

o‘qishga qiziqmaydigan bolalarni jarayonga jalb qiladi.

Audiokitoblarning qulayligi shundaki, bola har qanday joyda tinglashi va kitobdan zavqlanishi mumkin. Interaktiv hikoyalar, QR-kodli kitoblar va animatsion ertaklar bolalarning o‘qish jarayonini yanada qiziqarli qillishi bilan birgalikda, o‘qituvchi dars mashg’ulotlarida vaqtini tejashga keng imkoniyat yaratadi. Multimedia vositalari (video, audio, 3D effektlar) bola diqqatini o‘qilgan matnga jamlashga yordam beradi. Bunday dars jarayonlari o‘quvchining dars mashg’ulotlarida faol ishtorokini ta’minlaydi, erkin fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, matn ustidan mustaqil fikr yuritishga yordam beradi. Interaktiv o‘qish o‘quvchining o‘qish tezligi, tushunish darajasi va intellektual manfaatlariga moslashtirilgan shaxsiy o‘qish tajribasini taklif etadi.O‘qishga jalb qilishda o‘yin elementlari keng qo‘llanilmoqda. Gamifikatsiyalashgan o‘qish tizimlari (ball to‘plash, daraja oshirish, badge olish) bolalarda raqobat va motivatsiyani kuchaytiradi. Albatta o‘quvchilarni doimiy rag’batlantirib borish, o‘quvchida O'ziga bo‘lgan ishin chin oshiradi, keng jamoada raqobat muhitini shakllantiradi, o‘quvchini oldinga intilish uchun harakatga keltiradi, bolaga o‘z oldiga maqsad qo‘yishni o‘rgatadi. Agar o‘qituvchi o‘quvchilarni jamoa tarzida rag’batlantirsa, bu sinfda yoki bolalar o‘rtasida do‘stlik, birdamlik, birgalikda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirad. Bugungi kunda o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan o‘qish marafonlari, onlayn klubchalar va platformalar keng qo‘llanilmoqda. Bu ham o‘quvchiga online muhim haqida fast kanji tushunchalarni berib boradi.

Vizual o‘qish tendensiyasi: komikslar va grafik novellalar.

Bolalar va o‘smirlar orasida komikslar, grafik novellalar va rangli illyustratsiyalarga asoslangan kitoblar keng tarqalmoqda. Vizual matnlar o‘qishni qiyin deb hisoblaydigan bolalar uchun ayniqsa samarali bo‘lib, ular o‘quvchilarga mavzuni tezroq va osonroq tushunishni, estetik idrokni oshirishni,o‘qish madaniyatiga kirib kelishni o‘rgatadi. Bu turdagi adabiyotlar jahon tajribasida “ko‘rish orqali o‘qish madaniyati” sifatida baholanadi.

Ijtimoiy o‘qish: tajriba almashuv maydonlari.

Onlayn o‘qish klublari, bolalar bloglari, umumiy o‘qish marafonlari o‘quvchilarga kitob bo‘yicha fikr almashish imkonini beradi. O‘qigan kitobni baholash, sharhlash, tavsiya qilish jarayoni bolalar nutqini, tanqidiy fikrlashini va muloqot madaniyatini rivojlantiradi.

AR/VR texnologiyalari asosidagi immersiv o‘qish.

AR (kengaytirilgan reallik) va VR (virtual reallik) asosidagi o‘qish tajribasi bolalarga:

- kitob syujetiga “kirmoq”,
-personajlar bilan birga harakatlanmoq,
-tarixiy voqealarni vizual ravishda his etmoq imkonini beradi.

Bu yangi avlod kitobxonlari uchun chuqur his-tuyg‘uga asoslangan “immersiv o‘qish” tajribasini yaratadi.

Albatta, har bir ijobiy tomonlar bO'lganidek, salbiy tomonlari ham bordir. Raqamli ta’limning bir qancha salbiy tomonlarini keltirib o‘tmoqchimiz. Masalan, raqamli texnologiyalar bolaning diqqati tez chalg’ishiga, ekran olamida ko‘p vaqt sarflash, raqamli texnologiyalarida ijro etilayotgan reklama va ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri bola ongiga salbiy ta’sir qilishi mumkin.

Fikrlarimiz yakunida shularni ta’kidlamoqchimizki, raqamli kitobxonlik bolalar o‘qish madaniyatida yangi sifat bosqichini boshlab berdi. Shaxsiylashtirilgan o‘qish, multimodal materiallar, gamifikatsiya, audiokitoblar, AR/VR texnologiyalari bolalarning o‘qish jarayonini qiziqarli, interaktiv va samarali shaklga keltirmoqda. Zamonaviy ta’limda raqamli va an’anaviy o‘qishni uyg‘unlashtirish – bolalarning barkamol kitobxon sifatida shakllanishiga xizmat qiluvchi eng maqbul strategiya hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Raqamli ta’lim” konsepsiyasi. – 2023
2. Wolf M. Reader, Come Home: The Reading Brain in a Digital World. – 2018.
3. Bashorat Jamilova. O‘zbek bolalar adabiyoti. Tashkent, 2019.
4. UNESCO. Reading in a Digital Age. Paris, 2020.
5. Baratbayev B.B. Mediasavodxonlik va axborot madaniyati. PDF, 2023. (library.uzfi.uz)
6. Azizxo‘jayeva N., Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar. – Toshkent, 2022.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA YANGILANISH JARAYONI

Normurodova Nigora Abdusattorovna
O‘zMPU “Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va metodikasi” kafedrasi Dots.PHD
Umida O‘rinboyeva Hamro qizi
O‘zMPU “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(boshlang‘ich ta’lim)” yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek bolalar adabiyotida mustaqillikdan keyingi yillarda yuz bergan yangilanish jarayoni, adabiy janrlar va obrazlarning zamonaviylashuvi, shuningdek, yosh avlod yozuvchilarining ijodiy izlanishlari tahlil qilinadi. Bolalar adabiyotida milliy qadriyatlar, zamonaviy hayot manzaralari va ijtimoiy mavzular orqali asarlarda yangicha g‘oya-badiiy qarashlar shakllanayotgani yoritiladi.
Kalit so‘zlar: *bolalar adabiyoti, yangilanish, mustaqillik davri, qahramon, milliy qadriyat, zamonaviy obraz, janr.*

ПРОЦЕСС ОБНОВЛЕВНИЯ В УЗБЕКСКОЙ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация. В данной статье анализируется процесс обновления узбекской детской литературы в постсоветский период, модернизация литературных жанров и образов, а также творческие поиски молодых писателей. Освещается формирование новых идейно-художественных подходов в произведениях, основанных на отражении национальных ценностей, современной жизни и социальных тем в детской литературе.
Ключевые слова: детская литература, обновление, период независимости, герой, национальные ценности, современный образ, жанр.

THE RENEWAL PROCESS IN UZBEK CHILDREN’S LITERATURE

Annotation. This article analyzes the renewal process in Uzbek children's literature during the post-independence period, the modernization of literary genres and characters, and the creative explorations of the younger generation of writers. It highlights the emergence of new ideological and artistic approaches in works that depict national values, contemporary life, and social themes within children's literature.

Keywords: children's literature, renewal, independence period, character, national values, modern image, genre.

Mustaqillik yillarida o‘zbek adabiyoti barcha yo‘nalishlarda, xususan bolalar adabiyotida ham yangilanish bosqichiga qadam qo‘ydi. Endi asarlarda faqat tarbiyaviy maqsad emas, balki bolalar dunyoqarashini kengaytirish, ularning tafakkurini rivojlantirish va zamonaviy hayotga tayyorlash masalalari ilgari surila boshlandi.

Bolalar adabiyotida ilgari ustun bo‘lgan soddalikka, didaktizmga yangicha badiiy yondashuvlar, zamonaviy mavzular va obrazlar kirib keldi. Maqolaning maqsadi — o‘zbek bolalar adabiyotida kechayotgan yangilanish jarayonlarini ochib berish, yangi yo‘nalish va ijodkorlarni tahlil qilishdan iborat.

O‘zbek bolalar adabiyotining ildizlari xalq og‘zaki ijodidan boshlanib, sovet davrigacha tarbiyaviy yo‘nalishda shakllangan. Mustaqillik davriga kelib esa bu sohada milliy qadriyatlar, ona yurt, ona tiliga sadoqat, tinchlik kabi mavzular keng yoritila boshlandi.Bolalar adabiyotida asosan uchta yangilanish ko‘zga tashlanadi.Uchta asosiy yangilanish bular: **mavzular yangilanishi**-ilgari sotsialistik mavzular ustun bo‘lgan bo‘lsa,endi tabiatni asrash,texnologiya,ilm-fan,Vatanga muhabbat kabi zamonaviy g‘oyalar ilgari surilmoqda. **Obraz va qahramonlar:** zamonaviy bola — faol, izlanuvchan, internet va axborot dunyosi bilan tanish obraz sifatida gavdalanadi. **Badiiy shakl va tilda yangiliklar:** hikoyalar soddalashgan, so‘z boyligi kengaygan, til bolalar tafakkuriga yaqinlashgan.

Bolalar adabiyotining o‘ziga xosliklari uning qahramoni tasvirida yanada yorqinroq namoyon bo’ladi.Shuningdek,20-asr boshlari Bolalar adabiyoti ijodkorning faolligi,qahramon tasviri emas,ruhiy ustuvorligi bilan ajrlaib tursa,30-yillarda ko‘proq xalq og‘zaki ijodiga murojat qilingan va bu davrlarda yaratilgan asarlarda ham faol qahramon obrazi yo‘q edi.Shu bilan birga 50-60-yillar namunalari bevosita yosh qahramonlarning asarlar voqealarida hal qiluvchi o‘rin tutish bilan chinakam bolalar adabiyotiga aylandi.70-80-yillar bolalar adabiyoti esa tobora hayotga o‘z nuqtai nazari bilan qaraydigan,balandparvoz,ritorik ta’riflardan ko‘ra tanqidiy fikrlashi keng bo‘lgan qahramon qiyofasi gavdalana boshladi.Yildan-yilga bolalar adabiyoti rivojlanib ijodkorlarda yangidan yangi fikrlar uyg‘onib borar edi.Shuingdek 90-yillar adabiyotida esa yangicha qadam tashlanib o‘zbek bolasi o‘zbekning bolasi ekanligidan faxrlanish,ulug‘ ajdodlarga munosib bo‘lish kabi g‘oyadagi asarlar yaratildi

Bugungi kunda o‘zbek bolalar adabiyotiga ko‘plab yozuvchilar o‘z hisassini qo‘shgan. Dilorom Mirzayeva, Zulfiya Qurolboy qizi, Murodjon Abduhalil, Bahrom Ro‘zimuhammad kabi yozuvchilar bolalar uchun yangi ruhdagi asarlar yaratmoqdalar. Ularning ijodida milliylik bilan bir qatorda global dunyoqarash uyg‘unlashadi.

Bolalar adabiyotining yangilanish jarayonida badiiy va ma’naviy ahamiyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, yangilanish jarayoni bolalar ongida Vatanga sadoqat, tinchlik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat kabi qadriyatlarni shakllantirishda katta rol o‘ynamoqda. Shu bilan birga, adabiyot orqali bolalarning tafakkurini mustaqil fikrlashga, o‘zini ifoda etishga o‘rgatishni maqsad qilgan.
O‘zbek bolalar adabiyotida yangilanish jarayoni – bu nafaqat yangi mavzularning kirib kelishi, balki butun adabiy tafakkurning o‘zgarishidir. Yozuvchilar bolalarning ruhiy olamini chuqurroq anglay boshladilar, zamonaviy muhitga mos obrazlar yaratdilar. Shu bois bugungi bolalar adabiyoti milliy va zamonaviylik uyg‘unligida rivojlanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA HAVOLALAR:

1.Jamilova B. O‘zbek bolalar adabiyoti. – Namangan: NamDU nashriyoti, 2019.
2.Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. – Toshkent: ZiyoNET, 2017
3.Rasulov N. “Mustaqillik yillarida o‘zbek bolalar adabiyoti.” O‘zMU ilmiy axborotlari, 2020.
4.Bolalar adabiyoti va zamonaviylik,T.,1981
5.Suyumov A.,Kichkintoylar adabiyoti,T.,1962

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

KARIYESGA GENETIK MOYILLIK: IRSIY OMILLAR TAHLILI

UO‘K: 616.31: 575.16

Mamarahimov Fazliddin G‘ofurjon o‘g‘li
Qo‘qon universiteti, Andijon filiali, Stomatologiya yo‘nalishi, 1-bosqich talabasi
Email:*zargar636@gmail.com*
Sobirjonov Muhammadsolih Nodirbek o‘g‘li
Qo‘qon universiteti, Andijon filiali, Stomatologiya yo‘nalishi, 1-bosqich talabasi
Email: *sobirjonov1202m@gmail.com*

Mamajonov Abrorbek Adiljonovich
PhD, v/b. dots., Qo`qon Universiteti Andijon filiali
Email: *biomamajonov0021@gmail.com*

Annotatsiya

Kariyes — dunyo bo‘yicha eng keng tarqalgan tish kasalliklaridan biri bo‘lib, nafaqat oziqlanish va og‘iz gigienasi bilan, balki genetik omillar bilan ham bevosita bog‘liq. So‘nggi yillarda genetik tadqiqotlar kariyesning irsiy moyilligini aniqlashda yangi imkoniyatlar yaratdi. Ushbu maqola kariyesga moyillikni belgilovchi genetik omillarni, ularning tish emali rivojlanishi, minerallanish darajasi, og‘iz mikroflorasi va immun javob bilan bog‘liqligini tahlil qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, kariyesga moyillik ko‘plab genlar bilan bog‘liq bo‘lib, ba’zilari emal rivojlanishiga ta’sir qilsa, boshqalari immun tizimining faoliyatini boshqaradi. Shu bilan birga, genetik va atrof-muhit omillarining o‘zaro ta’siri kariyes rivojlanishida sezilarli rol o‘ynaydi. Maqola uch asosiy qismga bo‘lingan: birinchi qism kariyesning irsiy va genetik asoslarini o‘rganishga bag‘ishlangan, ikkinchi qism genetik markerlar va ularning klinik diagnostikadagi ahamiyatini tahlil qiladi, uchinchi qism esa tadqiqot metodologiyasi va empirik natijalarni yoritadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, genetik moyilligi bo‘lgan shaxslar shakar iste’moli yuqori va og‘iz gigienasi yetarli bo‘lmagan hollarda yuqori kariyes xavfiga duch keladi. Shu bilan birga, genetika asosida shaxsiy profilaktika strategiyalarini ishlab chiqish mumkin. Ushbu maqola stomatologiya va genetika sohasidagi tadqiqotchilar, shuningdek, klinik amaliyot bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar uchun foydali manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *Kariyes, genetika, irsiy moyillik, genetik markerlar, emal, og‘iz mikroflorasi, fenotip, genotip, profilaktika, stomatologiya.*

Kirish. Kariyes — tishlarning minerallanish darajasining pasayishi bilan kechadigan patologik jarayon bo‘lib, dunyo bo‘yicha aholi orasida eng keng tarqalgan og‘iz kasalliklaridan biridir. U nafaqat shakar iste’moli va og‘iz gigienasi bilan bog‘liq, balki genetik omillarga ham bog‘liq ekanligi ko‘plab tadqiqotlarda ko‘rsatilgan. Statistika shuni ko‘rsatadiki, dunyo aholisi orasida bolalikdan boshlab kariyes bilan og‘riganlarning ulushi yuqori bo‘lib, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko‘rsatkich yanada yuqori. So‘nggi o‘n yilliklarda genom tadqiqotlari kariyesning irsiy asoslarini aniqlashga katta imkoniyatlar yaratdi. Masalan, tish emalini rivojlantiruvchi AMELX, ENAM, MMP20 genlaridagi polimorfizmlar tish emali zichligini kamaytirishi va kariyes rivojlanish xavfini oshirishi mumkin. Shu bilan birga, DEFB1 va IL-1 kabi immun tizim genlari og‘iz mikroflorasining tarkibini boshqaradi va patogen bakteriyalarning ko‘payishiga ta’sir qiladi. Bu esa kariyes rivojlanishidagi individual farqlanishlarni tushuntirishga yordam beradi.

Kariyesga irsiy moyillikni o‘rganish nafaqat ilmiy nuqtai nazardan, balki klinik stomatologiyada profilaktika va davolash strategiyalarini shaxsiylashtirish imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, genetik moyilligi bo‘lgan shaxslar uchun og‘iz gigienasi va parhez nazorati ayniqsa muhimdir. Shu bois, kariyesga moyillikni aniqlash va u bilan bog‘liq genetik faktorlarni o‘rganish stomatologiya sohasida ilg‘or profilaktik yondashuvlarni ishlab chiqishda asosiy vazifalardan biridir.

Ushbu maqola kariyesning irsiy omillarini, genetik markerlar va genotip-fenotip munosabatlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, shaxsiy profilaktika va stomatologik davolash strategiyalarini ishlab chiqishda ilmiy asos yaratadi.

Adabiyot tahlili

Ilmiy adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, kariyesning irsiy moyilligi ko‘plab tadqiqotlar orqali tasdiqlangan. Masalan, AMELX va ENAM genlaridagi mutatsiyalar emal zichligini pasaytiradi va tish sathida mikrob koloniyalarining shakllanishiga sharoit yaratadi. Shu bilan birga, MMP20 geni emal shakllanish jarayonida katalitik rol o‘ynaydi va uning polimorfizmlari kariyes xavfini oshiradi. Immun tizimi bilan bog‘liq DEFB1 va IL-1 genlari esa mikrofloraning tarkibini boshqaradi, bu esa kariyes rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi [3].

Egizaklar ustida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, bir tuxumlik egizaklar orasida kariyesning o‘xshashligi ikki tuxumlik egizaklarga nisbatan ancha yuqori bo‘lib, bu genetik omillarning ahamiyatini tasdiqlaydi. Shuningdek, genetik va atrof-muhit omillarining o‘zaro ta’siri ham tadqiq qilingan: genetik moyilligi bo‘lgan shaxslar noto‘g‘ri ovqatlanish va og‘iz gigienasi yetishmovchiligi bilan yuqori kariyes xavfiga duch keladi [1].

So‘nggi tadqiqotlar genetik testlar asosida individual profilaktika strategiyalarini ishlab chiqishning samaradorligini ko‘rsatmoqda. Masalan, AMELX yoki ENAM geni polimorfizmi aniqlangan bolalarda profilaktik fluorid terapiyasi va shakar iste’molini cheklash choralarini qo‘llash kariyes rivojlanishini sezilarli darajada kamaytiradi. Shu sababli, kariyesga moyillikni aniqlash va genetik markerlarni o‘rganish klinik stomatologiyada shaxsiy yondashuvni rivojlantirishga imkon beradi.

Asosiy qism. Kariyes va irsiy moyillikning biologik asoslari. Kariyesning rivojlanishi ko‘plab biologik jarayonlarga bog‘liq bo‘lib, ular orasida tish emalining minerallanishi, immun javob va og‘iz mikroflorasi muhim rol o‘ynaydi. Emal minerallanishida AMELX, ENAM va MMP20 genlari bevosita ishtirok etadi. AMELX geni amelogenez jarayonini boshqaradi, uning polimorfizmlari tish emalining zichligini kamaytiradi, bu esa kariyesga moyillikni oshiradi. ENAM geni emalning qatlamli strukturasini shakllantiradi; mutatsiyalari bilan emal yupqalashadi va tish yuzasida mikrob koloniyasi shakllanishiga sharoit yaratadi. MMP20 esa emal organik matrisini parchalashda ishtirok etadi, uning yetishmovchiligi tish emalining mustahkamligini pasaytiradi [4].

Shuningdek, DEFB1 va IL-1 kabi genlar og‘iz immun tizimi faoliyatini boshqaradi. DEFB1 beta-defensinni kodlaydi, u patogen bakteriyalarni bostiradi; uning polimorfizmlari bilan bakteriyalar osonlik bilan ko‘payadi. IL-1 geni esa yallig‘lanish mediatorlarini boshqaradi, uning yuqori ekspressiyasi kariyes jarayonini tezlashtiradi. Shu bilan birga, kariyesning fenotipik ifodasi genetik va atrof-muhit omillari o‘zaro ta’sirida namoyon bo‘ladi. Masalan, AMELX mutatsiyasi bo‘lgan shaxslar shakar iste’moli yuqori bo‘lganda yoki og‘iz gigienasi yetarli bo‘lmagan hollarda kariyes rivojlanishi sezilarli darajada ortadi.

Egizaklar bo‘yicha tadqiqotlar genetik omillarning kariyes rivojlanishidagi rolini tasdiqlaydi. Bir tuxumlik egizaklar orasida kariyesning o‘xshashligi ikki tuxumlik egizaklarga qaraganda ancha yuqori, bu irsiy moyillikning ahamiyatini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, emal rivojlanishidagi polimorfizmlar va immun javobdagi o‘zgarishlar kariyesning individual farqlanishini tushuntiradi [2].

Genetik markerlar va klinik diagnostika. Kariyesga moyillikni aniqlashda genetik markerlar muhim vosita hisoblanadi. Bugungi kunda AMELX, ENAM, MMP20, DEFB1 va IL-1 genlaridagi polimorfizmlar keng tadqiq qilingan. Ushbu genetik markerlarni aniqlash orqali shaxsning kariyes xavfi baholanadi va profilaktik choralar belgilanishi mumkin [3].

Masalan, ENAM geni polimorfizmi aniqlangan bolalarda og‘iz gigienasi bo‘yicha individual tavsiyalar berish samarali bo‘ladi. AMELX mutatsiyasi bo‘lgan bemorlarda

esa fluorid terapiyasi va tish emalini mustahkamlovchi preparatlar qo‘llanishi tavsiya etiladi. DEFB1 va IL-1 genlari esa immun javobni baholashga yordam beradi; ularning ekspressiyasi yuqori bo‘lsa, yallig‘lanish jarayonlarini kamaytirish uchun maxsus profilaktik choralar qo‘llanadi.

Shuningdek, genetik testlar kariyesga moyillikni erta bosqichda aniqlashga imkon beradi. Bu esa bolalar va o‘smirlar orasida individual profilaktik dasturlarni ishlab chiqish va ularni samarali amalga oshirish imkonini yaratadi. Klinik amaliyotda genetik markerlarni qo‘llash stomatologlarga bemorlar uchun shaxsiy davolash strategiyasini ishlab chiqish va uzoq muddatli tish sog‘lig‘ini ta’minlashga yordam beradi.

Irsiy moyillik va profilaktik yondashuvlar. Genetik moyilligi bo‘lgan shaxslar uchun profilaktik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, genetik riskga ega bolalarda shakar iste’molini cheklash, tishlarni muntazam tozalash va fluorid preparatlarni qo‘llash kariyes rivojlanishini sezilarli darajada kamaytiradi.

Bundan tashqari, genetik testlar yordamida stomatologlar risk guruhlarini aniqlaydi va individual profilaktika dasturlarini ishlab chiqadi. Masalan, AMELX yoki ENAM geni polimorfizmi aniqlangan bolalarda emal mustahkamlovchi laklar qo‘llash tavsiya etiladi. Shuningdek, immun tizimi genlaridagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq bemorlar uchun yallig‘lanishga qarshi preparatlar va probiotiklar tavsiya qilinadi.

Irsiy moyillikni hisobga olgan holda profilaktika nafaqat kariyesning oldini oladi, balki bemorlarning umumiy sog‘lig‘ini yaxshilaydi va stomatologik xizmatlar xarajatlarini kamaytiradi. Shu bois, genetika asosida shaxsiy yondashuv stomatologiya amaliyotida yangi standart sifatida qaralmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot kariyesga irsiy moyillikni aniqlash va genetik omillar bilan bog‘liqligini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotda 120 nafar bolalar va o‘smirlar (6–16 yosh) ishtirok etdi. Ularning sog‘lig‘i, og‘iz gigienasi va ovqatlanish odatlari baholandi. Genetik tahlil uchun og‘iz shilliq qavati va qon namunasi olinib, DNK ekstraksiyasi amalga oshirildi.

Genetik tahlil metodlari sifatida polimeraza zanjir reaktsiyasi (PCR) va genotiplash usullari qo‘llanildi. Tadqiqotda AMELX, ENAM, MMP20, DEFB1 va IL-1 genlaridagi polimorfizmlar aniqlashga e’tibor qaratildi. Polimorfizmlar va kariyesning klinik ko‘rsatkichlari (tishlarning kariyes darajasi, og‘iz mikroflorasi tarkibi) orasidagi bog‘liqlik statistik usullar orqali baholandi.

Shuningdek, ishtirokchilarning ovqatlanish odatlari, shakar iste’moli, og‘iz gigienasi darajasi va tish yuvish chastotasi aniqlandi. Tadqiqotda genetik va atrof-muhit

omillarining o‘zaro ta’siri korrelyatsion tahlil yordamida o‘rganildi. Tadqiqot etikasi stomatologiya va genetika bo‘yicha tasdiqlangan standartlarga muvofiq amalga oshirildi.

Natijalar chiqqach, genetik moyilligi yuqori bo‘lgan va past bo‘lgan guruhlar solishtirildi. Bu metodologiya orqali irsiy moyillik va kariyes rivojlanish darajasi orasidagi aniq bog‘liqlik aniqlanib, klinik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, AMELX va ENAM genlaridagi polimorfizmlarga ega bolalarda kariyesning o‘rtacha darajasi boshqalar bilan solishtirganda 1,8–2 barobar yuqori edi. MMP20 geni mutatsiyasi bilan bog‘liq shaxslar esa emal zichligi pastligi va tish yuzasida mikrob koloniyalarining ko‘payishini namoyish etdi.

Immun tizimi genlari (DEFB1 va IL-1) ekspressiyasi yuqori bo‘lgan ishtirokchilarda og‘iz mikroflorasi tarkibida patogen bakteriyalar ko‘proq uchradi, bu esa kariyes rivojlanish xavfini oshirdi. Shu bilan birga, genetik moyilligi bo‘lgan bolalarda og‘iz gigienasi yetarli bo‘lmagan hollarda kariyes tez rivojlandi, ammo muntazam parvarish va fluorid terapiyasi bilan bu xavf sezilarli darajada kamaydi.

Egizaklar ustida o‘tkazilgan kuzatuvlar irsiy omillarning kariyes rivojlanishidagi rolini yana bir bor tasdiqladi: bir tuxumlik egizaklarda kariyesning o‘xshashligi ikki tuxumlik egizaklarga qaraganda ancha yuqori bo‘ldi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, kariyesga moyillikni aniqlash va genetik testlar yordamida individual profilaktika strategiyalarini ishlab chiqish samarali bo‘ladi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot kariyesning irsiy asoslarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, genetik omillar va atrof-muhit faktorlarining o‘zaro ta’sirini tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, AMELX, ENAM va MMP20 genlaridagi polimorfizmlar tish emali zichligini pasaytiradi va kariyes rivojlanish xavfini oshiradi. Shu bilan birga, DEFB1 va IL-1 kabi immun tizimi genlarining o‘zgarishlari mikrofloraning tarkibini boshqaradi va kariyes rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Genetik moyilligi bo‘lgan shaxslar shakar iste’moli yuqori va og‘iz gigienasi yetarli bo‘lmagan hollarda yuqori kariyes xavfiga duch keladi. Shu sababli, genetik testlar asosida shaxsiy profilaktika strategiyalarini ishlab chiqish muhimdir. Masalan, emal zichligi pastligi aniqlangan bolalarda fluorid terapiyasi, shakar iste’molini cheklash va muntazam tish yuvish tavsiya etiladi. Immun tizimi genlaridagi o‘zgarishlar esa yallig‘lanishga qarshi profilaktika va probiotiklar qo‘llashni talab qiladi.

Tadqiqot natijalari klinik stomatologiya amaliyotida yangi yondashuvlarni rivojlantirishga imkon beradi. Genetik markerlar yordamida risk guruhlari aniqlanadi va individual profilaktika dasturlari ishlab chiqiladi. Shu tariqa, kariyesning

rivojlanishi erta bosqichda aniqlanadi, davolash samaradorligi oshadi va stomatologik xarajatlar kamayadi.

Kelajakdagi tadqiqotlar kariyesga moyillikni aniqlashda ko‘proq genlar va ularning o‘zaro ta’sirini o‘rganishga qaratilishi kerak. Shuningdek, genetik va atrof-muhit faktorlarining uzun muddatli kuzatuv natijalari profilaktika va davolash strategiyalarini yanada takomillashtirishga yordam beradi.

Umuman olganda, kariyesga irsiy moyillikni o‘rganish nafaqat ilmiy, balki klinik jihatdan ham ahamiyatlidir. Genetika asosida shaxsiy profilaktika va davolash stomatologiya sohasida ilg‘or yondashuvlarni rivojlantirishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vieira, A.R., & Marazita, M.L. (2013). Genetics of dental caries: A review. *Journal of Dental Research*, 92(8), 853–859.
2. Slayton, R.L., et al. (2005). Heritability of dental caries and its correlation with enamel defects. *Caries Research*, 39(6), 484–490.
3. Wang, X., et al. (2012). The role of AMELX and ENAM genes in caries susceptibility. *Journal of Dental Genetics*, 3(2), 45–53.
4. Moffatt, P., et al. (2004). Enamel defects and caries risk in children: Genetic perspective. *Pediatric Dentistry*, 26(4), 315–321.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

IJTIMOIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI KOMMUNIKATSIYA VOSITALARINING ROLI VA AMALIY YECHIMLAR

Shaydulova Marjona Alisher qizi
TerDU Turizm va mehmondo‘stlik yo‘nalishi 2-kurs magistranti
sh.marjona03@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy turizmni rivojlantirishda raqamli kommunikatsiya vositalarining roli va amaliy yechimlari tahlil qilinadi. Raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar va onlayn xizmatlar orqali turizm sohasida mijozlar bilan samarali muloqot, ma’lumot tarqatish va turizm xizmatlarini yaxshilash imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari raqamli kommunikatsiya vositalarining ijtimoiy turizmni targ‘ib qilishda strategik ahamiyatini, foydalanuvchi tajribasini oshirishdagi rolini va amaliy innovatsion yechimlarni qo‘llash imkoniyatlarini ko‘rsatadi.
Kalit so‘zlar: Ijtimoiy turizm; raqamli kommunikatsiya; onlayn platformalar; ijtimoiy tarmoqlar; turizm marketingi; foydalanuvchi tajribasi; amaliy yechimlar.
Аннотация: В статье анализируется роль цифровых коммуникационных инструментов и практических решений в развитии социального туризма. Рассматриваются возможности эффективного взаимодействия с клиентами, распространения информации и улучшения туристических услуг через цифровые платформы, социальные сети, мобильные приложения и онлайн-сервисы. Результаты исследования демонстрируют стратегическую значимость цифровых коммуникаций в продвижении социального туризма, их влияние на опыт пользователей и применение инновационных практических решений.
Ключевые слова: Социальный туризм; цифровые коммуникации; онлайн-платформы; социальные сети; маркетинг туризма; пользовательский опыт; практические решения.
Abstract: This article examines the role of digital communication tools and practical solutions in the development of social tourism. The study highlights opportunities for effective interaction vith clients, information dissemination, and enhancement of tourism services through digital platforms, social netvorks, mobile applications, and online services. Findings demonstrate the strategic importance of digital communications in promoting social tourism, improving user experience, and applying innovative practical solutions.

Keyvords: Social tourism; digital communication; online platforms; social netvorks; tourism marketing; user experience; practical solutions.

Kirish

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt (SI) stomatologik diagnostika va davolash jarayonini sezilarli darajada optimallashtiradi. Radiografik tasvirlar va 3D-tasvirlarni SI algoritmlari orqali tahlil qilish natijasida diagnostika aniqligi o‘rtacha 92% darajasiga yetdi, bu inson stomatologlari bilan taqqoslaganda yuqori natija hisoblanadi. Ayniqsa, kariyes va periapikal patologiyalarni erta bosqichda aniqlashda SI tizimlari samarali ekanligi aniqlanmoqda.

Davolash jarayonida SI yordamida ishlab chiqilgan individual rejalarning samaradorligi oshgani kuzatildi. 150 bemor ma’lumotlari tahlil qilinganida, ortodontik va implantologik davolash natijalari bemor anatomiyasiga moslashtirilgan hollarda jarrohlik xatoliklari kamaygani va davolash muddati qisqargani aniqlandi. Shu bilan

birga, bemor qoniqishi oshgani, masofadan monitoring va individual maslahatlar orqali davolash jarayoniga bemor motivatsiyasi oshgani kuzatildi. Telemeditsina integratsiyasi SI bilan birgalikda bemorlarni masofadan monitoring qilish imkonini berdi. Tadqiqot davomida bemorlarning 85% SI tizimlaridan qulaylik va aniqlik jihatidan ijobiy baho berdi. Shu bilan birga, mutaxassislar fikriga ko‘ra, SI tizimlari klinik qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlaydi va inson tajribasini to‘ldiradi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, SI va raqamli tibbiyot stomatologiyada yangi standartlarni belgilashga xizmat qiladi. Diagnostika aniqligi oshadi, davolash individualizatsiyalashadi, bemor qoniqishi ortadi va klinik natijalar yaxshilanadi. Shu bilan birga, ma’lumotlarni himoya qilish, algoritmlarni standartlashtirish va bioetika masalalari hali ham dolzarb muammo sifatida qolmoqda.

Ushbu natijalar kelajakda SI tizimlarini yanada kengroq tatbiq etish va stomatologik xizmatlarni individual, samarali va xavfsiz qilish imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Xulosa

Ushbu tadqiqot sun’iy intellekt (SI) va raqamli tibbiyotning stomatologik amaliyotdagi rolini tizimli tarzda o‘rganishga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, SI diagnostika, davolash va bemor monitoringi jarayonida samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Radiografik va 3D-tasvirlarni tahlil qilish orqali SI tizimlari kariyes, periodontit va periapikal patologiyalarni erta bosqichda aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, mashina o‘rganish va chuqur o‘rganish algoritmlari bemor klinik tarixini tahlil qilib, eng optimal davolash strategiyasini ishlab chiqadi. Individualizatsiyalashgan davolash rejalari ortodontik va implantologik jarayonlarda jarrohlik xatoliklarini kamaytiradi, davolash vaqtini qisqartiradi va bemor natijalarini optimallashtiradi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, SI yordamida ishlab chiqilgan davolash rejalari bemorning anatomik xususiyatlariga mos keladi, shuningdek, bemor motivatsiyasini oshirish va davolash jarayonini monitoring qilish imkonini beradi. Telemeditsina integratsiyasi orqali bemorlar masofadan kuzatiladi va onlayn maslahatlar beriladi, bu esa ayniqsa pandemiya davrida stomatologik xizmatlarning uzluksizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Shuni ta’kidlash lozimki, SI tizimlarining klinik tatbiqida ba’zi muammolar mavjud. Ularning murakkabligi, yuqori xarajat, algoritmlarni standartlashtirish zarurati va bemor ma’lumotlarini himoya qilish masalalari hali ham dolzarb hisoblanadi. Shu sababli, kelajakda bioetika va ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash, algoritmlarni optimallashtirish va klinik protokollarni ishlab chiqish zarur. Shuningdek, SI va raqamli tibbiyot stomatologiyada

yangi standartlarni belgilash imkonini beradi. Diagnostika aniqligi oshadi, davolash individualizatsiyalashadi va bemor qoniqishi sezilarli darajada ortadi. Klinik natijalar yaxshilanadi, jarrohlik xatoliklari kamayadi va stomatologik amaliyot samaradorligi oshadi. Shu bilan birga, SI inson mutaxassislari tajribasini to‘ldiruvchi vosita sifatida ishlaydi va klinik qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot sun’iy intellekt va raqamli tibbiyot stomatologiyada kelajak istiqbollarini yoritadi. SI tizimlarining rivojlanishi bilan bemorlar uchun individual, tezkor, xavfsiz va samarali davolash imkoniyatlari kengayadi. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlar, klinik tajribalar va texnologik yangiliklar integratsiyasi stomatologiya sohasini yangi bosqichga olib chiqadi. Shu yo‘l bilan SI stomatologiyada nafaqat innovatsion texnologiya, balki bemorlar salomatligini yaxshilashga xizmat qiluvchi strategik vositaga aylanadi.

Manbalar

1. Esteva, A., Kuprel, B., Novoa, R. A., Ko, J., Swetter, S. M., Blau, H. M., & Thrun, S. (2019). Dermatologist-level classification of skin cancer with deep neural networks. *Nature*, 542(7639), 115–118.
2. Li, X., Zhang, Y., Wang, L., & Chen, H. (2020). Artificial intelligence in orthodontics: Applications, challenges, and future prospects. *American Journal of Orthodontics and Dentofacial Orthopedics*, 157(4), 514–526.
3. Kumar, P., Singh, R., & Sharma, S. (2021). Telemedicine and AI in dentistry: Lessons from the COVID-19 pandemic. *Journal of Dental Research*, 100(5), 465–472.
4. Patel, S., Jain, R., & Mehta, D. (2022). Artificial intelligence in dentistry: Ethical considerations and clinical applications. *Clinical Oral Investigations*, 26(6), 4057–4067.
5. Zhang, Y., Jiang, B., & Li, D. (2021). Machine learning in dental radiography: A review. *Oral Radiology*, 37(3), 201–210.
6. Chen, L., Wang, H., & Zhao, Y. (2020). AI-assisted dental diagnosis: Accuracy and limitations. *Journal of Clinical Dentistry*, 31(2), 95–102.
7. Lee, J. H., Kim, D. H., Jeong, S. N., & Choi, S. H. (2018). Detection and diagnosis of dental caries using artificial intelligence. *Journal of Dentistry*, 77, 106–111.
8. Choi, J. W., & Kim, D. H. (2021). Deep learning in oral and maxillofacial radiology: Current trends. *Imaging Science in Dentistry*, 51(4), 261–270.

9. Saghiri, M. A., Asatourian, A., & Sheibani, N. (2019). 3D imaging and AI in implant dentistry: Advances and perspectives. *Implant Dentistry*, 28(3), 237–245.
10. Topol, E. J. (2019). High-performance medicine: The convergence of human and artificial intelligence. *Nature Medicine*, 25, 44–56.
11. Jiang, F., Jiang, Y., Zhi, H., Dong, Y., Li, H., Ma, S., & Wang, Y. (2017). Artificial intelligence in healthcare: Past, present and future. *Stroke and Vascular Neurology*, 2(4), 230–243.
12. Huang, G., Liu, Z., & Wang, X. (2020). AI in dental treatment planning: A systematic review. *Journal of Dentistry and Oral Biology*, 5(1), 101–110.
13. Orhan, K., & Ak, G. (2019). Ethical and legal aspects of AI applications in dentistry. *European Journal of Dentistry*, 13(2), 170–177.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

Зелёная энергетика как стратегический вектор устойчивого развития Республики

Афакова Робия
Бухоро

Введение

В XXI веке мировое сообщество сталкивается с серьёзными экологическими вызовами: изменением климата, истощением природных ресурсов, ростом выбросов углерода и увеличением потребности в электроэнергии. На фоне этих процессов зелёная энергетика становится не просто трендом, а основой устойчивого развития каждого государства. Для Республики переход к экологически чистым источникам энергии — это стратегически важный путь, который определяет экономическое, технологическое и социальное будущее страны.

Потенциал Республики в развитии зелёной энергетики

Республика обладает значительным природным потенциалом для развития возобновляемых источников энергии. Множество солнечных дней в году, доступность ветровых ресурсов, наличие водных артерий и биомассы создают все условия для формирования мощной зелёной энергетической инфраструктуры.

- **Солнечная энергетика.** Значительная часть территории получает высокий уровень солнечной радиации, что делает использование фотоэлектрических станций эффективным и экономически выгодным. Солнечные панели всё чаще устанавливаются не только на промышленных объектах, но и на жилых зданиях, что расширяет участие граждан в «зелёной экономике».
- **Ветровая энергетика.** Ветропарки сегодня демонстрируют высокую производительность и стабильность. Развитие данного направления способствует энергобезопасности регионов, особенно удалённых территорий.
- **Гидроэнергетика.** Малые гидроэлектростанции могут стать экологичной альтернативой для сельских районов, обеспечивая их автономной и устойчивой энергией.

Экономические преимущества зелёной энергетики

Переход на возобновляемые источники энергии приносит стране ряд весомых экономических преимуществ:

1. **Снижение затрат на импорт топлива.** Использование местных природных ресурсов уменьшает зависимость страны от внешних поставок нефти, газа и угля.
2. **Создание новых рабочих мест.** Строительство, эксплуатация и обслуживание солнечных и ветровых станций стимулируют развитие инженерных профессий, науки и высоких технологий.
3. **Инновационное развитие.** Зелёная энергетика побуждает научные центры и университеты к разработке новых материалов, систем накопления энергии и цифровых решений для управления сетями.
4. **Укрепление энергетической безопасности.** Распределённая генерация энергии (малые станции, домашние солнечные модули) снижает нагрузку на централизованную сеть и делает её более устойчивой.

Экологические и социальные преимущества

Одним из ключевых достоинств зелёной энергетики является её экологическая чистота. Переход на возобновляемые источники энергии помогает значительно сокращать выбросы парниковых газов, тем самым снижая негативное воздействие на климат. Это особенно важно в условиях глобального потепления, когда каждый регион должен внести свой вклад в борьбу за экосистемную стабильность.

Кроме того, развитие зелёной энергетики имеет важное социальное значение:

- повышает качество жизни населения за счёт улучшения экологической обстановки;
- способствует развитию «зелёного» образа мышления среди молодёжи и школьников;
- формирует культуру ответственного отношения к природе.

Государственные инициативы и национальные программы

В последние годы Республика активно развивает нормативно-правовую базу, направленную на поддержку зелёной энергетики. Стратегические программы ориентированы на увеличение доли возобновляемых источников энергии в общем энергобалансе страны. Особое внимание уделяется:

- модернизации энергетической инфраструктуры,
- стимулированию инвестиций в зелёные технологии,
- развитию инноваций в сфере альтернативной энергетики,
- обучению специалистов в области возобновляемых источников энергии.

Поддержка государства обеспечивает благоприятные условия для роста новых

зелёных проектов и взаимодействия бизнеса, науки и образования.

Технологические тенденции и будущее зелёной энергетики

Современная зелёная энергетика развивается стремительными темпами. В мировую практику активно внедряются:

- высокоэффективные солнечные панели нового поколения,
- крупные ветровые турбины с повышенной мощностью,
- системы хранения энергии на основе литий-ионных и натрий-ионных батарей,
- интеллектуальные энергосети (smart grid),
- технологии водородной энергетики.

Эти тенденции открывают новые горизонты для Республики: от создания собственных производств оборудования до экспортного потенциала в сфере зелёных технологий.

Заключение

Развитие зелёной энергетики является ключевым направлением устойчивого роста Республики. Это не только экологически значимый шаг, но и возможность для страны укреплять свою энергетическую независимость, развивать экономику, повышать уровень жизни населения и формировать новый технологический уклад.

Переход на возобновляемые источники энергии — это инвестиция в будущее. Это выбор в пользу чистого воздуха, стабильной экономики, инновационных решений и здорового поколения. Зелёная энергетика уже сегодня показывает, что может стать основой современной, безопасной и прогрессивной Республики, уверенно двигающейся навстречу глобальным экологическим вызовам.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

O‘ZBEK BOLALAR SHE’RIYATINING YANGILANISH JARAYONI

Toshtemirova Ra’no
O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti magistranti
Ilmiy rahbar: Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim) kafedrasi dotsenti PhD **Normurodova Nigora Abdusattorovna**

Annotatsiya

Ushbu maqolada o’zbek bolalar she’riyati rivojlanishining asosiy bosqichlari, uning shakl va mazmun jihatidan yangilanish jarayoni yoritiladi. O’zbek bolalar adabiyotining barqarorlashuvi, uning o’ziga xos tamoyillari haqida fikr yuritiladi. O’zbek bolalar adabiyoti shakllanish jarayonlari, adabiyot namayondalari va ularning asarlari haqidagi mulohazalar bayon etiladi.Yangi davr bolalar ijodida kuzatilayotgan mavzu, til va obrazlilikdagi o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Bolalar adabiyoti namnalari haqida
Kalit so‘zlar: bolalar she’riyati, yangilanish, obraz, zamonaviylik, tarbiya.

Аннотация

В статье рассматриваются основные этапы развития узбекской детской поэзии, а также процесс её обновления в содержательном и художественном аспектах. Анализируются новые темы, язык и образы, появившиеся в творчестве современных поэтов для детей.
Ключевые слова: детская поэзия, обновление, образ, современность, воспитание.

Abstract

This article examines the main stages of the development of Uzbek children’s poetry and its renewal in both form and content. It analyzes the modern tendencies in themes, language, and imagery reflected in contemporary children’s poems.
Keywords: children’s poetry, renewal, imagery, modernity, education.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ma’ruzalaridan birida, “Adabiyot xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko’rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo’l toppish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomllantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o’rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz” – deya ta’kidlagan edi. Buyuk adibimiz Abdulla Qahhorning : “Adabiyot atomdan kuchli, faqat uning kuchini o;tin yorishga sarflamaslik kerak” –degan gaplari ham adabiyotning hayotimizdagi

o’rni naqadar muhim ekanligidan dalolat beradi. Bugun adabiyotimizning eng jo’shqin, hayojonli, samimiyatga boy bo’lgan tarmoqlaridan biri bo’lgan bolalar adabiyoti haqida gaplashamiz. Bolalar adabiyoti milliy adabiyotimizning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, yosh avlodni estetik va ma’naviy jihatdan tarbiyalashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bolalar adabiyoti bu- bolalar va o’smirlar uchun yaratilgan badiiy, ilmiy-ommabop asarlar majmui. Bunda asarlarning katta qismini badiiy asarlar tashkil etadi. Bolalar she’riyati o‘quvchi dunyoqarashini kengaytiradi, ona tiliga muhabbat uyg‘otadi va milliy qadriyatlarni singdiradi. Bolalar adabiyoti o’zgaruvchan hodisadir. U kitobxon yoshi, u yashayotgan, rivojlanayotgan muhit bilan bevosita bog’liq. Kitobxon yoshini hisobga olish bolalar adabiyotining muhim jihatidir. Bundan tashqari bolalar adabiyoti harakatga boyligi bilan ham ajralib turadi. Uning rivojlanish davri bevosita xalq og’zaki ijodiga borib taqaladi. Folklor namunalari: alla, lapar, masal, topishmoq, dostonlarsiz bolalar adabiyotini to’laqonli tasavvur etish mushkul. Bu kabi janr namunalari tilining soddaligi, ravonligi, xalqchilligi bilan ajralib turadi. Zamonaviy shaklda bolalar adabiyoti yangidan yangi badiiy shakllar va jozibador uslublar bilan boyib bormoqda.

XX asrning boshlarida bolalar adabiyoti fan sifatida shakllana boshladi.Sharq xalqlari adabiyoti asosan pand-nasihat ruhidagi asarlari bilan ajralib turadi.XX asr jadidchilik harakati bolalar adabiyoti shakllanishi uchun muhim asoslardan biri bo’ldi. Bolalar adabiyotiga bolalar uchun maxsus yaratilgan asarlar sifatida qarash, uning o’ziga xos uslub va yo’nalishlarini belgilash 20-asr boshlariga xos hodisadir. 20-asrning 20-30-yillarida Hamid Olimjon, G’afur G’ulom, G’ayratiy, Shukur Sadulla, Po’lat Mo’min va boshqa adiblarning asarlari bolalar adabiyotining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo’ldi. 40-60- yillarda o’zbek bolalar adabiyoti yanada boyidi. Uyg’un, Mirtemir, Said Ahmad kabi kattalar adabiyoti vakillari ham bolalar uchun o’zlarining keng ko’lamli, mazmunga boy , o’qilishi soda va ravon bo’lgan asarlarini yaratdilar. Ularning asarlarida bola ruhiyati, orzulari, maqsadlari, Vatanga muhabbat, ilm olishga intilish, mehnatsevarlik singari mavzular yetakchilik qilgan. Bolalar adabiyotiga oid asarlarda hammamiz sog’inib eslaydigan yoshligimizning izlarini ko’rishimiz mumkin. Bu turga mansub asarlarda inson qalbidagi barcha kechinmalar o’zining bor jozibasi bilan ko’rsatib beriladi.

Mustaqillikdan keying davrda bolalar she’riyatidagi yangilanishlar bolalar adabiyotida tub burilish vazifasini bajardi. Professor Q.Yo’ldoshev istiqlol davri adabiyoti haqida quyidagicha yozadi: “ Bugungi adabiyot odamlarga yo’l ko’rsatishni gardaniga olmaydi, o’quvchiga aql o’rgatmaydi, muallimlik da’vosini qilmaydi. U tasvirning ingichkaligi, ifodalarning kutilmaganligi bilan o’quvchida munosabat uyg’otadi.

Shuni aytish kerakki, istiqlol adabiyotimizning jozibasi sirtida emas, botinda, matn zamirida". O'zbekiston mustaqillikka erishgach, adabiyotda, ayniqsa, bolalar adabiyotida erkin fikrlash, milliy qadriyatlarni tiklash, istiqlol g'oyalari asosiy yo'nalishga aylandi.Bu davrda yangilanish quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ldi:

1. Til va uslubda yangilanish — bolalarning tili, tafakkuriga yaqin, jonli xalqona iboralar qo'llanildi, tilning soddaligi va obrazlilik kuchaydi;
2. Mazmuniy yangilanish — ilm-fan, tabiat, ekologiya, tinchlik va do'stlik mavzulari keng yoritildi.
3. Badiiy shakl yangiligi — qisqa, qofiyadosh, hazil-mutoyiba, miniatur, o'qilishi oson she'rlar yaratildi.

Masalan, Abdurahmon Akbarning "Quyosh bilan suhbat", "Gul bilan bola" kabi she'rlarida bola va tabiat o'rtasidagi samimiy muloqot ifoda etiladi. Erkin Vohidovning "Yoz keldi" yoki "Qorbobo" kabi she'rlarida esa xalqona ruh va shodlik kayfiyati yetakchilik qiladi.

Zamonaviy davrda esa yosh shoirlar — Gulchehra Nurillo, Nodira Zokirova, Azizbek Ro'zmetovlar ijodida raqamli texnologiyalar, ekologik muammolar, tinchlik, insoniylik g'oyalari bolalar dunyoqarashiga mos tarzda yoritilmoqda. Bu davrga kelib bolalar adabiyoti badiiyestetik didni o'stirishga olam to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirishga qaratilgan, sersavollik xususiyatini aks ettirgan she'rlar bilan boyidi. Zamonaviy bolalar adabiyotida so'z va shakl uyg'unligi asosida yaratilgan grafik she'r ya'ni shaklli she'rlar yaratilmoqda. Bunday she'rlarni bola o'qiganida nafaqat ma'noni, balki ko'rinishni ham his qiladi. Bolalar she'riyatida grafik she'rlar tasviriy fikrlashni, tasavvur va estetik didni rivojlantiradi. So'z va rasm o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgatadi. Bu uslubdagi she'rlarning ajoyib namunasini Abdurahmon Akbar ijodida ham ko'plab uchratishimiz mumkin.

Abdurahmon Akbarning "Bir daftar savol" turkumidagi she'rlarini bolalar adabiyotining mashhur olimi R.Barakayev yuksak baholagan. "Bu she'r Shuhratjon ismli bola tilidan berilgan savollardan iborat. Bolalar ularni uyda, bekatda , maktabda, yo'lda paydo bo'lishiga qarab guruhlarga ham ajratib qo'ygan . Bu savollar shunchaki savol emas, ularning har biri katta ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga ega"

Xulosa

Xulosa o'rnida aytish mumkunki, shakily-mazmuniy yangilanishlar asosida yaratilgan bolalar dunyoqarashini oshiruivchi o'yin usulidagi she'rlar bolalarning aqliy salohiyatini oshiradi, olam va odam , ul;arning kelib chiqishi haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi, adabiy tafakkurining shakllanishi uchun zamin yaratadi. She'rlar orqali bolalar nafaqat go'zallikni his etadi, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlarni

o‘zlashtiradilar. Shuning uchun bolalar adabiyotini rivojlantirish, uni ta’lim jarayoniga keng tatbiq etish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy adabiyotdagi yangilanishlarni qabuk qilish, undan estetik zavq olish, mushihada yuritish uchun kitobxon tafakkuri va dunyoqarashi keng bo’lishi kerak. A.Akbar, D.Rajab kabi shoirlarimizning kashfiyotchi muallim sifatida namoyon bo’lishi yosh kitobxonlarda ham mana shunday ijodkorlik, kashfiyotchilik qobiliyatini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Adabiy jarayondagi rivojlanishlar bevosita inson tafakkuri va dunyoqarashiga bog’liq. Shakliy-mazmuniy yangilanishlarni qabul qilish uchun kitobxon tafakkuri yuksak darajada bo’lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Erkin Vohidov. Tanlangan asarlar. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2015.
2. Abdurahmon Akbar. Quyosh bilan suhbat. — Toshkent: Yosh gvardiya, 2018.
3. Normurodova N. Bolalar adabiyotida obrazlilik masalalari. — Toshkent 2020.
4. O‘zbekiston bolalar adabiyoti antologiyasi. — Toshkent: Sharq, 2022
5.Abdullayeva.G., & Mo’minova,T. (2025). Bolalar she’riyatining ma’rifiy-estetik funksiyasi. American Journal of Education And Learning [30-03-2025].
6.https://yuz.uz/uz/news/

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

FITRAT PEDAGOGIK QARASHLARI ASOSIDA ZAMONAVIY O‘QITUVCHINING MA’NAVIY-MA’RIFIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Rasulova Nargiza Murodilloyevna
Xalqaro Nordik Universiteti magistranti
Ilmiy rahbar: Dotsent V/b PhD **Haytbayeva Sayyora**

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada jadid ma’rifatchisi Abdurauf Fitratning pedagogik qarashlari zamonaviy o‘qituvchi shaxsida ma’naviy-ma’rifiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Fitratning barkamol inson tarbiyasi, o‘qituvchining mas’uliyati, milliy g‘oya va dunyoviy bilim uyg‘unligi haqidagi fikrlari bugungi ta’lim jarayoni uchun muhim nazariy asos sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy o‘qituvchining ma’naviy kompetensiyasini rivojlantirish yo‘nalishlari ham ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Fitrat, jadidchilik, ma’naviyat, ma’rifat, kompetensiya, zamonaviy o‘qituvchi, pedagogika.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается роль педагогических взглядов Абдурауфа Фитрата в развитии духовно-просветительских компетенций современного учителя. Анализируются идеи Фитрата о воспитании гармоничной личности, ответственности учителя, национальной идентичности и единстве светских знаний. Также приведены направления развития духовных компетенций педагога.

Ключевые слова: Фитрат, джадидизм, духовность, просвещение, компетенция, современный учитель, педагогика.

ANNOTATION

This article analyzes the role and significance of Abdurauf Fitrat’s pedagogical views in developing the spiritual-educational competencies of modern teachers. Fitrat’s concepts of moral upbringing, teacher responsibility, national identity, and the harmony of secular knowledge are reviewed as theoretical bases for contemporary education. Practical directions for enhancing teachers’ spiritual competencies are also discussed.

Keywords: Fitrat, Jadid movement, spirituality, enlightenment, competence, modern teacher, pedagogy.

Bugungi globallashuv sharoitida ta’lim tizimining asosiy maqsadi – intellektual, ma’naviy va ma’rifiy jihatdan yetuk shaxsni tarbiyalashdir. Bu jarayonda o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki shaxs kamolotiga yo‘l ko‘rsatuvchi ma’naviy yetakchi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan jadid ma’rifatchilarining pedagogik qarashlari zamonaviy o‘qituvchining kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ulardan biri – Abdurauf Fitrat bo‘lib, uning ma’rifiy qarashlari o‘z davrida ta’limga yangicha yondashuvlarni olib kirgan.

Fitrat ta’lim jarayonining markazida “komil inson” turishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, insonning ma’naviy yetukligi uning bilimdonligi, axloqi, vijdoniyati va fuqarolik pozitsiyasi bilan uyg‘un bo‘lishi kerak. Fitratning “Rahbari najot”, “O‘qituvchilar uchun”, “Hind sayyohi” kabi asarlarida o‘qituvchining ma’naviy mas’uliyati alohida o‘rin egallaydi.

Fitrat jadidchilikni ma’rifat orqali jamiyatni isloh qilishning yagona yo‘li deb bilgan. Uningcha, o‘qituvchi - yangilikka ochiq bo‘lishi, milliy o‘zlikni anglatishi, islohotchi ruhiga ega bo‘lishi, ma’rifiy ulg‘ayishning targ‘ibotchisi bo‘lishi lozim.

Fitrat fikricha, o‘qituvchi – jamiyat taraqqiyotining bosh mexanizmi. Uning axloqi, madaniyati va ilmiy saviyasi o‘quvchini tarbiyalaydi. Shu bois u o‘qituvchi shaxsida quyidagi sifatlar bo‘lishini ta’kidlaydi: halollik va fidoyilik, milliy g‘urur, zamonaviy dunyoqarash, o‘z ustida ishlash madaniyati.

Zamonaviy ta’limda ma’naviy-ma’rifiy kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi: ma’naviy qadriyatlarni bilish, milliy va umuminsoniy tamoyillarga hurmat, mas’uliyatli fuqarolik pozitsiyasi, ijobiy shaxsiy namuna ko‘rsatish, axloqiy tarbiya ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

Fitrat g‘oyalari asosida kompetensiyani rivojlantirish yo‘llari

Fitrat qarashlari zamonaviy o‘qituvchi uchun quyidagi yo‘nalishlarni belgilaydi:

O‘z ustida uzluksiz ishlash. Fitrat fikricha, o‘qituvchining eng katta dushmani – jaholat. Shu sababli pedagog muntazam ravishda bilimini kengaytirishi kerak.

Ma’naviy o‘rnak bo‘lish. O‘qituvchi jamiyat uchun ma’naviy yetakchi bo‘lib, o‘quvchilarda axloqiy qarashlarni shakllantiradi.

Milliy g‘oya va vatanga sadoqat. Fitratning “millatni uyg‘otish” g‘oyasi o‘qituvchini yoshlar qalbida milliy g‘ururni mustahkamlashga chorlaydi.

Innovatsion fikrlash. Jadidchilik ruhining o‘zi yangilikka intilishdir. O‘qituvchi zamonaviy metodlar, AKT, pedagogik texnologiyalarni bilishi zarur.

Ma’rifiy targ‘ibot. Fitrat o‘qituvchini jamiyatda ma’rifat yoyuvchi inson sifatida ko‘radi. Bu o‘qituvchidan darsdan tashqari faoliyatda ham faollikni talab qiladi.

Fitrat pedagogik qarashlari zamonaviy ta’lim tizimi uchun quyidagi jihatlari bilan dolzarbdir: ma’naviy tarbiya va ma’rifiy ongni asosiy vazifa sifatida belgilashi, milliy qadriyatlarni zamonaviy ta’lim bilan uyg‘unlashtirishi, o‘qituvchining jamiyatdagi o‘rni va mas’uliyatini aniq ko‘rsatib berishi, yangilikka intilishga da’vat qilishi.

Bugungi ta’lim siyosatida yoshlar tarbiyasida ma’naviy omillarning ustuvorligi Fitrat merosining qayta kashf etilishini taqozo qiladi.

Fitratning pedagogik qarashlari zamonaviy o‘qituvchi shaxsida ma’naviy-ma’rifiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun mustahkam nazariy asos hisoblanadi. Uning asarlari o‘qituvchini komil inson tarbiyalash, milliy va ma’naviy qadriyatlarni singdirish, ilmiy va madaniy yetuklikka erishishga chorlaydi. Shunday ekan, Fitrat merosini o‘qituvchilar tayyorlash jarayoniga chuqur integratsiya qilish zamonaviy ta’limning sifat omillaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Fitrat A. O‘qituvchilar uchun. – Toshkent, 1916.
2.Fitrat A. Rahbari najot. – Buxoro, 1919.
3.Begali Qosimov. Fitrat va jadidchilik harakati. – Toshkent: Fan, 1994.
4.Xolmuminov A. Jadidlar pedagogik merosi. – Toshkent, 2010.
5.O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni.
6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlarga oid qaror va farmonlari.
7.Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha ilmiy maqolalar va metodik qo‘llanmalar.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiat orqali estetik dunyoqarashni shakllantirish.
Формирование эстетического мировоззрения у дошкольников через природу.
Formation of aesthetic outlook in preschool children through nature.

Buxoro davlat pedagogika instituti professori
Sayfullayev G'ulom Maxmudovich
Magistratura bo`limi "Maktabgacha ta'lim"
yo`nalishi 1-bosqich talabasi
Olimjonova Sarvinoz Sanjarbekovna

Annotatsiya:Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish orqali ularning estetik dunyoqarashini shakllantirish haqida yoritiladi.Estetik dunyoqarashni shakllantirish haqida tushunchalar va tavsiyalar berib òtiladi.Bolalar tabiat orqali nimalarni his qilishlari,tabiat bilan tanishtirish bizga qanday natija berishi haqida so`z yuritilgan.Maktabgacha yosh davri— bolalarda estetik dunyoqarash,gózallikni his qilish va tabiatga mehr berishni shakllantirishda eng muhim bosqich hisoblanadi.Bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida ularning estetik dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish bugungi kunda dolzarb va pedagogik vazifadir.

Kalit sózlar:tabiat,estetik dunyoqarash,estetik did,gózallik,his-tuyg'u,daraxtlar,qushlar,ovoz,nutq,sayr,ranglar,fasllar,hayvonot olami,o`simliklar dunyosi,bog'.park,estetik zavq.

Аннотация: В данной статье рассматривается формирование эстетического мировоззрения детей дошкольного возраста путем приобщения их к природе. Даны понятия и рекомендации по формированию эстетического мировоззрения. Написано о том, что чувствуют дети через природу и какие результаты можно получить от приобщения их к природе. Привлечение к дошкольному возрасту – важнейший этап формирования у детей эстетического мировоззрения, чувства красоты и любви к природе. В процессе приобщения детей к природе формирование и развитие их эстетического мировоззрения сегодня является актуальным и педагогическим. это задача.

Ключевые слова: природа, эстетическое мировоззрение, эстетический вкус, красота, чувство, деревья, птицы, голос, речь, прогулка, цвета, времена года, животный мир, растительный мир, сад, парк, эстетическое удовольствие.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

Annotation: This article covers the formation of the aesthetic worldview of preschool children by introducing them to nature. Concepts and recommendations are given on the formation of an aesthetic worldview. It is written about what children feel through nature and what results can be obtained from introducing them to nature. The invitation to preschool age is the most important stage in the formation of an aesthetic worldview, a sense of beauty and love for nature in children. In the process of introducing children to nature, the formation and development of their aesthetic worldview is relevant and pedagogical today. is a task.

Key words: nature, aesthetic outlook, aesthetic taste, beauty, feeling, trees, birds, voice, speech, walk, colors, seasons, animal world, plant world, garden, park, aesthetic pleasure.

Kirish. Maktabgacha davrdagi bolalar uchun tabiat ----- eng boy,tabiiy estetik manba hisoblanadi.Tabiatdagi rang - baranglik,go`zallik,fasllar almashinuvi,qushlarning ovozi bularning barchasi bolalarda estetik did,idrok,tasavvur va his-tuyg'ularni shakllantirish uchun jonli asos bo'lib xizmat qiladi.Shuning uchun ham maktabgacha yoshdagi bolalarga estetik tarbiya berish pedagogik jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi.Bu jarayonda tarbiyachi pedagoglardan malaka va yuqori mahorat talab etiladi.Bolaga malumot beradigan ya'ni dunyoni tanitadigan insonlar aynan tarbiyachi pedagoglar hisoblanadi.Bolalarda estetik dunyoqarashni shakllantirish uchun ularni ko`proq sayrga olib chiqish,sayr davomida ular bilan faol suhbat qilish,savol-javoblar o`tkazish talab qilinadi.

Asosiy qism. Estetik dunyoqarash tushunchasi.Estetika-bu go`zallik,san'at,hamohanglik va hayotimizdagi estetik hodisalarni o`rganuvchi fan va falsafiy ta'limot hisoblanadi.Qisqa qilib aytganda, estetika go`zallikni o`rganadigan fan.Insonning estetik his-tuyg'ularini tahlil qiladi.Masalan,hayratlanish,quvonch,zavq,nafislikni his qilish,san'atdan rohatlanish kabilar.Bolalarda ham huddi shunday,estetik dunyoqarashini shakllantirsak,ular atrofdagi go`zalliklarni ko`ra oladi,uni his qiladi,go`zallik haqida fikr yurita oladi,go`zal narsalarni yaratishga intiladi.Tabiat,san'at,musiqa bularning barchasi estetik dunyoqarashni shakllantirish vositalaridir.Bolaning go`zallikni tushunish va baholay olish qobiliyati estetik dunyoqarash hisoblanadi.Estetik dunyoqarashning bola rivojidagi hissasi katta.Bu orqali bolalarda did va san'atni tushunish shakllanadi,tafakkur va tasavvur boyiydi,ijodiy fikrlash rivojlanadi.Ijodiy fikrlash hozirgi kunda dolzarb mavzu hisoblanadi.Ijodkorlikning ham turlari juda ko`p.Bolalarning kreativ va ijodkor bo`lishi barcha ishlarga ijodiy yondashishi kelajagi

uchun juda yaxshi poydevor bo`lib xizmat qiladi.Masalan,ijodkorlik qobiliyati ularni ko`plab go`zalliklar yaratishga undaydi.

Estetik dunyoqarashni tabiat orqali shakllantirish ularni tabiatni qadrlashga o`rgatadi.Bu borada tarbiyachilar mahorat bilan kreativ darslar,sayyor darslar tashkil etishlari zarur.Bolalarga daraxtlarni ko`rsatish ularni erkin qo`yish,ushlab ko`rishlariga ruxsat berish lozim.Bola go`zallikni his qilsagina unga zarar bermaydi,asrab avaylaydi.Tabiiyki,barcha pedagoglar ekologiyani zararlamaslik,tabiatni asrash haqida mashg'ulotlar olib borishadi.Ammo,bu mashg'ulotlar oddiy an'anaviy usulda emas,noodatiy kreativ yondashilganda ko`proq samara beradi.Masalan,bolalarni park, istirohat bog'lariga olib chiqish yoki MTT bog'chasiga olib chiqib,ochiq mashg'ulotlar o'tkazish samarali usul hisoblanadi.Ochiq mashg'ulotlarning ham turli usullari mavjud.Bolalar bilan sayr qilish orqali ham tushunchalar berib o`tiladi so`ngra,ochiq osmon ostida bolalarga alohida alohida stol-stullar o`rnatilib,turli metodlardan foydalangan holda mashg'ulot olib boriladi.Bolalar o`zlari daraxt barglari yoki gullardan foydalanib, gerbariylar yasashni o`rgatamiz.Bu usullar bolalar uchun qiziqarli mashg'ulot bo`lib estetik tarbiya berishga katta samara beradi.Har bir MTT hududida bolalar uchun kichik bo`lsada bog' yaratish tarafdoriman.Haftada bir yoki ikki marta tabiat mashg'ulotlari olib borilib,ularni go`zalliklar bilan tanishtirish va uni his qilishni o`rgatish lozim.Tabiat qo`ynida bolalar bilan jamoaviy o`yinlar tashkil etish ham samarali usullardan biri.Bu jarayonda bola ham erkin bo`ladi ,ham jamoaviy ishlashni o`rganadi.Bu holatni kuzatib turish ya'ni kuzatish metodidan foydalanish pedagoglarga ularni har tomonlama tanishga yordam beradi.Bolalar erkin faoliyatlar jarayonida ichki kechinmalarini,ichki yashirin qobiliyatlarini namoyon qilishadi.

Estetik dunyoqarashni shakllantirish yo`llari juda ko`p.Yuqorida aytib o`tilgan sayohat,kuzatish,fasl o`zgarishlari samarali usullar hisoblanadi.Yashil burchakda gul parvarishlash usuli bolalar uchun har tomonlama foydali bu usul bilan ular gullarni asrashni o`rganishadi,gullardagi rang-baranglik orqali go`zallikni his qilishadi.Ranglar va shakllarni muhokama qilish sayr davomida amalga oshiriladi.Badiiy ijodiy faoliyat rasm chizish,plastilin bilan ishlash,loydan foydalanish,applikatsiya,rang tanlash o`yinlari ham ochiq mashg'ulotlar davomida olib boriladi.Adabiyot va musiqiy faoliyat ham estetik tarbiyani o`rgatishda foydali usullar.Tabiat va go`zallik haqidagi she'rlar,fasllar haqida musiqa tinglash hozirgi eng yaxshi metodika hisoblanadi.Qo`shiqlarni birgalikda kuylash bolalarda xotira va nutq uchun katta yordam beradi.Bolalarga go`zallikni qadriyat va odob orqali o`rgatish zarur.Estetik o`yinlar va mashg'ulotlar ham kreativ yondashuv hisoblanadi.Masalan,"Qaysi rang chiroyli","Raanglar uyg'unligini top","Tabiat manzarasini tasvirla",Eng nafis rasmni

tanla" kabi faol o`yinlar.

Tabiat bola ruhiyatiga ta'sir o`tkazuvchi kuchki omil hisoblanadi.Bolalar tabiat orqali ranglar uyg'unligini,tovush ritmini,shakl va proporsiyalarni,o`zgaruvchanlikni,go`zallikning tabiiy qonuniyatlarini anglay boshlaydi.Bu jarayonlar bolada tafakkurni va tasavvurni shakllantiradi.

Shakllantirish yo`llari va metodlar:

. Kuzatish metodi.Ochiq mashg'ulot orqali gullarning ochilishi, yomg'ir yog'ishi,barg to`kilishi kabi tabiat hodisalarini kuzatish.Bola ko`rganini tasvirlab berishi estetik baholashni shakllantiradi.

. Tabiat bag'rida tasviriy faoliyat.Tabiatda rasmlar chizish,barglar bilan kompozitsiya tayyorlash.Gullar,mevalar,barglar yordamida kreativ ishlar qilish.

. Ekologik o`yinlar."Gulni top","Qaysi qushning ovozi?","Faslni ayt" kabi o`yinlar orqali tabiatni his qilish kuchayadi.

. She'r,qo`shiq,hikoyalardan foydalanish.Qushlar,tabiat hodisalari haqidagi she'rlarni yod oldirish yoki qo`shiqlar aytish ritmik hislarni shakllantirish.

. Ekskursiya va sayrlar.O`rmon,bog',dala,parklarga sayrlar tashkil etish.Tabiat bilan erkin muloqot qilish bolada estetik idrokni shakllantiradi.

. Amaliy faoliyatlar olib borish.Gullar ekish,parvarishlash,o`simliklarni sug'orish,qushlarga don berish kabi faoliyatlar bolalarda tabiatga mehrni shakllantiradi.Ekologik madaniyat va go`zallikga hurmat tuyg'usini tarbiyalaydi.

Xulosa. Tabiat orqali tarbiyalangan bolada,go`zallikga sezgirlik,rang va shakllarni yaxshiroq farqlash qobiliyati,tasviriy va badiiy faoliyatga qiziqish,ekologik madaniyat,tafakkur va kuzatuvchanlik,hissiy ruhiy barqarotlik,tabiatga ehtiyotkorlik va mas'uliyatlilik kabi fazilatlar shakllanadi.Bu jarayonda pedagoglarning roli juda muhim sanaladi.Pedagoglarning asosiy vazifalari:tabiat materiallarini to`g'ri tanlash,bolalarga savol-javoblar berish,har bir faslga mos mashg'ulotlar tashkil etish,har bir go`zallikni bolaga anglatish,amaliy faoliyatni nazorat qilisg hisoblanadi.Pedagoglar maqsadi - bolada tabiatni ko`ra olish,tabiatni asrash-avaylash tuyg'usini uyg'otish bo`lishi lozim.Natijada bolalarda nafaqat estetik tasavvurlar,balki tevarak atrofga mehr,mas'uliyat,mulohaza va kuzatuvchanlik kabi muhim fazilatlar shakllanadi.

Umuman olganda,estetik dunyoqarashni shakllantirishda tabiat eng muhim omil bo`lib,u bolada go`zallikka oshiftalik tuyg'usini yuzaga keltiradi.Tabiiy muhitdagi go`zallik va rang baranglikni ko`ra olish bolalar qalbida idrok qilish va baholash ko`nikmalarini rivojlantiradi.Tabiat bilan bevosita muloqot bolalarning estetik his tuyg'ularini kuchaytirib,tasavvurini boyitadi,badiiy didni va estetik didni

shakllantiradi,ekologik madaniyatni yuksaltiradi.Bu muhim vazifada biz pedagoglar chin ko`ngildan yondashishimiz va doimiy izlanishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Karimova, V. Bola psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
2. Mavlonova, R. va boshq. Pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. To‘raeva, M. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2021.
4. Xudoyberganova, M. Estetik tarbiya asoslari. – Toshkent: Adabiyot jamg‘armasi, 2018.
5. Qayumova, D. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tarbiya. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2022.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4312-son qarori. Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, 2019.
7. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. Maktabgacha ta’lim davlat o‘quv dasturi (“Ilk qadam”). – Toshkent, 2023.
8. Zokirova, F. Bolalarda estetik didni rivojlantirish metodikasi. – Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2020.
9. Rajabova, N. Maktabgacha ta’limda tabiat bilan tanishtirish. – Buxoro: Ilmiy axborot, 2021.
10. Hasanov, Sh. “Bolalarda ekologik va estetik tarbiya uyg‘unligi.” // Buxoro pedagogika jurnali. – 2022. – №3. – B. 45–50.
11. Alimova, G. “Tabiat orqali estetik dunyoqarashni shakllantirishning samarali usullari.” // Maktabgacha ta’lim va rivojlanish. – Toshkent, 2021. – №6.
12. Dewey, J. Art as Experience. – New York: Penguin Books, 2005.
13. Montessori, M. The Absorbent Mind. – Oxford: Clio Press, 2004.
14. UNESCO. Early Childhood Environmental Education Guidelines. – Paris, 2020.
15. Sayfullayev, G. M. — Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qishda amaliy ishlarni tashkil etish. (Ilmiy maqola)
16. Sayfullayev, G. M. — Boshlang`ich sinflarda tabiiy fanlar darslarini pedagogik texnologiyalar va ko‘rgazmali qurollar asosida tashkil etish metodikasi (monografiya)
17. Sayfullayev, G. M. — Geografiya o‘qitish metodikasi (o‘quv qo‘llanma) (2022)
18. Sayfullayev, G. M. — Biologiya promyslovykh hishchnykh vidov ryb, Nizov’ya basseyna reki Zarafshon (monografiya)

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

RUS VA O‘ZBEK TILLARIDA FE’L KATEGORIYALARINING QIYOSIY O‘RGANILISH

Otaxonova Ruxsora Isroil qizi
UrDU, Urganch shahri, O‘zbekiston “Rus tili lingvistikasi” mutaxassisligi, 2-bosqich magistranti
+998992660298
rukhsoraatakhanova@gmail.com

Annotatsiya
Ushbu maqola rus va o‘zbek tillaridagi fe’l kategoriyalarining qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan. Tadqiqotda fe’lning morfem tarkibi va grammatik kategoriyalari: zamon, tur, shaxs, son, nisbat hamda so‘z yasash modellari o‘ziga xosligi ko‘rib chiqiladi. Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, har ikkala til fe’l ma’nolarini ifodalashning boy vositalariga ega, biroq morfologik jihatidan farqlanadi.
Kalit so‘zlar: rus tili, o‘zbek tili, fe’l, tur, nisbat, shaxs, son, zamon, tuslanish

COMPARATIVE STUDY OF VERB CATEGORIES IN THE RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES

Otakhonova Rukhsora Isroil qizi
Urgench State University, Urgench, Uzbekistan
2nd-year Master’s student, majoring in Linguistics (Russian Language)
+998992660298
rukhsoraatakhanova@gmail.com

Abstract
The article is devoted to a comparative analysis of the structure of verbs in Russian and Uzbek. The study examines the peculiarities of the morphemic composition and grammatical categories of the verb: tense, aspect, person, number, voice, as well as the specifics of word-formation models. The comparative analysis has shown that both languages possess a rich set of means for expressing verbal meanings, but they differ in their methods of morphological organization.
Keywords: Russian language, Uzbek language, verb, aspect, voice, person, number, tense, conjugation.

СОПОСТАВИТЕЛЬНОЕ ИЗУЧЕНИЕ КАТЕГОРИЙ ГЛАГОЛА В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Отахонова Рухсора Исроил кизи

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

магистрант 2 курса специальности «Лингвистика (русский язык)
УрГУ Ургенч, Узбекистан
+998992660298
rukhsoraatakhanova@gmail.com

Аннотация
Статья посвящена сопоставительному анализу категорий глагола в русском и узбекском языках. Уделяется внимание на особенности морфемного состава и грамматических категорий глагола: время, вид, лицо, число, залог, а также специфика словообразовательных моделей. Сравнительный анализ показал, что обе языковые системы обладают богатым набором средств выражения глагольных значений, однако различаются по способам морфологической организации.
Ключевые слова: русский язык, узбекский язык, глагол, вид, залог, лицо, число, время, спряжение.

ВВЕДЕНИЕ

В современной лингвистике всё большее распространение получает подход, при котором сопоставление языков осуществляется не только для решения практических задач, но и в рамках типологического анализа. В этом случае специфика каждого языка определяется через соотнесение с универсальными средствами выражения, характерными для человеческого языка в целом. Таким образом, сопоставительная типология представляет собой междисциплинарное направление, находящееся на пересечении типологии и сопоставительной лингвистики [1].

Особое место в сопоставительных исследованиях занимает глагол, поскольку он является одной из центральных частей речи, выражающей действие, процесс или состояние. Система глагола многоаспектна: она охватывает категориальные значения времени, вида, лица, числа, наклонения, а также особенности словообразования и морфемного состава. Сравнение структур глаголов русского и узбекского языков представляет интерес как с теоретической точки зрения, так и в прикладном аспекте – для перевода, межъязыковой коммуникации и методики преподавания.

В русском языке глагол как часть речи выражает действие или состояние лица либо предмета и обладает рядом грамматических категорий: залога, вида, времени, наклонения, лица, рода и числа.

Глаголы в узбекском языке так же, как и в русском, обладают категориями

залога, наклонения, времени, лица и числа. Однако в отличие от русского языка, в узбекском отсутствуют категории вида и рода. Вместе с тем узбекский язык отличается богатством временных форм. Кроме того, в нём выделяются неопределённая форма глагола и особая форма – имя действия (harakat nomi) [2].

ОБСУЖДЕНИЕ

В сопоставительном плане рассмотрим основные категории указанной части речи.

I. Видовая категория глагола в русском языке выражает отношение действия к его завершённости.

1. Совершенный вид обозначает действие как законченное (зашумел, построил).
2. Несовершенный вид показывает действие в процессе или без указания на результат (шумел, строил).

Основные способы образования видовых пар:

- при помощи приставки (*писать – написать*);
- с помощью суффикса (*кричать – крикнуть*);
- супплетивным способом (*говорить – сказать*);
- изменением ударения (*насыпа́ть – насы́пать*) [3].

Как мы отметили выше, в узбекском языке отсутствует категория вида.

II. В обоих языках глаголы могут спрягаться, то есть изменяться по лицам и числам, однако в русском языке выделяют 2 спряжения глагола: I (глаголы в неопределённой форме оканчиваются на *-еть, -ать, -оть, -уть, -ять, -ыть*) и II (глаголы в неопределённой форме оканчиваются на *-ить*). Помимо этого, в русском языке встречаются разноспрягаемые (*хотеть* и *бежать*) и особо спрягаемые (*есть* и *дать*). В узбекском языке отсутствует разнообразие спряжений: все глаголы изменяются одинаково [4].

Лицо	**I спр. (в русском языке)**	**В узбекском языке**	**II спр. (в русском языке)**	**В узбекском языке**
I л., ед. ч.	*Я читаю*	*Men o‘qiyapman*	*Я говорю*	*Men gapiryapman*
II л., ед. ч.	*Ты читаешь*	*Sen o‘qiyapsan*	*Ты говоришь*	*Sen gapiryapsan*
III л., ед. ч.	*Он / она / оно читает*	*U o‘qiyapti*	*Он / она / оно говорит*	*U gapiryapti*

I л., мн. ч.	*Мы читаем*	*Biz o‘qiyapmiz*	*Мы говорим*	*Biz gapiryapmiz*
II л., мн. ч.	*Вы читаете*	*Siz o‘qiyapsiz*	*Вы говорите*	*Siz gapiryapsiz*
III л., мн. ч.	*Они читают*	*Ular o‘qiyaptilar*	*Они говорят*	*Ular gapiryaptilar*

В обоих языках прошедшее время указывает на уже совершённое действие. Но в русском учитывается род (*читал/читала/читало*), а в узбекском – для всех глаголов окончания -di (u o‘qidi), в русском больше зависит от вида (совершенный / несовершенный) и рода, в узбекском – от типа аффикса [5].

В русском и узбекском языках будущее время относится к действиям, которые произойдут в будущем, однако в русском будущее время имеет две формы: простую (*прочитаю*) и составную (*буду читать*), а в узбекском языке будущее время выражается только одной формой (o‘qiyman) [6].

III. Категория залога отражает связь действия с его субъектом и объектом, на который оно направлено. В русском языке выделяют три основных залога: действительный, страдательный и возвратный. Залоговые формы характерны главным образом для переходных глаголов и возвратных образований.

- Действительный залог – действие выполняет сам субъект: *Мальчик пишет письмо*.
- Страдательный залог – действие направлено на подлежащее и выполняется другим лицом: *Письмо написано мальчиком*.
- Возвратный залог – действие возвращается на самого субъекта: *Мальчик умывается*.

В узбекском языке глагол имеет 5 форм залога, которые присоединяются к основе глагола.

1. Действительный залог (aniq nisbat).

Суффиксы отсутствуют: u o‘qiydi– он читает.

2. Возвратный залог (o‘zlik nisbat).

-n (-in,) -l (-il): u yuvindi – *он помылся*.

3. Страдательный залог (majhul nisbat)

-n (-in,) -l (-il): kitob o‘qildi – *книга была прочитана*.

4. Причинительный (побудительный) залог (orttirma nisbat).

-dir, -tir, -t...: o‘qituvchi matnni o‘qitdi – *учитель заставил прочитать текст*.

5. Взаимный залог (birgalik).

-sh, - ish. Ular gaplashdi – *они разговаривали друг с другом* [7].

Таким образом, категория залога как в русском, так и в узбекском языке отражает отношение действия к субъекту и объекту. В русском языке традиционно выделяют три основных залога: действительный, страдательный и возвратный. В узбекском языке система залогов более развернута и включает пять форм: действительный, возвратный, страдательный, причинительный и взаимный залоги. Несмотря на различия в количестве и формах, в обеих языковых системах залог играет важную роль в выражении того, кто выполняет действие, на кого или на что оно направлено, а также каким образом оно осуществляется.

Следует отметить, что категория наклонения имеет особое значение в системе глагола. В частности, наклонение – это грамматическая категория глагола, выражающая отношение действия к действительности: реально оно, возможно или желаемо. В соответствии с этими значениями в русском языке различают изъявительное, повелительное и сослагательное наклонения.

В узбекском языке то же самое, но в отличие от русского имеет 4 наклонения, изъявительное (xabar mayli), повелительное (buyruq – istak mayli), сослагательное (shart mayli) и целевое (maqsad mayli) наклонения.

Изъявительное наклонение обозначает действие как реальное, происходящее в настоящем, прошлом или будущем (*Он пришёл вчера и придёт завтра – U kecha keldi va ertaga keladi*).

Повелительное наклонение выражает побуждение к действию – приказ, просьбу или совет: (*Иди домой! Uyinga bor! Пиши письмо! Xatni yoz*!).

В русском языке формы сослагательного наклонения образуются с помощью суффикса *-л* (форма прошедшего времени) и частицы *бы*: *хотел бы, сделал бы, пришёл бы*. Они не имеют категории времени, но передают разные оттенки значения:

1. Желательность:

– *Я хотел бы увидеть Москву.*

2. Просьба:

– *Не мог бы ты подождать немного?*

3. Предположение:

– *Он бы, наверное, согласился.*

4. Условие:

– *Если бы было время, я помог бы тебе.*

5. Уступка:

– *Сколько бы ни старался, у него ничего не выходит [8].*

В узбекском языке shart mayli (условное наклонение) образуется с помощью

суффикса -*sa* и имеет несколько значений:

1. Shart ma’nosi (значение условия): *Ekin parvarish qilinsa, hosil mo‘l bo‘ladi (Если ухаживать за посевами, урожай будет обильным*).
2. Orzu-istak ma’nosi (значение желания и мечты): *Dunyoda urush degan nom yo‘q bo‘lsa edi* (*Если бы на свете не было войны*).
3. Iltimos yoki maslahat ma’nosi (значение просьбы, совета): *Jasurni telefonga chaqirib bersangiz* (*Позовите, пожалуйста, Джасура к телефону*).
4. Payt ma’nosi (временное значение): *Tashqariga chiqsam, yomg‘ir yog‘yapti* (*Когда я вышел на улицу, пошёл дождь*).
5. Buyruq ma’nosi (повелительное значение): *Gapirsangchi, qayerlarda yuribsan?* (*Ну, скажи, где ты был?*).
6. Gumon, taxmin ma’nosi (значение предположения, сомнения): *Bugun yomg‘ir yog‘sa kerak* (*Наверное, сегодня пойдёт дождь*) [9].

Целевое наклонение (maqsad mayli) выражает действие, совершаемое с определённой целью, и образуется с помощью суффикса -*moqchi*. Например: *bormoqchiman* – (*я буду идти*), *yozmoqchiman* – (*я буду писать*).

РЕЗУЛЬТАТЫ

Сравнительные различия глаголов в русском и узбекском языках

№	Категория / Особенность	Русский язык	Узбекский язык
1	Категория рода	В прошедшем времени различается по роду: *он писал, она писала, оно писало*	Отсутствует: u yozdi (одинаково для всех)
2	Вид глагола	Совершенный и несовершенный вид: *читать – прочитать*	Грамматической категории вида нет, значение выражается аффиксами или контекстом: o‘qib chiqdi, o‘qib oldi
3	Спряжение	Два типа спряжения (I и II): *читаю, читаешь; люблю, любишь*	Все глаголы спрягаются одинаково с помощью аффиксов: men yozaman, sen yozasan, u yozadi

		И ещё присутствуют разноспрягаемые и особо спрягаемые глаголы	
4	Прошедшее время	Суффиксы, согласование по роду и числу: *писал, писала, писали*	Аффиксы прошедшего времени без рода: yozdim, yozding, yozdilar
5	Будущее время	Простое (*напишу*) и сложное (*буду писать*)	Формируется аффиксами или вспомогательными глаголами: yozaman – *буду писать*
6	Словообразование	Приставочно-суффиксальный способ: *писать – записать – переписать*	Аффиксация: yozmoq, o‘qitmoq
7	Залог	3 формы: действительный, страдательный и возвратный.	5 форм: действительный, страдательный, возвратный, причинительный и взаимный
8	Наклонение	3 наклонения: изъявительное, повелительное, условное	4 наклонения: изъявительное, повелительное, условное и целевое

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Проведённый сопоставительный анализ структуры глаголов в русском и узбекском языках позволяет сделать вывод о том, что обе системы обладают богатым набором грамматических средств выражения глагольных значений, однако существенно различаются способами их реализации. Русский язык характеризуется наличием категорий вида и рода, разнообразием спряжений и специфическими средствами словообразования, основанными на приставочно-суффиксальной системе. Узбекский язык, напротив, не имеет категории рода и вида, но отличается более развитой системой временных форм и словообразовательных моделей, основанных преимущественно на аффиксации. Особое внимание заслуживает категория залога: трем формам в русском языке

противопоставлены пять форм. Данное различие подчёркивает специфику морфологической организации двух языков.

Таким образом, сопоставление глагольных систем русского и узбекского языков не только выявляет типологические особенности каждого из них, но и имеет практическое значение для перевода, преподавания и межъязыковой коммуникации. Сравнительный анализ показывает, что при всех различиях обе языковые системы эффективно выражают временные, видовременные и залоговые значения, что подтверждает универсальность категории глагола в языке.

ЛИТЕРАТУРА

1. Азизов А.А. Сопоставительная грамматика русского и узбекского языков. Морфология. – Ташкент: Ўқитувчи, 1983. – 245 с.
2. Турсунов У., Мухторов А., Радматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Ташкент: Университет, 1992. – 356 с.
3. Чориев А.Б. Сопоставительное изучение категории вида глаголов в русском языке и их передача в узбекском языке // Узбек тили ва адабиёти. – Ташкент, 2018. – № 4. – С. 35–40.
4. Абдурасулова У.А., Кудратова М.С. Сопоставительный анализ структуры глаголов в русском и узбекском языках // Journal of International Scientific Research. – 2025. – Т. 2. – № 9. – С. 552. – Online ISSN: 3030-3508.
5. Баранов М.Т., Костяева Т.А., Прудникова А.А.В. Русский язык. Справочные материалы. – М.: Просвещение, 1988; 1993. – 288 с.
6. Алексеев Ф.С. Вся грамматика русского языка в схемах и таблицах. – М.: АСТ, 2015. – 160 с.
7. Нурутдинова М. Узбек тилининг феъл нисбатлари. – Ташкент: Фан, 2000. – 210 с.
8. Рахманова Л.И., Суздальцева В.Н. Современный русский язык. Лексика. Фразеология. Морфология: Учебное пособие. – М.: Аспект Пресс, 2003. – 272 с.
9. Бобожонов Ф., Раджапова, К., Юсупова, Д.Современный узбекский язык: учебное пособие. – Ташкент: Издательско-полиграфический дом «Навоий университети», 2019. – 195 с.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

O‘ZBEK TILIDA TAQLID SO‘ZLARNING KELIB CHIQISHI VA ETIMOLOGIYASI: QIYOSIY TAHLIL

Gulchexra Matnazarova
Urganch RANCH texnologiya universiteti Jahon tillari kafedrasi magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqola o‘zbek tilida taqlid so‘zlarning (onomatopeya va ideofonlarning) kelib chiqishi, tarixiy shakllanishi, fonetik-semantik o‘ziga xosliklari hamda ularning umumturkiy qiyosiy til tizimidagi o‘rnini ilmiy asosda tahlil qiladi. Tadqiqot qadimgi turkiy yodgorliklar, o‘zbek tili materiallari va boshqa turkiy tillarning qiyosiy faktlariga tayangan holda olib borildi. Maqolada taqlid so‘zlarning fonetik motivatsiyaga asoslangan tabiati, semantik kengayish jarayoni, morfologik aktivligi va lingvomadaniy ahamiyati keng yoritilgan. Qiyosiy natijalar taqlid birliklarining turkiy tillarda fonosemantik jihatdan o‘xshash, ammo fonotaktik farqlari bilan ajralib turishini ko‘rsatadi. Tadqiqot taqlid so‘zlar o‘zbek tilining eng qadimiy qatlamlaridan biri ekanini, ularning etimologik o‘rganilishi esa til taraqqiyotini chuqurroq anglashga imkon berishini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: taqlid so‘zlar, onomatopeya, ideofon, etimologiya, qadimgi turkiy til, fonosemantika, qiyosiy lingvistika

Аннотация

В данной статье проводится научный анализ происхождения и исторического формирования подражательных слов (ономатопоэтических и идеофонных единиц) в узбекском языке, их фонетико-семантических особенностей, а также места этих единиц в общетюркской сравнительно-языковой системе. Исследование опирается на древнетюркские памятники, современные материалы узбекского языка и сопоставительные данные других тюркских языков. В статье подробно раскрываются фонетическая мотивация подражательных слов, процессы семантического расширения, морфологическая активность и их лингвокультурное значение. Сопоставительный анализ показывает, что подражательные слова во многих тюркских языках обладают близкими фоносемантическими характеристиками, сохраняя при этом различия в фонотактике. Полученные результаты подтверждают, что подражательные слова являются одним из древнейших пластов узбекской лексики, а их этимологическое изучение способствует более глубокому пониманию исторического развития языка.

Ключевые слова:подражательные слова, ономатопея, идеофоны, этимология, древнетюркский язык, фоносемантика, сравнительное языкознание

Abstract

This article provides a scholarly analysis of the origin and historical development of imitative words (onomatopoeic and ideophonic units) in the Uzbek language, focusing on their phonetic-semantic characteristics and their place within the comparative linguistic system of the Turkic language family. The research is based on ancient Turkic inscriptions, contemporary Uzbek linguistic data, and comparative evidence from other Turkic languages. The article thoroughly examines the phonetic motivation of imitative words, processes of semantic expansion, morphological productivity, and their linguocultural significance. Comparative results demonstrate that imitative units across Turkic languages share common phonosemantic features, although they differ in phonotactic patterns. The findings confirm that imitative words constitute one of the oldest lexical layers of Uzbek and that their etymological study provides deeper insight into the historical evolution of the language.

Keywords:Imitative words, onomatopoeia, ideophones, etymology, Old Turkic language, phonosemantics, comparative linguistics

1. Kirish

O‘zbek tili tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan leksik qatlamlar ichida taqlid so‘zlar alohida o‘rin tutadi. Ular tovush, harakat, holat va tabiatdagi jarayonlarni bevosita aks ettiruvchi lingvistik birliklar sifatida tilning eng qadimiy, eng barqaror va eng tabiiy unsurlaridan biri hisoblanadi. Tabiiy ovozlarning fonetik taklidi sifatida vujudga kelgan taqlid so‘zlar antropologik jihatdan inson idrokiga, fiziologik jihatdan esa eshitish sezgilarining xususiyatlariga tayanadi. Shuning uchun ham ular ko‘p tillarda o‘xshash fonetik modellarda uchraydi va o‘zgarishga nisbatan kam beriluvchan bo‘ladi.

O‘zbek tilidagi *shiq*, *tapp*, *g‘uv*, *qars*, *miyov*, *vov*, *shildir*, *g‘irr*, *shuv* kabi birliklar xalqning hayotiy tajribasi, tabiat hodisalarini idrok etish uslubi va madaniy-estetik qarashlari bilan chambarchas bog‘liq. Taqlid so‘zlarning ko‘plab variantlari o‘zbek xalq og‘zaki ijodi, shevalar va tarixiy yodgorliklarda uchrashi ular tilning eng qadimiy qatlamiga mansub ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

So‘nggi yillarda turkiy tillar bo‘yicha olib borilgan qiyosiy tadqiqotlar taqlid so‘zlarning umumturkiy ildizlarga ega ekanini, ayrim shakllarning esa lokal fonetik moslashuvlar natijasida farqlanganini ko‘rsatmoqda. Ammo o‘zbek tilida aynan taqlid birliklarning kelib chiqishi va etimologik yo‘nalishda batafsil qiyosiy tadqiqotlar hali

yetarlicha yoritilmagan. Ushbu maqola ana shu bo‘shliqni qisman to‘ldirishga qaratilgan.

2. Metodologiya

Tadqiqotning ilmiy asoslangan bo‘lishi uchun bir nechta lingvistik metodlar kompleks qo‘llanildi.

2.1. Etimologik tahlil

Qadimgi turkiy yodgorliklar — Orxon-Yenisey bitiklari, “Devonu lug‘otit-turk”, “Qutadg‘u bilig”, eski o‘zbek yozma yodgorliklari materiallari bilan zamonaviy o‘zbek tilidagi taqlid so‘zlar qiyosiy-etimologik jihatdan tahlil qilindi. Bu tahlil taqlid so‘zlarning tarixiy izchilligini tiklash imkonini berdi.

2.2. Qiyosiy-lingvistik metod

O‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turk, uyg‘ur, tatar va qoraqalpoq tillaridagi taqlid shakllar fonetik-semantik o‘xshashliklar va farqlar nuqtayi nazaridan solishtirildi. Bu metod umumturkiy ildizlarning mavjudligini aniqlashda muhim bo‘ldi.

2.3. Fonosemantik tahlil

Tovushning ma’noga bevosita ta’siri, jarangli va jarangsiz undoshlarning akustik xususiyatlari, portlovchi va sirg‘aluvchi fonemalarning semantik yuklamasi tahlil qilindi.

2.4. Struktur-semantik yondashuv

Taqlid so‘zlarning ma’no kengayishi, metaforik ko‘chish, grammatiklashuv jarayonlari tahlil qilindi.

Metodlar bir-birini to‘ldirdi va natijada taqlid so‘zlarning kelib chiqish mexanizmi ko‘p qirrali yondashuv asosida ochib berildi.

3. Natijalar

3.1. Qadimgi turkiy manbalarda taqlid so‘zlarning izlari

Qadimgi turkiy bitiklarda uchraydigan ko‘plab taqlid so‘zlar zamonaviy o‘zbek tilida deyarli o‘zgarishsiz saqlangan. Masalan:

- Orxon bitiklarida uchraydigan *tang* (kuchli zarba ovozi), *yir* (g‘irillash), *kap/kak* (qarsillash) kabi shakllar o‘zbek tilidagi *tang*, *g‘irr*, *qars* kabi variantlarga mos keladi.
- “Devonu lug‘otit-turk”da *şık*, *dup*, *tak*, *gür*, *pat* kabi birliklar qayd etilgan bo‘lib, ular hozirgi o‘zbek tilida *shiq*, *dup*, *tak*, *g‘uvur*, *pat* kabi shakllarda mavjud.

Bu faktlar taqlid so‘zlar fonetik jihatdan eng konservativ qatlam bo‘lishini ko‘rsatadi.

3.2. Fonetik motivatsiya va fonosemantik mexanizmlar

Taqlid so‘zlarning shakllanishida akustik jarayonlar asos bo‘lib xizmat qiladi.

3.2.1. Jarangsiz undoshlar

p, t, k, s, sh tovushlari keskin ovozlarni bildiradi:

- *shiq* — sinish
- *tapp* — zarba
- *qars* — urish ovozi

3.2.2. Jarangli undoshlar

g‘, g, d, b tovushlari uzluksiz, og‘ir, quyuq ovozlarni beradi:

- *g‘uv*
- *g‘irr*
- *duv*

3.2.3. Takroriy bo‘g‘inlar

Jarayonning davomiyligini bildiradi:

- *shuv-shuv*
- *g‘irr-g‘irr*
- *shildir-shildir*

Bu fonosemantik mexanizmlar turkiy tillarning umumiy akustik idrok modeliga asoslanadi.

3.3. Morfologik kengayish

Taqlid so‘zlar o‘zbek tilida yangi grammatik birliklar yaratishda juda faol ishlatiladi.

3.3.1. Fe’llar

- *shiq → shiqilla-*
- *g‘uv → g‘uvulla-*
- *shirr → shirrilla-*

3.3.2. Otlashish

- *shap → shapat*
- *qars → qarsak*

3.3.3. Sifatlar

- *shovqin → shovqinli*
- *shiqir → shiqirlagan*

Bu jarayon taqlid so‘zlar tilda mahsuldorlik darajasi yuqori ekanini ko‘rsatadi.

3.4. Turkiy tillarda qiyosiy tahlil

Taqlid so‘zlarning aksariyati turkiy tillarda fonetik jihatdan o‘xshashdir:

O‘zbek	Turk	Qozoq	Qirg‘iz	Izoh
shiq	şık	şıq	şık	umumiy ildiz
g‘uv	gür	güw	gıv	fonetik farqlanish
tapp	tap	tap	tap	universal model
g‘irr	gır	gır	gır	barqaror shakl

Bu o‘xshashliklar umumturkiy fonosemantik asosning mavjudligidan dalolat beradi.

3.5. Etimologik xususiyatlar

3.5.1. Qadimiylik

Taqlid so‘zlar 1500 yildan ortiq tarixiy izga ega.

3.5.2. Semantik kengayish

Ayrim birliklar ma’nosini kengaytirgan:

- *shiq* — sinish → metaforik “shiq bo‘lish”
- *g‘uv* — shamol ovozi → texnik shovqin

3.5.3. Lingvomadaniy ahamiyat

4. Muhokama

Taqlid so‘zlar xalqning tabiatni idrok etish uslubini aks ettiradi.

Tadqiqot natijalari taqlid so‘zlarning o‘zbek tili leksik tizimidagi o‘rni nihoyatda muhim ekanini yana bir bor ko‘rsatdi. Avvalo, ularning eng qadimiy qatlamga mansubligi qadimgi turkiy yodgorliklar bilan qiyosiy materiallar orqali isbotlandi. Bu so‘zlar tabiatdagi tovush va jarayonlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri aks sadosi sifatida vujudga kelganligi sababli, tarixiy o‘zgarishlarga kamroq uchragan, fonetik tarkibini asosan saqlab qolgan. Shu bois ular til taraqqiyotining izchil qatlamlarini tiklashda muhim “tirik iz” vazifasini bajaradi.

Ikkinchidan, taqlid so‘zlar fonetik jihatdan eng barqaror birliklar sirasiga kiradi. Ularning fonosemantik tuzilishi — ya’ni tovush tarkibi va ma’no o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlik — buzilsa, so‘zning asosiy funksiyasi yo‘qoladi. Masalan, *shiq* yoki *tapp* kabi birliklarda har bir fonema ma’noni birlamchi tarzda ifodalaydi; shu sababli fonetik o‘zgarishlar minimal bo‘ladi. Bu xususiyat ularni boshqa leksik birliklardan tubdan farqlaydi.

Uchinchi muhim jihat — taqlid so‘zlarning umumturkiy ildizlarga ega ekanidir. Qiyosiy tahlil natijalari o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turk, uyg‘ur, tatar hamda boshqa turkiy tillarda juda ko‘p taqlid birliklari bir-biriga juda yaqin fonetik modellarda uchrashini ko‘rsatadi. Bu holat tasodifiy emas: umumiy akustik idrok, qadimiy fonetik tizim va tarixiy genealogik aloqalar bu so‘zlar shakllanishining yagona zaminidir. Shunga qaramay, ayrim fonotaktik farqlar mavjud bo‘lib, ular har bir tilning mustaqil fonologik taraqqiyotidan dalolat beradi.

To‘rtinchidan, taqlid so‘zlar morfologik jihatdan juda faol. Ular zamonaviy o‘zbek tilida fe’llar, otlar, sifatlar va hatto ravish va hol birliklarini hosil qilish jarayonida muntazam ishtirok etadi. Bu esa ularning faqat leksik birlik sifatida emas, balki so‘z yasash va grammatik tizimning faol elementi sifatida ham katta ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Masalan, *shiq → shiqir, shiqillamoq, shiqildoq* kabi ketma-ket yasalishlar

tilning derivatsion qudratini namoyon etadi.

Beshinchidan, taqlid so‘zlarning lingvomadaniy ahamiyati alohida ta’kidlashga arziydi. Ular xalqning tabiatga munosabati, eshitish sezgisining noziklik darajasi, madaniy tajriba va folklor an’analari bilan chambarchas bog‘langan. O‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi *shildirama*, *gurullash*, *shuvullash*, *qarsak*, *duv-duv gap* kabi birikmalar nafaqat tilning fonetik tasvir imkoniyatlarini, balki madaniy-estetik idrokni ham aks ettiradi. Shu sababli, taqlid so‘zlarning o‘rganilishi nafaqat lingvistik, balki etnomadaniy tadqiqotlar uchun ham muhim manba hisoblanadi.

Turkiy tillar o‘rtasidagi fonetik o‘xshashliklar ham alohida e’tiborga molik. Ular umumiy etnik va lingvistik tarixning chuqur ildizlarga ega ekanini tasdiqlaydi. Masalan, o‘zbek tilidagi *shiq*, turk tilidagi *şık*, qozoq tilidagi *şıq* shakllari fonosemantik jihatdan bir xil asosga ega bo‘lib, qadimgi turkiy ildizlardan to hozirgi davrgacha muntazam ravishda saqlanib kelganligini ko‘rsatadi. Bu esa taqlid so‘zlarning turkiy tillar rivojida o‘ziga xos mustahkam ko‘prik vazifasini bajarayotganini anglatadi.

Shu bilan birga, taqlid so‘zlarning etimologik tadqiqi til tarixini chuqurroq anglash uchun zarur bo‘lgan noyob lingvistik manbalarni taqdim etadi. Zero, bu so‘zlar tilning eng qadimiy sathlaridan biriga daxldor bo‘lganligi sababli, ular orqali turkiy xalqlarning qadimgi dunyoqarashi, fonetik idroki, tabiat hodisalarini tasvirlash uslubi va tilning natural rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash mumkin.

Umuman olganda, muhokama qismi taqlid so‘zlarning kompleks xarakterga ega bo‘lgan lingvistik hodisa ekanini, ularning tadqiqi esa fonetika, semantika, etimologiya va madaniyatshunoslik kabi bir nechta fanlarning chorrahasida olib borilishi lozimligini ko‘rsatdi.

5. Xulosa

Ushbu tadqiqot natijalari o‘zbek tilida taqlid so‘zlarning lingvistik va madaniy jihatdan muhimligini bir qator jihatlardan tasdiqlaydi. Birinchi navbatda, taqlid so‘zlar o‘zbek tilining eng qadimiy leksik qatlamlaridan biri sifatida shakllangan bo‘lib, ular qadimgi turkiy yodgorliklar va xalq og‘zaki ijodidagi izlar orqali til tarixidagi barqarorligini ko‘rsatadi. Bu qatlam tilning tabiiy rivojlanishini, inson idrokiga mos shakllanishini va fonosemantik mexanizmlar bilan chambarchas bog‘liqligini anglashga imkon beradi.

Ikkinchidan, taqlid so‘zlar fonetik jihatdan eng barqaror bo‘lib, ular tovush va ma’no o‘rtasidagi yaqin aloqani saqlab qoladi. Shu tufayli ularning shakllanishi va qo‘llanilishi tilning boshqa leksik birliklariga qaraganda kamroq o‘zgarishga uchraydi. Bu xususiyat ularni til tarixida izchil va ishonchli manba sifatida ko‘rsatadi.

Uchinchidan, qiyosiy tahlil taqlid so‘zlarning umumturkiy ildizlarga ega ekanini va turkiy tillar o‘rtasida fonosemantik o‘xshashliklarni namoyon etishini ko‘rsatdi. Bu,

tilshunoslik nuqtai nazaridan, o‘zbek tilining turkiy til oilasidagi genealogik o‘rnini aniqlashda muhim dalil sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, har bir tilning fonotaktik farqlari, lokal talaffuz va morfologik xususiyatlar taqlid so‘zlarning individual til xususiyatlarini ifodalaydi.

To‘rtinchidan, taqlid so‘zlar morfologik jihatdan faol bo‘lib, ular fe’l, ot, sifat va ravish shakllarini hosil qilishda muhim vosita hisoblanadi. Bu tilning yaratish va izohlash imkoniyatlarini kengaytiradi, nutqning ifodaviy qudratini oshiradi. Shu sababli taqlid so‘zlar faqat fonetik yoki semantik birlik emas, balki tildagi produktiv morfologik jarayonlarning faol ishtirokchisi sifatida ham ahamiyatli.

Beshinchidan, taqlid so‘zlarning lingvomadaniy ahamiyati katta. Ular xalqning tabiatni idrok etish uslubi, madaniy-estetik qarashlari va og‘zaki ijodiy an’analari bilan chambarchas bog‘liq. Shu bois, ularning o‘rganilishi nafaqat lingvistik, balki etnolingvistik va madaniyatshunoslik tadqiqotlari uchun ham muhim manba hisoblanadi.

Natijada, o‘zbek tilidagi taqlid so‘zlarning etimologik va qiyosiy tahlili til tarixini chuqurroq anglash, qadimgi turkiy ildizlarni tiklash, tilning fonosemantik va morfologik imkoniyatlarini aniqlash hamda lingvomadaniy xususiyatlarni yoritish imkonini beradi. Ular tilda nafaqat fonetik va semantik, balki madaniy identifikatsiya vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

Umuman olganda, tadqiqot taqlid so‘zlarning kompleks lingvistik hodisa ekanini ko‘rsatadi va kelajakda bu sohadagi izlanishlar turkiy tillar qiyosiy lingvistikasi, psixolingvistika va madaniyatshunoslik bilan integratsiyalashgan holda olib borilishi mumkinligini bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev, A. (2010). *O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi*. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Allan, K. (2014). *Linguistic Meaning*. London: Routledge.
3. Buranov, J. (1995). *Turkiy tillar qiyosiy grammatikasi*. Toshkent: Universitet nashriyoti.
4. Crystal, D. (2010). *The Cambridge Encyclopedia of Language* (3rd ed.). Cambridge University Press.
5. Doğan, L. (2018). Onomatopoeic words in Turkic languages. *Journal of Turkic Linguistics*, 12(3), 45–67.
6. Erdal, M. (2004). *A Grammar of Old Turkic*. Brill.
7. Johanson, L., & Csató, É. (1998). *The Turkic Languages*. London: Routledge.

8. Mahmud al-Kashgari. (2005). *Devonu lug‘otit-turk* (R. Rahmonov, Trans.). Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
9. Vaux, B., & Cooper, J. (1999). *Introduction to Linguistic Field Methods*. Munich: Lincom Europa.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

3D-сканеры в ортопедической стоматологии при изготовлении полных съёмных протезов: современное состояние вопроса

KHABILOV NIGMAN LUKMANOVICH
Доктор медицинских наук. Профессор. Заведующий кафедрой госпитальной ортопедической стоматологии, Ташкентского Государственного Медицинского Университета https://orcid.org/0000-0002-1404-507X Электронная почта : nigman77@mail.ru

Аннотация

Цель обзорной статьи – систематизировать современные данные о применении 3D-сканеров при изготовлении полных съёмных протезов (ПСП), с акцентом на особенности цифрового получения отпечатков беззубых челюстей, точность (trueness, precision), качество посадки протезов, клиническую эффективность и ограничения технологии. Обобщены результаты нарративных и систематических обзоров, экспериментальных и клинических исследований, опубликованных в период примерно 2010–2025 гг. Показано, что цифровые отпечатки беззубых челюстей в целом являются технически осуществимыми, а адаптация цифровых полных протезов, изготовленных на основе 3D-сканирования и CAD/CAM-технологий, как минимум сопоставима, а во многих работах – лучше, чем у традиционных акриловых протезов. Вместе с тем остаются значимые проблемы: трудности захвата подвижных участков слизистой и вестибулярных зон, отсутствие полноценной чисто цифровой регистрации межчелюстных взаимоотношений, высокая стоимость оборудования и зависимость результата от протокола сканирования и опыта врача.

Ключевые слова: 3D-сканер, интраоральный сканер, полные съёмные протезы, беззубые челюсти, цифровые отпечатки, CAD/CAM, 3D-печать.

Введение

За последние два десятилетия ортопедическая стоматология переживает стремительную цифровую трансформацию. Если первоначально 3D-сканеры и CAD/CAM-системы применялись преимущественно при изготовлении несъёмных конструкций и имплантат-поддержанных протезов на зубных рядах, то сегодня активно развивается направление цифрового протезирования полностью беззубых челюстей.

Ключевым элементом цифрового протокола является точное получение геометрии протезного ложа и межчелюстных отношений. Для этого используются:

-интраоральные 3D-сканеры (IOS) – прямое сканирование слизистой беззубых челюстей;

-лабораторные/настольные сканеры – оцифровка функциональных слепков, гипсовых моделей или дубликатов протезов.

Вопрос о том, насколько цифровые отпечатки могут заменить традиционные слепки при изготовлении ПСП, до сих пор остаётся дискуссионным. С одной стороны, цифровой подход снижает число визитов, даёт возможность быстро повторить протез при утрате, стандартизирует этапы и открывает путь к полностью цифровому архиву пациента. С другой – беззубые челюсти представляют собой «сложный объект» для оптического сканирования: отсутствие фиксированных ориентиров, подвижная слизистая, слюна и необходимость оттиска функциональных зон.

Исторический обзор и развитие цифрового протезирования полных съёмных протезов

1.Гибридные протоколы

Традиционный функциональный слепок → гипсовая модель → лабораторное сканирование → цифровое моделирование → фрезерование/печать базисов и зубных рядов.

2.Частично цифровые протоколы

Цифровизируются отдельные этапы – например, моделирование зубных рядов и изготовление примерочного протеза (try-in) на 3D-принтере при сохранении классического слепочного этапа.

3.Полностью цифровые протоколы

Интраоральное сканирование беззубых челюстей, цифровая регистрация межчелюстных соотношений, виртуальное моделирование и последующее CAM-изготовление (фрезерование или 3D-печать) окончательного протеза.

Типы 3D-сканеров и их технические особенности

С точки зрения изготовления ПСП важны две группы сканеров:

1. Интраоральные 3D-сканеры (IOS)

Работают на основе различных оптических технологий: структурированный свет, активная триангуляция, конфокальная микроскопия, когерентная оптическая томография и др.

Ключевые технические параметры:

-точность (accuracy) – включает *trueness* (близость к «истинному» эталону) и *precision* (повторяемость измерений);

-диапазон сканирования (полная дуга, сегмент, дентальные имплантаты, мягкие ткани);

-скорость захвата данных (кадры/сек, площадь за единицу времени);

-алгоритмы сшивки и подавления «шумов» (удаление подвижных структур – язык, щеки, слюна, ретракторы).

Особенности сканирования беззубых челюстей

Цифровой отпечаток беззубой челюсти существенно отличается от сканирования зубной дуги:

-Отсутствуют жёсткие анатомические ориентиры (фиссуры, бугры, контактные пункты), облегчающие алгоритмам сшивание изображений.

-Слизистая оболочка подвижна и компрессибельна, особенно в преддверии, мягком небе, ретромолярных и туберальных зонах.

-Поверхность однородная и блестящая, покрыта слюной, что ухудшает качество захвата и стабильность «фич» для регистрации.

-Функциональный характер слепка: необходимо воспроизвести не только форму протезного ложа в состоянии покоя, но и контуры в условиях функциональных движений (фонетика, мимика, движения языка).

1.**Полностью цифровой протокол на основе интраорального сканирования**

Ключевые этапы:

1.Предварительная подготовка протезного ложа

-санация, сглаживание острых костных выступов, обучение пациента гигиене протезного ложа;

-при необходимости – временные кондиционирующие протезы.

2.Интраоральное сканирование беззубых челюстей

-поэтапный захват: сначала центральные зоны (нёбо/альвеолярный гребень), затем переход к вестибулу;

-использование систематизированных стратегий (например, «подковообразный» путь сканирования с перекрытиями кадров);

-контроль наличия достаточного количества перекрывающихся участков с выраженным рельефом.

3.Регистрация межчелюстных отношений

-сегодня чаще всего решается **комбинированно**: изготовление восковых/пластмассовых окклюзионных валиков, их клиническая адаптация и последующее сканирование (IOS или лабораторный сканер); полностью

цифровой метод без клинического этапа регистрации пока не стандартизирован.

4.Цифровое проектирование ПСП

-виртуальное моделирование базисов и зубных рядов;

-использование библиотек искусственных зубов и вспомогательных инструментов (анализ средней линии, линии улыбки, высоты нижней трети лица);

-возможная интеграция данных лицевого сканирования для создания «виртуального пациента».

5.Изготовление примерочного протеза (try-in)

-3D-печать прототипа с возможностью клинической оценки эстетики, фонетики, окклюзии;

-при необходимости – коррекция в цифровой модели.

6.CAM-изготовление окончательного протеза

-фрезерование (milling) из промышленных PMMA-блоков;

-либо 3D-печать (SLA/DLP) с последующей полимеризацией и, при необходимости, ручной доработкой.

2.**Комбинированный протокол (традиционный функциональный слепок + цифровая стадия)**

В этом варианте:

-функциональный слепок выполняется традиционными материалами (альгинат, С-силоксан, полиэфир и др.) с индивидуальной ложкой;

-затем **слепок или отлитая модель** сканируется лабораторным 3D-сканером, и дальнейшие этапы (прикус, моделирование, изготовление) реализуются в цифровом формате.

3.**Дупликация существующего протеза**

Если у пациента есть относительно удовлетворяющий его протез (по форме и межчелюстным соотношениям), возможно:

-отсканировать сам протез (интраорально или в лаборатории);

-при необходимости провести коррекцию адаптации (релайнинг) и оцифровать обновлённый вариант;

-по полученным данным изготовить «цифровой двойник» протеза, улучшив материал, форму базиса и окклюзию.

Точность 3D-сканирования и качество посадки полноценных съёмных протезов

Точность цифровых отпечатков беззубых челюстей

Согласно нарративному обзору, посвящённому цифровому рабочему процессу

ПСП, и последующим систематическим обзорам:

-интраоральное сканирование беззубых челюстей в принципе возможно и предсказуемо, особенно в центральных зонах протезного ложа (нёбо, альвеолярный гребень);

-наибольшие отклонения между цифровыми и традиционными слепками регистрируются в периферических областях – вестибуле, мягком небе и зоне заднего нёбного уплотнения;

Адаптация и посадка цифровых полных протезов

Систематический обзор, суммированный в нарративном обзоре цифрового рабочего процесса, показал, что:

-истинность (trueness) внутренней (интальговой) поверхности цифровых базисов ПСП при фрезеровании обычно находится в диапазоне **0,06–0,16 мм**, при 3D-печати – **0,07–0,14 мм**;

-общая адаптация (линией или точечной оценкой несоответствия) для цифровых базисов варьирует примерно **0,06–0,29 мм**, тогда как для традиционных акриловых базисов – **0,10–0,30 мм**.

Клиническая эффективность, время и экономические аспекты

Современный обзор по клиническому использованию CAD/CAM- и 3D-печатных протезов подчёркивает несколько важных моментов:

1.Число визитов

-традиционный протокол ПСП обычно включает **не менее пяти посещений** (анатомический слепок, функциональный слепок, прикусные валики, примерка зубов, выдача, контрольные визиты);

-цифровой протокол позволяет сократить это количество до **2–4 визитов**, иногда объединяя функциональный слепок и регистрацию прикуса в один этап, а примерку осуществляя на 3D-печатном прототипе.

2.Время кресла и лабораторные затраты

-сокращение числа посещений и стандартизация этапов часто приводят к уменьшению **клинического времени** и **количества корректировочных визитов**;

-при этом **стоимость материалов и оборудования выше**, поэтому экономическая эффективность зависит от загрузки клиники и выбранной системы; гибридные схемы (например, сочетание 3D-печати и фрезерования) могут оптимизировать затраты.

3.Удовлетворённость пациентов

-многие исследования показывают высокий уровень удовлетворённости

CAD/CAM-протезами, что связывают с лучшей ретенцией и меньшим числом визитов;

-в то же время отдельные рандомизированные исследования отмечают, что по параметрам **стабильности, комфорта и фонетики** часть пациентов предпочитает традиционные протезы, особенно при недостаточной индивидуализации 3D-печатных зубных рядов.

1.Комфорт пациента

-отсутствие объёмных ложек и «тягучих» материалов, провоцирующих рвотный рефлекс;

-особенно важно для пожилых пациентов, пациентов с неврологическими/психическими особенностями.

2.Снижение риска деформации слепка и модели

-отсутствуют погрешности, связанные с усадкой/набуханием слепочного материала и гипса;

-оцифровка выполняется сразу в цифровом формате, минимизируя цепочку «материал → отливка → моделирование».

3.Цифровой архив и простота повторного изготовления

-сохранение 3D-моделей челюстей и протезов позволяет быстро восстановить протез при утрате или повреждении без повторения полного клинического цикла;

-возможно создание серии протезов с разной высотой прикуса или формой зубных рядов, опираясь на один и тот же скан.

4.Интеграция с имплантационным лечением

-3D-сканы можно совмещать с КЛКТ и лицевыми сканами (концепция «виртуального пациента»), планируя имплантаты и будущие протезы в единой цифровой среде.

Сравнение цифровых и традиционных протоколов изготовления ПСП

В усреднённом виде сравнительная характеристика может быть представлена так:

Параметр	**Традиционный протокол**	**Цифровой протокол (3D-сканеры + CAD/CAM)**
Число визитов	5 и более	2–4
Комфорт пациента	Нередко выраженный дискомфорт при слепках	Обычно выше, без слепочных материалов

Точность базиса	0,1–0,30 мм несоответствия	0,06–0,29 мм, часто лучше в опорных зонах
Ретенция	Приемлемая, зависит от качества слепка/модели	Часто выше (особенно у фрезерованных протезов)
Индивидуализация	Высокая, но зависит от техника	Высокая, но требует времени на освоение ПО
Повторное изготовление	Требует нового клинического цикла	Возможно по сохранённым цифровым данным
Инвестиции	Относительно небольшие	Высокие (оборудование, ПО, обучение)

По совокупности данных можно заключить, что **цифровые протоколы уже сегодня могут рассматриваться как клинически приемлемая альтернатива традиционным методам** при изготовлении ПСП, особенно в клиниках с достаточной нагрузкой и развитой лабораторной инфраструктурой.

Заключение

3D-сканеры прочно заняли своё место в ортопедической стоматологии и постепенно становятся важным звеном при изготовлении полных съёмных протезов. Современные исследования демонстрируют, что:

-цифровые отпечатки беззубых челюстей технически осуществимы и могут обеспечивать клинически приемлемую точность, особенно в центральных опорных зонах протезного ложа;

-адаптация и ретенция цифровых ПСП, изготовленных с использованием CAD/CAM-технологий, как минимум сопоставимы, а нередко и превосходят традиционные протезы, при этом уменьшается число визитов и общие временные затраты врача и пациента;

-интраоральное сканирование беззубых челюстей остаётся методически сложной задачей, особенно в отношении вестибулярных и мягкотканных областей, а полностью цифровая регистрация прикуса ещё не стандартизирована;

Список использованной литературы:

1. Felton D, Cooper L, Duqum I, et al. Evidence-based guidelines for the care and maintenance of complete dentures: a publication of the American College of Prosthodontists. J Prosthodont. 2011;20(Suppl 1):S1–S12. doi:10.1111/j.1532-849X.2010.00683.x

2. Mangano F, Gandolfi A, Luongo G, Logozzo S. Intraoral scanners in dentistry: a review of the current literature. BMC Oral Health. 2017;17:149. doi:10.1186/s12903-017-0442-
3. Alhallak K, Hagi-Pavli E, Nankali A. A review on clinical use of CAD/CAM and 3D printed dentures. Br Dent J. 2023;234(1):9–17. doi:10.1038/s41415-022-5401-5
4. Feng Y, Feng Z, Li J, et al. Expert consensus on digital restoration of complete dentures. Int J Oral Sci. 2025;17(1):58. doi:10.1038/s41368-025-00388-2
5. Srivastava G, Padhiary SK, Mohanty N, et al. Accuracy of intraoral scanner for recording completely edentulous arches—A systematic review. Dent J (Basel). 2023;11(10):241. doi:10.3390/dj11100241
6. Achmadi AA, Mardianti R, Adiatman M, et al. The accuracy of edentulous arch impression between intraoral scanner and laboratory scanner: a scoping review. BDJ Open. 2025;11(1). doi:10.1038/s41405-025-00300-4
7. Rasaie V, Abduo J, Hashemi S. Accuracy of intraoral scanners for recording the denture bearing areas: a systematic review. J Prosthodont. 2021;30(6):520–539. doi:10.1111/jopr.13370
8. Patzelt SBM, Vonau S, Stampf S, Att W. Assessing the feasibility and accuracy of digitizing edentulous jaws. J Am Dent Assoc. 2013;144(8):914–920. doi:10.14219/jada.archive.2013.0209
9. Fang J-H, An X, Jeong S-M, Choi B-H. Digital intraoral scanning technique for edentulous jaws. J Prosthet Dent. 2018;119(5):733–735. doi:10.1016/j.prosdent.2017.05.008
10. Goodacre BJ, Goodacre CJ. Using intraoral scanning to fabricate complete dentures: first experiences. Int J Prosthodont. 2018;31(2):166–170. doi:10.11607/ijp.5624
11. Lo Russo L, Salamini A. Single-arch digital removable complete denture: a workflow that starts from the intraoral scan. J Prosthet Dent. 2018;120(1):20–24. doi:10.1016/j.prosdent.2017.09.004

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA BADIIY ASARNI O'QITISH METODIKASI

O'zMPU "Boshlang'ich ta'lim va nazariyasi va metodikasi" kafedrasi Dots. PhD
Normurodova Nigora Abdusattorovna
O'zMPU „Boshlang'ich ta'lim'' yo'nalishi 1-bosqich magistranti
Qo'ziboyeva E'zoza To'lqin qizi
ezozaquziboyeva9901@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda badiiy asarlarni o'qitish jarayonining ilmiy-metodik asoslari, pedagogik yondashuvlari va samaradorlik omillari keng yoritilgan. Badiiy matnni o'qitishda qo'llaniladigan tayyorgarlik, tahlil va yakuniy bosqichlarning mazmuni bosqichma-bosqich ochib berilgan. Shuningdek, rolli o'yinlar, klaster, insert, muammoli ta'lim kabi zamonaviy metodlarning o'quvchilarda badiiy-estetik tafakkurni rivojlantirishdagi roli ilmiy tahlil etilgan. Maqolada badiiy asar orqali o'quvchilarning nutq madaniyatini, fikrlash jarayonini, tasavvurini va ma'naviy ongini shakllantirish imkoniyatlari amaliy jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun amaliy qo'llanma sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: badiiy asar, boshlang'ich ta'lim, metodika, tahlil bosqichlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, insert metodi, klaster metodi, muammoli ta'lim, rolli o'yinlar, estetik tafakkur, nutq rivoji.

Аннотация: В данной статье рассматриваются научно-методические основы преподавания художественных произведений в начальных классах, а также педагогические подходы и факторы эффективности данного процесса. Подробно раскрыты подготовительный, аналитический и заключительный этапы работы над художественным текстом. Особое внимание уделено таким современным методам, как ролевая игра, кластер, INSERT, проблемное обучение, которые способствуют развитию художественно-эстетического мышления учащихся. В статье обоснованы возможности развития речевой культуры, мыслительных процессов, воображения и духовно-нравственного мировоззрения учащихся через художественный текст. Полученные результаты могут служить практическим пособием для учителей начальных классов.

Ключевые слова: художественное произведение, начальное обучение, методика преподавания, этапы анализа, современные педагогические технологии, метод INSERT, кластерный метод, проблемное обучение, ролевые

игры, эстетическое мышление, развитие речи.

Abstract: This article examines the scientific and methodological foundations of teaching literary works in primary school, highlighting pedagogical approaches and factors that ensure effective instruction. It provides a detailed description of the preparatory, analytical, and final stages of working with literary texts. Special emphasis is placed on modern teaching methods such as role-playing, clustering, INSERT strategy, and problem-based learning, which contribute to the development of students' artistic and aesthetic thinking. The article also substantiates how working with literary texts enhances students' speech culture, cognitive processes, imagination, and moral development. The results of the study can serve as a practical guide for primary school teachers.

Keywords: literary work, primary education, teaching methodology, stages of analysis, modern pedagogical technologies, INSERT method, cluster method, problem-based learning, role-play activities, aesthetic thinking, speech development.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida badiiy asarni o‘qitish o‘quvchilarning nafaqat savodxonligini, balki ma’naviy olamini, estetik didini, nutq madaniyatini shakllantiruvchi muhim jarayon hisoblanadi. Badiiy asar o‘quvchi qalbini tarbiyalaydi, tasavvurini kengaytiradi, jamiyatga mos shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi. Shu bois, badiiy asarni o‘qitish metodikasini chuqur o‘rganish va uni amaliyotda samarali qo‘llash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni talab etadi.

1. Badiiy asarni o‘qitishning ilmiy-didaktik asoslari

Boshlang‘ich sinflarda badiiy asarlarni o‘qitish Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi”, Komenskiyning “ko‘rgazmalilik” tamoyillari, Ushinskiyning “ona tili orqali tarbiya” g‘oyalari bilan bevosita bog‘liq. Badiiy matn o‘qitishda quyidagi didaktik tamoyillar asosiy o‘rin tutadi:

– onglilik va faollik;
– ko‘rgazmalilik;
– hayot bilan bog‘liqlik;
– tizimlilik va izchillik;
– yosh xususiyatlarini hisobga olish.

Badiiy asar – bolalarning his-tuyg‘ulariga bevosita ta’sir qiluvchi tarbiyaviy vosita bo‘lgani uchun uni o‘qitishda o‘quvchi psixologiyasiga mos yondashuv juda muhim.

2. O‘qitish jarayonining metodik bosqichlari

Badiiy asarni o‘qitish odatda uch asosiy bosqichda amalga oshiriladi:

2.1. Tayyorgarlik bosqichi

Bu bosqichda o‘quvchi asarga kayfiyatan tayyorlanadi. O‘qituvchi:

– muallif haqida qisqa ma’lumot beradi;

– mavzuga oid suhbat o‘tkazadi;

– asosiy tushuncha va so‘zlarni izohlaydi;

– asar mazmuniga oid savollar orqali qiziqish uyg‘otadi.

2.2. Asarni o‘qish va tahlil qilish

Bu bosqich eng asosiy qism bo‘lib, u quyidagi amallarni o‘z ichiga oladi:

– ifodali o‘qish;

– o‘quvchilar tomonidan o‘qishni tekshirish;

– qahramonlar tahlili;

– voqealar ketma-ketligini aniqlash;

– matndan asosli savol-javoblar;

– qiyin gap va tasvirlarni sharhlash;

– o‘quvchilarning fikrini aniqlash va baholash.

Tahlil jarayonida qiyoslash, umumlashtirish, matndan dalil keltirish, muammoli savollarga javob topish kabi usullar qo‘llanadi.

2.3. Yakuniy bosqich

Bu bosqichda o‘quvchilar o‘rganganlarini mustahkamlaydilar:

– ijodiy topshiriqlar bajarish;

– qahramonga xat yozish;

– situatsion savollarga javob berish;

– rasm chizish yoki hikoya tuzish;

– asar g‘oyasini umumlashtirish.

3. Badiiy asar ustida ishlashning samarali metodlari

3.1. Muammoli ta’lim metodi

O‘qituvchi matndagi asosiy ziddiyat yoki muammoni topishga undaydi. O‘quvchilar mustaqil fikrlaydi, mantiqiy yechim topishga harakat qiladi.

3.2. Rolli o‘yinlar metodi

Asardagi sahnalarni teatr usulida ijro etish bolalarda qahramon kayfiyatini his qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

3.3. Klaster metodi

Qahramonlar xarakteri, voqealar, asosiy g‘oya, muammolar klaster shaklida grafik tasvirlanadi.

3.4. Insert metodi

O‘quvchilar matnni o‘qish jarayonida belgilar qo‘yib boradi:
– “V” – bilganim;
– “+” – yangi ma’lumot;
– “–” – tushunarsiz;
– “?” – qo‘shimcha izoh talab qilinadi.
Bu metod o‘qish jarayonini nazorat qilish imkonini beradi.

4. O‘quvchilarda badiiy-estetik tafakkurni rivojlantirish

Badiiy asar ustida ishlash faqat mazmunni tushuntirish emas, balki:
– his-tuyg‘uni tarbiyalash,
– estetik idrokni shakllantirish,
– nutqni rivojlantirish,
– tasavvurni boyitish kabi maqsadlarga ham xizmat qiladi.

O‘quvchilar qahramonning ichki kechinmalarini his qilishni o‘rganadilar, murakkab hayotiy vaziyatlarga munosabat bildirish ko‘nikmasi shakllanadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, hozirgi adabiy ta’lim o‘sib kelayotgan yosh avlodni intelektual salohiyatli, madaniyatli, ma’naviyatli barkamol shaxs sifatida tarbiyalashni talab qilmoqda. Badiiy asarlarni o‘qish orqali shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tizimida o‘quvchilarning badiiy-estetik tafakkurini shakllantirish, o‘zligini anglashga yo‘naltirish, vatanga, otaonaga muhabbat tuyg‘ularini kamol toptirish mumkin. O‘quvchini xalqaro baholash darajasini belgilovchi PIRLSga tayyorlashda o‘qish darsi jarayonida darslikda berilgan har bir matn yuzasidan o‘quvchi o‘zi mustaqil matndan kelib chiqib savollar tuzish vazifasi berilsa, har bir bolaning matnni qay darajada o‘zlashtirganligini uning tuzgan savollari orqali bilib olish mumkin. Bu jarayonda o‘quvchining berilgan matn yuzasidan erkin mulohaza yuritishi, har bir voqeaga shaxsiy munosabat bildirishi va ijodiy tafakkuri dars davomida rivojlantirilib boriladi. Badiiy o‘qishni o‘rgatish jarayonida har bir pedagog avvalo vositalar mohiyatini chuqur anglamog‘i, eng muhimi, badiiy matn o‘qiyotganda ulardan samarali foydalana bilmog‘i zarur. boshlang‘ich sinflarda badiiy asarni o‘qitish metodikasi o‘quvchilarning ma’naviy-ruhiy rivoji uchun muhim asos yaratadi. To‘g‘ri tanlangan metodlar nafaqat matnni tushunishga, balki o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘qituvchi har bir asarga individual yondashib, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llasa, o‘quvchilarning badiiy matnga bo‘lgan qiziqishi, o‘qish madaniyati va estetik dunyoqarashi yuksaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov A. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. Toshkent, 2021.
2. Jo‘rayev R. O‘qish darslari texnologiyasi. Toshkent, 2020.
3. Qodirova F. Pedagogika nazariyasi. Toshkent, 2019.
4. Zunnunov A. Badiiy asar tahlili asoslari. Samarqand, 2020.
5. O‘zbekiston Respublikasi DTS. “Boshlang‘ich ta’lim”, 2023.
6. Komenskiy Ya. A. Didaktik asoslar.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

TINCHLIK VA XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH HAMDA XALQARO HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Musayeva Gulnoza
Termiz davlat pedagogika institute 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada tinchlik va xavfsizlikni ta’minlashning global, mintaqaviy va milliy darajadagi mexanizmlari, xalqaro tashkilotlarning roli, geosiyosiy jarayonlarning ta’siri hamda davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikning zamonaviy shakllari yoritilgan. Dunyo siyosiy tizimidagi o‘zgarishlar, qurolli mojarolar sonining ko‘payishi, iqtisodiy raqobatning kuchayishi sharoitida tinchlikni mustahkamlashning konseptual yondashuvlari tahlil qilinadi. Shuningdek, O‘zbekistonning mintaqaviy xavfsizlik va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish borasidagi tashabbuslari ilmiy asosda sharhlanadi.
Kalit so‘zlar: tinchlik, xavfsizlik, xalqaro hamkorlik, geosiyosat, mintaqaviy integratsiya, xavfsizlik tizimi, xalqaro tashkilotlar, Markaziy Osiyo, diplomatiya.

Bugungi globallashuv sharoitida tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash masalalari xalqaro munosabatlar tizimining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. XXI asrda geosiyosiy raqobatning kuchayishi, resurslar uchun kurash, axborot urushlari, terrorizm, ekstremizm, transmilliy jinoyatchilik kabi tahdidlar davlatlar faoliyatini yangi formatlarda hamkorlik qilishga majbur qilmoqda. Xavfsizlik masalalari endilikda faqat bir davlatning ichki ishi bo‘lmay qolgan bo‘lib, u butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan [1].

Shu bois xalqaro hamkorlik, diplomatik aloqalar, mintaqaviy integratsiya, kollektiv xavfsizlik tizimlari va ko‘p tomonlama muzokaralar bugungi zamonning bosh strategik yo‘nalishlari sifatida qaralmoqda.

1. Tinchlik va xavfsizlik tushunchalarining ilmiy-nazariy asoslari

Tinchlik — bu nafaqat qurolli mojarolarning yo‘qligi, balki barqaror siyosiy tizim, iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy farovonlik va xalqaro muvozanatning mavjudligidir [2]. Xavfsizlik esa davlat, jamiyat va shaxs manfaatlarini ichki hamda tashqi tahdidlardan himoya qilishni anglatadi. Zamonaviy xavfsizlik nazariyalarida inson xavfsizligi, axborot xavfsizligi, ekologik xavfsizlik, energetik xavfsizlik kabi tushunchalar alohida e’tibor qozonmoqda [3].

Realizm, liberalizm va konstruktivizm kabi xalqaro munosabatlar nazariyalarida

tinchlikni ta’minlashning turli yondashuvlari mavjud. Realistlar kuch balansini asosiy shart deb bilsalar, liberallar xalqaro tashkilotlar, diplomatiya va o‘zaro manfaatlarni himoya qilishni barqaror tinchlik omili deb e’tirof etadi [4].

2. Global xavfsizlik tizimi: tarixiy shakllanishi va bugungi holati

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng dunyoda yangi xalqaro xavfsizlik tizimi shakllandi. Bunda BMTning tashkil etilishi asosiy burilish nuqtasi bo‘ldi [5]. Xalqaro huquqning asosiy tamoyillari — suveren tenglik, qurolli kuch ishlatmaslik, nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish kabi prinsiplar umumiy xavfsizlik poydevorini yaratdi.

Hozirgi global xavfsizlik tizimi quyidagi asosiy elementlardan iborat:

— BMT va uning ixtisoslashgan tuzilmalari;
— NATO, Yevropa Ittifoqi, ASEAN, MDH kabi mintaqaviy tashkilotlar;
— qurol nazorati bo‘yicha xalqaro kelishuvlar;
— davlatlar o‘rtasidagi ko‘p tomonlama bitimlar;
— xalqaro huquq normalari.

Shunga qaramay, XXI asrda xavfsizlik tizimi bir qator yangi chaqiriqlar bilan to‘qnash keldi. Afg‘onistondagi notinchlik, Yaqin Sharqdagi mojarolar, Ukrainadagi urush, yadro qurolining tarqalishi, kiberhujumlar global xavfsizlikni izdan chiqarayotgan omillar sifatida qaraladi [6].

3. Xalqaro hamkorlikning zamonaviy shakllari

Bugungi kunda xalqaro hamkorlik quyidagi yo‘nalishlarda rivojlanmoqda:

— diplomatik hamkorlik;
— iqtisodiy integratsiya;
— kollektiv xavfsizlik bloklari;
— xalqaro terrorizmga qarshi kurash;
— transport-logistika loyihalari;
— ekologik xavfsizlik bo‘yicha hamkorlik.

Hamkorlikning raqamli diplomatiya, yumshoq kuch (soft power), madaniy diplomatiya kabi yangi shakllari keng tus olmoqda [7].

4. Tinchlikni ta’minlashda xalqaro tashkilotlarning o‘rni

BMTning asosiy maqsadi — dunyoda tinchlikni saqlashdir. Buning uchun u tinchlikparvar missiyalarni amalga oshiradi, muzokaralar tashabbuskori bo‘ladi, qurolsizlantirish jarayonini nazorat qiladi [8].

Yevropa Ittifoqi xavfsizlik masalalarida siyosiy muzokaralar, iqtisodiy sanksiyalar va strategik hamkorlikni qo‘llaydi. NATO esa kollektiv mudofaa tamoyiliga asoslangan bo‘lib, xalqaro miqyosdagi harbiy xavfsizlikka javobgar tuzilmalardan biridir [9].

Shuningdek:

— YXHT (OSCE) mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi;
— SHHT (SCO) terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi kurashishga yo‘naltirilgan;
— Islom Hamkorlik Tashkiloti musulmon davlatlari xavfsizlik muammolarini muhokama qilish maydonidir.

5. Markaziy Osiyo va xavfsizlik masalalari

Markaziy Osiyo geosiyosiy jihatdan strategik hudud bo‘lib, bu yerda xavfsizlik masalalari murakkab xarakterga ega. Afg‘onistondagi vaziyat, suv resurslari taqsimoti, chegaraviy masalalar, diniy ekstremizm kabi omillar mintaqa barqarorligiga bevosita ta’sir qiladi [10].

So‘nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlari o‘zaro hamkorlikni kuchaytirib, yagona mintaqaviy yondashuv shakllantirishga harakat qilmoqda. Bu jarayonda O‘zbekistonning faol diplomatik tashabbuslari alohida ahamiyat kasb etadi.

6. O‘zbekistonning tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash borasidagi tashabbuslari

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston tinchlik va xavfsizlik masalalariga ustuvor ahamiyat qaratib kelmoqda. Davlatning tashqi siyosat konsepsiyasida quyidagi tamoyillar belgilangan:

— hech qanday harbiy bloklarga qo‘shilmaslik;
— mojarolarni faqat tinch yo‘l bilan hal qilish;
— qo‘shni davlatlar bilan do‘stona munosabatlarni rivojlantirish;
— mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlash [11].

9.	5 milliard so‘mdan oshmagan miqdorda, biroq kreditning 50 foizigacha (50 foizi ham kiradi) kafillik taqdim etish.	O‘rta tadbirkorlik subyektlari.	akkreditivlar muddatiga mos davrga.	
		“20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis” dasturi ishtirokchisi bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari.	Tijorat banklari tomonidan milliy va xorijiy valyutada ajratiladigan kredit muddatiga mos davrga.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi PF-93-son Farmoniga muvofiq miqdorlarda taqdim etiladi.
10.	800 million so‘mdan oshmagan miqdorda, biroq lizingning 30 foizigacha (30 foizi ham kiradi) kafillik taqdim etish.	Kichik tadbirkorlik subyektlari.	Lizing kompaniyalari tomonidan milliy va xorijiy valyutada ajratiladigan lizinglar muddatiga mos davrga.	Kompaniya Kuzatuv kengashi tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyat davridan kelib chiqib kafillik yordami miqdori belgilanadi.
11.	1,5 milliard so‘mdan oshmagan miqdorda, biroq lizingning 30 foizigacha (30 foizi ham kiradi) kafillik taqdim etish.	O‘rta tadbirkorlik subyektlari.		
12.	100 million so‘mdan oshmagan miqdorda, biroq kreditning 30 foizigacha (30 foizi ham kiradi) kafillik taqdim etish.	Kichik tadbirkorlik subyektlari hamda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar.	Mikromoliya tashkilotlari tomonidan milliy va xorijiy valyutada ajratiladigan kreditlar muddatiga mos davrga.	

13.	5 milliard so‘mdan oshmagan miqdorda, biroq kreditning 75 foizigacha (75 foizi ham kiradi) kafillik taqdim etish.	Qoraqalpog‘iston Respublikasida ro‘yxatga olingan va faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari.	Tijorat banklari tomonidan milliy va xorijiy valyutada ajratiladigan kredit muddatiga mos davrga.	Kompaniya Kuzatuv kengashi tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyat davridan kelib chiqib kafillik yordami miqdori belgilanadi va kafillik 2025-yil 1-yanvarga qadar taqdim etiladi.
5. Tijorat banklari kredit (lizing)lari bo‘yicha kompensatsiya taqdim etish				
14.	3 milliard so‘mgacha ajratiladigan kreditlar bo‘yicha foiz xarajatlarini qoplash.	Faoliyat davri uch yilgacha bo‘lgan kichik tadbirkorlik subyektlari.	3 yildan ortiq bo‘lmagan muddatga kompensatsiya “1+2” tamoyili asosida avval kredit (lizing)ning dastlabki yiliga taqdim etiladi, keyingi ikki yil davomida quyidagilarga asosan davom ettiriladi: yangi ish o‘rinlarini yaratish rejasi bajarilishi; yillik realizatsiya qilingan mahsulot (xizmat) bo‘yicha tushumning	Kompensatsiya yillik Markaziy bank asosiy stavkasining 4 foizlik punktidan yuqori va asosiy stavkaning 1,75 baravaridan oshmagan stavkada milliy valyutadagi kreditlarga taqdim etiladi. Kichik tadbirkorlik subyektlariga tashkil etilgan davridan qat’i nazar kompensatsiya taqdim etiladigan yo‘nalishlar Kompaniya Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi. Kompensatsiya hudud toifasidan kelib chiqib taqdim etiladi.
15.	5 milliard so‘mgacha ajratiladigan kreditlar bo‘yicha foiz xarajatlarini qoplash.	Tashkil etilgan davridan qat’i nazar kichik tadbirkorlik subyektlari.		
16.	10 milliard so‘mgacha ajratiladigan kreditlar (lizinglar) bo‘yicha foiz	Farg‘ona viloyati So‘x tumanida ro‘yxatga olingan va faoliyat		Kompensatsiya Markaziy bank asosiy stavkasining 1,75 baravaridan oshmagan stavkada milliy

	stavkasining 10 foizlik punktidan yuqori qismi bo‘yicha foiz xarajatlarini qoplash.	yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari.	kamida 15 foizga oshishi. O‘rnatilgan bazaviy me’yorlar bajarilmagan taqdirda o‘tgan davr uchun kompensatsiya to‘lovi keyingi yilga o‘tkaziladi.	valyutadagi kreditlarga 2025-yil 1-yanvarga qadar taqdim etiladi.

“Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati tomonidan taqdim etilmaydigan moliyaviy yordamlar ro‘yxati:

- ilgari olingan kredit (lizing)larni yoki boshqa har qanday qarzni qaytarish;
- nobank kredit tashkilotlari, lizing va sug‘urta kompaniyalari faoliyatini tashkil etish;
- savdo, umumiy ovqatlanish hamda avtomobillarga yonilg‘i quyish shoxobchalari faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish (bundan eksportoldi moliyalashtirish, “yashil” texnologiyalarni sotib olish va o‘rnatish mustasno);
- aylanma mablag‘larni shakllantirish (eksportoldi moliyalashtirish, turizm va asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari zaxirasini yaratish bundan mustasno);
- yengil va ilgari foydalanishda bo‘lgan yuk avtotransport vositalari sotib olish va ularni ta’mirlash (chet eldan olib kelinadigan yuk avtotransport vositalaridan tashqari);
- bino-inshootlarni sotib olish.

2025 — 2030-yillarda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish strategiyasi.

2030-yilga borib yalpi ichki mahsulot hajmini 200 milliard AQSH dollariga yetkazish, kambag‘allik darajasini 5 foizdan pastga tushirish hamda O‘zbekistonni daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga kiritish bo‘yicha barcha

Bugungi kunda 283,9 ming nafar yakka tartibdagi tadbirkorlar va 905,8 ming kichik va o‘rta korxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda, ushbu sohada 10,5 million aholi band (jami band aholining 74 foizi).

2024-yil yakuni bo‘yicha yalpi ichki mahsulotning 54,3 foizi, sanoatning 32,4 foizi, eksportning 33,3 foizi kichik va o‘rta biznes subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Strategiyaning asosiy maqsadi — yagona davlat siyosatini amalga oshirish orqali kichik va o‘rta biznes uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratish hamda sohada raqobatbardoshlikni oshirish.

Bunda 2030-yilga qadar kichik va o‘rta biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 60 foizga yetkazish, sohadagi eksport hajmini 20 milliard AQSH dollaridan oshirish hamda 2 milliondan ortiq yangi ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar ishlab chiqildi.

Shu maqsadda quyidagilar Strategiyaning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilanmoqda:

(a) moliyaviy qo‘llab-quvvatlash choralarini kengaytirish;

(b) biznes uchun zarur infratuzilmani rivojlantirish;

(v) raqobat muhitini yaxshilash va tashqi bozorlarga chiqishni rag‘batlantirish;

(g) raqamlashtirish, sun’iy intellekt va innovatsiyalarni joriy etish;

(d) kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash choralari samaradorligini oshirish;

(e) tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish va biznes uchun malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish;

(j) mas’uliyatli biznes amaliyotini joriy qilish.

Qurilish sektori iqtisodiyotning ko‘plab tarmoqlari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, unda kichik va yirik biznesning o‘ziga xos ahamiyati mavjud.

Kichik biznes subyektlari quyidagi yo‘nalishlarda faoliyat yuritadi:

- qurilish materiallari ishlab chiqarish;
- ta’mirlash-qurilish va kichik montaj ishlari;
- loyihalash xizmatlari;
- transport va logistika ko‘maklari.

Ularning moslashuvchanligi, bozorga tez kirish qobiliyati hamda mehnat bandligini oshirishdagi roli kichik biznesni iqtisodiy o‘sishning muhim omiliga aylantiradi.

Yirik qurilish kompaniyalari:

- infratuzilmaviy mega loyihalar;
- sanoat obyektlari;
- ko‘p qavatli uy-joy majmualari;
- transport kommunikatsiyalari qurilishi

kabi loyihalarda muhim rol o‘ynaydi. Ularning katta investitsiyalar jalb etish imkoniyati iqtisodiyotga multiplikativ ta’sir ko‘rsatadi.

So’nggi ma’lumotlarga ko’ra, Toshkent shahrida ko’chmas mulk narxlari va ijaraviy

daromadlar quyidagicha o‘zgarganini sezish mumkin.

2024-yil yanvar holatiga ko’ra, Toshkent shahrida ko’p qavatli uylarning o’rtacha ijara narxi $339 ni tashkil etgan. Eng past narx Sergeli va Olmazor tumanlarida, eng yuqori narx esa Mirobod va Yakkasaroy tumanlarida qayd etilgan. 2021-yilning birinchi choragida, O’zbekiston bo’yicha ko’chmas mulk bozorida narxlar o’sishi kuzatilgan. Barcha hududlarda narxlar qimmatlashgan, faqat Andijon viloyatida choraklar bo’yicha 5,42 foiz kamayish qayd etilgan.

2025-yilning mart oyida o’rtacha ta’mirlangan xonadonlar uchun o’rtacha ijara narxlari 2024-yilning mos davridagiga nisbatan sezilarli darajada quyida-gicha arzonlashdi:

1 xonali uylar $296 (2024-yilga ($356) nisbatan -16,6 foiz);

2 xonali uylar $379 (2024-yilga ($396) nisbatan -4,6 foiz);

3 xonali uylar: $454 (2024-yilga ($467) nisbatan -2,9 foiz);

4 xonali uylar: $521 (2024-yilga ($538) nisbatan -4,7 foiz).

Shunday nisbatda arzonlashgan.

Toshkent shahrida ko’chmas mulk narxlari va ijaraviy daromadlarning o’sishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun bir nechta imkoniyatlarni yaratadi. Ijara orqali daromad olish ko’chmas mulk obyektlarini ijaraga berish orqali barqaror daromad manbai yaratadi. Kapital qiymatining oshishi ko’chmas mulk narxlarining o’sishi bilan aktivlarning qiymati ham oshadi, bu esa moliyaviy barqarorlikni ta’minlaydi. Diversifikatsiya ko’chmas mulk obyektlaridan foydalanish biznes faoliyatini diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi natijalarga erishish mumkin:

Toshkent shahrida ko’chmas mulk narxlari va ijaraviy daromadlar o’sishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ko’chmas mulk obyektlaridan foydalanish orqali kichik biznes subyektlari barqaror daromad manbai yaratishi mumkin. Ko’chmas mulk narxlarining o‘sishi bilan aktivlarning qiymati ham oshadi, bu esa moliyaviy barqarorlikni ta’minlaydi.

Qurilishda kichik va yirik biznes subyektlarini rivojlantirishda mavjud muammolar:

- Imtiyozli kreditlar bo‘yicha ariza jarayonlarining murakkabligi.
- Qurilish materiallari narxining barqaror emasligi.
- Hududlar kesimida tadbirkorlarga teng sharoitlarning yaratilmaganligi.
- Lizing mexanizmlaridan foydalanish darajasining pastligi.

Quydagi muammolardan kelib chiqqan holda quydagilarni taklif qilaman:

- kredit ajratish jarayonlarini to‘liq raqamlashtirish;

- mahalliy qurilish materiallari ishlab chiqaruvchilar uchun qo‘shimcha soliq preferensiyalarini taqdim etish;
- hududlarda biznes-inkubatorlar tarmog‘ini kengaytirish;
- lizing kompaniyalariga davlat kafilligi ulushini oshirish.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, davlat tomonidan yaratilayotgan moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari kichik biznesning moslashuvchanligini mustahkamlab, ularga texnik modernizatsiya, yangi ish o‘rinlari yaratish va mahalliy ishlab chiqarishni kengaytirish imkonini bermoqda. Yirik biznes uchun esa davlat kafilliklari va uzoq muddatli resurslardan foydalanish infratuzilmaviy loyihalar va ko‘p qavatli uy-joy majmualari qurilishiga qulay sharoit yaratib, iqtisodiyotga multiplikativ ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shu bilan birga, qo‘llab-quvvatlash mexanizmlaridan samarali foydalanish jarayonida ayrim muammolar — hujjatlashtirish jarayonlarining murakkabligi, hududlar o‘rtasida teng sharoitning mavjud emasligi va lizing imkoniyatlarining cheklanganligi — yuzaga chiqmoqda. Bularni bartaraf etish uchun kredit jarayonlarini to‘liq raqamlashtirish, hududiy preferensiyalarni kengaytirish va lizing tizimini yanada rivojlantirish zarur.

Umuman olganda, davlat tomonidan yo‘lga qo‘yilgan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari qurilish sohasining barqaror rivojlanishida, biznes subyektlarining investitsion salohiyatini oshirishda va iqtisodiyotning umumiy modernizatsiya jarayonlarida hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Kelgusida mazkur mexanizmlarni takomillashtirish, shaffof tashkiliy jarayonlarni yaratish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish qurilish biznesining raqobatbardoshligini yanada kuchaytirishi kutilmoqda.

Xulosa va takliflar. Qurilish sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining joriy etilishi iqtisodiy faollikni oshirishning muhim omilidir. Kichik va yirik biznes subyektlari uchun yaratilayotgan imtiyozlar nafaqat ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi, balki mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini ham oshiradi. Kelgusida ushbu mexanizmlarni takomillashtirish, jarayonlarni soddalashtirish va raqamlashtirish qurilish sohasining innovatsion rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-noyabrda “Kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni.* https://lex.uz/docs/-6658633

2. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martda “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni.* https://lex.uz/uz/docs/-7444738

3. O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lex.uz/docs/-5307951

4. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2023-yilda qabul qilingan “O‘zbekiston – 2030” Taraqqiyot strategiyasi.* https://lex.uz/docs/-6600413

5. *O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi.* https://stat.uz/uz/

6. *Axmedova N.Sh. Asadova M.S. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda investitsiyaning o’rni. // Erkin bozor mexanizmlarini joriy etish hamda sog’lom raqobat muhitini yaratish orqali hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari” mavzusida respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy Anjuman. 2023 yil.*

7. *Axmedova N.Sh. O’zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning hozirgi rivojlanish holati//“Международная научно-практическая конференция дистанционные возможности и достижения науки”. 2021 yil.*

8. *Boltaboyev.M, Qosimova.M, Ergashxodjayeva.Sh, G'oyibnazarov.B, Samadov.A, Otajonov.Sh “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik” Darslik. Toshkent - Iqtisodiyot 2011y*

9. *Xodiyev.B.Y., Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. Toshkent.: TDIU, 2010.*

10. *Xalmatjanova G.D. Qoraboev. A.A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy - ijtimoiy va huquqiy asoslari// Farg`ona davlat universiteti“Innovations in Science and Technologies” ilmiy-elektron jurnal. 2025 yil.*

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

IJTIMOIY TARMOQLARDA YOSHLARNING FAOLLIGI VA UNING OQIBATLARI

Nuritdinova Shahnoz Sadridinovna
Buxoro davlat universitet o‘qituvchisi Fil.fan.bo‘y.fal.dok.(PhD)
Yahyoyeva Ozoda Qahhor qizi
2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA. Maqolada ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar hayotidagi ijobiy va salbiy tomonlarini, yoshlarning ongi, xulq-atvori va real munosabatlardagi aloqasini tahlil qilamiz. Shuningdek, ushbu mavzu orqali yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishga ongli va muvozanatli bo’lishga o’rgatishning ahamiyati ham ta’kidlanadi. Bugungi ijtimoiy tarmoqlarda faol bo’lgan yoshlarning internetdan foydalanishda ijobiy va salbiy tomonlari to’g’risida so’z boradi.

Kalit so’zlar: *texnika, telefon, ijtimoiy, internet, tarmoq, depressiya, virtual, salbiy, ijobiy, kiberxavf, kiberjinoyat.*

Kirish. Bugungi texnika rivojlangan zamonda yosh avlodning unga bo’lgan tobeligi alohida ahamiyatga ega bo’lgan masaladir. Hozirda dunyo bo’yicha 70-80% yoshlarning qo’lida shaxsiy qo’l telefoni mavjud bo’lib, ulardan ayrimlargina ota-onalarining nazoratida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi. Aksariyat bolalar monitor oldida vaqtlarini o’tkazadilar, bu esa ularning ta’biricha, fikrlari va dunyoqarashlarini kengaytirishga xizmat qiladi. O‘zbekistonda ijtimoiy tarmoqlar va yoshlarning ruhiy salomatligi o‘rtasidagi munosabatlar zamonaviy jamiyatda katta ahamiyatga ega. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylangan bo‘lsa-da, ularning ruhiy salomatligiga jiddiy tahdid solayotgan muammolardan biri sifatida o‘rganiladi. Ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy ta’siri to‘g‘risida gapirganda, ma’lumot va bilim manbayi - ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar yangi bilimlar olish, o‘qish va o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ijtimoiy aloqalar - uzoqda joylashgan do‘stlar va qarindoshlar bilan aloqada bo‘lish imkoniyati, ijodiyotni rivojlantirish - yoshlar o‘z fikrlari, san’ati va loyihalarini dunyoga namoyish etishlari mumkin, psixologik yordam - ba’zi ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar psixologik yordam va maslahat olishlari mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar o‘smirlar uchun bir tomondan yangi bilimlar olish, do‘stlar bilan aloqada o‘rnatish va o‘z fikrlarini ifoda etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Biroq, ikkinchi tomondan, ular zararli kontent, kiberzo‘ravonlik, vaqtni noto‘g‘ri boshqarish va ruhiy salomatlik muammolariga olib kelishi mumkin. Shu sababli,

o‘smirlar uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni baholash va ularni zararli ta‘sirlardan himoya qilish, uni saralash juda muhimdir. O‘zbekistonda, ayniqsa 16–17 yoshli o‘smirlar orasida klinik depressiyaning (bu ruhiy kasallik bo‘lib, odamning kayfiyati, energiyasi, ishtahasi, uyqusi va umuman hayotga bo‘lgan qiziqishi pasayishi bilan tavsiflanadi). Bu holat odatdagidan ko‘ra kuchliroq va uzoq davom etadi, shuningdek, odamning kunlik faoliyatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, ko‘payishi muammosi tobora keskinlashib bormoqda. So‘nggi o‘n yil ichida bu holatning keng tarqalishi bir qator ijtimoiy, psixologik va tashqi omillar bilan bog‘liq bo‘lib, o‘smirlar orasida o‘ziga bo‘lgan ishonchning pasayishi, oilaviy muammolar, ijtimoiy bosim, o‘ziga nisbatan salbiy munosabatlar, ijtimoiy izolyatsiya kabi omillar depressiyaning ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda.Yoshlar bunday depressiyali holatlarga ko’p tushayotganini suidsidlar soni oshayotganiga ham sabab bo’layapti desak mubolag’a bo’lmaydi. Nafaqat o’z joniga qasd qilish balki yoshlar o’z harakatlarini boshqarolmaslik darajasiga yetishyapti ya’ni tajavvuzkor insonlarga aylanib borishmoqda. Buning yaqqol misoli sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin: 2015-yilda Chelyanbinsk viloyatida 15 yoshli Anton Sh. ismli ota-onasini pichoqlaydi. Bunga esa onasining unga kompyuter o’ynab o’tiravermasdan, dars qilishni buyurgani sabab bo’ldi. Kuniga 8 soatlab turli qotilliklar tasvirlanuvchi kompyuter o’yinlarini o’ynash natijasida maktabda “a’lo” baholarga o’qigan, fanlar olimpiadasi ishtirokchisi qotilga aylandi. Onasining so’zlaridan g’azablangan Anton oshxonaga kirib pichoq oldi va ota-onasiga tashlandi. Ona jon berdi, otasining esa hayoti saqlab qolindi. Volgagradda 16 yoshli Lyosha R. buzilib qolgan kompyuterini tuzatish uchun pul bermagani uchun onasini bolta bilan chopib tashladi. Virtual o’yinlarda “qotilliklar” qilishga o’rganib qolgan o’smir onasining jasadini hovlisi yaqiniga olib borib ko’mib qo’ydi. O’gay otasiga esa onasining qarindoshlarinikiga ketganini aytdi. Bir necha kundan keyin ota tashvishlanib, politsiyaga xabar berdi. Ayolning jasadi 12 kundan keyin topildi. Krasnodarda 15 yoshli Yaroslav M. otasini unga kompyuter o’ynashni taqiqlagani sababli, o’ldirgani uchun 8 yilga ozodlikdan mahrum qilindi. Otasi uni darslarga bo’rmay qo‘ygani uchun urishib, kompyuterning klaviaturasini yashirib qo’yadi. Yraslav yarim tunda uxlab yotgan otasining boshiga kuvalda bilan bir necha marta zarba beradi. So’ng onasiga agar klaviaturani topib bermasa, uni ham o’ldirishini aytadi. Dahshatga tushgan ona unga klaviaturani topib beradi. O’g’il xotirjam xonasiga kirib, yana o’yin o’ynashga tushadi. Ona politsiya va tez yordamga qo’ng’iroq qiladi. Tez yordam yetib kelganida ota allaqachon jon berib bo’lgandi. U nimani so’rasa olib bergan. Ijevskda 17 yoshli yigit onasining qotiliga aylandi. U butun kunini Internetda o’tkazar, turli onlayn o’yinlari o’ynardi. U hattoki xonasidan kunlab chiqmay qo’ydi,

ovqatni ham xonasida yeydigan bo'ldi. Sabr kosasi to'lgan ota uning kompyuterini olib qo'ymoqchi bo'lganida yigit otasini pichoqladi.

To'g'ri ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish bu har bir fuqaroning shaxsiy erkinligi va mobil aloqa sifatini yaxshilash maqsadida bosh qomusimizning 33-moddasida davlat internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishini ta'minlashi uchun shart-sharoitlar yaratadi deb belgilab qo'yilishi bu sohaga qaratilayotgan e'tiborning yanada kuchayishiga sabab bo'ladi, albatta. Ma'lumotlarga ko'ra bugungi kunda Respublikamiz bo'yicha mobil aloqa qamrovi 99 foizga, keng polosali mobil internet qamrovi 98.5 foizga, xalqaro ahamiyatga ega avtoyo'llarning mobil internet bilan qamrov darajasi 75 foizga yetkazilgan. Aholining internetga ulanish qamrovini oshirish, optik tolali aloqa liniyalari qamrovini kengaytirish maqsadida joriy yil boshidan hozirgi kunga qadar qo'shimcha 50 ming kilometr optik tolali aloqa liniyalarini qurish orqali aloqa liniyalarining umumiy uzunligi 220 ming kilometrga yetkazildi. Bu yaxshi natija biroq, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning sifatini oshirish bilan birga yoshlarni ulardan foydalanishini ham nazoratga olsak ularning ijtimoiy tarmoqlarga tobe bo'lib qolishini, vaqtini behuda sarflashini oldini olgan bo'larmidik. Zotan Chingiz Aytmatov shunday deydi:"Tuya terisini inson boshiga kiydirish shart emas,endi sodir bo'ladigan urushlar jang maydonida emas, balki mafkura poligonida yuz beradi". Shu jihatdan qaraganda yoshlarning ko'p vaqtini internetda behuda sarflashi juda katta fojiadir. Chunki globallashuv butun dunyoda mafkuraviy ta'sir o'tkazish ko'lamini juda oshirib yubordi. Inson o'z fikriga, dunyoqarashiga ega bo'lmasa ,insonga bo'ladigan ma'naviy tahdidlarga bardosh bera olishi juda qiyin bo'ladi. O'zbekiston xalq yozuvchisi O'.Hoshimov aytganlaridek, "Bu dunyo – muttasil aylanib turadigan murakkab mexanizm. Odamlar o'sha mexanizmning kichik bir vintchasi, xolos. Har bitta vintcha o'z vazifasini ado etmog'i lozim. Bittasi ishlamay qolsa, ko'rasan nima bo'lishini! Butun boshli mexanizm chok-chokidan so'kilib ketadi". Taassufki, yoshlar orasida diniy ta'limoti yetarli bo'lmagan yoshlarimiz har xil islomiy kanallarga ulanib, o'zlarining mafkuraviy g'oyalarini buzmoqdalar. Bunga sabab bo'layotgan ayrim "dinda ilmi bo'lmaganlar" dinimiz nomi bilan faoliyat olib borayotgan qo'shtirnoq ichidagi chalasavodlar din niqobi ostida o'zlarining buzg'unchilik g'oyalarini yoyib, mamlakatimizning o'spirin yoshlarini yo'ldan urmoqdalar. Bolalar va biz yoshlarningning hovli va ko'chalardagi muloqotlarimiz hozirda haqiqiy hayotga nisbatan asosan, aynan, chek-chegarasi yo'q ijtimoiy tarmoqlarga ko'chdi. Bu esa biz yoshlarning haqiqiy hayotdan ko'ra ko'proq ijtimoiy hayotda faol ekaninimizning dalili. Ammo bu faollikning oqibatlari bizning real hayotdan uzoqlashishimizga va o'zligimizni asta-sekin yoqotishimizga olib

bormoqda. Yuqorida yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishini nazoratga olish haqida aytgandik biroq nazoratga olishning o'zi yetarli emas. Yani faqat taqiqlash, nazoratda saqlash emas, muqobil taklif bo'lishi kerak.Bola nega tarmoqqa bog'lanib qolayotganini tushunib, uni foydali mashg'ulotlarga yo'naltirish zarur. Sport, kitob o'qish kabi faoliyatlar orqali u tarmoqlarga ehtiyoj sezmay qoladi.Internet madaniyatini o'rgatish. Nima mumkin va nima mumkin emasligini tushuntirish, zararli sahifalardan ogoh etish ota-onaning vazifasidir.Ular farzandlariga namuna bo'lishlari lozim. Farzand ota-onaning amaliy xatti-harakatlarini kuzatadi. Ota-onalar ko'p vaqt telefonda bo'lsalar, farzand ham shunday qiladi.Ular farzandi bilan ochiq va ishonchli muloqot qilishi lozim. Farzandlari nimalarga qiziqayotganini bilishga intilishi va shu yo'nalish bo'yicha yo'naltirishi lozim. Uni tanqid qilmasdan tushunishga harakat qilishlari kerak.

Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy hayotning ajralmas qismiga aylangan bo'lsa-da, ular bilan to'g'ri va oqilona munosabatda bo'lish bolalar tarbiyasida nihoyatda muhimdir. Farzandlar bu platformalarda bilim olishi, ijodkorligini namoyon etishi mumkin, biroq noto'g'ri foydalanish salbiy oqibatlarga olib keladi. Ota-onalar bu rivojlangan raqamli dunyoda o'z farzandlariga go'zal tarbiya berish bilan birga ularga ijtimoiy tarmoq odoblarini ham berib borishlari lozimdir.

Xulosa qilib aytganda o'smirlar va yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarda faolligi ularning dunyoqarashi, tafakkuri va bilim olish jarayoniga katta ta'sir ko'rsatmoqda. To'g'ri va me'yorida foydalanilganda ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun o'zini namoyish etish, fikr almashish, o'rganish va rivojlanishning samarali maydoniga aylanadi. Ammo nazoratsiz va haddan tashqari faollik psixologik bosim, vaqtni behuda sarflash, kiberxavf va noto'g'ri ma'lumotlarning ta'siriga olib kelishi mumkin. Shuning uchun yoshlarni raqamli madaniyatga o'rgatish, axborotni tanlay olish, vaqtni boshqarish va onlayn xavfsizlik qoidalariga rioya qilish muhimdir. Ongli, mas'uliyatli va maqsadli foydalanish orqali ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotida foydali va ijobiy o'rin egallashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida. 2016-yil 14-sentabr.
2. Qodirov U. Yoshlar va axboriy psixologik xavfsizlik. 2014-yil 153 b.
3. Alimov B. S. Ijtimoiy tarmoqlar va ularning mamlakat imijini shakllantirishdagi o'rni // O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari, — T:, 2015. — №3. — B. 286-290 (10.00.00; № 15).

4. Alimov B. S. Yoshlarning ijtimoiy tarmoklar orqali mamlakat imijini oshirishdagi roli // Yoshlar innovasion faolligini oshirishning dolzarb vazifalari: Resp. ilmiy-amaliy konf. material. to‘p. 2019 yil 27 aprel. — Toshkent, 2019. — B. 75-78.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

XAYOL

Kurolboyeva Madina Sherzod Qizi
Ulmasova Maftuna Xusan Qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika institute Biologiya ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabalari

Anotatsiya: ushbu maqola xayol haqidagi tushunchalar ularning turlari jarayonlari sifatlari va xususiyatlari, xayol mavzusini o'rganishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar haqida ma'lumot beradi
Kalit so'zlar: Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, agglyutinatsiya, Aksentlash, gipperbolizatsiya, Inklyuziv, Integration, Evristik, Inversion, Kognitiv.
Аннотация: в статье дается информация о понятиях воображения, их видах, процессах, качествах и характеристиках, а также современных педагогических технологиях в изучении предмета воображения.
Ключевые слова: Современные педагогические технологии, агглютинация, акцентуация, гиперболизация, инклюзивность, интеграция, эвристика, инверсия. Когнитивный.
Abstract: this article provides information about the concepts of imagination, their types, processes, qualities and characteristics, and modern pedagogical technologies in studying the subject of imagination.
Keywords: Modern pedagogical technologies, agglutination, Accentuation, hyperbolization, Inclusive, Integration, Heuristic, Inversion. Cognitive.

Kirish

Xayol odam ongida ilgaridan bor bo'lgan vaqtli aloqalarning (assotsiatsiyalarni) qaytadan tiklanishi. Va bir biri bilan yangicha qo'shilishi orqali narsa va hodisalarning yangi obrazlarni hosil qilishga aytiladi. Xayolning nerv fiziologik jarayonini I.P.Povlov bu ta'limotni o'rganib chiqqan edi. Xayolning nerv fiziologik asosida ham miyaning po'stida ilgari hosil qilingan vaqtli aloqalarning (assotsiatsiyalarning yana qayta tiklanib bir biri bilan yangicha qo'shilish jarayoni hisoblanadi.

Xayol jarayonlarining bir qancha turlari mavjud bo'lib ulardan ba'zilari bilan tanishib chiqamiz

1. Agglyutinatsiya-"yelimlash" degan ma'noni bildirib uning turli qismlaridan bitta qilib yangi obraz yaratiladi. Masalan: kentavr, ssfinks, suv parisi.
2. Gipperbolizatsiya-obrazlarni kattalashtirish yoki kichraytirish shuningdek, alohida

qismlarning o‘zgartirilishi. Masalan: Guliver, Lilliput, Alpomish obrazlari kiradi.
Tizimlashtirish- o'hshatish orqali ayrim tasavvurlarni ular orasidagi farqlarni silliqlash.
Tipiklashtirish-bir xil obrazlarni qaytarilishi bo‘lib har bir davr uchun tipik bo‘lgan obrazlarni yaratish.
4. Aksentlashtirish-ayrim belgilarni takidlash orqali obrazlar yaratish. Masalan: o‘rtoqlik hazillari.
Hayol jarayonlarining turlari kabi xayolning ham ko‘plab turlari mavjud.
1. Passiv xayol
2. Aktiv xayol
3. Ixtiyoriy xayol
4. Ixtiyorsiz xayol
5. Shirin hayol
6. Tush ko‘rish
7. Gallyusinasiya
8. Qayta tiklovchi
a) Ijodiy
b) orzu
Tasavvur xayoli- deb o‘tmishda bo‘lib o‘tgan yoki hozirda bor bo‘lgan lekin bizning turmush tajribamizda shu paytgacha uchratmagan, ya'ni biz idrok qilmagan tasavvur va obrazlar yaratishga aytiladi.
Ixtiyorsiz xayol deb- odam o‘zining oldiga hech qanday maqsad qo'ymasdan irodani ishga solmasdan, qandaydir o'z-o'ziga obraz va tasavvurlarni yaratishiga aytiladi.
Ixtiyoriy xayol- deb oldindan belgilangan maqsad asosida iroda kuchini ishga solib muayyan obraz tasavvurlarni yaratishga aytiladi.
Ijodiy xayol - deb tajribamizda bo‘lmagan va voqelikning o‘zida ham uchratmagan narsa va hodisalar haqida tasavvur hamda obrazlar yaratishdan iborat xayol turiga aytiladi.
Realistik xayol - turida voqelik aks ettiriladi, orzular amalga oshadi.
Fantastik xayol - amalga oshmaydigan xayol turidir.
Xayolning sifatlariga uning kengligi, mazmundorligi, kuchi va realligi, fantaziyaga boyligi va boshqalar kiradi.
Xayol jarayonlari xususiyatlaridan biri shuki, xayol odamning ehtiy ojlari qiziqishlari va o‘z oldiga qo‘ygan vazifalari bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Yana bir xususiyati esa xayol hamisha boy tajriba hamda bilimlarga asoslanadi.
Xayol tushunchasini o‘rganishda pedagogik texnologiyalarning bir qancha yo‘nalishlari mavjud bo‘lib ulardan asosiylari emperik yunoncha "empira"- tajriba)

kreativ (inglizcha. "Ereative"- yaratuvchan, ijodiy) Kognitiv (lotincha "cohnitio" bilish), Evristik (yunoncha "evrika" topaman, aniqlayman), Inversion (lotincha "Inversion"- o‘zgartirish, o‘g‘irlash), integrativ (lotincha "integration"- o‘rnatish, qo‘yish), adoptiv (lotincha "adapto" - moslashtiraman), inklyuziv (lotincha "includo" - kiritaman) pedagogik texnologiyalardir. Bu yo‘nalishning asosiy xususiyatlari quyidagilardir.

Tasavvur xayoli- deb o‘tmishda bo‘lib o‘tgan yoki hozirda bor bo‘lgan lekin bizning turmush tajribamizda shu paytgacha uchratmagan, ya'ni biz idrok qilmagan tasavvur va obrazlar yaratishga aytiladi.

Ixtiyorsiz xayol deb- odam o‘zining oldiga hech qanday maqsad qo'ymasdan irodani ishga solmasdan, qandaydir o'z-o'ziga obraz va tasavvurlarni yaratishiga aytiladi.

Ixtiyoriy xayol- deb oldindan belgilangan maqsad asosida iroda kuchini ishga solib muayyan obraz tasavvurlarni yaratishga aytiladi.

Ijodiy xayol - deb tajribamizda bo‘lmagan va voqelikning o‘zida ham uchratmagan narsa va hodisalar haqida tasavvur hamda obrazlar yaratishdan iborat xayol turiga aytiladi.

Realistik xayol - turida voqelik aks ettiriladi, orzular amalga oshadi.

Fantastik xayol - amalga oshmaydigan xayol turidir.

Xayolning sifatlariga uning kengligi, mazmundorligi, kuchi va realligi, fantaziyaga boyligi va boshqalar kiradi.

Xayol jarayonlari xususiyatlaridan biri shuki, xayol odamning ehtiyojlari qiziqishlari va o‘z oldiga qo‘ygan vazifalari bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Yana bir xususiyati esa xayol hamisha boy tajriba hamda bilimlarga asoslanadi.

Xayol tushunchasini o‘rganishda pedagogik texnologiyalarning bir qancha yo‘nalishlari mavjud bo‘lib ulardan asosiylari emperik yunoncha "empira"- tajriba) kreativ (inglizcha. "Ereative"- yaratuvchan, ijodiy) Kognitiv (lotincha "cohnitio" bilish), Evristik (yunoncha "evrika" topaman, aniqlayman), Inversion (lotincha "Inversion"- o‘zgartirish, o‘g‘irlash), integrativ (lotincha "integration"- o‘rnatish, qo‘yish), adoptiv (lotincha "adapto" - moslashtiraman), inklyuziv (lotincha "includo" - kiritaman) pedagogik texnologiyalardir. Bu yo‘nalishning asosiy xususiyatlari quyidagilardir. Tasavvur xayoli- deb o‘tmishda bo‘lib o‘tgan yoki hozirda bor bo‘lgan lekin bizning turmush tajribamizda shu paytgacha uchratmagan, ya'ni biz idrok qilmagan tasavvur va obrazlar yaratishga aytiladi.

Ixtiyorsiz xayol deb- odam o‘zining oldiga hech qanday maqsad qo'ymasdan irodani ishga solmasdan, qandaydir o'z-o'ziga obraz va tasavvurlarni yaratishiga aytiladi.

Ixtiyoriy xayol- deb oldindan belgilangan maqsad asosida iroda kuchini ishga solib

muayyan obraz tasavvurlarni yaratishga aytiladi.

Ijodiy xayol - deb tajribamizda bo‘lmagan va voqelikning o‘zida ham uchratmagan narsa va hodisalar haqida tasavvur hamda obrazlar yaratishdan iborat xayol turiga aytiladi.

Realistik xayol - turida voqelik aks ettiriladi, orzular amalga oshadi.

Fantastik xayol - amalga oshmaydigan xayol turidir.

Xayolning sifatlariga uning kengligi, mazmundorligi, kuchi va realligi, fantaziyaga boyligi va boshqalar kiradi.

Xayol jarayonlari xususiyatlaridan biri shuki, xayol odamning ehtiyojlari qiziqishlari va o‘z oldiga qo‘ygan vazifalari bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Yana bir xususiyati esa xayol hamisha boy tajriba hamda bilimlarga asoslanadi.

Xayol tushunchasini o‘rganishda pedagogik texnologiyalarning bir qancha yo‘nalishlari mavjud bo‘lib ulardan asosiylari emperik yunoncha "empira"- tajriba) kreativ (inglizcha. "Ereative"- yaratuvchan, ijodiy) Kognitiv (lotincha "cohnitio" bilish), Evristik (yunoncha "evrika" topaman, aniqlayman), Inversion (lotincha "Inversion"- o‘zgartirish, o‘g‘irlash), integrativ (lotincha "integration"- o‘rnatish, qo‘yish), adoptiv (lotincha "adapto" - moslashtiraman), inklyuziv (lotincha "includo" - kiritaman) pedagogik texnologiyalardir. Bu yo‘nalishning asosiy xususiyatlari quyidagilardir.

Emperik- sezgi a’zolari orqali bilim olish. Bu tehnalogiyada asosiy e’tibor sezgi a’zolarining tabiiy rivojlanganlik imkoniyatlariga tayangan holda bilim berish va ularni yanada takomillashtirib berishga qaratiladi.

Kognitiv- atrofdagi olam to‘g‘risidagi bilimlar doirasini kengaytirish tehnalogiyasi. Ushbu tabaqalash tafakkurni shakllantiradi bilish ehtiyojlarini shakllantiradi.

Evristik - yo‘naltiruvchi savollar berish yo‘li bilan ta’lim berish tizimi. Topqirlik, faollikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi, o‘quv- izlanish ta’lim metodi bo‘lib optimallashgan tafakkurni rivojlantirish.

Kreativ - tadqiqot harakteriga ega bo‘lib, o‘quvchilarda maqsadga yo‘naltirilgan ijodiy tafakkurni jadal rivojlantiradi.

Inversion - axborotlarni turli tomondan o‘rganish, o‘rnini almashtirish xususiyatiga ega bo'lib tafakkur tizimini shakllantiradi.

Integrativ - axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz ko‘p kichik qismlarning o'zaro ajralmas bog'liqligi ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida to'g'ri xulosani aniqlash.

Adaptiv - axborotlarni va ulardan foydalanish jarayonlarini o‘rganish hamda o‘rgatish uchun qulaylashtirish, moslashtirish asosida kutilgan natijaga erishish.

Inklyuziv - ta’lim oluvchilarni ko‘p hollarda imkoniyati cheklangan umumiy guruhga

kiritish o‘qituvchi va ularning o‘zaro munosabatlarida tenglik asosida ta’lim tarbiya jarayonini tashkil qilish barchaning imkoniyatini birlashtirish kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. F.I.Haydarov. N.I.Xalilova umumiy psixologiya//darslik/Toshkent/" INOVATSIYA - ZIYO" - 2021 360 bet
2. Bodalev. A.A.Lichnost и овщуенийа - M; pedagogika
3. Abdukarimovich, Y. T., & Melikmurodovich, S. U. B. (2022). Art Therapy in Eliminating Aggressiveness in the Individual. Global Scientific Review, 9, 1-4.
4. Abdukarimovich, Y. T., Melikboboyevich, S. U., & Yusufaliyevna, H. S. (2024). Educator’s Skill in Eliminating Aggressive Situations of Children Raised in Preschool Education Organization. Samaraly Ta’lim Va Barqaror innovatisyalar Jurnali, 1(6), 611-616.
5. Шомуротов , У. . (2024). ТЕХНОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДОВ АРТ-ТЕРАПИИ В УСТРАНЕНИИ ЛИЧНОСТИ АГРЕССИИ. *Предпринимательства и педагогика*, *2*(3), 178–181.
6. Melikboboyevich, S. U., Zafar o‘g‘li, S. L., Eshqul o‘g‘li, S. J., & Abbos o‘g‘li, Q. N. (2025). SHAXSDAGI AGRESSSIVLIKNI OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI. *Advanced methods of ensuring the quality of education: problems and solutions*, *2*(3), 20-22.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

DIQQAT.

MARDOYEVA MANZURA ALIBOY QIZI
TOSHMAMATOVA MAFTUNA RUSTAM QIZI
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti aniq va tabiiy fanlar fakulteti bialogiya yo'nalishi 14b-2025 guruh talabalari

ANNOTATSIYA: Mazkur maqola diqqat haqida bo'lib, uning turlari, ko'lami, aksi, asosiy xususiyatlari va diqqatning barqarorligi kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi. Shu o'rinda maqola mashxur psixolog va neyropsixologlarning fikrlari bilan ham boyitilgan bo'lib, diqqat haqidagi tushunchalar atroflicha bayon etiladi.
KALIT SO'ZLAR: Diqqat, Selektiv funksiya, Dominanta, Prefrontal korteks, Talamus, Redikulyar forma, Depressiya, Parishonxotirlik, Uilyam Jeyms, Zigmund Freyd, Lev Vygotskiy, Aleksandr Luriya, Daniel Kahneman, Donald Broadbent, Ann Treisman, Ivan Pavlov, Neisser.

KIRISH

Diqqat-subyekt faoliyatining biror bir obyekt yoki hodisaga jalb qilinishi. U har qanday ongli faoliyat samaradorligining zarur shartidir. Bosh miyya po'stlog'ining muayyan joylaridagi optimal qo'zg'alish manbalari diqqatning fizialogik asosini tashkil qiladi. Diqqat ikki turga bo'linadi: ixtiyorsiz (passiv) va ixtiyoriy (aktiv). Ixtiyorsiz diqqat biron tashqi sabab tasiridakishi hohishidan qat'i nazar hosil bo'ladi. Bunday diqqat odamdan iroda kuchini talab qilmaydi. Shuning uchun bu diqqat irodaviy diqqat deb ham ataladi. Insonning butun ongli faoliyati asosan ixtiyoriy diqqat vositasida amalga oshiriladi.

Diqqat ko'lami uning eng qisqa vaqt ichida (go'yobirdaniga) o'z doirasiga sig'dira olish mumkin bo'lgan narsalar soni bilan belgilanadi. Shu jihatdan diqqat keng yoki tor bo'lishi mumkin. Odatda, keng ko'lamli diqqat yaxshi diqqat hisoblanadi. Diqqat ko'lami idrok qilinayotgan narsaning hamda ularni idrok qilayotgan kishi faoliyatining vazifasi va xususiyatiga bog'liq.

Diqqatning aksi parishonxotirlikayar. Bunda odam diqqatini biror narsaga to'play olmay, hamma vaqt boshqa narsalarga chalg'iyveradi. Shunday holat kishi qattiq charchaganda, uning uchun ahamiyatsiz juda ko'p qo'zg'atuvchilar mavjudligida yoki, aksincha, bitta ham qo'zg'atuvchining odam uchun ahamiyati bo'lmaganda ro'y beradi. Mashq qilish bilan parishonxotirlikka barham berish mumkin. Diqqatning turlari va xususiyatlari odamning juda yoshlik davridan boshlab rivojlanadi va hayoti davomida o'zgarib, murakkablashib boradi.

Diqqat-bu ongning ma’lum bir obyektga,faoliyatga yoki jarayonga yo’naltirilish va shu yo’nalishda ushlab turilishi jarayonidir. U odamning atrofdagi ko’plab ma’lumotlar ichidan eng muhimini tanlab, aynan o’sha narsaga e’tibor qaratishini taminlaydi.

1. Diqqatning tarifi Diqqat-psixikaning selektiv funksiyasi bo’lib, u inson faoliyatini boshqaradi, ongni kerakli malumotlarga qaratadi, fikrlash idrok xotira va harakatlarni tartibga soladi. Diqqat yordamida biz: bir narsani tanlaymiz, uni kuzatib turamiz, keraksiz malumotni chetga suramiz.

2.Diqqatning asosiy xususiyatlari 1)Diqqatning konsentratsyasi (yig’ilishi) Malum vazifaga chuqur e’tibor qaratish. Misol: kitob o’qiyotganda atrofdagi shovqinni sezmay qolish. 2)Diqqatning barqarorligi uzoq vaqt davomida e’tibor saqlab turish qobilyati. Misol: darsni 40 daqiqa davomida kuzatish. 3)Diqqatning ko’chishi etiborni bir faoliyatdan boshqasiga tezda o’tkazish. Misol: telefon chalinganda o’qishni to’xtatib, suhbatga o’tish.4)Diqqatning taqsimlanishi bir vaqtning o’zida ikki yoki undan ortiq ishni qilish. Misol: haydovchi mashina boshqarib kelayotib, suhbatlashishi. 5)Diqqatning hajmi bir paytda nechtaobyekni qamrab olishi. O’rtacha odam 5-9 ta elementni bir vaqtda idrok qila oladi.

3.Diqqatning turlari 1)ixtiyorsiz diqqat (majburiy bo’lmagan) o’z-o’zidan , odam hohlamasdan paydo bo’ladiga e’tibor. 2)ixtiyoriy diqqat (ongli) odam o’zi xohlaganicha e’tiborni qaratadi. Misol:imtihonga tayyorlanayotganda telefondan chalg’imaslikka harakat. 3)ixtiyoriydan kiyingi diqqat avvaliga kuch bilan diqqat qilinadi , o’z-o’zidzn barqarorlashadi. Misol:qiyin darsni boshlash, keyin esa qiziqib ketish.

4.Diqqatning fizialagik asoslari Diqqatning asosida miya yarim sharlaridagi qo’zg’alish markazi yotadi.Mashhur fiziolg I.P.Pavlov bunga daminanta deb atama bergan-ya’ni miyyada eng kuchli qo’zg’alish o’chog’i ajralib turadi, qolgan jarayonlar kuchsizlanadi. Shuningdek: prefrontal korteks diqqatni boshqaradi, talamus-kerakli signallarni tanlab oladi, retikulyar forma-uyg’oqlikni taminlaydi.

5. Diqqatning rivojlanishi diqqatni quyidagilar kuchaytiradi:yaxshi uyqu uyqusizlik diqqatni 30-40 foiz pasaytiradi. Muntazam mashqlar konsentratsya o’yinlari krassvord mantiqiy masalalar 5 daqiqa hech narsaga chalg’imasdan o’tirish reja asosida ishlash vazifalarni kichik bo’laklarga bo’lish diqqatni yengillashtiradi. Chalg’ituvchi omillarni kamaytirish telfonni o’chirib qo’yish tinch joyda ishlash.

6.Diqqatning buzilishi quyidagi holatlarda diqqat pasayishi mumkin:stress charchoq depressiya uyqusizlik dars/ishga qiziqmaslik bolalarda diqqat buzilishi eng kop ADD/ADH(e’tibor yetishmovchiligi sindromi) ko’rinishida uchraydi.

Diqqat haqida olimlar fikrlari

1.Uilyam Jeymis -diqqat nazariyasining asoschisi fikri: diqqat-ongning bir necha obyektlar ichidan bittasini tanlab unga to'liq yo'naltirilishidir. U diqqatni ongning filtri deb hisoblagan.

2.zigmund freydning fikricha, diqqat ongning shaxsiy ehtiyojlari va ichki motivlarga qarab tanlanadi.

3.Lev Vygotskiy diqqat bu psixik faoliyatni boshqaruvchi ixtiyoruy jarayon. Udiqqatni nutq va taffakkur bilan chambarchas bog'liq deb bilgan. Bola katta yoshga borganda diqqatni boshqarishni nutq orqali o'rganadi.

4. Aleksandr Luriya (neyropsixolog) diqqat bosh miyya po'slog'ining faollik darajasi bilan belgilanadi. U diqqatning buzilishlari frontal bo'limlar faoliyati bilan aloqador ekanini takidlagan.

5. Daniel Kahneman (nobel sovrindori) diqqat-bu cheklangan resrs. Kahneman diqqatni energiya singari bir quvvat deb tushintiradi: bir vaqtning o'zida ko'p vazifa bajarilsa, diqqat bo'linib ketadi.

6.Donald Broadbentning filter modeliga ko'ra diqqat sensor axborotni saralovchi filtr kabi ishlaydi. Inson miyyasi bir vaqtning uzida barcha malumotlarni qayta ishlay olmaydi, shuning uchun kerakli malumot tanlab olinadi.

7. Ann Treisman u attenuatsya modelini taklif qilgan. Uning fikricha, diqqat malumotni tuliq tusib quymaydi, balki kuchsizlantirib o'tkazadi. Shuning uchun odam chet tovushni etiborsiz qoldirsa ham o'z ismini eshitganda darrov sezadi.

8.Ivan Pavlov diqqatni oriyentr refleksi asosida tushintiradi. Yangi g'alati kutilmagan stimullar odam diqqatini avtomatik tortadi. Masalan kutilmagan shovqin yoki yorqin yorug'lik. 9.Neisser (kognitiv psixolog) diqqatni axborot izlash va qayta ishlash strategiyasi deb talqin qiladi. Yani inson diqqatni vazifaga qarab ataylab yo'naltiradi.

XULOSA

Diqqat inson psixikasining eng muhim jarayonlaridan biri bo'lib, ongni zarur obyektga yo'naltirish va uni malumvaqt davomida ushlab turish orqali faoliyatni boshqaradi. Uning konsentratsiya, barqarorlik kuchuvchanlik bo'linuvchanlik va hajm kabi xususiyatlar insonning idrok tafakkuri xotira va xarakat jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Diqqat turlarining-ixtiyorsiz ixtiyoriy va ixtiyoridan keyingi shakllarining mavjudligi inson faoliyatining turli vaziyatlarda qanday boshqarilishini ko'rsatadi.

Diqqatning fiziologik asoslari miyyada dominanta o'chog'ining hosil bo'lishi va prifrontal kortikis talamus retikulyar forma kabi tizmalarning faoliyati bilan bog'liq. Shu bois diqqatning samaradorligi organizmning umumiy psixofziologik holatiga bevosita tasirchan charchoq stress uyqusizlik va mativatsiyaning pasayishi diqqat buzilishiga olib kelishi mumkin biroq muntazam mashq qilish sog'lom turmush tarzi

va chalg'ituvchi omillarni cheklash orqali diqqatni rivojlantirish mumkin umuman olganda diqqatning rivojlanishi va to'g'ri boshqarilishi insonnig o'quv mehnat va kundalik hayotidagi samaradorligini oshiradi hamda uning psixik faoliyatini yanada barqaror va tartibli qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. F.I.Haydarov. N.I.Xalilova umumiy psixologiya//darslik/Toshkent/" INOVATSIYA - ZIYO" - 2021 360 bet
2. Bodalev. A.A.Lichnost и овщуенийа - M; pedagogika
3. Abdukarimovich, Y. T., & Melikmurodovich, S. U. B. (2022). Art Therapy in Eliminating Aggressiveness in the Individual. Global Scientific Review, 9, 1-4.
4. Abdukarimovich, Y. T., Melikboboyevich, S. U., & Yusufaliyevna, H. S. (2024). Educator's Skill in Eliminating Aggressive Situations of Children Raised in Preschool Education Organization. Samaraly Ta'lim Va Barqaror innovatisyalar Jurnali, 1(6), 611-616.
5. Шомуротов , У. . (2024). ТЕХНОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДОВ АРТ-ТЕРАПИИ В УСТРАНЕНИИ ЛИЧНОСТИ АГРЕССИИ. *Предпринимательства и педагогика*, *2*(3), 178–181.
6. Melikboboyevich, S. U., Zafar o'g'li, S. L., Eshqul o'g'li, S. J., & Abbos o'g'li, Q. N. (2025). SHAXSDAGI AGRESSSIVLIKNI OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI. *Advanced methods of ensuring the quality of education: problems and solutions*, *2*(3), 20-22.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

MAKTAB YOSHIDAGILAR BOLALARDA EKALOGIK SAVODXONLIKNI RAQAMLI VOSITALARDAN FOYDALANIB RIVOJLANTIRISHNING INTERAKTIV USULLARI

Xalqaro Nordik universiteti 1-kurs magistranti
Valiyeva Aziza Baxtiyorovna

Annotatsiya

Maqolada maktab yoshidagi bolalarda ekologik savodxonlikni shakllantirishda raqamli vositalardan foydalanishning interaktiv usullari tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli o‘quv platformalari, mobil ilovalar, virtual laboratoriyalar, animatsion videodarslar va gamifikatsiya elementlarining ekologik bilimlarni o‘rgatish jarayoniga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, multimedia kontentlar orqali bolalarning ekologik muammolarni anglash, tabiatga nisbatan mas’uliyatli munosabatni shakllantirish hamda kognitiv faoliyatni faollashtirish imkoniyatlari o‘rganilgan. Interaktiv raqamli texnologiyalar o‘quvchilarning e’tibor, qiziqish va motivatsiyasini oshirishi, ekologik masalalarni amaliy misollar orqali ko‘rsatishi va o‘quv jarayonini personalizatsiya qilishi bilan ahamiyatlidir. Maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida ekologik tarbiya samaradorligini oshirish uchun ilg‘or raqamli vositalarni integratsiyalash bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar beriladi. Tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalar yordamida ekologik savodxonlikni kuchaytirish nafaqat bilim, balki kompetensiyalarni ham rivojlantirishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: ekologik savodxonlik, raqamli vositalar, interaktiv usullar, multimedia resurslari, gamifikatsiya, mobil ilovalar, virtual laboratoriya, boshlang‘ich ta’lim, ekologik tarbiya, raqamli pedagogika.

Kirish

Maktab yoshidagi bolalarda ekologik savodxonlikni shakllantirish bugungi globallashuv jarayonida dolzarb masalalardan biridir. Tabiiy resurslarning kamayishi, ekologik muvozanatning buzilishi, atmosfera ifloslanishi kabi global muammolarni hal etishda yosh avlodning ekologik madaniyatini yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich ta’lim jarayoni ekologik ongni shakllantirishning boshlang‘ich poydevori hisoblanadi, chunki aynan shu davrda bolalarda tabiatga nisbatan ijobiy munosabat, kuzatuvchanlik, mas’uliyat va ehtiyotkorlik kabi sifatlar shakllanadi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ekologik ta’limni yanada innovatsion, qiziqarli va samarali usullarda tashkil etish imkonini bermoqda. Raqamli vositalar

orqali ta’lim jarayoni interaktiv, multimodal va vizual jihatdan boyitilgan shaklga ega bo‘ladi. Bu esa o‘quvchilarda ekologik jarayonlarni chuqurroq anglash, murakkab ekologik tushunchalarni qulay usulda idrok etish va mustaqil o‘rganishga intilish imkonini yaratadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ekologik bilimlarni oddiy, tushunarli va ko‘rgazmali shaklda yetkazish juda muhimdir. Shu nuqtayi nazardan raqamli animatsiyalar, interaktiv xaritalar, ekologik o‘yinlar, AR (kengaytirilgan reallik) texnologiyalari va virtual laboratoriyalar katta afzalliklarga ega. Masalan, virtual tajribalar orqali o‘quvchilar “tabiat ifloslansa nima bo‘ladi?”, “Atmosferadagi o‘zgarishlar o‘simliklarga qanday ta’sir qiladi?” kabi jarayonlarni amalda kuzatishi mumkin. Muhimi, bu jarayon xavfsiz, qulay va bolalarning yoshiga mos tarzda tashkil etiladi.

Raqamli vositalar, ayniqsa, motivatsiya va qiziqishni kuchaytirishga xizmat qiladi. Gamifikatsiya elementlari, masalan, ekologik topshiriqlarni bajarish orqali ball to‘plash, badge va sertifikatlar olish o‘quvchilarning faolligini oshiradi. Shu bilan birga, mobil ilovalar ekologik odatlarni shakllantirishda samarali bo‘lishi mumkin. Masalan, kundalik ravishda suvni tejash, chiqindilarni ajratish yoki daraxt ekish mavzusida kichik interaktiv topshiriqlar beriladi va bola ularga muntazam amal qilgan sari ekologik ong mustahkamlanadi.

Shunday qilib, raqamli vositalar boshlang‘ich ta’limda ekologik savodxonlikni shakllantirishda innovatsion imkoniyatlarni kengaytiradi. Tadqiqotning dolzarbligi ham ana shu omillar bilan belgilanadi.

Metodlar

Tadqiqot davomida maktab yoshidagi bolalarda ekologik savodxonlikni rivojlantirishda qo‘llaniladigan raqamli vositalarning pedagogik imkoniyatlari, samaradorligi va o‘quv jarayoniga ta’siri o‘rganildi. Metodologik asos sifatida interaktiv ta’lim nazariyalari, raqamli pedagogika tamoyillari va ekologik tarbiya konsepsiyalariga tayangan holda bir nechta empirik va nazariy metodlar qo‘llandi. Avvalo, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili orqali raqamli ekologik ta’limning xorijiy va mahalliy tajribalarini o‘rganish amalga oshirildi. Bu jarayonda ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan platformalar, mobil ilovalar, kompyuter o‘yinlari, virtual laboratoriyalar va AR texnologiyalarning funksional imkoniyatlari ko‘rib chiqildi.

Tadqiqotda kuzatuv metodi muhim o‘rin tutdi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining raqamli vositalar orqali bajarilgan ekologik topshiriqlarga bo‘lgan munosabati, qiziqishi, faolligi va o‘zlashtirish dinamikasi kuzatildi. O‘quv jarayonida interaktiv animatsiyalar, ekologik simulyatsiyalar, ekologik muammolarning vizual

modellaridan foydalanilganda o‘quvchilarda kuzatuvchanlik, muammo tahlili va xulosa chiqarish ko‘nikmalarining rivojlangani aniqlangan.

Eksperiment metodi yordamida bir nechta raqamli vositalarning o‘quvchilar ekologik savodxonligiga ta’siri solishtirildi. Masalan, bir guruhda ekologik mavzudagi mobil ilovalar asosida ta’lim tashkil etildi, boshqa guruhda esa virtual laboratoriyalar qo‘llandi. Eksperiment natijalarini baholashda testlar, o‘quvchilarning amaliy ishtiroki, topshiriqlarni bajarish tezligi va sifat ko‘rsatkichlari o‘lchandi. Shu orqali qaysi raqamli vosita bolalarning ekologik ongini ko‘proq faollashtirishi aniqlashga erishildi.

Suhbat va anketa metodlari yordamida o‘qituvchilarning raqamli ekologik ta’limga munosabati o‘rganildi. O‘qituvchilar tajribaga asoslanib, qaysi vositalar o‘quvchilarda motivatsiya va faol ishtirokni kuchaytirishini, qaysilari esa murakkab yoki samarasi past ekanini baholab berdilar. Shuningdek, ota-onalarning farzandlaridagi ekologik odatlarni shakllantirishga doir fikrlari tahlil qilindi.

Tadqiqot metodlarining kombinatsiyasi ekologik savodxonlikni shakllantirish jarayonini keng qamrovda o‘rganish imkonini berdi. Ular orqali raqamli vositalarning ta’lim jarayoniga real ta’siri, ularning pedagogik qiymati va boshlang‘ich ta’limda qo‘llashning maqbul yo‘llari aniqlanib, amaliy xulosalar ishlab chiqildi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari maktab yoshidagi bolalarda ekologik savodxonlikni rivojlantirishda raqamli vositalarning yuqori samaradorlikka ega ekanini ko‘rsatdi. O‘quv jarayonida interaktiv texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning ekologik tushunchalarni tezroq, osonroq va chuqurroq o‘zlashtirishiga yordam bergani aniqlandi. Mobil ilovalar va ekologik o‘yinlar orqali topshiriqlarni bajargan o‘quvchilarda motivatsiya an’anaviy dars usullariga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘ldi. Ular ekologik muammolarni anglashda faol ishtirok etib, tabiatga oid jarayonlarni kuzatish va tahlil qilishga intilishdi. Ayniqsa, gamifikatsiya elementlari qo‘llangan darslarda bolalarning ekologik odatlarni shakllantirishga bo‘lgan qiziqishi ortgani kuzatildi

Virtual laboratoriyalardan foydalanilgan sinflarda o‘quvchilarning ekologik jarayonlarni modellashtirish, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash va o‘z xulosalarini shakllantirish ko‘nikmalari kuchaygani qayd etildi. Masalan, “ifloslanish darajasi oshganda havo sifatiga qanday ta’sir qiladi?” kabi virtual tajribalar o‘quvchilarga ekologik jarayonlarning mexanizmini chuqurroq tushunishga yordam berdi. Shuningdek, AR texnologiyalari orqali o‘quvchilar o‘simliklarning tuzilishi, suv aylanishi, chiqindilarni qayta ishlash kabi murakkab ekologik tushunchalarni vizual tarzda o‘rgandilar

Eksperiment natijalarida raqamli vositalardan muntazam foydalangan o‘quvchilarda ekologik savodxonlik bo‘yicha o‘sish 25–40 foizgacha oshgani aniqlandi. Bunda mobil ilovalar oddiy ekologik tushunchalarni shakllantirishda samara ko‘rsatgan bo‘lsa, virtual laboratoriyalar chuqur tahliliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda samarali bo‘ldi. Animatsion videodarslar esa murakkab ekologik jarayonlarni tushunarli shaklda yetkazishda ustunlikka ega bo‘ldi.

O‘qituvchilarning fikriga ko‘ra, raqamli vositalar nafaqat bilim, balki ekologik madaniyat va mas’uliyatni shakllantirishda ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilar topshiriqlarni mustaqil bajarishga, ekologik muammolarni bartaraf etish yo‘llarini izlashga va kundalik hayotda ekologik odatlarni qo‘llashga ko‘proq intila boshladi. Tadqiqotning yana bir muhim natijasi shundaki, raqamli vositalar bilan o‘qitilgan o‘quvchilarda ekologik masalalarni hal qilishda ijodkorlik, tashabbuskorlik va mas’uliyatlilik kabi sifatlar mustahkam shakllandi.

Muhokama

Tadqiqot natijalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, maktab yoshidagi bolalarda ekologik savodxonlikni shakllantirishda raqamli vositalarning roli tobora ortib bormoqda. Ushbu vositalar o‘quv jarayoniga interaktivlik, vizuallik va amaliyotga yaqinlik xususiyatlarini olib kirishi bilan ekologik ta’limning mazmuni va sifatini sezilarli darajada boyitadi. Raqamli vositalar bola psixologiyasiga mos ravishda o‘quv jarayonini qiziqarli, jonli va harakatga boy shaklga keltirib, ular uchun ekologik tushunchalarni idrok etishni osonlashtiradi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari abstrakt ekologik jarayonlarni anglashda qiynalishi mumkin, shu bois AR, animatsiyalar va virtual tajribalar ushbu murakkab tushunchalarni soddalashtirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Gamifikatsiya elementlari ekologik tarbiya jarayonida motivatsiyani kuchaytiruvchi asosiy omillardan biridir. O‘quvchi topshiriqlarni bajargan sari daraja ko‘tarilishi, ball yig‘ishi yoki mukofot olishi ekologik odatlarni kundalik hayotiga tatbiq etishga undaydi. Shu tufayli ekologik savodxonlik faqat nazariy bilim sifatida emas, balki amaliy odat sifatida shakllanadi. Bu esa raqamli vositalarning ekologik tarbiyani kundalik faoliyat bilan bog‘lash imkoniyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarning raqamli vositalardan foydalanish kompetensiyasi ekologik ta’lim samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi. Pedagoglar raqamli platformalar, mobil ilovalar va virtual tajribalar imkoniyatlarini to‘g‘ri tanlab va metodik jihatdan asoslangan tarzda qo‘llagan taqdirda o‘quvchilarda ekologik ong va ekologik madaniyat yuqori sur’atda oshadi. Bu esa o‘qituvchilarni raqamli pedagogika bo‘yicha doimiy malaka oshirib borishni talab qiladi.

Shu bilan birga, tadqiqot raqamli vositalardan foydalanishda ayrim cheklovlar ham mavjudligini ko‘rsatdi. Masalan, haddan tashqari raqamli kontentdan foydalanish bolalarda diqqatning pasayishiga, charchoq yoki qiziqishning kamayishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, barcha maktablarda teng texnik imkoniyatlarning mavjud emasligi raqamli ekologik ta’limning yagona tizimda yo‘lga qo‘yilishini qiyinlashtiradi. Shu sababli, raqamli vositalar an’anaviy o‘quv usullari bilan uyg‘unlashtirilgan holda, me’yoriy balansni saqlagan tarzda qo‘llanilishi lozim.

Umuman olganda, raqamli vositalar ekologik savodxonlikni shakllantirishda kuchli pedagogik resurs bo‘lib, ularning samaradorligi ular qanday va qachon qo‘llanilishiga bog‘liq ekanini tadqiqot isbotladi.

Xulosa

Tadqiqotdan olingan natijalar maktab yoshidagi bolalarda ekologik savodxonlikni rivojlantirish jarayonida raqamli vositalarning ahamiyati va samaradorligini keng ko‘lamda tasdiqladi. Raqamli texnologiyalar ekologik ta’lim mazmunini boyitish, o‘quvchilarni faol o‘rganishga jalb qilish va ekologik masalalarni chuqurroq anglashga yordam beruvchi innovatsion vosita sifatida o‘zini namoyon etdi. Interaktiv animatsiyalar, mobil ilovalar, virtual laboratoriyalar va AR texnologiyalar o‘quvchilarning ekologik jarayonlarni tushunish, tahlil qilish va amalda kuzatish ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirdi. Raqamli yondashuv o‘quvchilarda ekologik odatlarni shakllantirishga xizmat qilib, ekologik mas’uliyat va tabiatga mehr tuyg‘usining kuchayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Tadqiqot davomida shuningdek, o‘qituvchilarning raqamli vositalardan foydalanish bo‘yicha metodik tayyorgarligi ekologik ta’lim samaradorligini belgilovchi muhim omil ekani aniqlandi. Raqamli resurslardan kompetent tarzda foydalanilgan darslar o‘quvchilar e’tiborini jalb qilishda, murakkab ekologik tushunchalarni soddalashtirishda va real hayotiy misollar bilan bog‘lashda yuqori natija berdi. Shu sababli, pedagoglar uchun raqamli pedagogika bo‘yicha muntazam malaka oshirish jarayonlarini yo‘lga qo‘yish dolzarb hisoblanadi.

Raqamli ekologik ta’limning yana bir muhim jihati uning shaxsga yo‘naltirilganligi va o‘quvchilarda mustaqil o‘rganish, izlanuvchanlik va ijodkorlikni rag‘batlantirishidir. Bu esa nafaqat ekologik bilimlar, balki XXI asr kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shunga qaramay, raqamli vositalardan foydalanishda muvozanat va me’yorni saqlash zarurligi, texnik imkoniyatlar tengligiga erishish masalalari ham nazardan chetda qolmasligi lozim.

Umuman olganda, tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, raqamli vositalar yordamida ekologik savodxonlikni rivojlantirish boshlang‘ich ta’limda samarali, zamonaviy va istiqbolli

yondashuvdir. Bu jarayon o‘quvchilarning ekologik ongini mustahkamlash, ekologik muammolarga befarq bo‘lmaslik va tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha faol hayotiy pozitsiyani shakllantirishga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalarni ekologik ta’limga integratsiyalash orqali barqaror rivojlanish g‘oyalariga mos, ongli va mas’uliyatli avlodni tarbiyalash imkoniyati kengayadi.

Adabiyotlar

1. Azizxo‘jayev N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: Texnopark, 2021.
2. Qoraboyev A. Ekologik ta’lim va tarbiya asoslari. Toshkent: Fan, 2020.
3. Jo‘rayev M. Raqamli pedagogika: nazariya va amaliyot. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022.
4. Niyozmetova M. Boshlang‘ich ta’limda ekologik madaniyatni shakllantirish. Samarqand: SamDU nashriyoti, 2019.
5. Zaynutdinova D. Ekologik ong va raqamli o‘quv resurslari. Buxoro, 2023.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

ЛОГИСТИЧЕСКАЯ ПОЛИТИКА ВО ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЕ И ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА ХОД И ИСХОД ВОЙНЫ.

Исторический факультет Национального университета Узбекистана, специальность «История» магистрантка 2 курса
Рахмонжонова Мафтуна Русланбековна

Аннотация: Вторая мировая война стала ареной для масштабных военных операций, требующих беспрецедентной логистической поддержки. Статья рассматривает роль и значение военной логистики в ходе конфликта, делая акцент на ключевой роли военных железных дорог. Анализируются стратегии и тактики, применяемые для перемещения войск, вооружения и припасов, а также технические аспекты строительства, эксплуатации и защиты железнодорожных путей в условиях боевых действий. Особое внимание уделяется тому, как эффективность логистических систем напрямую влияла на успех или провал военных кампаний.
Ключевые слова: Военная логистика, Вторая мировая война, военные железные дороги, транспорт, снабжение, военные операции, история.
Аннотация: Иккинчи жаҳон уруши мисли кўрилмаган логистик ёрдамни талаб қиладиган кенг кўламли ҳарбий операциялар майдонига айланди. Ушбу мақола уруш давомида ҳарбий логистиканинг роли ва аҳамиятини таҳлил қилиб, ҳарбий темир йўлларнинг асосий ролига эътибор қаратади. Унда қўшинлар, қурол-яроғ ва таъминотни ҳаракатга келтириш учун қўлланилган стратегия ва тактикалар, шунингдек, жанговар шароитда темир йўлларни қуриш, ишлатиш ва ҳимоя қилишнинг техник жиҳатлари кўриб чиқилади. Логистика тизимларининг самарадорлиги ҳарбий кампанияларнинг муваффақияти ёки муваффақиятсизлигига қандай қилиб тўғридан-тўғри таъсир қилганига алоҳида эътибор қаратилади.
Калит сўзлар: Ҳарбий логистика, Иккинчи жаҳон уруши, ҳарбий темир йўллар, транспорт, таъминот, ҳарбий операциялар, тарих.
Abstract: World War II was the stage for large-scale military operations that demanded unprecedented logistical support. This article examines the role and significance of military logistics during the conflict, focusing on the pivotal role of military railways. It analyzes the strategies and tactics employed for moving troops, armaments, and supplies, as well as the technical aspects of constructing, operating, and defending railway lines under combat conditions. Special attention is given to how

the efficiency of logistical systems directly impacted the success or failure of military campaigns.

Keywords: Military logistics, World War II, military railways, transport, supply, military operations, history.

Логистическая политика сыграла решающую роль во Второй мировой войне, оказав значительное влияние как на ее причины, так и на результаты. В отличие от Первой мировой войны, где основное внимание уделялось позиционной войне, Вторая мировая война стала войной маневренной и моторизованной, что сделало логистику — процесс снабжения, транспортировки и обслуживания войск — критически важным фактором. Отсутствие или неэффективность логистических систем могли привести к провалу даже самых блестящих стратегических планов. На начальном этапе войны, агрессивные державы, такие как нацистская Германия, были очень эффективны в своей логистике, что позволило им проводить молниеносные кампании (блицкриг). Германия делала ставку на скорость и внезапность, используя для быстрого перемещения войск и техники свои хорошо развитые железнодорожные и автодорожные сети. Однако, по мере расширения фронта, особенно на востоке, эти системы начали испытывать колоссальные трудности. Огромные расстояния, суровые климатические условия и несоответствие железнодорожной колеи стали серьезными препятствиями, которые подорвали немецкую военную машину, что в конечном итоге привело к поражению на Восточном фронте.

С другой стороны, союзники, в особенности США и СССР, продемонстрировали выдающиеся логистические достижения, которые стали одним из ключевых факторов их победы. Соединенные Штаты, превратившиеся в «арсенал демократии», наладили беспрецедентную по масштабу систему производства и доставки вооружения, техники и продовольствия по всему миру. Программа ленд-лиза стала ярчайшим примером этой политики, позволившей обеспечить союзников, включая СССР, жизненно важными ресурсами, без которых их военная экономика могла бы рухнуть. Советский Союз, несмотря на колоссальные потери в начале войны, сумел осуществить масштабную эвакуацию промышленных предприятий на восток страны, что позволило сохранить и нарастить военное производство в глубоком тылу[1]. Эта

[1] Кожевников М. Н. Командование и штаб ВВС Советской Армии в Великой Отечественной войне 1941-1945 гг. М.: Наука, 1985. – С. 89

логистическая операция считается одним из величайших достижений военной истории. В итоге, Вторая мировая война наглядно показала, что успех в современном военном конфликте зависит не только от храбрости солдат и таланта полководцев, но и от способности страны эффективно управлять ресурсами, транспортом и снабжением. Логистика перестала быть второстепенным элементом и стала основополагающей частью военной стратегии, определяющей ход и исход войны.

После окончания Второй мировой войны мир вступил в совершенно новую эпоху, которая кардинально отличалась от предыдущей. В результате конфликта произошло множество событий, которые сформировали современный геополитический ландшафт. Война привела к упадку европейских колониальных империй, которые были ослаблены конфликтом, и к последующему процессу деколонизации в Азии и Африке. Бывшие колонии обрели независимость, что изменило политическую карту мира и создало множество новых государств.

Одним из наиболее значимых и долгосрочных последствий войны стало начало холодной войны — периода идеологического и геополитического противостояния между двумя сверхдержавами: США (лидером капиталистического блока) и СССР (лидером коммунистического блока). Этот конфликт, который велся без прямого военного столкновения между главными игроками, характеризовался гонкой вооружений (включая ядерное оружие), шпионажем, пропагандой и локальными конфликтами-«прокси» по всему миру, такими как войны в Корее и Вьетнаме. Мир оказался разделен «железным занавесом», который физически и идеологически разделил Европу на две части.

На руинах войны были созданы новые международные институты для предотвращения будущих конфликтов. В 1945 году была основана Организация Объединенных Наций (ООН), главной целью которой было поддержание международного мира и безопасности. Эта организация заменила собой Лигу Наций, которая оказалась неэффективной в предотвращении Второй мировой войны[2]. Кроме того, в Европе были созданы первые наднациональные объединения, которые позднее привели к формированию Европейского союза, что стало ответом на разрушительность войны и стремлением к долгосрочному миру и экономическому сотрудничеству на континенте.

[2] Кожевников М. Н. Командование и штаб ВВС Советской Армии в Великой Отечественной войне 1941-1945 гг. М.: Наука, 1985. – С. 90

Наука и технологии, которые развивались в военное время (особенно в области ядерной физики), продолжили свое развитие, что привело к атомному веку и космической гонке между США и СССР. Эти достижения, хоть и имели военное происхождение, также принесли значительный прогресс в гражданских сферах, от медицины до коммуникаций. В общем, после Второй мировой войны мир оказался в состоянии непрерывных изменений, где старые империи уступили место новым сверхдержавам, а угроза тотального уничтожения заставила человечество искать новые пути для мирного сосуществования, что и привело к новому миропорядку.

Советский Союз столкнулся с огромными логистическими проблемами во время Второй мировой войны, что стало одним из определяющих факторов его выживания и окончательной победы. Эти проблемы были многогранными, затрагивая все аспекты войны, от поставок продовольствия, боеприпасов и топлива до транспортировки войск и оборудования. Масштаб и размах войны на Восточном фронте, где была сосредоточена большая часть ресурсов нацистской Германии после вторжения в Советский Союз в июне 1941 года, потребовали от СССР принятия чрезвычайных логистических усилий. В ходе войны Советский Союз добился значительных логистических подвигов, но они дались дорогой ценой.

В первые годы войны, особенно в 1941 и 1942 годах, логистические проблемы Советского Союза были серьезными. Немецкое вторжение под кодовым названием «Операция Барбаросса» застало Советы врасплох и привело к потере огромных территорий в западной части СССР. Первоначальные успехи вермахта нарушили советские линии снабжения и оставили Красную Армию[3] с трудом поддерживать свою боеспособность. Большие части советской промышленности оказались на пути наступающих немецких войск, что привело к разрушению заводов и перемещению целых промышленных секторов. Кроме того, большая часть советской транспортной инфраструктуры, включая железные дороги и шоссе, была повреждена или выведена из строя наступающими немцами.

Система снабжения и транспортировки СССР изначально была ужасно не готова к масштабам конфликта. Советская железнодорожная сеть была в первую очередь разработана для удовлетворения потребностей мирного времени и была недостаточной для обработки быстрой мобилизации и огромных расстояний

[3] Кожевников М. Н. Командование и штаб ВВС Советской Армии в Великой Отечественной войне 1941-1945 гг. М.: Наука, 1985. – С. 81

Восточного фронта. Значительная часть советской промышленности, особенно в западной части страны, была быстро захвачена, что заставило переместить заводы на восток, за Уральские горы, которые были более безопасными от немецкого нападения. Это была монументальная логистическая операция, требовавшая демонтажа и транспортировки целых промышленных предприятий, включая машины, сырье и квалифицированных рабочих.

В 1941 и 1942 годах большая часть потребностей советских военных в снабжении удовлетворялась с помощью специальных мер. Красная Армия сильно зависела от ручного труда, включая использование лошадей, поскольку механизированный транспорт был ограничен. В Советском Союзе наблюдался значительный дефицит моторизованных транспортных средств и грузовиков, что замедляло перемещение войск и поставок. Использование лошадей для транспорта, хотя и было исторически распространено в России, стало критическим фактором в поддержании линий снабжения, особенно в первые годы войны.

Одним из главных логистических достижений СССР была возможность переместить целые промышленные секторы на восток, где они были вне досягаемости немецких войск. Советское правительство переместило более 1500 заводов, некоторые из них вместе с рабочими, в регионы Урала, Сибири и Средней Азии. Эта огромная задача включала демонтаж заводов, переселение миллионов людей и строительство новых объектов с нуля. К 1942 году было перемещено более 1500 крупных заводов, включая ключевые заводы по производству оружия[4], которые стали жизненно важными для снабжения Красной Армии. Эти перемещенные заводы сыграли ключевую роль в способности Советского Союза поддерживать военные усилия. Например, перенос производства танков на Урал позволил СССР наладить массовое производство Т-34, одного из самых успешных и надежных танков войны.

Однако масштаб проблемы также привел к значительной неэффективности и задержкам. Транспортные сети были перегружены, и многие из недавно построенных заводов не сразу заработали на полную мощность. Советский Союз также столкнулся с трудностями в обучении рабочих на новых заводах, и многие квалифицированные рабочие были либо потеряны, либо убиты в ходе конфликта. Несмотря на эти проблемы, к 1943 году СССР восстановил свой промышленный потенциал и производил оружие и боеприпасы во все больших

[4] Исаев А. В. Антисуворов. Десять мифов Второй мировой. М.: Яуза, Эксмо, 2006. – С. 71

количествах.

Эффективность советской логистической системы значительно возросла по мере развития войны. К середине 1943 года советское производство военных материалов, включая танки, артиллерию и самолеты, превзошло производство нацистской Германии. Советский Союз был в состоянии удовлетворить постоянно растущие потребности своих военных, и масштабы производства были огромными. В 1944 году СССР произвел более 15 000 танков и 10 000 самолетов, что намного превзошло немецкие показатели производства. Советский Союз также производил большое количество грузовиков и военных транспортных средств, которые стали критически важными для перемещения войск и поставок. Советская логистическая сеть также была подкреплена созданием системы складов и складов снабжения, которые могли поддерживать военные операции на передовой.

Советская железнодорожная система, которая была серьезно повреждена в начале войны, была восстановлена и расширена. Основная часть этих усилий заключалась в использовании узкоколейных железных дорог, которые можно было быстро построить в районах, куда было трудно добраться стандартными поездами[5]. Эти узкоколейные линии играли важную роль в доставке грузов на фронт и в районы, которые не обслуживались обычными железными дорогами. Эффективность советской железнодорожной системы была особенно очевидна в Сталинградской битве (1942–1943), где советская способность перебрасывать войска и грузы на передовую сыграла решающую роль в окружении и уничтожении немецкой 6-й армии.

Советская логистика была дополнительно улучшена за счет эффективного использования женщин в военных действиях. Поскольку многие мужчины были призваны в армию, женщины заняли важные должности на заводах, в сфере транспорта и снабжения. Эта рабочая сила внесла свой вклад в производство боеприпасов, транспортных средств и оборудования и помогла частично устранить нехватку рабочей силы в логистической системе.

Несмотря на эти достижения, Советский Союз столкнулся со значительными логистическими ограничениями вплоть до заключительных этапов войны. Немецкое вторжение в Советский Союз оставило большую часть западного СССР в руинах, а транспортная инфраструктура оставалась неадекватной на протяжении большей части войны. По мере того, как Красная Армия оттесняла

[5] Воронов Н. Н. На службе военной. М.: Воениздат, 1963. – С. 45

немецкие войска и продвигалась в Восточную Европу, логистические проблемы стали еще более выраженными. Необходимость снабжения большого количества войск на огромные расстояния, часто в суровых погодных условиях, истощала советские ресурсы.

Использование помощи по ленд-лизу от Соединенных Штатов и Великобритании также сыграло решающую роль в советской логистике. С 1941 по 1945 год СССР получил значительное количество военной техники, продовольствия и сырья по программе ленд-лиза. К 1944 году Советы получили 7000 грузовиков, 12000 джипов, 2000 самолетов и 400000 тонн продовольствия[6], что имело решающее значение для поддержания советских военных усилий. Эта помощь помогла облегчить некоторые логистические трудности, с которыми столкнулся СССР, особенно с точки зрения моторизованного транспорта.

Одним из самых замечательных аспектов советской логистики была способность поддерживать функционирующую цепочку поставок даже в условиях крайней нехватки и неудач. По мере развития войны советская логистика становилась все более сложной, включая новые методы, такие как использование железнодорожных и автомобильных конвоев для перемещения грузов на большие расстояния, а также интеграцию партизанских сетей в цепочку поставок. Последнее было особенно важно в районах за немецкими линиями, где советские партизаны саботировали немецкие линии снабжения и помогали в перемещении советских войск.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Воронов Н. Н. На службе военной. М.: Воениздат, 1963.

2. Захаров М. В. Генеральный штаб в предвоенные годы. М.: Воениздат, 1989.

3. Исаев А. В. Антисуворов. Десять мифов Второй мировой. М.: Яуза, Эксмо, 2006.

4. Гареев М. А. Маршал Жуков. Военное искусство в годы Великой Отечественной войны. М.: Эксмо, 2010

5. Кожевников М. Н. Командование и штаб ВВС Советской Армии в Великой Отечественной войне 1941-1945 гг. М.: Наука, 1985.

6. Логистика в Великой Отечественной войне. Сборник статей. М.: Воениздат, 2005.

[6] Захаров М. В. Генеральный штаб в предвоенные годы. М.: Воениздат, 1989. – С. 64

7. Мерцалов А. Н., Мерцалова Л. А. Вторая мировая война. Трагический дебют. М.: Российская политическая энциклопедия (РОССПЭН), 2004.
8. Надыров И. Р. Роль железнодорожного транспорта в обеспечении операций Красной Армии в Великой Отечественной войне. М.: Воениздат, 1985.
9. Пересыпкин И. Т. Военные связисты в годы Великой Отечественной. М.: Связь, 1982.
10. Похлебкин В. В. Великая война и несостоявшийся мир. М.: Вече, 2005.
11. Радзиевский А. И. Танковый удар. М.: Воениздат, 1977.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

RADIONUKLIDLARNING INSON ORGANIZMIGA TA'SIRI

Xaqulova Muqaddas Shavkatovna
Andijon davlat universiteti, Genetika va biotexnologiya kafedrasi o'qituvchisi
azizaxonhaqqulova@gmail.com
Abduga`niyev Jasurbek
Abduxalilova Munisaxon
Yunusoova Nozimaxon
Andijon davlat universiteti, Biologiya ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabalari
abduganiyevjasurbek195@gmail.com,abduxalilovamunisa8@gmail.com
nozimayubjonov0410@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada radionuklidlarning inson organizmiga ta'siri o'rganilgan.Radionuklidlarning organizmga kirish yo'llari, ulardan kelib himoyalanish choralari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki,ionlashtiruvchi nurlanish DNK tuzilishiga jiddiy zarar yetkazib, genetik mutatsiyalarga va saraton kasalliklariga sabab bo'lishi mumkin. Radiatsiya xavfidan himoyalanish uchun masofa, vaqt va ekranlash tamoyillariga rioya qilish muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Radionuklidlar, ionlashtiruvchi nurlanish, radiatsiya xavfi, saraton, himoyalanish

Abstract: This article explores the effects of radionuclides on the human body. It examines the pathways through which radionuclides enter the body, the associated diseases, and protective measures against radiation exposure. Research findings indicate that ionizing radiation significantly damages DNA structure, leading to genetic mutations and cancer development. To minimize radiation risks, it is crucial to follow the principles of distance, time, and shielding.

Keywords: Keywords: radionuclides, ionizing radiation, cancer, genetic mutations, protection.

Аннотация: В статье рассматривается воздействие радионуклидов на организм человека. В ней рассматриваются пути проникновения радионуклидов в организм, сопутствующие заболевания и меры защиты от воздействия радиации. Результаты исследований показывают, что ионизирующее излучение существенно повреждает структуру ДНК, что приводит к генетическим мутациям и развитию рака. Чтобы минимизировать риски радиации, крайне важно соблюдать принципы

расстояния, времени и экранирования.

Ключевые слова: Ключевые слова: радионуклиды, ионизирующее излучение, рак,генетические мутации, защита.

Radionuklidlar organizmga ovqatlanish, havo va suv orqali kirib, hujayralardagi oqsillar, lipidlar va DNKga zarar yetkazadi, bu esa hujayra o‘limiga yoki saratonga olib kelishi mumkin. Radiatsiya dozasi va yoshga qarab ta’sir o‘zgaradi; o‘sayotgan organizmdagi hujayralar tezroq nobud bo‘ladi. Shu bilan birgalikda radionuklidlar inson organizmiga turli yo‘llar orqali kirib, biologik tizimlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ular asosan nafas olish, ovqat va suv orqali iste’mol qilish, teri orqali organizmga tushadi. Inhalyatsiya yo‘li bilan tushgan radionuklidlar o‘pka orqali qonga o‘tib, butun tanaga tarqaladi. Ovqat yoki suv tarkibida bo‘lsa, ular ichak orqali so‘rilib, turli organlarda to‘planadi
[1].
Radionuklidlarning organizmdagi taqsimlanishi ularning xususiyatlariga bog‘liq. Yod-131 qalqonsimon bezga to‘planib, uning normal ishlashiga zarar yetkazishi va saraton chaqirishi mumkin
[2]. Stronsiy-90 suyaklarda jamlanib, suyak iligi faoliyatini buzadi va qon kasalliklariga olib keladi.Jigar va buyraklar ham radionuklidlarning to‘planish joylaridan biri bo‘lib, ularning faoliyatiga jiddiy
zarar yetkazadi [3].
Jadval. Inson organizmida ba'zi radioaktiv elementlarning to‘planishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Organizm yadroviy parchalanish mahsulotlarini qabul qilganda, u uzoq davom etadigan,intensivligi pasayadigan, nurlanishga duchor bo‘ladi. Ma’lum bir organga nisbatan, butun inson tanasi tomonidan qabul qilingan umumiy do‘zaning nisbati [4].

Element		Ko‘proq sezgiga ega organ yoki to‘qima.	Organ hamda to‘qima massasi, kg	To‘liq olingan doza ulushi.
Vodorod	H	Hamma a’zolar	70	1.0
Uglerod	C	Hamma a’zolar	70	1.0
Natriy	Na	Hamma a’zolar	70	1.0
Kaliy	K	Myskul to‘qimasi	30	0.45
Stronsiy	Sr	Suyak	7	0.7
Yod	Y	Qalqonsimon bez	0.2	0.2
Seziy	Cs	Muskul to‘qimasi	30	0.45
Bariy	Ba	Suyak	7	0.96
Radiy	Ra	Suyak	7	0.99
Toriy	Th	Suyak	7	0.82
Ue	U	Buyrak	0.3	0.065
Pulutoniy	Pu	Suyak	7	0.75

Ionlashtiruvchi nurlanish somatik, genetik va onkologik kasalliklarni keltirib chiqaradi.Somatik ta’sirlar ichiga nurlanish kasalligi, immunitet pasayishi va ichki organlarning shikastlanishikiradi [5]. Genetik o‘zgarishlar esa
mutatsiyalarga olib kelib, nasldan-naslga o‘tuvchi kasalliklarni chaqirishi mumkin. Uzoq muddatli radiatsiya ta’siri natijasida leykemiya, o‘sma kasalliklari, teri saratoni rivojlanishi kuzatiladi [6].Radiatsiya xavfini kamaytirish uchun masofa, vaqt, ekranlash tamoyillariga rioya qilish lozim.

Nurlanish manbalaridan iloji boricha uzoqroq bo‘lish, radiatsiyaga ta’sir qilish vaqtini qisqartirish va qo‘rg‘oshin, beton kabi himoya materiallaridan foydalanish eng samarali choralar hisoblanadi.

Shuningdek, shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish, oziq-ovqat va suvni radiatsiya manbalaridan saqlash ham muhim sanaladi [7].

Radionuklidlarning inson salomatligiga zararli ta’sirini kamaytirish uchun profilaktika choralari va xavfsizlik me’yorlariga rioya qilish zarur. Radiatsiya xavfi bilan bog‘liq bilimlarni oshirish va oldini olish tadbirlarini kuchaytirish inson salomatligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi
[8].

Xulosa qilib aytganda, Radionuklidlarning inson organizmiga ta’siri ko‘p qirrali bo‘lib,ularning zararini kamaytirish uchun ehtiyot choralariga amal qilish muhimdir.

Radiatsiya xavfini tushunish va undan himoyalanish choralari ko,rish va ular haqida yetarli bilimga ega bo‘lish inson salomatligi uchun zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avezov Yoshuvoq O‘g‘li, Eldona Eldorovna Xusenova. Radionuklidlarning inson organizmiga kirish yo‘llari.//Buxoro Davlat Universiteti, 2022.
2. Qo‘yliyev Humoyun Zokir o‘g‘li, Surayyo Israilovna. Ionlashtiruvchi nurlanishning organizmga ta’siri.//Ta’lim innovatsiyasi va zamonaviy amaliyotlar jurnali, 2023.
3. M. Yunusov, I. Axmedov, S. Gazinazarov. Radiatsiya va saraton: organizmga ta’siri.//ARES jurnali, 2021.
4. Qurbonov A. 3.25 A Ge V/c implusli 16Op -to‘qnashuvlarida ko‘zguli (3H, 3He, 7Li, 7Be) yadrolar va Mezonlar (□+, □−) ning birgalikda hosil bo‘lishi //Физико-технологическо оброзивание. 2020.
5. Qurbanova B.Q. Radiatsiya xavflari va himoya choralarining ilmiy asoslari.// Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti, 2020.
6. V.A. Filatov, E.S. Kuznetsova. Биологические эффекты радиации.//Москва: Наука, 2019.
7. S. Ivanov, A. Petrov. Радиационная безопасность и защита.//Санкт-Петербург, 2022.
8. R. Johnson, K. Brown. Radiation and Human Health. Oxford University Press, 2021.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

ГИДРОГЕЛ АСОСИДАГИ СУВ САҚЛОВЧИ МАТЕРИАЛЛАР ЁРДАМИДА ЛАЛМИ ЕРЛАРДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ҲОСИЛДОРЛИГИНИ ОШИРИШ

ИРРИГАЦИЯ ВА СУВ МУАММОЛАРИ ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ
таянч докторанти:
Аллаярова Махфуза Каюмовна

Анотация: Ушбу мақола лалми ерларда (фақат ёмғир сувлари ҳисобига ўстириладиган ҳудудларда) буғдой ўстиришда сув ресурсларидан самарали фойдаланишни таъминлаш учун гидрогел технологияларини илмий асосда таҳлил қилади. Гидрогелларнинг асосий механизмлари, турлари (табиий, синтетик ва гибрид), қўллаш усуллари (ер билан аралаштириш, уруғларни қоплаш) ва Ўзбекистоннинг қурғоқ ҳудудларидаги тажрибавий натижалари батафсил кўриб чиқилган. Мақолада гидрогеллар ёрдамида сувни сиғдириш ва сақлаш қобилияти (қуруқ вазндан 400-1500 марта кўп), буғланишни 20-30% га камайтириш, буғдойнинг илдиз тизими ривожланиши ва ҳосилдорликни 20-30% га ошириш каби параметрлар таъкидланган. Шунингдек, технологиянинг экологик ва иқтисодий афзалликлари, шу жумладан биодеградацияланувчи гидрогелларнинг ер саломатлигига таъсири ва келажакдаги ривожланиш йўналишлари (ИоТ интеграцияси, нанотехнологиялар) муҳокама қилинган. Тадқиқот натижалари Ўзбекистоннинг қишлоқ хўжалиги шароитида сув танқислигини бартараф этиш ва барқарор ривожланишни таъминлаш учун амалий тавсиялар беради. Қўшимча равишда, мақолада гидрогелларнинг Африка, Лотин Америкаси ва Покистон ҳудудларидаги қўлланиши ҳақида маълумотлар қўшилган, бу ерда сув танқислиги глобал муаммо сифатида кўриб чиқилган, шунингдек, илмий мета-таҳлиллар орқали глобал самарадорлик (ҳосилдорлик 22% га ошиши) таҳлил қилинган.

Калит сўзла: лалми ерлар, гидрогел, буғдой ўстириш, сув ресурслари, самарали фойдаланиш, қурғоқчилик стресси, суперабсорбент полимерлар, биодеградация, ҳосилдорлик ошириш, экологик барқарорлик, анотехнологиялар, қишлоқ хўжалиги инновациялари, сувни сақлаш механизмлари, глобал мисоллар, суперсорбент полимерлар (САП).

Лалми ерларда, яъни фақат ёмғир сувлари ҳисобига ўстириладиган ҳудудларда буғдой ўстиришда сув ресурсларидан самарали фойдаланиш глобал қишлоқ хўжалигининг энг муҳим муаммоларидан биридир, чунки бу ҳудудларда сув танқислиги ва қурғоқчилик стресслари ҳосилдорликнинг пастлигига олиб келади. Дунё бўйича лалми ерлардаги буғдой майдонларининг тахминан 80% дан ортиғи қурғоқчиликдан азият чекади, бу эса глобал буғдой ишлаб чиқаришнинг 20-30% гача камайишига сабаб бўлади, хусусан, Осиё ва Африка қитъаларида. Бу муаммони ҳал қилиш учун ҳидрогелларни қўллаш инновацион технология сифатида кенг тарқалмоқда, улар сувни сиғдириш ва сақлаш қобилиятига эга суперсорбент полимерлар бўлиб, ернинг сув ҳолатини яхшилаш орқали буғдой ўсимликларининг сувдан самарали фойдаланишини оширади. Ҳидрогелларнинг асосий механизмларидан бири уларнинг гидрофиллик гуруҳлари (карбоксил, гидроксил) орқали сувни сиғдиришдир, бу эса уларнинг қуруқ вазнидан 400-1500 марта кўп сувни тутиб қолишига имкон беради, натижада ердаги сувнинг буғланиши 20-30% га камаяди ва ўсимлик илдизлари учун сувнинг узоқ муддатли захираси яратилади. Бу механизм капилляр ҳаракат ва осмотик босим орқали амалга оширилади, ҳидрогеллар сувни сиғдирганда ҳажми 500 мартагача катталашади ва ер қуриганда уни аста-секин чиқаради, бу эса буғдойнинг илдиз тизимининг чуқурроқ ўсишига ва сув стрессларига чидамлилигини оширишга ёрдам беради. Ҳидрогелларнинг турлари полимер манбасига кўра табиий (селлюлоза, хитозан, альгинат, крахмалдан тайёрланган, биодеградацияланувчи ва ўртача сув сиғдириш қобилиятига эга), синтетик (полиакриламид, поливинил спирти, полиэтилен гликолдан ишлаб чиқарилган, юқори чид мллик ва биодеградацияланмайдиган) ва гибрид (табиий ва синтетикнинг комбинацияси, мослаштирилган хусусиятларга эга) га бўлинади. Хрестлашувга кўра физик (қайтариладиган, ҳарорат/pH га жавоб берадиган) ва кимёвий (қайтарилмас, стрессларга барқарор) турлари мавжуд бўлиб, сув билан ўзаро таъсирга кўра эркин сув (осон чиқади), боғланган сув (гидроген боғлари орқали кучли тутилади) ва ўртача сув (қисман сақланади) ни фарқлаш мумкин. Лалми ерларда буғдой учун табиий ва биодеградацияланувчи ҳидрогеллар афзалроқдир, чунки улар ернинг экологик ҳолатини бузмайди ва бир ўсимлик мавсумида парчаланади, масалан, хитозан асосидаги ҳидрогеллар ернинг pH сини мувозанатлаштириб, тузлиликни камайтиради. Синтетик ҳидрогеллар, масалан, полиакриламид (ПАМ), юқори механик кучга эга ва қумли ерларда сувни 35-50% га кўпроқ сақлайди, лекин уларнинг акриламид қолдиқлари токсик бўлиши мумкин, шунинг учун уларнинг деградациясини яхшилаш учун наночастицалар

(кремний, углерод нанотрубкалар, глина) қўшилади. Нано-композит ҳидрогеллар қурғоқ ҳудудларда механик барқарорликни оширади ва сувнинг сиғдириш қобилиятини 50% га юқори қилади, бу эса буғдойнинг илдиз узунлигини ва қуруқ вазнини оширишга олиб келади. Акылли ҳидрогеллар (стимул-жавоб берадиган) ҳарорат, pH, намлик ва ионларга реакция қилиб, сув ва озуқа моддаларини контролий чиқаришни таъминлайди, масалан, pH-ҳассос ҳидрогеллар тузли ерларда буғдойнинг ўсишини яхшилайди. Мултифункционал ҳидрогеллар сув сақлаш билан бирга озуқа (NPK) ва пестицидларни чиқариб, ўғитларнинг ювилишни 40% га камайтиради ва азотдан фойдаланиш самарадорлигини 40% га оширади. Лалми ерларда буғдой учун ҳидрогелларни қўллаш усуллари ер турларига боғлиқ: қумли ерларда 5 кг/га (4 дюйм чуқурликда), гилли ерларда 2.5 кг/га (6-8 дюйм чуқурликда) миқдорида қуруқ ҳолатда ер билан аралаштирилади (1:10 нисбатида), урғочлар ёки ўғитлар билан бирга фурровларга солинади, бу эса урғочларнинг илдиз тизимига яқин жойлаштиришни таъминлайди. Урғочларни қоплашда (seed coating) альгинат асосидаги ҳидрогеллар қўлланилади, бу қуруқ ерларда унуб чиқишни яхшилайди, масалан, Уттаракханднинг Раипур блокида (қумли-гилли ер, HS-507 навли буғдой) 5 кг/га ҳидрогел қўллаш ўсимлик популяциясини, тиллерингни, илдиз узунлигини ва дона ҳосилдорлигини оширган, 10 марта такрорланган тажрибаларда контрольга нисбатан 20-30% юқори натижалар кўрсатилган. Пуса ҳидрогели (ICAR томонидан ишлаб чиқилган) лалми буғдой учун махсус тавсия этилади, масалан, Ҳимолойнинг шимоли-ғарбий ҳудудида 2.5 кг/га миқдорида қўллаш ҳосилдорликни ва ер саломатлигини оширган, ернинг мавжуд сув миқдорини 49% га, сувдан фойдаланиш самарадорлигини қумли ерларда 41% га ва гилли-қумли ерларда 67% га юқори қилган. Уттар Прадешнинг Хатрас, Хардои, Гонда, Лакнау туманларида фермер майдонларида ўтказилган демонстрацияларда 5 кг/га ҳидрогел билан уч марта суғориш беш марта суғоришсиз ҳидрогелга тенг ҳосил (4.30-4.70 т/га) берган, LSD 5% да 0.22-0.39 фарқи билан статистик аҳамиятли бўлмаган, лекин сувдан фойдаланиш самарадорлиги 12.1-15.6 кг дона/га/мм га етган, контрольдаги 11.7 кг/га/мм дан юқори. Буғдой ўсиш босқичларида (масалан, илдиз ўсиши, тиллеринг, гуллаш) сувни кечиктириб беришда ҳидрогел ўсимлик сув талабини камайтиради ва ҳосил компонентларини (эффектив тиллерлар, panicle даги доналар) яхшилайди. Қурғоқчилик стрессларида ҳидрогеллар ўсимликнинг фотосинтетик самарадорлигини сақлайди, чунки улар ер намлигини 15-25% юқори даражада ушлаб туради, бу эса стомаларнинг ёпилишини ва оксидатив стрессни

камайтиради, натижада хлорофилл миқдори 17% га ошади. Масалан, дефицит суғориш шароитида 0.3% ҳидрогел қўллаш буғдой ҳосилдорлигини 11-55% га оширган, сув эвапорациясини ва ювилишни камайтирган, ер биологик фаоллигини ва кисород мавжудлигини оширган. Ҳидрогелларнинг озуқа билан комбинацияси (масалан, 65% гов мол гўнги + 35% ҳидрогел) ҳосилдорликни 16.2% га оширади, чунки улар ўғитларнинг ювилишни камайтиради ва илдизларга яқин жойлаштирилади. Лалми ерларда бу технологиянинг самарадорлиги қурғоқ ҳудудларда юқори бўлиб, масалан, қумли-гилли ерларда ҳидрогел қўллаш ирригация талабини 30-40% га камайтиради ва ҳосилдорликни 20-30% га оширади, бу эса фермерлар учун иқтисодий фойда беради. Бироқ, ҳидрогелларнинг қўлланилишида баъзи муаммолар мавжуд: синтетик турларнинг микропластиклар ҳосил қилиши ва акриламиднинг токсиклиги, шунинг учун биодеградацияланувчи вариантлар (агро-чиқиндилардан тайёрланган) тавсия этилади, улар бир мавсумда парчаланади ва ер саламатлиги индексини (масалан, соя-буғдой тизимларида 0.77-0.93) яхшилайди. Ҳидрогелларнинг ишлаб чиқариш нархи юқори бўлиши мумкин (биодеградацияланувчи турлар учун), лекин бозор ўсиши (2023 йилда 29.18 млрд доллардан 2030 йилга 47.47 млрд долларга, 7.2% CAGR) уларнинг қабул қилинишини кўрсатади. Лалми ерларда буғдой учун ҳидрогелларни қўллашнинг илмий асосланган технологиялари сув ресурсларидан самарали фойдаланишнинг янги даврини очиб, қишлоқ хўжалигининг барқарор ривожланишига ҳисса қўшади, хусусан, IoT интеграцияси орқали реал вақтда ер намлигини мониторинг қилиш ва прецизион қишлоқ хўжалигини амалга ошириш орқали. Умуман олганда, тажрибалар шуни кўрсатадики, ҳидрогеллар лалми буғдой ўстиришда сув танқислигининг таъсирини камайтириб, ҳосилдорликни ошириш ва экологик барқарорликни таъминлаш учун самарали инструментдир, келажак тадқиқотлари эса уларнинг деградацияси ва токсиклигини янада камайтиришга қаратилган бўлиши керак. Қўшимча равишда, ҳидрогелларнинг физико-кимёвий хусусиятларини чуқурроқ ўрганиш керак, чунки уларнинг полимер занжирларининг ўзаро боғланиш даражаси (cross-linking density) сув сиғдириш қобилиятини белгилайди, масалан, юқори боғланиш даражаси ҳидрогелнинг механик кучлилигини оширади, лекин сиғдириш қобилиятини 20-30% га камайтириши мумкин, бу эса лалми ерлардаги узоқ муддатли қурғоқчилик шароитида оптимал ҳолатни таъминлаш учун мувозанатни топишни талаб этади. Табиий ҳидрогелларнинг мисолларидан бири крахмал асосидаги полимерлар бўлиб, уларнинг биодеградацияси 6-12 ой давом

этади ва ер микроорганизмлари томонидан парчаланади, бу эса углерод изини камайтириб, ернинг органик моддасини оширади, масалан, Индиянинг Ҳимолой ҳудудларидаги тажрибаларда крахмал-ҳидрогеллар буғдойнинг илдиз тизимининг биомассасини 15% га оширган (Sharma et al., 2024). Синтетик ҳидрогелларнинг камчиликларини бартараф этиш учун гибрид турлар ишлаб чиқилмоқда, масалан, хитозан-полиакриламид комбинацияси, бу эса сув сиғдиришни 800 мартагача ошириб, токсикликни 50% га камайтиради, шунингдек, антимикроб хусусиятлари орқали ўсимлик касалликларининг олдини олади. Ҳидрогелларнинг ер структурасига таъсири ҳам муҳим: улар ернинг порозлигини ошириб, аэрацияни яхшилайди, бу эса илдизларнинг кисород билан таъминланишини 10-20% га юқори қилади ва анаэроб шароитларнинг олдини олади, хусусан, гилли ерларда. Қўллаш усулларини янада батафсил ўрганиб чиқсак, ер билан аралаштиришдан ташқари, гидросидинг (гидросеялка) усули қўлланилади, бу эса ҳидрогелларни сувли эритма ҳолида урғочлар билан бирга сепишни ўз ичига олади, натижада унуб чиқиш даражаси 90% га етади, масалан, Қозоғистоннинг қурғоқ ҳудудларидаги тажрибаларда бу усул буғдой ҳосилдорлигини 25% га оширган. Яна бир усул – фолиар қўллаш, лекин бу камроқ самарали, чунки ҳидрогелларнинг асосий функцияси ерда сув сақлашдир, аммо баъзи ҳолларда ўсимлик баргларига сепиш орқали транспирацияни 15% га камайтириш мумкин. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, ҳидрогелларнинг дозасини оптималлаштириш ер турларига боғлиқ: қумли ерларда юқори доза (7-10 кг/га) талаб этилади, чунки сувнинг сақланиши паст, гилли ерларда эса паст доза (1-3 кг/га) етарли, бу эса иқтисодий самарадорликни оширади. Масалан, Ироқнинг қурғоқ ҳудудларида ўтказилган тажрибаларда 4 кг/га полиакриламид ҳидрогели буғдойнинг сув стрессларидаги ўлим даражасини 40% га камайтирган, илдизларнинг чуқурлигини 30 см га оширган. Ҳидрогелларнинг ўсимлик физиологиясига таъсирини чуқурроқ ўрганиб чиқсак, улар ABA (абсцизин кислотаси) ҳормони даражасини ошириб, стомаларнинг ёпилишини таъминлайди, бу эса сув йўқотишини 25% га камайтиради ва осмотик мувозанатни сақлайди. Шунингдек, ҳидрогеллар ердаги микробиомани яхшилайди, чунки улар органик моддаларни чиқариб, бактериялар (Rhizobium, Pseudomonas) фаоллигини оширади, бу эса азот фиксациясини 20% га юқори қилади. Экологик жиҳатдан, биодеградацияланувчи ҳидрогеллар углерод диоксиди эмиссиясини камайтириб, барқарор қишлоқ хўжалигига ҳисса қўшади, масалан, Европа Иттифоқининг тадқиқотларида уларнинг қўлланиши сув ресурсларини 30% га тежашга олиб келган.

Камчиликлардан бири – ҳидрогелларнинг юқори нархи, лекин узоқ муддатли фойда (ҳосилдорлик ошиши орқали) уни қоплайди, масалан, Ҳиндистондаги иқтисодий таҳлилларда 1 кг ҳидрогел учун сарфланган харжат 2-3 йил ичида сўзини оқлайди. Келажакда ҳидрогелларнинг нанотехнологиялар билан интеграцияси, масалан, магнитли наночастицалар қўшиш орқали сув чиқаришни магнит майдон билан бошқариш мумкин бўлади, бу эса прецизион қўллашни таъминлайди. Шунингдек, генетик муҳандислик орқали буғдой навларини ҳидрогелларга мослаштириш, илдиз тизимининг сиғдириш қобилиятини оширишга ёрдам беради. Умуман, лалми ерларда ҳидрогелларни қўллаш сув танқислигининг глобал муаммосини ҳал қилишда муҳим рол ўйнайди, хусусан, иқлим ўзгариши шароитида, чунки улар ўсимликларнинг адаптациясини ошириб, озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлайди. Яна бир муҳим жиҳат – ҳидрогелларнинг ер эрозиясининг олдини олишдаги роли, чунки улар ернинг структурасини мустаҳкамлаб, сув оқимини камайтиради, масалан, Африка Сахара ҳудудларидаги тажрибаларда эрозия даражаси 35% га пастлаган. Тадқиқотларнинг мета-таҳлили шуни кўрсатадики, 50 дан ортиқ илмий ишларда ҳидрогеллар буғдой ҳосилдорлигини ўртача 22% га оширган, сувдан фойдаланиш самарадорлигини эса 28% га юқори қилган (Mignon et al., 2024). Бу технологиянинг глобал миқёсда қўлланиши учун ҳукумат субсидиялари ва таълим дастурлари зарур, ҳоким ҳолда фермерларнинг билим даражаси самарадорликни белгилайди. Хулоса қилиб айтганда, ҳидрогеллар лалми буғдой ўстиришда сув ресурсларидан самарали фойдаланишнинг илмий асосланган ва барқарор ҳалли сифатида ўзини кўрсатмоқда, келажакда уларнинг ривожланиши қишлоқ хўжалигининг янги парадигмасини шакллантиради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Қўзиев К., Шоназаров О. Гидрогел ва унинг қишлоқ хўжалигидаги аҳамияти // Институт макроекономических и регионалъних исследований (ИМРС). 2020. УРЛ: https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts/gidrogel.
2. Азизов Б.М. ва бошқ. Ўзбекистонда лалми ерларда буғдой ва арпанинг сомони ва сув ресурсларидан самарали фойдаланиш // Ўзбекистон аграр фани хабарномаси. 2009. УРЛ: https://staff.tiiame.uz/storage/users/614/articles/gJ2Dbjy2IJpfdfZTTPcPxuDacEhcothHDjCcSKNR.pdf.
3. Джуманиязова Ю. ва бошқ. Қишлоқ хўжалигида сув ресурсларидан самарали фойдаланиш ва инновацион технологиялар // Ўзбекистон аграр фани хабарномаси. 2009. УРЛ:

https://staff.tiiame.uz/storage/users/614/articles/gJ2Dbjy2IJpfdfZTTPcPxuDacEhcothHDjCcSKNR.pdf.

4. Сув ресурсларидан фойдаланиш ва муҳофаза қилишнинг ҳуқуқий асослари (Ўзбекистон мисолида) // Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш институти (ТИИАМЕ). 2021. УРЛ: https://staff.tiiame.uz/storage/users/538/books/0RJrQ3vRD3kUqmZxQjhYHPBLke8N991r3vYc3dNV.pdf.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

Yakka tartibdagi mehnat munosabatlarida nimalar o`zgarmoqda?

Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti 1-bosqich talabasi
Musayeva Farangiz

Annotatsiya: Ushbu maqola yakka tartibdagi mehnat munosabatlarida yuz berayotgan zamonaviy o'zgarishlar va bu yondashuvlarning jamiyatning huquqiy, ijtimoy va iqtisosiy sohalariga ta`sirini tahlil qilib chiqadi. Masofaviy mehnatning takomillashuvi, mehnat shartnomalarining raqamlashtirilishi va xodimning asosiy huquqlari mustahkamlanishi mavzulari chuqur yoritilib o`tiladi. O`zbekiston mehnat bozorida ham moslashuvchan ish vaqtlari, onlayn ish o`rinlari va adolatli mehnat sharoitlarini ta`minlsh uchun amaliy tavsiyalar taklif etiladi.

Kalit so`zlar: mehnat shartnomasi, yangi tahrirda qabul qilingan Mehnat kodeksi, gig iqtisodiyoti, mehnat bozori, frilanserlik, masofaviy mehnat, raqamlashtirish, bandlik.

So`nggi yillarda ayrim iqtisodiyot tarmoqlarida misli ko`rilmagan o`zgarishlar yuz berayotganligi tufayli, dunyo mehnat bozori mutlaqo yangi ko`rinish kasb etmoqda. Avtomatlashtirilgan tizimlarning kirib kelishi, mehnat shakllarining kundan-kunga ortib borishi, shuningdek, iqtisodiy islohotlarga bo`lgan e`tiborning kuchayishi bu jarayonning ommalashuvi bilan chambarchas bog`liq.Bundan tashqari, klassik ,,xodim-ish beruvchi''modeli bugungi kun standartlariga mos bo`lmay qolganligi tufayli, an`anaviy usullarni qayta ko`rib chiqish talab etilmoqda. Bu jarayon nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlar tizimida, balki O`zbekistonning mehnat bozorida ham oldin mavjud bo`lgan amaliy yechimlarni yangilashga bo`lgan ehtiyojni ko`rsatmoqda. Xususan, yakka tartibdagi mehnat munosabatlarining kengayishi bandlik siyosatining ustuvor yo`nalishlarini tubdan o`zgartirib yubordi.Yangi tahrirda qabul qilingan Mehnat kodeksi, mamlakatimizdagi mehnat munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solish, xodim va ish beruvchilarning huquqlarini yanada shaffof va tushunarli tilda izohlab berish borasida yangi imkoniyatlarni kashf etdi. O`zini-o`zi band qilgan fuqarolarning, frilanserlik orqali daromad qilayotganlarning va gig-ishchilarning soni rekord darajada oshib borayotgani bu masalani eng dolzarb mavzulardan biriga aylantirdi. Shu sababli, qonunlarni yangilash va raqamli servislar sifatini rivojlantirish davlatning milliy daromadiga ulkan hissa qo`shish ehtimolini yanada oshiradi.

Yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlar- bu mehnat shartnomasi asosida yuzaga keladigan va uning doirasida tartibga solinadigan xodim va ish beruvchi o`rtasidagi bevosita huquqiy munosabatlardir. Mehnat kodeksining 19-moddasiga ko`ra xodim va ish beruvchi bu munosabatlarning subyektlari sifatida tan olinadi. Shuningdek, bu munosabatlar subyektlar o`rtasidagi huquq va majburiyatlarni, mehnat intizomiga rioya qilish qoidalarini aniq belgilab beradi. Jamoaviy mehnat munosabatlaridan, yakka tartibdagi mehnat munosabatlari har bir xodimning manfaatlari va mehnat sharoitlari bilan alohida tartibda belgilab berishi bilan ajralib turadi. Bugungi kundagi mehnat bozorining moderinizatsiyalashuvi quyidagi to`rt asosiy o`zgarishga sabab bo`ldi.

1. Mehnat munosabatlarining to`liq raqamlashtirilishi.

Zamonaviy texnologiyalar barcha tarmoqlarda ustunlikni qo`lga kiritgani kabi, bu sohada ham eng asosiy o`zgarishlardan biriga sabab bo`ldi. Elektron mehnat daftarchalari, onlayn shartnoma ro`yxatlari va raqamli monitoring tizimlarining joriy etilishi sohada yangi bosqichni boshlab berdi. O`zbekiston Respublikasi Kambag`allikni qisqartirish va bandlik vazirligining ma`lumotlariga ko`ra, 2024-yilda mehnat shartnomalarining 70% dan ortig`i elektron tizim orqali tuzilgan. Bu o`zgarish noqonuniy bandlik va byurokratiyaning kamayishi, ishchi va ish beruvchining o`zaro javobgarligining oshishi kabi bir qator samarali natijalarga olib keldi. E-mehnat platformasining joriy etilishi - ish beruvchilar va xodimlar o`rtasidagi barcha huquqiy jarayonlarning raqamli tarzda yuritilishini ta`minlaydi. Bundan tashqari, my.mehnat.uz, ish.mehnat.uz kabi saytlar orqali xodimlar o`z mehnat faoliyati bo`yicha barcha ma`lumotlarni mustaqil tekshirish imkoniyatini qo`lga kiritadi. Yagona milliy mehnat tizimi (YaMMT) ning joriy etilishi esa ishga qabul qilish, shartnomalarni qayd etish va bandlik ma’lumotlarini yuritishni markazlashtirdi.Chet el tajribasini kuzatadigan bo`lsak, Estoniya va Janubiy Koreya kabi davlatlar mehnat munosabatlarini to`liq elektron tarzda ro`yxatga olinishini ta`minlab, shaffof va doimiy nazorat qilinadigan tizim yarata oldi.

2. Ijtimoiy kafolatlar, ta’til va xodim huquqlarining kengayishi.

Yangi Mehnat kodeksi qabul qilinishi bilan xodim huquqlari — mehnat erkinligi, kamsitish ta`qiqi, mehnat va ta’limda diskriminatsiyaga yo‘l qo‘yilmasligi, majburiy

mehnat ta`qiqi, mehnat sharoitlari va ijtimoiy sheriklik kafolatlandi. Xodimlarning dam olish huquqini yaxshilash maqsadida ta’til muddati ham uzaytirildi: yillik mehnat ta’tili minimal muddat 21 kalendar kun etib belgilandi. 2023-yilgacha bu muddat 15 ish kunidan iborat edi. Bu o`zgarishlar xodimlarning sog`lom va samarali ishlashiga sharoit yaratdi. Shuni qo`shimcha qilib o`tishim joizki, yangi tahrirdagi kodeksda mehnat majburiyatlari hamda huquqlari orasidagi muvozanat, xodim huquqlarini kafolatlash, ularning huquqiy holatini yomonlashtirilishining oldini olish kabi mustahkam prinsiplar joriy etildi. Bu o‘zgarishlar yordamida yakka tartibdagi munosabatlarda ishlayotganlar ham, sobit ish joyli xodimlar kabi, mehnat huquqlari, ta’til, adolatli mehnat sharoitlari, diskriminatsiyadan himoya kabi kafolatlarga ega bo‘la boshladi. Ya’ni, “tadbirkor – xodim” munosabatlarida huquqiy adolat va himoya darajasi oshdi. Bu nafaqat qonunchilikdagi o`zgarish, balki butun jamiyatda inson qadrini, uning mehnatini e`zozlashga qaratilgan yangicha yondashuvning ifodasidir.

3. Mehnat shartnomalari moslashuvchanligining oshishi

Avvallari, ayniqsa kichik biznes subyektlarida ishlar ko'pincha og`zaki kelishuv yoki rasmiyatsiz "kontrakt"lar asosida yuritilar edi. Bu esa xodimning himoyasizligiga sabab bo`lishni boshladi. Endilikda, yakka tartibdagi munosabatlar ham qonun doirasida rasmiylashtirilishi shart. Ya`ni, yakka tartibdagi tadbirkorlar va mikrofirmalar kabi ish beruvchilar bilan yollanma xodim o‘rtasida tuziladigan mehnat shartnomasi yozma shaklda tuzilishi shart. Shartnoma kamida 2 nusxada tuziladi va yana bir nusxa davlat soliq organida saqlanishi talab qilinadi. Yozma shartnomaning 3-nusxasi soliq organida saqlanishi endi nafaqat ish beruvchini qonuniylikka majburlaydi, balki xodimning haqiqiy ishchi ekanligini rasman tasdiqlab, uning ijtimoiy himoyasini (pensiya, sug'urta) mustahkamlaydi. Mehnat qonunchiligining eng muhim yondashuvlaridan biri shundaki, yakka tartibdagi munosabatlar fuqarolik-huquqiy shartnomalar (masalan, pudrat shartnomasi) orqali emas, balki haqiqiy mehnat shartnomasi orqali rasmiylashtirishga qaratilgan kuchdir. Endi xodimlarning huquqlari qonun doirasida himoyalanadi va norasmiy, shunchaki "kontrakt" asosidagi ish holatlari kamayib mehnat munosabatlarida shaffoflik ta'minlanadi.

Olib borilayotgan islohotlarga qaramay, mehnat bozorining bazi jabhalarida huquqiy va ijtimoiy nuqsonlar mamlakat iqtisodiyotiga ta`sir ko`rsatishda davom etmoqda. Bu kamchiliklarni bartaraf qilish ulkan resurslarni talab qilsada, amaliy takliflarni ishlab chiqiqsh foydadan yiroq bo`lmagan bo`lardi.

1-taklif. “Mikrobandlik markazlari”ni joriy etish

Bugungi kunda O‘zbekistonda frilanserlar, o‘zini o‘zi band qiluvchilar, gig-platformalar orqali ishlovchilar sonining keskin oshishi kuzatilmoqda. UNDP va mahalliy statistika ma’lumotlariga ko‘ra, norasmiy bandlik darajasi hali ham yuqori bo‘lib, frilanserlar va vaqtinchalik ishlovchilarning katta qismi rasmiy mehnat shartnomasiga ega emas. Buning asosiy sababi — rasmiylashtirish jarayoni murakkabligi, ma’lumotlarning turli platformalarda tarqoq holda saqlanishi va ish beruvchi uchun qo‘shimcha byurokratik yuklamadir. Shu bois “Mikrobandlik markazlari” ni tashkil etish O‘zbekiston uchun eng maqbul yechimlardan biridir. Ushbu markazlar yollanma xodimni vaqtincha band etuvchi mikrofirmalar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun shartnoma tayyorlash, soliq hisobini yuritish va ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha yagona xizmat oynasini yaratish, qisqa muddatli mehnat shartnomalarini avtomatik yaratish funksiyalarini bajaradi.Estoniya, Finlyandiya va Janubiy Koreya amaliyotida aynan shunday “yagona raqamli bandlik markazlari” qisqa muddatli mehnatni rasmiylashtirish jarayonini yengillashtirib, norasmiy iqtisodiyot ulushini 15–20 foizga qisqartirishga yordam bergan. O‘zbekiston uchun bu tizimni mahallalardagi “Ijtimoiy xizmat markazlari” negizida bosqichma-bosqich joriy etish mumkin.

2-taklif. Masofaviy mehnat va gig-ishlovchilar uchun maxsus qonun yaratish yoki Mehnat kodeksiga qo`shimcha va o`zgartirishlar kiritish.

Mehnat kodeksi umumiy mehnat tartibini belgilab beradi, biroq raqamli platformalar, masofaviy frilanserlik va gig-ishchilar uchun maxsus tartiblar yetarlicha batafsil ishlab chiqilmagan. Natijada, ushbu toifa xodimlar ko‘pincha mehnat nizolarini hal qilishda himoyasiz qolmoqda, masofadan ishlashda mehnat va dam olish vaqtining chegaralanishi, haq to‘lash standartlari yoki digital nazorat qoidalari bo‘yicha bo‘shliqlar mavjud. Agar yangi qonun qabul qilinsa, bu sohadagi huquqiy muammolarning barchasi tartibga solinib, jamiyat uchun mehnat huquqiga oid zamonaviy tushunchalarni o`rganishga makon yaratgan bo`ladi. Bu hujjat Yevropa Ittifoqining gig-ishchilarni himoya qiluvchi yangi direktivalari, Kanada va Avstraliya tajribalari bilan uyg‘un bo‘lib, O‘zbekiston uchun moslashgan, milliy mehnat mentalitetiga moslashtirilgan yondashuv hisoblanadi. Amalda bu hujjat xodimning ham, ish beruvchining ham manfaatlarini himoya qiladi: bir tomondan mehnat

xavfsizligi va kafolatlari oshadi, ikkinchi tomondan, platformalar va tadbirkorlar uchun aniq qoidalar yaratiladi, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda yakka tartibdagi mehnat munosabatlari so‘nggi yillarda tubdan yangilanib, mehnat bozorining real ehtiyojlariga moslashmoqda. Raqamlashtirilgan shartnomalar, kengaytirilgan kafolatlar, mas’uliyatning aniq belgilanishi va moslashuvchan mehnat shakllarining qonuniy asosda tartibga solinishi – bularning barchasi xodim manfaatlarini himoya qilish bilan birga ish beruvchilar uchun ham barqaror va oldindan bashorat qilinadigan me’yoriy muhit yaratmoqda. Shu bilan birga, frilanserlar, gig-ishchilar va masofaviy bandlikning oshib borishi mehnat huquqida yangi yondashuvlarni talab qilayotgani yaqqol sezilmoqda. Xulosa qilib aytganda, ilgari surilgan takliflar — “Mikrobandlik markazlari”ni yo‘lga qo‘yish hamda masofaviy va platformaviy mehnatni alohida tartibda huquqiylashtirish — mehnat tizimidagi mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirib, norasmiy bandlikni qisqartirish, xodim xavfsizligi va huquqiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Umuman olganda, olib borilayotgan islohotlar yakka tartibdagi mehnat munosabatlarini zamonaviy mehnat standartlariga moslashtirib, mamlakat mehnat bozorining ochiqligi, adolatliligi va raqobatbardoshligini oshirishga muhim zamin yaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO)ning O‘zbekiston mehnat bozori bo‘yicha sharhi. https://www.ilo.org/

2. Kambag`allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to`g`risidagi qaror. https://lex.uz/ru/docs/-7131782

3. https://new.hudud24.uz/news/iakka-tartibdagi-mekhnatga-oid-munosabatlar-kandai-asoslarga-kura-iuzaga-keladi

4. O`zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi. https://lex.uz/ru/docs/-6257288

5. https://toshkent-vil.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=72644

6. UNDP hisobotlari — O‘zbekistonda norasmiy iqtisod va o‘zini-o‘zi band qilish tahlillari (2025). https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2025-10/report_informal_economy_uzb.pdf?utm

7. The Guardian — UK va AQShda gig-iqtisodiyotni tartibga solish yangiliklari. https://www.ilo.org/sites/default/files/2025-06/ILO%20-%20Mini%20Guide_%28Digital%29_13jun.pdf

8. **Mehnat Huquqi. Darslik. B.T. Musayev, K.R. Aliyeva, B.A.Narimanov.** https://srsl.uz/adminpanel/files/global/kitoblar/%E2%84%9610.%20Mehnat%20huquqi.pdf?utm

9. O`zbekiston Respublikasida Mehnat kodeksining o`ziga xos xususiyatlari. J.O`.Xolbayev. **https://www.researchgate.net/publication/372288345**

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

ZIGMUND FREYDNING FALSAFASIDA ONG MASALASI

Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrasi o'qituvchisi
Xolova Umida Umedovna
Buxoro Davlat Universiteti 5-1-fals 23 – guruh talabasi
Jumaeva Mehribon

Annotasiya. Ushbu maqolada Zigmund Freydning falsafasida ong tushunchasi, uning mohiyati, psixologik taxlil natijalari, inson ruhiyati modeli va ongsizlik tushunchasininng mazmuni haqida ma'lumotlar yoritilgan bo'lib, kelgusida ushbu ong tushunchasini ilmiy asoslash muhim deb topildi.
Kalit so'zlar: *Ong masalasi, psixoanaliz, ong osti, ruhiyat, id, ego, super ego, men tushunchasi, insoniyat, instinkt.*

Kirish. Zigmund Freyd (Froyd deb ham yuritiladi; nem. Sigmund Freud, 1856 yil 6 may, Frayberg, Avstriya imperiyasi — 1939 yil 23 sentyabr', London) — avstriyalik psixoanalitik, psixiatr va nevrolog. U Moraviyadagi kichik Frayberg shahrida (o'sha davrda Avstriyaning provinsiyasi) tavallud topgan. 1873 yilda Vena universitetining tibbiyot fakul'tetiga o'qishga qabul qilingan. Ta'lim va ilmiy faoliyati davomida Vena shahridagi terapevtik hamda psixiatriya klinikalarida, shuningdek Parijda Sharko, Nansida Bernxaym qo'l ostida ishlagan. 1881 yilda tibbiyot fanlari doktori darajasini olgan. Yozef Breyer bilan hamkorlikda nevrozlarni davolashning katartik usulini ishlab chiqqan. 1895 yilda ularning «Isteriyalarni tadqiq etish» nomli mashhur asari nashr etilgan bo'lib, aynan shu asardan psixoanaliz tarixi boshlanadi. 1902 yildan e'tiboran Vena universiteti professori sifatida faoliyat yuritgan.

Freyd qirq yildan ortiq umrini psixoanaliz nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishga bag'ishlagan. Uning eng muhim asarlari quyidagilar: «Tush ta'biri» (1899), «Kundalik hayot psixopatologiyasi» (1901), «Totem va tabu» (1913), «Psixoanalizga kirish ma'ruzalari» (1917), «Ommaviy psixologiya va inson „Men"ining tahlili» (1921), «„Men" va „U"» (1923), «Bir xayolning kelajagi» (1927), «Madaniyatdagi norozilik» (1930) va boshqalar. 1930 yilda u Gyote mukofoti bilan taqdirlangan, 1936 yilda esa Londonning Qirollik ilmiy jamiyatining xorijiy a'zosi etib saylangan. Freyd ham olim, ham bashoratchi, ham yangi ilmiy yo'nalish negizini yaratgan muhim shaxs sifatida e'tirof etiladi. Inson ongidagi ongsizlik (bessoznatel'noe) tushunchasi aynan uning nomi bilan chambarchas bog'liq. Uning nazariyasi zamonaviy fanning ko'plab sohalarini boyitdi va yangi ilmiy qarashlar uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Zigmunt Freydning bir nechta mashhur kitoblariga "Psixoanalizga kirish"[1], "O'zini tahlil qilish kitobi[2]" va "Tushlarning talqini"[3] kiradi. Uning asarlari odam ruhiyatining chuqur tushunchalarini va inson xulq-atvorining psixoanalitik nazariyalarini o'rganadi. "Psixoanalizga kirish": Freydning g'oyalari bilan tanishish uchun yaxshi boshlang'ich kitobdir. "O'zini tahlil qilish kitobi": Bu kitobda shaxsiy tahlil jarayonining usullari va tamoyillari tushuntiriladi. "Tushlarning talqini": Ushbu klassik asar tushlar psixoanalizidagi muhim roli va ularni talqin qilish usullarini tahlil qiladi. Freydning boshqa ko'plab asarlari ham mavjud bo'lib, ular odam ruhiyatining turli jihatlarini, jumladan, ongsiz holat, hissiyotlar, jinsiy rivojlanish va ijtimoiy xulq-atvor kabi mavzularni yoritib beradi[4].

Zigmund Freyd yoshligidanoq dunyoni o‘zgartirish, aql va ma'rifatning zafar qozonishi, shuhrat qo‘rsisiga ko‘tarilishni orzu qilgan. Darhaqiqat, o‘tgan asrning ijodkorlari, ilm-fan arboblari va oddiy kishilari ham zamonaviy ta'sir ostida Freydning insoniy intilishlar va xatti-harakatlarga oid qarashlariga qizg‘in qiziqish bilan yondashdilar; uning izidan borib tushlarni tahlil qildilar, gipnoz usullarini o‘rgandilar, nevroz va qo‘rquvlarning mohiyatini anglashga intildilar — bu hayotda bo‘lsin, yoki san'atda. XX asr psixologiyasi, tibbiyoti, sosiologiyasi, antropologiyasi va adabiyoti Freydizm g‘oyalari bilan chuqur singdirildi. Biror boshqa olim jamiyatga bunchalik kuchli ta'sir o‘tkaza olmagan. Freyd psixoanaliz nazariyasi va edip kompleksi g‘oyasining asoschisi sifatida ongsizlik tabiati, jinsiy instinktning ruhiyatga ta'siri, «Men» va «U» o‘rtasidagi muvozanat haqida yangi va kutilmagan talqinlarni ilgari surdi. Shuningdek, u ommaviy guruhlar individni qanday o‘zgartishi, individ esa o‘z navbatida to‘ppa ruhiyatiga qanday ta'sir ko‘rsatishini ko‘rsata oldi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Zigmund Freyd ta’limotining tarafdorlari ham, tanqidchilari ham ko‘p bo‘lgan. Uning eng yaqin safdoshlari va shogirdlari bo‘lmish Alfred Adler va Karl Gustav Yung uning ta’limotini avvaliga qo‘llab-quvvatlashdi, keyinchalik undan qisman voz kechishdi. Ular o‘zlarining ta’limotini yaratishdi: A. Adler individual psixologiya, K.G. Yung esa analitik psixologiya ta’limotini. Bu olimlar Z. Freydni tanqid qilishsa-da, aslida ular tanlagan yo‘nalish psixoanalizning davomi edi.

A. Adler fanga «yetishmovchilik hissi» degan tushunchani kiritdi. Uning fikricha, bu tuyg‘u tabiiy va tug‘ma bo‘lib, har birimiz uchun xos va shaxs rivojlanishida katta

[1]Z.Freyd. Psixoanalizning asosiy tushunchalari, – Toshkent, 2007. – 88–104-betlar.
[2]Z.Freyd. O'zini tahlil qilish kitobi, (1921)
[3] Z.Freyd. Tushlar va ongsizlik nazariyasiga oid fikrlar, – Moskva: AST, 2004. – 45–62-betlar.
[4] ©Z. Ibodullayev. Tibbiyot psixologiyasi. Darslik., 3-nashr., T.; 2019., 494b.

ahamiyatga ega. A.Adler fikriga ko‘ra, har bir inson umri mobaynida o‘zidagi ushbu etishmovchilikdan qutulish uchun boshqalar ustidan hukmronlik qilishga, ularning faolligini bostirishga intilib yashaydi. Buning uchun u o‘zidagi barcha imkoniyatlarni ishga soladi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishga intiladi[5]. A. Adler bu jarayonni kompensatsiya yoki superkompensatsiya deb atadi. Superkompensatsiya – bu yetishmovchilik hissiga bo‘lgan tug‘ma reaktsiyalarning ijtimoiy bir ko‘rinishidir. Adlerning fikricha, ana shu tug‘ma instinktlar odamni atrofdagilarga tajovuzkor qilib qo‘yadi. Demak, odamda nevroz rivojlanishining oldini olish uchun undagi etishmovchilik hissini bartaraf etish zarur. Vaholanki, A.Adler ham o‘z ta’limotida inson ruhiyati rivojlanishida instinktiv reaktsiyalarga urg‘u bergan.

K.G. Yung ta’limoti biroz boshqacha edi. U «jamoa ongsizligi» degan tushunchani taklif etdi. Yung individual ongsizlik va jamoa ongsizligi orasida aniq bir chegara chizig‘ini o‘tkazdi. Uning fikricha, jamoa ongsizligi individual ongsizlikdan farqli o‘laroq, avloddan avlodga uzatiladi va «Men» jamoa ongsizligi ta’siri ostida rivojlanadi[6]. Yungning fikricha, individual ongsizlik odamning shaxsiy tajribasida aks etadi. Bu tajribalar, albatta, qachonlardir ongda aks etgan, lekin ongdan siqib chiqarilishi natijasida unut bo‘lib ketgan. Jamoa ongsizligi — bu umuminsoniy tajribalar bo‘lib, har bir millat va elatlar uchun xos, u o‘tmishimizning yashiringan xotira izlaridir. U mifologiyada, xalq dostonlarida, diniy qarashlarda aks etgan bo‘lib, hozirgi zamon kishilarining ongida tush ko‘rish orqali namoyon bo‘lib turadi.

Erix Fromm shaxs rivojlanishida tug‘ma omillar ahamiyatini, har bir odamdagi ruhiy kechinmalarni ijtimoiy muhitga sho‘ng‘ib ketganlik, deb bildi[7]. Demak, instinktlar shaxsni shakllantirmas ekan, balki shaxsning o‘zi ularni belgilab beradi.

Karen Xorni ta’limotida ham ijtimoiy omillar ahamiyati yuqori ekanligini ko‘rish mumkin. Jamiyatga nisbatan munosabatiga qarab 3 toifa odam shakllanishini ko‘rsatib o‘tdi: 1) odamlarga intiluvchilar, ya’ni mehribonlik izlovchilar; 2) odamlardan yiroqlashuvchilar, ya’ni yolg‘izlikka intiluvchilar; 3) odamlarga qarshi turuvchilar, ya’ni hukmronlikka intiluvchilar. Ushbu xususiyatlarning qay biri ustun kelishiga qarab 3 xil nevrotik shaxs shakllanadi: 1) itoatkor, qanday bo‘lmasin, boshqalarning muhabbati va e’tiborini qozonishni istovchi; 2) jamiyatni yoqtirmay undan yiroqlashishga intiluvchi; 3) davlatparast va odamlar ustidan hukmronlikka intiluvchi. K. Xorni fikricha, bu reaktsiyalarning barchasi insonni qoniqtirmaydi, xavotir hech qachon yo‘qolmaydi, aksincha, borgan sari kuchayib, yangi va yangi

[5] Adler A. Individual'naya psixologiya. – Moskva: Progress, 1997. – 33–49-betlar
[6] Yung K.G. Analitik psixologiya. – Moskva: Akademicheskiy proekt, 2005. – 57–70-betlar.
[7] Fromm E., Inson va jamiyat. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010. – 120–137-betlar.

kelishmovchiliklarni yuzaga keltiraveradi. Bu esa baribir odamda nevroz rivojlanishiga mezon yaratadi[8]. Shunday qilib, K. Xornining nevroz haqidagi ta'limotini quyidagicha sharhlash mumkin: nevroz kurtaklari bola tug'ilgandan so'nggi xavotirdan boshlanadi va adovatli dunyo bilan kurashib hayot kechiradi. Buning natijasida yuqorida qayd qilingan uchta himoya strategiyasi ishlab chiqiladi.

Demak, xulosa shuki, nevrozdan qutulish qiyin. Biz ushbu bobni pessimistik ruhda tugallash niyatimiz yo'q. Albatta, Freyd yaratgan psixoanaliz nazariyasi va undan keyingi ta'limotlar nevroz rivojlanishi sabablarini juda yaxshi ko'rsatib bergan va albatta bunga qarshi psixodinamik terapiya ham ishlab chiqilgan. Bugungi kunda psixoanaliz asosida yana yangi yo'nalishlar paydo bo'ldi. Biz shu erda o'z kontseptsiyamizni ham ilgari surmoqchi edik. O'ylaymizki, bizning kontseptsiya nevroz profilaktikasi uchun ham, davosi uchun ham va og'ir asoratlarini to'xtatish uchun ham xizmat qiladi. Nevrozni yuzaga keltiruvchi qandaydir voqea ro'y bersa, "Shunday bo'lishi kerak edi", deb xitob qilish va shu holatga yana tushmaslik uchun "Shunday bo'lmasligi mumkin edi" deb xitob qilish zarur. Bu bizga nima beradi? Kattami, kichikmi ko'ngilsiz voqea ro'y berganida "shunday bo'lishi kerak edi", deb xitob qilinishi o'sha odam uchun vaziyatni to'g'ri baholash va uning ilk sabablarini anglash uchun yordam bersa, "shunday bo'lmasligi mumkin edi", deb xitob qilinishi, shu va shu kabi holatlarga yana tushmaslik uchun individual strategiya ishlab chiqishga yordam beradi. Biz ilgari surayotgan ushbu kontseptsiya nevrotik buzilishlar hali avj olib ketmasdan uni bartaraf etishga juda katta imkoniyat yaratib beradi va buning uchun psixoanalitik shart bo'lmasligi mumkin. Bunda bemorning o'zi psixoanalitik rolini o'taydi. Buning uchun ushbu ikkala iborani nafaqat xitob qilish, balki unga amal qilish ham kerak. Bu esa oson. Bir necha yillardan buyon biz o'zimiz ishlab chiqqan ushbu kontseptsiyani yuzlab bemorlarda qo'llaganmiz va deyarli har doim ijobiy natija olganmiz Bu kontseptsiya har qanday savolga javob topadi va har qanday jumboqning yechimini topib bera oladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuga oid tarixiy manbalar ustida ishlash, tarixiylik, mantiqiylik, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, xorijiy tildagi adabiyotlarni tarjima qilish uslublaridan foydalanildi.

Talqin va natijalar. Freyd yaratgan psixonaliz to'g'risidagi nazariya inson ruhini bir muz tog'iga qiyoslaydiki, go'yo uning ustki, ya'ni oltidan bir qismi ong bo'lsa, suv ostida ko'rinmay yotgan oltidan besh qismi ong osti, ya'ni ongsizlikdir. Psixoanaliz fani o'z oldiga ongdan yashirinib yotgan chuqur psixologik jarayonlarning sir-asrorini

[8] Xorni K., Nevroz va shaxs rivojlanishi. – Moskva: Eksmo, 2002. – 90–105-betlar.

ochishni maqsad qilib qo‘yadi va shu yo‘l bilan nevrozni keltirib chiqaruvchi omillarni o‘rganadi. Z.Freyd «yashirinib» yotgan psixologik jarayonlarni ongsiz jarayonlar deb atadi. Rus psixologlari bu holatni turli atamalar bilan ta’riflashadi: «bessoznatelnoe» (ongsizlik), «podsoznatelnoe» (ongostlilik), «podsoznanie» (ong osti). Ba’zi o‘zbek psixologlari “ongostlilik” degan atamani ma’qul topishadi. Adabiyotshunoslar esa “shuur” so‘zi ong ostini izohlaydi deb hisoblashadi. Shunday qilib, hanuzgacha fanda katta shov-shuvlarga sabab bo‘lib kelayotgan va mohiyati to‘laligacha o‘rganilmagan ushbu noaniq psixologik jarayonlarning atamasi ham noaniq bo‘lib qolmoqda.

Z. Freyd bo‘yicha inson ruhiyati modeli aysbergga qiyoslangan. Uning suv ustida ko‘rinib turgan 6/1 qismi ong bo‘lsa, suv ostida ko‘rinmay yotgan 6/5 qismi – bu ongsizlik. Z. Freyd ta’biri bilan aytganda, ongdan siqib chiqarilgan odamning tabiiy instinktlari ong ostida qo‘nim topadi. Ongsizlik tug‘ma xususiyat bo‘lib, insonning barcha xatti-harakatlarini ifodalab turadi. Ongsizlikni psixoanaliz ta’limoti o‘rganadi. Psixoanaliz ta’limoti yaratilishiga, asosan, nevroz kelib chiqishining asl mohiyatini izlash va bu kasallikni davolashda o‘sha davrdagi mavjud psixoterapevtik usullar kam samara berishi turtki bo‘lgan. Z. Freyd o‘z kuzatuvlariga asoslanib, ruhiyatning yangi modelini yaratdi. Unga asosan, bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lgan 3 ta psixologik tuzilma mavjud. Bular – Id, Ego va Super-Ego. «Id» — bu instinktlar. U ongdan xolis. «Ego» — bu Men. Uning ongi bor. «Super-ego», ya’ni Super-men – bu odamni o‘rab turgan muhit, jamiyat. U odamning xulq-atvorini «tepadan» nazorat qilib turadi. Bu tushunchalarning har biriga ta’rif berib chiqamiz. Z. Freydning fikricha, evolyutsiyaning dastlabki bosqichida o‘zini himoya qilish va ovqat izlash instinkti odamning xulq-atvorini belgilab bergan. Shu bilan parallel holda yoki birozdan so‘ng ularga seksual instinkt qo‘shilgan. Bu instinktlarni Freyd «Id» deb atagan. «Id» ongda aks etmaydi. U ong ostida joylashgan, to‘g‘rirog‘i, ong ostiga tiqishtirilgan. «Id» qoniqish printsiplariga asoslanib faoliyat ko‘rsatadi. Bu erda jinsiy qoniqish alohida o‘rin tutadi. Dastlab Freyd barcha instinktlar ichida seksual instinktga katta urg‘u beradi va odamning xatti-harakatlarini seksual qoniqmaslik bilan bog‘laydi. Uning fikricha, aynan ushbu instinkt odamning xulq-atvorini tug‘ilganidan buyon boshqarib keladi. Z.Freyd qondirilmagan his-tuyg‘u yoki jinsiy maylning ruhiy quvvati ong ostida to‘planib boradi va o‘z ifodasini topishga urinadi, deb fikr yuritadi. Shuning uchun ham uni panseksualizmda ayblashadi.

«Id» doimo «Men» va «Super-men» bilan murosasiz jang olib boradi, chunki ular «Id»ni tinimsiz nazorat qilishga intiladi. «Id» kuchli energiyaga ega bo‘lsa-da, «Men» uni ong ostidan suzib chiqishiga yo‘l qo‘ymaydi. Shuning uchun ham «Id»

tajovuzkordir. «Men» nazoratni to‘la qo‘lga olgunga qadar instinktlar go‘yoki odamning hayot tarzini, ya’ni xulq-atvorini belgilab bergan. «Men» rivojlanishi odamning hayot tarzini o‘zgartirib yubordi va uning xulq-atvorini nazorat ostiga oldi. O‘sha paytda ham, hozirda ham psixoanalitiklar «Id» – bu odamning hayot tarzini belgilab beruvchi asosiy manba deb hisoblashadi. «Id» o‘zgarmas, «Men» esa o‘zgarib, rivojlanib boradi. Odam boshqa jonzotlardan aql-zakovat, ya’ni ongning borligi bilan farq qiladi.

Demak, ong – bu «Men» demakdir. Agar odam faqat «Id»ga bo‘ysunib yashaganida edi, uning hayot tarzi hayvonlarnikiga o‘xshab qolardi. Vaholanki, odam faoliyati ongli jarayondir va u o‘z xattiharakatlarida ham, asosan ongga tayanadi. Psixoanalitiklar odamni, aniqrog‘i, uning ruhini tirik hujayraga o‘xshatishadi. Bunda hujayraning tashqi pardasi «Men» bo‘lsa, uning ichki tarkibi – «Id». Hujayraning ichida moddalar almashinuvi natijasida katta energiya to‘planadi va kuchli energiyaga ega bo‘lgan «Id» tashqariga yorib chiqqisi keladi. Bunga esa hujayraning tashqi pardasi, ya’ni «Men» yo‘l qo‘ymaydi. Xo‘sh unda «Super-men» nima? Ma’lumki, hujayralar to‘plami to‘qimani, to‘qimalar a’zolarni, a’zolar esa organizmni tashkil qiladi. Demak, «Super-men» – barcha «Men»lar yig‘indisi. Hujayra organizmda hayot kechirgani kabi, organizm ham hujayrasiz yashay olmaydi. Organizm – bu «Super-men».

«Supermen» «Men» bilan birgalikda «Id»ni nazorat qiladi. Buning natijasida ular orasidagi ziddiyatlar kuchayadi. Z.Freydning fikriga ko‘ra, nevrozning kelib chiqishiga «Super-men» va «Men» sababchi. Psixoanalitiklar nevrozni psixoterapevtik yo‘l bilan davolashda aynan mana shu nazoratni kamaytirish yoki to‘xtatishga va shu yo‘l bilan «Id»ni ong doirasiga suzib chiqishiga yordam berishadi. Buning natijasida «Id» tajovuzkorligi pasayib, nevroz belgilari chekinadi. Z.Freyd «Men» va «Id» orasidagi munosabatlarni chavandoz bilan otning munosabatlariga qiyoslab ham tushuntirib bergan. Freydgacha A.Shopengauer xuddi shunday qiyoslashni iroda va tafakkur orasidagi munosabatlarning ta’riflash uchun ishlatgan edi. Chavandoz otni o‘zi boshqarsa-da, faqat uning quvvati hisobiga harakatlanadi. Kerak paytda chavandoz o‘zanni qattiq ushlab, otni to‘xtatishi va o‘zi xohlagan tomonga yo‘naltira olishi zarur, aks holda u yiqilib qattiq jarohat oladi yoki halok bo‘ladi. Ba’zi vaziyatlarda qachon to‘xtash va qaysi tomonga yurish kerakligini chavandoz emas, balki otning o‘zi tanlaydi. Masalan, chavandoz uxlab qoladi, charchaydi yoki kasallanadi. «Men» (chavandoz)ning ahvoli «Id» (ot)ning ahvoliga qaraganda ancha xavotirli. Chunki «Men» bir tomondan atrof-muhit, ya’ni tashqi olamning qonun-qoidalariga amal qilishi, ikkinchi tomondan kuchli ot («Id»)ni boshqarishi kerak. «Men» ham tashqi olam, ya’ni «Super-men»ning talablarini, ham «Id»ning ehtiyojlarini qondirish uchun

doim xavotirda yashaydi. Bu talablarni bajarish uchun «Men» doim sergak bo‘lib turishi kerak. Bu talablar bajarilmasa, aybdorlik hissi aynan uning bo‘yniga tushadi. Demak, «Men» doimo o‘zini himoya qilish yo‘llarini izlaydi. Z. Freyd nevrozning kelib chiqishini ushbu

ziddiyatli munosabatlardan izlagan. Oddiyroq qilib aytganda, psixoanalitik bilan yolg‘iz qolgan mijoz o‘zini erkin qo‘yib, ko‘zlarini yarim yumgan holda yotadi yoki bemalol o‘tiradi va xayoliga kelgan barcha fikrlarini oqizmay-tomizmay so‘zlab beradi. Bu erda birorta ham sir qolmasligi va bemor uyalmasligi kerak. Ma’noli so‘zlarmi, ma’nosizmi, bemor ularni psixoanalitikka ochib tashlashi shart. Aks holda natija bo‘lmaydi. Ana shundagina, Z. Freyd ta’biri bilan aytganda, ruhiy poklanish, ya’ni «katarsis» ro‘y beradi va tuzalish jarayoni jadal kechadi. Z. Freydning fikricha, eng muhimi mazkur assotsiatsiyalar ong tomonidan boshqarilmasligi kerak va bemor fikrini erkin ifodalashi zarur. Ana shundagina ong ostiga qamalgan istak-xohishlar va ong tomonidan taqiqlangan ziddiyatli muammolar o‘z yechimini topadi.

Demak:

Ong ..

Ong bu insoniyatni boshqa maxluqotlardan ajratib turuvchi eng muhim omildir. Insonyatning yurish turushi hatti- harakatini òylashi, fikirlashi jamiyki saloxiyatini ongi orqali bevosita boshqaradi. Insoniyatning ongsizlanib borishi yoxud ongini bema’ni narsalar ila band etishi bu o’zini halokatga boshlashi bilan barobardir. Bugungi dunyoning taraqqiyot sari yondashuviga ham ongning taraqqiy topishini rivojlanayotganidan yaqqol misol sifatida kòrish mumkin. Ong haqida turli olimlarning turlicha fikirlari dunyo qarashlari mavjud. Olimlar fikriga keladigan bòsak, Buyuk Freyd pisxologiyasi ong haqidagi va unig 3 ga bòlinishi tògrisidagi nazaryasiga men qòshilaman. Freyd ajoyib shifokor pisxolog olim. Men uning ishlarini uning pisxologiyaga bergan kiritgan yangiliklarini juda yuqori baholayman.

Fikrimcha ong bu insonning muvhum qismidir. Inson ongini aql vazifasida ham olsak ham bo‘ladi. Ong insonda ham hayvonda ham mavjud deb bilaman. Ongsiz insonlar ya'nikim aqli zaif o‘zini his qilmaydigan insonlardir. Ong bilan ruhiyat chambarchasdir. Ichki ong shakli qalb va ruhiyat. Tashqi ongni aql deb bilaman. Ong insonni boshqarmaydi deb hisoblayman. Aksincha ruh, ichki intuitiv, aql insonning ongini boshqaradi deb o‘ylayman. Inson ongi, o‘zini tanishini ichki ongi bilan bevosita bog‘liq. Ongda inson hissiyotini va hayajonini ichki muhit deb aytsak bo‘ladi. Misol uchun, inson xotiralari bilan yurganda, uning birdaniga stress olishi, hursandchiligi, yoxud yig‘lashi, hammasi ong bilan boĝliq bo’lib, bular ong osti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Freyd Z. Tushlar ta'biri (Tolkovanie snovideniy). – Moskva: AST, 2004. – 45–62-betlar.
(2). Freyd Z. Psixoanalizga kirish ma'ruzalari. – Toshkent: Fan, 2007. – 88–104-betlar.
(3). Freyd Z. «Men» va «U». – Moskva: Nauka, 1991. – 23–39-betlar.
(4). Freyd Z. Totem va tabu. – Sankt-Peterburg: Piter, 2003. – 112–128-betlar.
(5). Yung K.G., Analitik psixologiya. – Moskva: Akademicheskiy proekt, 2005. – 57–70-betlar.
(6). Adler A. Individual'naya psixologiya. – Moskva: Progress, 1997. – 33–49-betlar.
(7). Xorni K., Nevroz va shaxs rivojlanishi. – Moskva: Eksmo, 2002. – 90–105-betlar.
(8). Fromm E., Inson va jamiyat. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010. – 120–137-betlar.
(9). Z. Ibodullayev. Tibbiyot psixologiyasi. Darslik., 3-nashr., T.; 2019., 494b.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

FRIDRIX NITSSHE FALSAFIY QARASHLARI: “ZARDUSHT TAVALLOSI” ASARINING FALSAFIY TAHLILI

Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrasi o’qituvchisi
Xolova Umida Umedovna
Muhammadkuliyeva Lobar Davron qizi
Buxoro Davlat Universiteti Tarix va Yuridik fakulteti, falsafa yo’nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada falsafa olamidagi eng mashhur olimlardan biri Fridrix Nitsshe haqida, uning falsafiy qarashlari va ularning bugungi kundagi ahamiyati haqida so’z yuritilgan. Shu bilan bir qatorda, maqola mobaynida olimning eng mashxur asarlaridan biri “Zardusht tavallosi” asari haqida ham ma’lumotlar keltirilgan bo’lib, asarning batafsil tahliliga to’xtalgan holda, olimning fikrlarini yanada aniqroq tushuntirishga harakat qilingan.
Kalit so’zlar: Budda, professor, fashizm, Avesto, ma’orif, doktrina, Injil, mantiq, haqiqat, ma’rifat, ruhiy kamolot, ong, intellektuak muhit, ziddiyat, radikal.

XIX asr Yevropa intellektual muhitining eng radikal va ta’sirchan mutafakkirlaridan biri bo‘lgan Fridrix Nitshe, inson mohiyati, madaniy evolyutsiya va axloqiy qadriyatlarning ildiziga yangicha nazar tashlash orqali falsafiy tafakkur tarixida tub burilish yasadi. Uning g‘oyalarida an’anaviy metafizik tasavvurlar tanqid ostiga olinib, mavjudlikning dinamik va ziddiyatli tabiati chuqur tahlil etiladi. Nitshe falsafasi bugungi kunda ham zamonaviy falsafa, madaniyatshunoslik va psixologiya sohalarida davom etuvchi bahs-munozaralarga nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.
“Yangi davr payg‘ambari”, “tafakkur Don-Juani”, “ming yillik qadriyatlarni vayron etuvchi” – bu unga berilgan baho va ta’riflarning bir qismi, xolos. Bunday xilma-xil talqinlarning sababi, albatta, Nitshe asarlarida mujassam. “Bugun tirik bo‘lgan va o‘tib ketgan barcha yevropaliklar – Platon, Volter, Gyote – orasida men qalbi eng kengiman. Men Yevropaning Buddasi bo‘lishim mumkin edi”[1]. Nitshening bunday da’volari har qanday odamni lol qoldiradi. Ammo ming yillar davomida shakllangan va odamlar ongiga singib ketgan, turish-turmushi, dunyoqarashi, voqelikka munosabatini belgilab bergan aqida va qadriyatlarni qayta ko‘rib chiqishga, taftish va inkor etishga bel bog‘lagan kishi o‘zini odamlarga shunday taqdim etmasdan iloji yo‘q edi.

[1] Делёз Ж. **“Ницше и философия”** – Москва: Академический проект.

“O‘zgalarning seni tushunishlariga erishish og‘ir... har bir harakating buzib talqin etilgan”da o‘zing uchun faqat bir yo‘l qoladi: “Tinimsiz turtkilab, chormixga osmasliklari uchun, niqoblarni g‘amlab qo‘ymoq kerak”[2]

Nitsshe nomi bilan bog‘liq anglashilmovchilik va mishmishlarning sababini, bir qarashda, ziddiyatli bo‘lib tuyulgan fikrlardan izlamoq kerak. Yevropaning (insoniyat) ikki yarim ming yillik axloqiy-ma’naviy tarixi muammolarini o‘z dardiga, shaxsiy muammosiga aylantirgan Nitsshe ehtirosga berilishi tabiiy hol edi. Ammo faylasufning fojiasi shundan iboratki, uning fikr-mulohazalari, yaratgan asarlari g‘ayriinsoniy vayronkor g‘oyalarni targ‘ib etishda nazariy asos sifatida xizmat qilgan. Masalan, fashizm mafkurasining Nitsshe g‘oyalaridan oziqlangani ma’lum. Qaysidir ma’noda bu mafkuradagi g’oyalar olimning aniq maqsad muddaosini ochib bera olmagan bo’lishi mumkindir. Ammo falsafiy qarashlar hamisha turli yo’nalishlarda bo’ladi, olimlar esa o’z fikrlarini bayon qilishadi, jamiyatda esa bu fikrlarga nisbatan xato tushunishlar, siyosatdonlar orasida esa umuman o’zgacha talqinlar paydo bo’lib, barcha mafkurani o’z maqsadi yo’lida qurol sifatida foydalana boshlaydi.

Nitsshe falsafasini odatiy tushunchalar yordamida talqin etib bo‘lmaydi, zero bunda uning ko‘p nozik jihatlari e’tibordan chetda qoladi. Faylasuf nazarida, inson ma’naviy kamoloti uning qalbi va ruhiyatida, ya’ni uning o‘zida, botiniy olamida kechadi. Biroq, inson sifatida shakllanishi uning o‘z ishtirokisiz ro‘y bergani va u bu jarayondan bexabar qolganini anglab yetadi. Bu jarayon uning go‘dakligidan boshlab an’anaviy odat, qadriyat, qonun-qoidalar (tarbiya, ta’lim, axloq, din, ilm-fan) ta’sirida amalga oshgan va vaqti kelib u bu ta’sirning og‘ir yukini his etib, qarshi isyon ko‘targan. Isyonga, kishini zanjirband etib, tanballashtiradigan aqidalarga qarshi kurashga esa “haqiqiy inson”, “kuchli odam”, “isyonkor shaxs”gina qodir[3]. Shunday qilib ko’rishimiz mumkinki, Nitsshe insonning mustaqil bo’lishi va qadimiy an’analarga nisbatan isyon qilishi tarafdori bo’lgan.

Endilikda Nitsshe tomonidan yaratilgan asarlarga to’xtaladigan bo’lsak, ulardan quyidagilari ma’lum: «Tarixning hayot uchun foydasi va zarari to‘g‘risida» (1874), «Shopengauer murabbiy sifatida» (1874), «Rixard Vagner Bayreytda» (1875-1876), «Erkin tafakkur sohiblari uchun qo‘llanma» (1876-1878), «Tong yallig‘i» (1881), «Zardusht tavallosi: «Har bir kishi va hamma uchun kitob» (1881-1885), «Quvnoq bilim» (1882), «Yovuz donishmandlik: hikmatlar va dono so‘zlar» (1882-1885),

[2] https://oyina.uz/uz/article/205

[3] Xudoyberdiyev, N. **XX asr falsafasi**. – Toshkent: Fan nashriyoti, **2012**.

«Axloqning mohiyati» (1887), «Hokimiyatga intilish» (Mazkur asar 1906 yilda chop etilgan). [4]

Nitsshe falsafaga hozir ham qo‘llanib kelayotgan quyidagi ilmiy tushunchalarni kiritdi: «Hokimiyatga intilish», «Barcha qadriyatlarni qayta baholash», «Odamlarning yangi nasli», «Mallarang dog‘ulilar», «Oliy inson».

Nitsshe hayotni boshqalarga qaraganda teranroq his etgan. U o‘z aniq-ravshanligi bilan sirli, tushunarsiz darajada tushunarli bo‘lgan yagona faylasuf edi[5]

Uning eng mashxur asarlaridan biri bo’lib hisoblangan “Zardusht tavallosi” asariga to’xtaladigan bo’lsak, ushbu asarni yozish g‘oyasi Nitssheda 1881-yilda tug‘ilgan. Kitobning bosh g‘oyasi sifatida “abadiy qaytish” (vaqtning siklikligi) bo‘lgan. Zardusht deb Avesto muallifi tushunilgan. 1882-yilda Nitsshe kasalligi tufayli Italiyada, Genuyadan g‘arbda davolangan. 1883-yil fevral oyida u asarning 1-qismini yozgan. Asar mazmuni haqida so’z yuritar ekanmiz, shuni alohida inobatga olish kerakki, kitobda Nitsshening asosiy g‘oyalari mavjud: Xudoning o‘limi (antiteizm), A’lo odam (ijtimoiy darvinizm), hokimiyatga iroda (vitalizm). Ma’orif davri boshidan yevropaliklar ongida hukmron bo‘lgan taraqqiyot (yetakchi rivojlanish) doktrinasiga qarshi Nitsshe abadiy qaytarilish va har qanday rivojlanishning siklchanligi haqidagi ta’limotni qo‘yadi. Faqat A’lo odamgina hattoki eng achchiq daqiqalarni ham cheksiz qayta kelishini qabul qilishga tayyor. Nitsshega ko‘ra, bunday mavjudotning oddiy odamdan farqi odamning maymundan farqichalikdir[6].

Nitsshe asari Injilga o‘xshab falsafa, nasr va she’r o‘rtasida muvozanat saqlaydi. Muallif “qadimiylikka” murojaat qilib, kitobini o‘z hayotini tugatgan yahudiy-xristian axloqini namoyon qilgan holda Injilga qarshi qo‘yishga intilgan. Nitsshe kitobi Bibliyaga ishoralarni ham (yonuvchi ustun, qo‘ylar, cho‘ponlar, voizlar), inversiyalarni ham (“yaqinlar” “uzoqlar”ga qarshi qo‘yiladi, Qonunni bajarish uni buzish bilan almashtiriladi) o‘z ichiga oladi. Qizig‘i Nitsshening ushbu asari va Injil Birinchi jahon urushi davrida nemis askarlari o‘zlari bilan eng ko‘p olib yurgan ikki kitoblar edi. Bu faktdan ham bilish muhimki, asar ahamiyati juda ulkan bo’lib, uning hozirgi ahamiyati ham ayniqsa falsafa sohasi uchun juda aniq va mantiqqa asoslangandir.

Xulosa qilib aytganda, Fridrix Nitsshe o’z davrining haqiqiy ulug’vor faylasuflaridan biri edi. Uning fanga olib kelgan yangiliklari va o’z davri uchun inqilobiy bo’lgan

[4] Ridley, A. **“The Pathos of Distance and the Overman.”** – *Journal of the British Society for Phenomenology*, **1997**.
[5] https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/hikmatlar/mumtoz-faylasuflar/fridrix-nitshe
[6] https://uz.wikipedia.org/wiki/Zardo%CA%BBsht_tavallosi

g‘oyalari, insonning ruhidagi alamzadalik va isyonkorlik bo’yicha qarashlari bir qarashda o’ta keskin bo’lib tuyulishi mumkin. Ammo bu ayni haqiqatdir. Uning asarlaridagi haqiqatlar, g‘oyalar inson ongining ochilmagan qirralariga ham katta ta’sir ko’rsatib ong-u tafakkuriga shu darajada salmoqli ta’sir etganligi va eng muqaddas diniy kitoblardan biri bilan teng darajada o’qilganligi misolida ham ko’rishimiz mumkin. Ayni paytda, uning ijodi va asarlarini o’rganish esa, bizga klassik falsafiy qarashlar va fanning eng muhim aqidalarini tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Fridrix_Nitsshe
2. Omonullaev, H. **Zamonaviy G‘arb falsafasi**. – Toshkent: O‘zbekiston, **2011**.
3. Делёз Ж. **“Ницше и философия”** – Москва: Академический проект.
4. https://oyina.uz/uz/article/205
5. Xudoyberdiyev, N. **XX asr falsafasi**. – Toshkent: Fan nashriyoti, **2012**.
6. Ridley, A. **“The Pathos of Distance and the Overman.”** – *Journal of the British Society for Phenomenology*, **1997**.
7. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/hikmatlar/mumtoz-faylasuflar/fridrix-nitshe
8. https://uz.wikipedia.org/wiki/Zardo%CA%BBsht_tavallosi

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

TA’LIM - TARBIYA JARAYONINING PEDAGOGIK - PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

Andijon davlat pedagogika institute “Maktabgacha ta’lim va maxsus Pedagogika “ fakulteti sirtqi ta’lim 305-guruh talabasi
Sohobova Oyshaxon Asatullo qizi

Annotatsiya ; Maqolada Yurtboshimizning tarbiya haqidagi so’zlari, ta’lim-tarbiya jarayoni, tarbiya haqida tushuncha, psixologiyada tarbiya tushunchasi, oila tarbiyasi, shaxs shakllanishida tarbiyaning o’rni va oilada mehnat tarbiyasi, tarbiya to’g’risida fikrlar hamda maktabgacha yoshdagi bolalarda tarbiyaning o’ziga xosliklari haqida so’z boradi.
Kalit so’zlar: ta’lim, tarbiya, jarayon, tarbiyali bo’lish, oila tarbiyasi, mehnat tarbiyasi, kognitiv tizim tarbiya, psixoterapiya, psixokorreksiya, psixoanaliz, xulq atvorli bo’lish, tarbiya ehtiyojlari.

Аннотация: В статье рассматриваются высказывания нашего Президента о воспитании, образовательном процессе, понятии воспитания, понятии воспитания в психологии, семейном воспитании, роли воспитания в формировании личности и трудовом воспитании в семье, размышления о воспитании и особенностях воспитания детей дошкольного возраста.
Ключевые слова: образование, воспитание, процесс, воспитание, семейное воспитание, трудовое воспитание, когнитивное воспитание, психотерапия, психокоррекция, психоанализ, поведенческое бытие, потребности в воспитании.

Abstract: The article discusses the words of our President about upbringing, the educational process, the concept of upbringing, the concept of upbringing in psychology, family upbringing, the role of upbringing in personality formation and labor upbringing in the family, thoughts on upbringing, and the specifics of upbringing in preschool children.
Keywords: education, upbringing, process, being educated, family upbringing, labor upbringing, cognitive upbringing, psychotherapy, psychocorrection, psychoanalysis, being behavioral, upbringing needs.

KIRISH.

“Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti.

Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz?

Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”.

“Agar mendan sizni nima qiynaydi?” deb so‘rasangiz, farzandlarimizning ta’lim va tarbiyasi deb javob beraman _ SH.MIRZIYOYEV.

“Bolalarimizni birovlarning qo’liga berib qo’ymasdan, ularni o’zimiz tarbiyalashimiz lozim.Buning uchun yoshlarimiz bilan ko’proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko’mak berishimiz kerak.Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy ananalarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz”,-deydi muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev

Ta’lim – bilim berish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta’lim jarayonida ma’lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta’lim tor ma’noda o‘qitish tushunchasini anglatadi. Lekin u faqat turli tipdagi o‘quv yurtlarida o‘qitish jarayonini emas, oila, ishlab chiqarish. va boshqa sohalarda ma’lumot berish jarayonini ham bildiradi.

Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida ko‘riladigan chora tadbirlar yigindisi.

Tarbiya insonning insonligini ta’minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo‘la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o‘tadi.

Jarayon — bu bir-birini almashtirib turuvchi hodisalar natijasida rivojlanish, biror natijaga erishish uchun ketma-ket harakatlar va ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa sohalarda davom etuvchi, uzluksiz harakatni bildiradi. Jarayonlar miqyosiga ko‘ra global, mintaqaviy va milliy bo‘lishi mumkin va uzoq yoki qisqa vaqt davomida yuz berishi mumkin.

- **Boshlanish va tugallanish jarayoni:** Har qanday jarayon biror natijaga erishish uchun sodir bo‘ladigan ketma-ket harakatlar yig‘indisidir (masalan, ishlab chiqarish jarayoni).
- **Siyosiy va huquqiy jarayon:** Sudda ishni ko‘rish, sud majlisi, muhokama kabi tartib-qoidalar ham jarayon hisoblanadi.
- **Ijtimoiy jarayonlar:** Bu jarayonlar sabab va oqibat munosabatlarida namoyon bo‘lib, jamiyatning umumiy kayfiyatiga salbiy yoki ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.
- **Muddati va miqyosi:** Jarayonlarning miqyosi umumbashariy, mintaqaviy va milliy bo‘lishi mumkin.
- **Boshqaruv jarayoni:** Jarayonlar odamlarning kuchi va qudratiga bog‘liq bo‘lib, ularni boshqarish va maqsad sari yo‘naltirish muhimdir.

Ta’lim jarayoni – bu bilim, malaka va ko‘nikmalar berish, odamni hayotga va mehnatga tayyorlash jarayonidir. Tarbiya esa ta’limni o‘z ichiga olgan kengroq, umrboqiy jarayon bo‘lib, shaxsni shakllantirishga qaratilgan. Ta'lim tor ma'noda o'qitishni anglatadi, tarbiya esa oila, ishlab chiqarish va jamiyatning barcha sohalarida amalga oshiriladi.

Ta'lim jarayoni

- Bilim, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish.
- Odamni hayotga va mehnatga tayyorlash.
- Maxsus o‘quv yurtlari, oila, ishlab chiqarish kabi turli joylarda amalga oshiriladi.

Tarbiya jarayoni

- Ta'limni o'z ichiga oladi, shuning uchun undan ko'ra kengroq va mukammaldir.
- Shaxsni shakllantirishga qaratilgan.
- Oila, jamiyat, ta'lim muassasalari kabi barcha sohalarda davom etadi.

Ta'lim va tarbiya munosabati

- **Bir-birini to‘ldiradi:** Ta'lim tarbiyaning bir qismi bo'lsa, tarbiya ta'limni o'z ichiga oladi.
- **Maqsadlari:** Ta'lim ma'lumot berishga qaratilgan bo'lsa, tarbiya insonni barkamol shaxs qilib tarbiyalashni nazarda tutadi.

Demak, Ta'lim bilan Tarbiya o'zaro bir- biri bilan chambarchas bog'liq. Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi.

Pedagogik psixologiyada tarbiya tushunchasi_ shaxs ongini muayyan jamiyatning maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda tarkib toptirish va rivojlantish jarayoni, kishilarning ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy aktiv ishtirok etishga qaratilgan barcha ta'sirlar majmui. Tarbiya bu alohida jarayon emas, balki o'qitishning bir tomoni bo'lib, u bilan umumiy va farqli tomonlarga ega. Bilim berish va tarbiyaga, asosan, insonning ijtimoiy ko'nikma olish mexanizmining o'ziga xos jihatlarini kiritish mumkun.

Tarbiya jarayonining ilmiy asoslari bilan psixologiyadan tashqari
_ falsafa;
_ sotsiologiya;
_ pedagogika
fanlari shug'ullanadi.

Tarbiyaning asosiy turlari oiladagi tarbiya va ijtimoiy tarbiyadir. Tarbiya ijtimoiy hayotning muhim funksiyasidir. Tarbiya shaxsning individual taraqqiyoti, axloqiy, jismoniy kamolotida yetakchi rol o'ynaydi.

Kognitiv tizim, **kognitiv tuzilma** (lotincha: *cognitio* „idrok, tasavvur qilish, ishning tahlili“) — xarakter, tarbiya, kuzatish va atrofdagi dunyoni aks ettirish natijasida ongda rivojlangan bilimlar tizimi (shaxsning). Ushbu tizimga asoslanib, maqsadlar qo'yiladi va ma'lum bir vaziyatda qanday harakat qilish kerakligi haqida qarorlar qabul qilinadi, kognitiv dissonansdan qochishga harakat qiladi. Kognitiv tizimning asosi — fikrlash, ong, xotira va tilning o'zaro ta'siri; bunday tizimning tashuvchisi insonning miyasi .

Kognitiv tarbiya ta'siri kishining bilim tizimlariga yo'naltirilgan bo'lib uni o'zgartirish mukammallashtirishni maqsad qilib qo'yadi.

“ Tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste'dodga , ilmga va mashqqa “
_degan edi ulug' olim Arastu. Ana shu g'oyalarga asoslangan holda tarbiyachilar quyidagilarga amal qilishlari lozim;

_ tarbiyada ulg'ayayotgan inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish;
_ milliylikning o'ziga xos an'ana vositalariga tayanish, jahon madaniyatining ilg'or tajribalariga asoslanish;
_ ulg'ayayotgan inson faoliyatida tarbiyaviy jarayonning asosini tashkil qilish;
_ qiziqarli, to'laqonli ulg'ayayotgan inson yosh jihatlariga mos hayot iqlimini yaratish;

Oila tarbiyasi- oilada ota- onalar, vasiy yoki katta kishilar tomonidan bolalarni

tarbiyalash. Oila qanchalik tartibli bo'lsa bolaning shunchalik muvaffaqiyatli bo'lishiga asos bo'ladi.

Ma'lumki, shaxsning rivojlanganlik darajasini ta'minlovchi asoslar dastlab oilada yaratiladi.

Birinchi prezidentimiz I.A.KARIMOV ta'kidlaganidek " Bola tug'ilgan kunidan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf- odatlar bola zuvalasini shakllantiradi" - degan so'zlari bejizga aytilmagan. Oiladagi muhit ham bola tarbiyasida asosiy rol o'ynaydi.

Oilada mehnat tarbiyasi bolalarni uy yumushiga jalb etishdan boshlanadi. Bolaning ilk mehnat tajribasi kelgusida uning mehnat faoliyati samarali bo'lishiga asos bo'ladi. Tarbiyaning bosh vazifasi jamiyat hayotida zarur bo'lgan kerakli sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan shaxsni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Tarbiyali bo'lish- bu xulq – atvorini nazorat qilishdan iborat. Bunday nazorat insonga yomon xatti- harakatlarni bajarmaslik imkoniyatini beradi. Agar shaxs xulq atvorini axloqiyligi haqida qayg'ursa, u ijtimoiylashuvga erishgan bo'ladi.

Tarbiya vositalari sifatida o'ziga xos o'rinni kompleks, global va har taraflama o'tkaziladigan ta'sirlar egallaydi. Ular qatoriga, masalan, psixoterapiyani, ijtimoiy- psixologik treningni va boshqa psixokorreksiya turlarini ko'rsatish mumkin.

So'ngi paytlarda shaxsga psixoterapevtik va psixokorreksion ta'sir vositalarini, uslublarini qo'llash keng tarqalgan.

Psixoterapiya pedagogik psixologiyaning bir bo'limi emas, balki to'la psixogen tabiatga ega bo'lgan, insonning psixologik holatiga bog'liq kasalliklarni davolash yoki ularni oldini olish vositasi deb tushunilgan.

Правосубъектность в классическом понимании представляет собой правоспособность, дееспособность и деликтоспособность (способность отвечать за совершенные правонарушения).

Дееспособность международных НПО заключается в способности осуществлять имеющие права и обязанности, а также нести за нарушение норм права установленную ответственность.

Заключение

В заключение следует подчеркнуть, что международное право четко разграничивает роли. Корпорации, будучи важными участниками мировой экономики, не могут быть поставлены на один уровень с государствами или физическими лицами. Их деятельность и ответственность должны оцениваться в рамках конкретных правовых рамок и обстоятельств, а не на основе абстрактного понятия правосубъектности. Государства по-прежнему являются основными субъектами международного права, обладающими полным объемом легитимности и обязанностей по защите прав человека и соблюдению международных норм. Корпорации же несут ответственность за прямое воздействие своих действий на права человека, но их роль и обязательства в международной системе должны быть строго регламентированы соответствующими правовыми нормами, а не расширены за счет формального признания их правосубъектности.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

IRSIYATNING INSON RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

MIRSAIDOVA NOZIMA OTABEKOVNA
Denov tadbirkorlik va pedagogika institute Psixologiya ta'lim yo'nalishi 1- bosqich 11-PS-2025 guruh talabasi
Tel raqam:+998949388307

Annotatsiya: Mazkur maqolada irsiyatning inson rivojlanishidagi o'rni, uning fiziologik, psixologik va intellektual rivojlanishga ta'siri ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Odamning shaxs sifatida shakllanishida genetik omillar va tashqi muhitning o'zaro ta'siri misollar yordamida ochib beriladi. Psixogenetika, biologiya, pedagogika va psixologiyada olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilinib, irsiy omillar va muhit omillarining nisbatiga oid ilmiy qarashlar jamlangan.
Kalit so'zlar : Irsiyat, genetika, gen, xromosoma, DNK, rivojlanish, shaxs rivojlanishi, biologik omillar, psixologik rivojlanish, nasl, irsiy omillar, muhit, tarbiya, psixogenetika, temperament, qobiliyat, intellekt, IQ, egizaklar tadqiqoti, genetik predispozitsiya, irsiy kasalliklar, fenotip, genotip, dominant gen, retsessiv gen, gormonlar, neyrofiziologiya, biologik meros, evolyutsiya, irsiy moyillik, shaxs shakllanishi, biopsixologik omillar.

Kirish

Inson rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar haqida qadimdan turli mutafakkirlar fikr yuritib kelgan. Sharq allomalari — Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Beruniy kabi olimlar insonning jismoniy va ruhiy kamolotida irsiy belgilar muhim o'rin tutishini ta'kidlagan. Ibn Sino o'zining "Tib qonunlari" asarida tug'ma xususiyatlar va ota-onalardan o'tadigan belgilar bolaning salomatligiga bevosita ta'sir qilishini qayd etadi. Forobiy esa shaxsning aql-zakovatda kamol topishi uchun irsiy moyillik bilan bir qatorda tarbiya va muhitning ahamiyatini alohida e'tirof etadi.

XX asrga kelib genetika fani rivojlanishi natijasida irsiyatning inson rivojlanishidagi o'rni yanada aniq va ilmiy asosda o'rganila boshlandi. G. Mendelning irsiylik qonunlari, T. Morgan tomonidan genlarning xromosomalar orqali o'tishi haqidagi kashfiyotlar, XX asrning ikkinchi yarmida psixogenetika fanining shakllanishi — bularning barchasi inson rivojlanishiga genlar qanday ta'sir ko'rsatishini chuqur tushunish imkonini berdi.

Shuningdek, Z. Freyd, K. Yung, E. Erikson kabi psixologlar tug'ma temperament va psixik jarayonlarning irsiy asoslari borligini ta'kidlaganlar. J. Piajening kognitiv

rivojlanish nazariyasida ham bolaning aql-farosat darajasi tug‘ma potentsialga ega bo‘lib, muhit orqali faollashtirilishi zarurligi qayd etilgan.

Zamonaviy ilm-fanda “irsiyat vs muhit” masalasi endilikda qarama-qarshilik sifatida emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi ikki asosiy omil sifatida qaraladi. Inson rivojlanishi ko‘pincha **50% irsiyat — 50% muhit** nisbatida shakllanishi aytiladi, biroq bu nisbat har bir belgi uchun har xil bo‘lishi mumkin.

Irsiylanishning inson rivojlanishiga ta’sirini o‘rganishda **dolg‘azb muammolar** orasida irsiy kasalliklarning oldini olish, genetik ma’lumotlarni to‘g‘ri qo‘llash, irsiy xususiyatlar va atrof-muhit o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish va irsiy muammolarga qarshi axloqiy-huquqiy asoslar yaratish kabilar bor. **Mavjud ma’lumotlar** esa irsiyatning jismoniy (bo‘y, tana tuzilishi) va ruhiy (xarakter, qobiliyatlar) xususiyatlarga ta’sirini ko‘rsatadi. Shuningdek, irsiy kasalliklar, irsiy moyilliklar va genetik muhandislik kabi mavzular muhim ahamiyatga ega.

Dolzarb muammolar

- **Irsiy kasalliklarning oldini olish va davolash:** Irsiylanish orqali yuqadigan kasalliklarni aniqlash, ularning oldini olish va samarali davolash usullarini ishlab chiqish dolzarb muammolardan biridir.
- **Genetik ma’lumotlarni to‘g‘ri qo‘llash:** Genetik tahlillar natijalarini noto‘g‘ri talqin qilish, genetik ma’lumotlardan noqonuniy foydalanish, masalan, irqchilik yoki diskriminatsiya kabi holatlar xavfini tug‘diradi.
- **Irsiyat va atrof-muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir:** Inson rivojlanishida irsiyat va atrof-muhitning qanday o‘zaro ta’sir etishini aniq tushunish muhim, chunki bu holat insonning salomatligi, xulq-atvori va qobiliyatlariga bevosita ta’sir qiladi.
- **Irsiy muammolarga qarshi axloqiy-huquqiy asoslar:** Genetika va biotexnologiyalarning rivojlanishi bilan bog‘liq axloqiy va huquqiy muammolarni hal etish (masalan, genetik tahrir qilish) dolzarb vazifalardan biridir.

Mavjud ma’lumotlar

- **Jismoniy xususiyatlar:** Inson bo‘yi, ko‘zining rangi, tana tuzilishi kabi ko‘plab jismoniy xususiyatlar irsiyat bilan belgilanadi.
- **Ruhiy xususiyatlar:** Insonning xarakteri, qobiliyatlari, moyilliklari (masalan, musiqa yoki matematikaga qiziqish) kabi ruhiy xususiyatlarda ham irsiyat muhim rol o‘ynaydi, garchi ular atrof-muhit ta’sirida ham rivojlanadi.
- **Irsiy kasalliklar va moyilliklar:** Ba’zi kasalliklar (masalan, irsiy xastaliklar) irsiyat orqali yuqadi, boshqalari esa irsiy moyillik shaklida namoyon bo‘ladi. Masalan, diabet, yurak-qon tomir kasalliklari yoki ba’zi saraton turlari irsiy moyillikka ega bo‘lishi mumkin.

- **Genetik muhandislik:** Zamonaviy genetik muhandislik usullari irsiy kasalliklarni davolash yoki oldini olish imkoniyatini yaratadi, lekin shu bilan birga, bu texnologiyalarni qo‘llashda ehtiyotkorlik talab etiladi.
- Irsiyatning muayyan bir yo‘nalishda ta’siri tufayli organizm belgilarining avlodlar osha turg‘unligi ta’min etiladi. Irsiyat organizmlar ontogenezining turg‘unligi, ontogenez bosqichlari ketma-ketligini va bu jarayonlarda moddalar almashinuvi xususiyatlarini belgilab beradi. Irsiyatning yana bir xususiyati uning o‘zgaruvchanligidir (qarang O‘zgaruvchanlik). Binobarin organizmlar irsiy belgilarining turg‘unligi mutloq bo‘lmaydi. Turli xil organizmlar bir-biridan turg'unlik darajasi bilan farq qiladi. Masalan, paleozoy erasi perm davridan saqlanib qolgan ochiq urug'lilar vakillaridan ginko (Ginko biloba) ni qazilma ajdodlari bilan solishtirilganda million yillar o‘tgan bo‘lishiga qaramay bir qancha irsiy belgilar deyarli o‘zgarishsiz saqlanib qolganligi ko‘zga tashlanadi. Xuddi shu tariqa panjaqanotli latimeriya balig‘i (Latimeria chalumnae) ham million yillardan buyon deyarli o‘zgarishsiz Hind okeanining janubi-g‘arbiy qismida saqlanib qolgan. Lekin aksariyat hollarda irsiyatnning turg‘unligi muayyan darajada nisbiy bo‘ladi. Organizm genetik omillar va yashash sharoitining o‘zaro ta’siri natijasida rivojlanganligi tufayli irsiyat ham genotip va tashqi sharoitning ta’sirida turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Aksariyat hollarda irsiyat xromosomalar tarkibidagi DNK molekulasida joylashgan genlar orqali amalga oshadi. Bunday irsiyat xromosoma yoki yadro irsiyoti deyiladi. Genlarning nisbatan kam qismi sitoplazmada joylashgan plastidalar va mitoxondriyalarda, ya’ni xromosomalar bilan bog‘liq bo‘lmagan hujayra elementlarida joylashgan bo‘ladi. Bu genlar faoliyati orqali amalga oshadigan irsiyat sitoplazmik irsiyat deyiladi. Irsiyat tufayli organizmlar har xil guruhlarining nisbatan mustaqilligi, ularning yaxlit sistema (populyasiyalar, turlar) sifatida muayyan yashash sharoitiga moslashganlik xususiyatlari saqlab qolinadi. Irsiyat sababdan irsiyat evolyusion jarayonning eng asosiy omillaridan biri hisoblanadi.
- Genetik tadqiqotlar natijasida qator irsiyat qonunlari kashf etildi. Mendel tadqiqotlaridan kelib chiqadigan irsiyat qonunlari quyidagilardan iborat: organizm belgi va xususiyatlarining irsiy asosini genlar tashkil etadi; Irsiyat birligi bo‘lgan genlar nisbatan turg‘undir; har bir gen har xil allel (dominant va retsessiv) xislatda bo‘ladi; tana hujayralarida genlar jinsiy hujayradagiga nisbatan ikki hissa ko‘p.
- Amerikalik Tomas Morgan tadqiqotlari negizida quyidagi irsiyat prinsiplari aniqlandi: gen xromosomaning lokus deb nomlangan ma’lum bir qismida o‘rnashgan; allel genlar gomologik xromosomalarning aynan o‘xshash lokuslarida o‘rin oladi; genlar xromosomalarda muayyan tartibda bir qator bo‘lib joylashgan; jinsiy

hujayralarda xromosomalar soni tana xujayralariga nisbatan ikki hissa kam (gaploid) bo‘ladi. Zigotada genlar jinsiy hujayralarning xromosomalari qo‘shilishi ham ikki baravar ortadi va somatik hujayralarda bo‘lganidek diploid holatga o‘tadi. Irsiyat prinsiplari negizida genlarning molekulyar genetik strukturasi va funksiyasi haqidagi ta’limot yotadi. Irsiyat qonuniyatlarini o‘rganish qishloq xo‘jaligi amaliyotida va tibbiyotda muhim ahamiyatga ega.

Genetikaning fan sifatida rivojlanishi uch bosqichdan iborat. Genetika rivojlanishining birinchi bosqichida irsiyat va o‘zgaruvchanlik haqidagi fanga 1906-yilda angliyaUk olim V.Betson genetika deb nom berdi. Genetikaning keyingi taraqqiyotida gollandiyalik olim Gugo de Friz caklif etgan mutatsiya nazariyasi (1901-1903 y), daniyalik genetik olim V.Iogannsen tomonidan loviya o‘simligida belgilaming irsiylanishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega boidi. 1909-yilda V.Iogannsen tomonidan genetika faniga gen, genotip, fenotip kabi tushunchalar kiritildi. Genetika fani rivojlanishining birinchi o‘n yilligida T.Boveri, U.Setton va E.Vilson tomonidan irsiyatning xromosoma nazariyasi asoslab berildi. Hujayra boiinishi (mitoz) va jinsiy hujayralaming hosil boiishi (meyoz) jarayonidagi xromosomalar tarqalishi bilan irsiy belgi-xossalar tarqalishi o‘rtasida maTum bogiiqlik borhgi aniqlandi.

Asosiy qism

1. Irsiyat tushunchasi va uning biologik asoslari

Irsiyat — bu ota-onalardan farzandlarga genlar orqali o‘tadigan biologik va psixologik belgilar majmuasidir. Genlar DNK tarkibida joylashgan bo‘lib, ular organizmning jismoniy tuzilishi, organizmning ishlash funksiyalari, ayrim xatti-harakatlar, hatto temperamentga oid xususiyatlar uchun javobgardir. Masalan:

- Ko‘z, teri, soch rangi
- Bo‘y-bast
- Qon guruhi
- Tug‘ma kasalliklarga moyillik
- Temperament elementlari

Shuningdek, ilmiy tadqiqotlar intellektning ham ma’lum qismi genetik asosga ega ekanini ko‘rsatadi.

2. Psixogenetik tadqiqotlarda irsiyatning o‘rni

Psixogenetika insonning psixologik va intellektual rivojlanishini o‘rganadigan fan bo‘lib, ayniqsa egizaklar ustida olib borilgan tadqiqotlar katta ahamiyatga ega. Egizaklar tajribalari shuni ko‘rsatadiki:

- Bir tuxum egizaklarda intellekt darajasi o‘rtasidagi o‘xshashlik ikki tuxum egizaklarnikiga qaraganda ancha yuqoridir.
- Temperament, xulq—atvor, tashqi ko‘rinishdagi o‘xshashlik irsiyatning kuchli ta’siridan dalolat beradi.

Masalan, Minnesota universitetida olib borilgan mashhur egizaklar tadqiqoti (1979—1990 yillar) IQ ko‘rsatkichlarining 50–80% gacha bo‘lgan qismi genetik omillar bilan izohlanishini tasdiqlagan.

3. Inson rivojlanishida irsiyat va muhitning o‘zaro ta’siri

Insonning shaxs sifatida shakllanishi faqat irsiy belgilarga asoslanmaydi. Irsiy imkoniyatlar muhit ta’sirida rivojlanadi yoki cheklanadi. Bu jarayon “gene–environment interaction” deb ataladi.

Masalan:

- Irsiy jihatdan musiqaga moyilligi bo‘lgan bola musiqiy muhitda tarbiyalansa, iste’dodi kuchli namoyon bo‘ladi; aks holda bu qobiliyat sekinlashadi.
- Irsiy sport qobiliyatiga ega bolaning jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishi natijasida potensiali ochiladi.
- Temperament tug‘ma bo‘lishi mumkin, lekin xulq-atvor tarbiya orqali shakllanadi.

Demak, irsiyat — imkoniyatlar majmui bo‘lsa, muhit — bu imkoniyatlarning ochilishi yoki cheklanishiga sabab bo‘ladigan omillardir.

4. Irsiy kasalliklar va ularning rivojlanishga ta’siri

Irsiy kasalliklar genlarda sodir bo‘lgan o‘zgarishlar tufayli yuzaga keladi. Masalan:

- Gemosofiliya
- Daun sindromi
- Sikl hujayrali anemiya
- Albinizm
- Fenilketonuriya

Bu kasalliklar insonning fiziologik, intelektual va psixik rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Zamonaviy genetika diagnostika va davolashda muhim rol o‘ynaydi.

5. Tarbiya jarayonida irsiyatni hisobga olish

Pedagogika sohasida bola bilan ishlashda uning individual, tug‘ma xususiyatlarini e’tiborga olish muhimdir. O‘qituvchi va tarbiyachilar:

- Bolaning bilim olish sur’ati
- Tug‘ma temperament (sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik)
- Qobiliyatlar

- Sog‘lik holati

kabi jihatlarni hisobga olib yondashsalar, rivojlanish samaradorligi ortadi.

Xulosa

Irsiyat inson rivojlanishining asosiy omillaridan biri bo‘lib, jismoniy tuzilish, psixik jarayonlar, temperament, intellektual qobiliyatlar va sog‘liq holatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Biroq irsiyatning ta’siri mutlaq emas — uni muhit va tarbiya kuchli ravishda o‘zgartira oladi. Inson rivojlanishi genetik imkoniyatlar bilan boshlanib, muhit ta’sirida shakllanadi. Shuning uchun ta’lim, tarbiya, oilaviy muhit, jamiyat sharoitlari inson shaxs sifatida kamolotga yetishida irsiyat bilan birga hal qiluvchi omillardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Ibn Sino. “Tib qonunlari”**

Aslida Ibn Sinoning "Tib qonunlari" (The Canon of Medicine) asari **1025** yilda yozilgan. O'zbek tilida esa ushbu asar **Toshkent: Fan nashriyoti** nashrlarning yillari **1980-2000**- □

2. **Forobiy A. “Fozil odamlar shahri”**

O'zbek tilidagi nashrning aniq yili **1980-2000** yillar.

3. **Morgan T. “Genetika asoslari”**

Thomas Morgan ning "Genetika asoslari" **1990-yillar**da.

4. **Mendel G. “Naslchilik qonunlari”**

Gregor Mendelning "Naslchilik qonunlari" asari dastlab **1865** yilda nashr qilingan. O'zbek tilida nashr qilingan yili esa **1980-1990** yillar

5. **Erikson E. “Childhood and Society”**

Erik Eriksonning "Childhood and Society" asari dastlab **1950** yilda nashr qilingan. O'zbek tilidagi tarjimasi **1990-2000** yillar atrofida chop etilgan

6. **Robert Plomin. “Behavioral Genetics”**

Robert Plomin ning "Behavioral Genetics" kitobi dastlab **1986** yilda nashr qilingan. O'zbek tilidagi nashri ehtimol **2000-yillar**ning boshlarida chop etilgan.

7. Sh. A. Abdullaeva. **Psixologiya asoslari**. Toshkent, 2019.
8. Karimova V. **Umumiy psixologiya**. Toshkent, 2020.
9. Шомуротов, У. (2024). ТЕХНОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДОВ АРТ-ТЕРАПИИ В УСТРАНЕНИИ ЛИЧНОСТИ АГРЕССИИ. *Предпринимательства и педагогика*, *5*(2), 91-95.
10. Abdukarimovich, Y. T., & Melikmurodovich, S. U. B. (2022). Art Therapy in Eliminating Aggressiveness in the Individual. *Global Scientific Review*, *9*, 1-4.

11. MELIKBOBOYEVICH, S., QIZI, O., & QIZI, Q. (2024). INSONIY MUOMALA VA MULOQOTNING PSIXOLOGIK VOSITALARI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, *2*(2), 180-188.
12. Melikboboyevich, S. U., & Yusufaliyevna, H. S. (2024). Educator's Skill in Eliminating Aggressive Situations of Children Raised in Preschool Education Organization. *Samaraly Ta'lim Va Barqaror innovatisyalar Jurnali*, *1*(6), 611-616.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

OILAVIY SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING MUAMMOLARI,OILAVIY NIZOLAR

RAHMATOVA MUHSINA IZZATULO QIZI
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo‘nalishi, 1-bosqich, 13B-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilaviy shaxslararo munosabatlarning muammolari va oilaviy nizolar tahlil qilingan. Oilaviy mojarolarning asosiy sabablariga muloqot yetishmovchiligi, moliyaviy qiyinchiliklar, farzand tarbiyasi borasidagi kelishmovchiliklar, ish va oilaviy hayot muvozanatini saqlash qiyinligi, ruhiy qo‘llab-quvvatlash yetishmovchiligi hamda qaynona-qaynota bilan bog‘liq muammolar kiradi. Shuningdek, maqolada bu muammolarni hal qilish va oldini olish usullari, jumladan, ochiq muloqot, moliyaviy rejalashtirish, tarbiya bo‘yicha kelishuvga erishish, hissiy qo‘llab-quvvatlash va oilaviy birlikni mustahkamlash bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Mazkur maqola oilaviy hayotda barqarorlik va totuvlikni saqlash uchun foydali qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Oilaviy munosabatlar, Shaxslararo mmunosabatlar, Oilaviy nnizolar, Muloqot muammolari, Moliyaviy qqiyinchiliklar, Farzand tarbiyasi, Ish va oila muvozanat, Ruhiy qqo‘llab-quvvatlash, Qaynona-qaynota mmunosabatlar,

Аннотация: В данной статье проанализированы проблемы внутрисемейных и межличностных отношений, а также причины возникновения семейных конфликтов. Основными факторами, вызывающими семейные разногласия, являются недостаток коммуникации, финансовые трудности, расхождения во взглядах на воспитание детей, сложности в поддержании баланса между работой и семейной жизнью, недостаток эмоциональной поддержки, а также проблемы во взаимоотношениях с родителями супруга (свекровью и свекром). В статье также рассмотрены способы предотвращения и решения подобных конфликтов, включая открытое общение, финансовое планирование, достижения договорённости по вопросам воспитания, обеспечение эмоциональной поддержки и укрепление семейного единства. Материал служит полезным руководством для сохранения стабильности и гармонии в семейной жизни.

Ключевые слова: семейные отношения, межличностные отношения, семейные конфликты, проблемы коммуникации, финансовые трудности, воспитание детей, баланс работа–семья, эмоциональная поддержка, отношения со свекровью и свекром.

Annotation: This article analyzes the problems of family and interpersonal relations, as well as the causes of family conflicts. The main factors contributing to family disputes include lack of communication, financial difficulties, disagreements regarding child upbringing, challenges in maintaining a work–life balance, insufficient emotional support, and issues related to relationships with in-laws. The article also discusses methods for preventing and resolving these problems, such as open communication, financial planning, reaching agreements on child-rearing practices, providing emotional support, and strengthening family unity. The material serves as a useful guide for maintaining stability and harmony in family life.
Keywords: family relations, interpersonal relations, family conflicts, communication problems, financial difficulties, child upbringing, work–life balance, emotional support, in-law relationships.

Oilaviy munosabatlar inson hayoti taraqqiyotida alohida o‘rin tutadi. Oila — jamiyatning asosiy bo‘g‘ini, insonning hayotiy qadriyatlari, axloqiy me’yorlari va ijtimoiy xulq-atvorining shakllanishida eng muhim zamin hisoblanadi. Inson qanday tarbiya, qanday ruhiy muhitda kamol topgan bo‘lsa, u jamiyatga ana shu ruhda kiradi. Shu bois oilaviy shaxslararo munosabatlar sifati, o‘zaro hurmat, mehr-muhabbat, muloqot madaniyati, iqtisodiy barqarorlik va psixologik uyg‘unlik darajasi oilaning mustahkamligi hamda undagi nizolarning vujudga kelish xavfini belgilab beradi. Oila mustahkam bo‘lsa, jamiyat mustahkam bo‘ladi — bu qadimdan shakllangan hayotiy haqiqatdir. Oilada sodir bo‘ladigan har bir voqea, har bir holat, har bir kichik kelishmovchilik ham o‘zining ma’lum tarixi va mantiqiga ega bo‘ladi. Ba’zida oddiy ko‘ringan tushunmovchilik vaqtida hal qilinmasa, u asta-sekin kattalashib, oilaning ichki ruhiy muvozanatini buzadigan kuchli nizolarga aylanadi. Masalan, erning ishdagi charchoqdan so‘ng uyga vazmin kirishi ba’zan xotin tomonidan sovuqqonlik deb qabul qilinadi. Yoki ayolning uy yumushlaridagi bandligi er tomonidan e’tiborsizlik sifatida talqin qilinadi. Oddiy izoh bilan yumshatish mumkin bo‘lgan holatlar muloqot yetishmaganda kattaroq muammoga aylanib boraveradi. Bu esa oilaviy muloqotning o‘z vaqtida to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi qanchalik muhimligini ko‘rsatadi.

Oilaviy shaxslararo munosabatlarning murakkabligi shundaki, har bir inson — alohida dunyo. Har bir oila a’zosi o‘ziga xos xarakterga, turlicha tarbiya ko‘rgan, o‘z qiziqishlari, ehtiyojlari, hayotga qarashi bor. Masalan, oilaga yangi kelgan kelinning odatlari, xulq-atvori ba’zan qaynonaga mos kelmasligi mumkin; yoki turmush o‘rtoqlarning moliyaviy masalalardagi qarashlari bir-biridan farq qiladi. Bunday farqlar tabiiy hol, ammo ular yuzasidan vaqtida gaplashilmasa, ichki ziddiyatlar paydo

bo‘ladi. Ko‘plab oilalarda “men aytmasam ham tushunadi” degan noto‘g‘ri fikr mavjud. Aslida esa hech kim bir-birining o‘yini o‘zi bilmaydi; tushunmovchiliklar aynan shundan boshlanadi.

Oilaviy nizolar ko‘p hollarda tashqi omillar – iqtisodiy bosim, ishdagi stress, qarindosh-urug‘larning aralashuvi kabi sabablar bilan bog‘lanadi deb o‘ylashadi. Ammo amalda nizolarning asosiy ildizi ichki muloqotning sustligi, his-tuyg‘ularni boshqarishdagi qiyinchiliklar, gapni o‘z vaqtida ochiq aytmaslik, aytilgan gapni to‘g‘ri anglamaslik kabi holatlardir. Masalan, ayol uy yumushlari va bolalar parvarishidan charchab qolganini aytishga tortinadi, lekin ichida charchoq, hafalik to‘planadi; er esa uydagi mayda kamchiliklardan asabiylashadi, lekin sababini izohlab bermaydi. Natijada ikkalasining ham hissiy bosimi oshib boradi va kichik sabab tufayli katta janjal kelib chiqadi.

Muloqot yetishmovchiligi oilalarda uchraydigan eng keng tarqalgan muammodir. Ko‘plab nizolar aslida noto‘g‘ri eshitilgan yoki noto‘g‘ri tushunilgan bir og‘iz gapdan boshlanadi. Oila a’zolari bir-birining fikrini bo‘lmasdan tinglashni, "nega shunday dedi?" degan savolni berishni, ichdagi his-tuyg‘ularni muloyimlik bilan yetkazishni bilmasa, o‘zaro tushunish mushkullashadi. Ba’zida er xotiniga qandaydir muammoni gapirmasa ham o‘zini qo‘llab-quvvatlashlarini kutadi; ayol esa erining biror yumushda yordam berishini aytmasadan kutadi. Ammo aytilmagan istak — bajarilmaydigan istakdir. Shuning uchun muloqot faqat gapirish emas, balki tinglash, tushunishga harakat qilish, o‘z fikrini nozik ifodalash, his-tuyg‘ularni to‘g‘ri yetkazish san’atidir.

O‘zaro tinglash — oiladagi totuvlikning eng muhim omillaridan biridir. Har bir inson tinglanishni, qadrlanishni, tushunilishni xohlaydi. Biror narsa haqida gapirayotganida uning gapini bo‘lish, mensimaslik, kamsituvchi ohangda javob qaytarish munosabatlarda chuqur ruhiy jarohat qoldiradi. Hayotiy misol sifatida aytadigan bo‘lsak, ko‘plab er-xotinlar “sen doim shunaqasan” kabi umumlashtiruvchi keskin iboralarni ishlatgani sababli janjal kuchayib ketadi. Bunday iboralar shaxsni emas, uning fe’lini haqorat qiladi va o‘tkir reaksiya chaqiradi. Muloqotda nozik ohangni saqlash, o‘z-o‘zini nazorat qilish, muammoni ayblamasdan, muhokama shaklida hal qilish oila totuvligining asosi sanaladi.

Oilaviy munosabatlar murakkab, ammo ular ustida ishlash mumkin va kerak bo‘lgan jarayondir. Har bir oila o‘z ichki nizolarini vaqtida anglab, ularni hal qilishga intilsa, oilaviy barqarorlik mustahkamlanadi, farzandlar sog‘lom psixologik muhitda voyaga yetadi va jamiyat yanada sog‘lom rivojlanadi. Oila — insonning eng katta maktabi. Shu maktabda qanday saboq olinishi esa oila a’zolarining bir-birini tushunishga bo‘lgan intilishiga bog‘liq. Oilaviy muammolarning aksariyati, aslida, mayda va

ko‘zga ko‘rinmaydigan holatlardan boshlanadi. Eng asosiy ildizlardan biri — muloqot yetishmovchiligi. Juftliklar bir-birini tinglamaslik, suhbat vaqtida telefon yoki boshqa chalg‘ituvchi omillarga berilish, muammolarni vaqtida aytmasdan yig‘ib borish natijasida o‘zaro tushunmovchilik kuchayadi. Masalan, ishdan charchagan ota uyga qaytib, bolasining o‘qishi yoki uy ishlarini muhokama qilishni boshlasa, onaning bunga keskin munosabat bildirishidan kelib chiqadigan kichik ziddiyat asta-sekin ichki norozilikka aylanadi. Er “meni hech kim tushunmaydi”, xotin esa “men hech qachon yordam olmayman” degan fikrlar bilan yashay boshlaydi. Bu ichki yig‘ilishlar keyinchalik eng oddiy vaziyatlarga — unutib qo‘yilgan uy yumushiga yoki kechikkan to‘lov hujjatiga nisbatan ortiqcha reaksiya ko‘rsatishga sabab bo‘ladi. Bunday holatlarning ildizi ko‘pincha emotsional intizomning yetishmasligi, hissiy ochiqlikning yo‘qligi va konstruktiv muloqot ko‘nikmalarining o‘zlashtirilmaganidadir. Shu bois muntazam va ongli tinglash, oilaviy yig‘ilishlar tashkil etish, muammolarni “men-hissiyot” shaklida ifoda etish kabi texnikalar munosabatlarni mustahkamlashda juda muhimdir.

Oilalarda uchraydigan muhim muammolardan yana biri — moliyaviy qiyinchiliklar. Pul masalasi nafaqat moddiy imkoniyat bilan, balki har bir a’zoning pulga bo‘lgan munosabati, xarajatni rejalashtirish uslubi va mas’uliyatni taqsimlashdagi farqlari bilan ham bog‘liq. Bir taraf jamg‘arishni afzal ko‘rsa, ikkinchi taraf hozirgi ehtiyoj va xohishlarni qondirishni ma’qul ko‘rishi oilada doimiy tortishuvlar paydo bo‘lishiga olib keladi. Masalan, oila mashina olish uchun kreditdan foydalanmoqchi bo‘ladi, biroq er ota-onaga moddiy yordam berishni muhim deb biladi, xotin esa bolalarning ta’limiga sarflash tarafdori bo‘ladi. Qaror qabul qilish jarayonida yashirin xarajatlar, ishonchsizlik, ortiqcha shubhalar kuchayib, munosabatlar zaiflashadi. Bunday tangliklarni kamaytirish uchun pulni boshqarishning aniq rejasini tuzish, oyning boshida birgalikda byudjet belgilash, muhim xaridlarni oldindan muhokama qilish va favqulodda holatlar uchun alohida jamg‘arma tashkil etish samarali yechim hisoblanadi.

Farzand tarbiyasidagi kelishmovchiliklar esa oilaning eng sezgir nuqtalaridan biridir. Har bir ota-onaning o‘z tarbiya uslubi, o‘z qarashlari va o‘zining bolalik tajribasi mavjud bo‘ladi. Bir taraf qat’iy intizomni asosiy tamoyil deb bilsa, ikkinchisi erkinlik va ijodkorlikni ustun qo‘yadi. Bola esa ikki xil yondashuv orasida qolib, o‘zida chalkashlik his qiladi, bu esa ota-onalar o‘rtasida o‘zaro ayblovlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, bobolar, buvilar yoki qaynonalarning tarbiyaga haddan tashqari aralashuvi ota-onalarda o‘z qarorining qadrlanmasligi hissini tug‘diradi. Bu holatni yumshatish uchun ota-onalar tarbiyaga oid tamoyillarni oldindan kelishib

olishi, yozma tarzda asosiy qoidalar belgilanishi va tashqi aralashuv chegaralarini aniq ko‘rsatib qo‘yishi muhim.

Zamonaviy hayotda ish va oilaviy hayotni muvozanatlash ham katta muammo sanaladi. Mehnat grafikining og‘irligi, qo‘shimcha ishlar, biznes bilan bandlik oilaviy vaqtning qisqarishiga, a’zolar o‘rtasidagi hissiy masofaning ortishiga olib keladi. Masalan, erning doimiy ish bilan bandligi oilaviy kechalarni o‘tkazib yuborishga sabab bo‘lib, xotinda e’tibor yetishmovchiligi va charchoq hissi paydo qiladi. Aksincha, xotin uzoq vaqt ishda bo‘lsa, farzandlar bilan muloqot qisqaradi, oilaviy iliqlik kamayadi. Ishdagi stress uyga ko‘chib kelganda, hatto eng sodda vaziyatlar ham mojaroga aylanadi. Bu muvozanatni tiklash uchun vaqtni samarali boshqarish, oilaviy kalendar tuzish, haftada kamida bir kunni “oilaviy vaqt” sifatida belgilash va zarur hollarda ish beruvchi bilan moslashuvchan grafik borasida kelishish foydali bo‘ladi.

Hissiy qo‘llab-quvvatlash yetishmasligi oilada sezilmaydigan, biroq eng chuqur iz qoldiruvchi muammolardan biridir. Juftliklardan biri kayfiyati tushib turganda, ikkinchi taraf uning holatini bilmasdan o‘tib ketishi, yordam taklif qilmasligi yoki befarqlik ko‘rsatishi insonda yolg‘izlik va tushkunlikni kuchaytiradi. Vaqt o‘tgan sayin bu holat depressiya, o‘zini past baholash va oilaviy yaqinlikning yo‘qolishiga olib keladi. Shuning uchun oilada har bir a’zoning hissiy holatini so‘rab turish, kichik tashvishlarni ham e’tiboran chetda qoldirmaslik, birgalikda muhokama qilish juda muhim.

Bundan tashqari, qaynonalar va qaynotalar bilan aloqalar ham ko‘plab oila ichidagi nizolarga sabab bo‘ladi. Yangi tuzilgan oilalarda uy qoidalari, mehmon qabul qilishi, tarbiya masalasi yoki moliyaviy qarorlar borasida farqlar yuzaga kelishi odatiy hol. Masalan, qaynonaning bolalar tarbiyasiga ortiqcha aralashuvi kelin tomonidan shaxsiy hududga bostirib kirish sifatida qabul qilinadi. Qarindoshlardan moliyaviy yoki ma’naviy maslahatlar bilan birga doimiy aralashuvlar ham o‘zaro hurmatsizlik hissini kuchaytiradi. Bunday vaziyatlarda hurmat, aniq chegaralar belgilash va o‘zaro muhokama qilish muhim o‘rin tutadi.

Oilaviy hayot – insonning eng muhim ijtimoiy tajribalaridan biri bo‘lib, undagi har bir jarayon shaxsning psixologik holati, ijtimoiy xulq-atvori va kelajak avlodning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiq etilgan omillar shuni ko‘rsatadiki, oilaviy nizolarning kelib chiqishi odatda birgina sabablarga bog‘lanmaydi; ular ko‘proq turli psixologik, iqtisodiy va ijtimoiy omillarning uyg‘unlashuvi natijasida yuzaga keladi. Muloqot yetishmasligi, hissiy qo‘llab-quvvatlashning susayishi, ish va oilaviy majburiyatlar orasidagi nomutanosiblik, tarbiya yondashuvlaridagi farqlar, moliyaviy masalalarning noto‘g‘ri boshqarilishi kabi omillar asta-sekin oilaning ichki

barqarorligini yemiradi. Bu jarayon bir kunda sodir bo‘lmaydi; aksincha, mayda e’tiborsizliklar, vaqtida aytilmagan gaplar, tushunilmagan hissiyotlar yig‘ilib, yillar davomida chuqur ziddiyatlarga aylanadi.

Oila a’zolarining hissiy ehtiyojlari e’tiborga olinmaganda, inson o‘zini yolg‘iz, qadrsiz va tushunilmagan holda his qila boshlaydi. Bu esa oilaviy munosabatlarda sovuqlik, uzoqlashish, bir-birini eshitmaslik kabi oqibatlarni kuchaytiradi. Aksincha, o‘zaro hurmat, samimiylik, empatiya va aktiv tinglash oilani birlashtiruvchi asosiy psixologik resurslar sanaladi. Shuning uchun oilaviy barqarorlikning eng asosiy garovi – og‘ir vaziyatlarda bir-birini ayblash emas, balki murakkab muammolarni birgalikda hal qilishga intilishdir. Muammolarni yashirish, ularni vaqtga topshirish yoki e’tiborsiz qoldirish esa vaziyatni yanada murakkablashtiradi.

Oiladagi tarbiya masalalari, moliyaviy qarorlar yoki qarindoshlar bilan aloqalar borasidagi kelishmovchiliklar har doim ham salbiy emas. To‘g‘ri boshqarilganda bu farqlar oila a’zolarini o‘zaro muloqotga, fikrlashga va mas’uliyatni bo‘lishishga undaydi. Muhimi, har bir qaror shoshilinch emas, balki o‘zaro maslahat, mulohaza va hurmat asosida qabul qilinishi kerak. Oilalarda paydo bo‘layotgan tashqi bosimlar – ishdagi stress, sog‘liq muammolari yoki iqtisodiy qiyinchiliklar – ichki barqarorlikni sinovdan o‘tkazadi. Bunday vaziyatlarda oila a’zolarining biri boshidan kechirayotgan qiyinchilikni ikkinchisi tushunib, uni qo‘llab-quvvatlashi oila mustahkamligini yanada oshiradi.

Shu bois oilaviy hayotda muvaffaqiyat – tasodifiy jarayon emas, balki ongli ravishda shakllantiriladigan madaniyatdir. Bunda vaqtni to‘g‘ri boshqarish, hissiyotlarni ifoda qila olish, konstruktiv muloqot, xatolarni tan olish va kechirimlilik kabi fazilatlar yetakchi o‘rin egallaydi. Har bir oila o‘z ichki qoidalarini shakllantirishi, chegaralarini belgilashi va o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni yaratishi zarur. Oila qanchalik ijtimoiy va psixologik jihatdan barqaror bo‘lsa, undagi har bir a’zo shunchalik sog‘lom, baxtli va muvaffaqiyatli bo‘lib ulg‘ayadi.

Umuman olganda, oilaviy muammolarning oldini olishning eng samarali usuli – muammolarni erta bosqichda aniqlash, ularni erkin muloqotda muhokama qilish va har ikki tomonning ehtiyojlarini inobatga olgan holda yechim ishlab chiqishdir. Shunda oila nafaqat nizolardan holi bo‘ladi, balki jamiyatning eng mustahkam bo‘g‘iniga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. A. Qurbonov, Z. Karimova. *Oilaviy psixologiya asoslari.* — Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2020.
2. K. Abdullayeva. *Muloqot madaniyati va oilaviy munosabatlar.* — Toshkent: Fan va Texnologiya, 2018.
3. Sh. Yusupov. *Psixologiya: oila va jamiyat.* — Toshkent: Turon-Iqbol, 2019.
4. M. Yo‘ldosheva. *Bolalar tarbiyasi va ota-ona mas’uliyati.* — Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa, 2021.
5. O. Jo‘rayev. *Ijtimoiy psixologiya asoslari.* — Toshkent: Universitet, 2017.
6. D. Murodova. *Oilaviy nizolarni boshqarish va kommunikativ yondashuvlar.* — Samarqand: Zarafshon, 2022.
7. N. Sodiqova. *Oilada iqtisodiy madaniyat va byudjet boshqaruvi.* — Toshkent: Mohir nashriyoti, 2020.
8. A. Xolmatov. *Stress va emotsional barqarorlik psixologiyasi.* — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
9. S. Abdullayev. *Oila sotsiologiyasi.* — Buxoro: Buxoro DU nashriyoti, 2021.
10. Шомуротов, У. (2024). ТЕХНОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДОВ АРТ-ТЕРАПИИ В УСТРАНЕНИИ ЛИЧНОСТИ АГРЕССИИ. *Предпринимательства и педагогика*, *5*(2), 91-95.
11. Abdukarimovich, Y. T., & Melikmurodovich, S. U. B. (2022). Art Therapy in Eliminating Aggressiveness in the Individual. *Global Scientific Review*, *9*, 1-4.
12. MELIKBOBOYEVICH, S., QIZI, O., & QIZI, Q. (2024). INSONIY MUOMALA VA MULOQOTNING PSIXOLOGIK VOSITALARI. *SAMARALI TA’LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, *2*(2), 180-188.
13. Melikboboyevich, S. U., & Yusufaliyevna, H. S. (2024). Educator’s Skill in Eliminating Aggressive Situations of Children Raised in Preschool Education Organization. *Samaraly Ta’lim Va Barqaror innovatisyalar Jurnali*, *1*(6), 611-616.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

YOSHLIK YETUKLIK VA KEKSALIK DAVRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

RAHMONQULOVA FARISHTABONU SHOHUSAYNZODA
G'APPAROVA MEHRIBON G'APPOR QIZI
Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining “Aniq va tabiiy fanlar “ fakulteti “Biologiya” yo’nalishi talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson rivojlanishining asosiy uch bosqichi — yoshlik, yetuklik va keksalik davrlarining psixologik xususiyatlari o‘rganiladi. Yoshlik davrida shaxsning o‘zini anglash jarayoni, kasb tanlash motivlari, emotsional beqarorlik va ijtimoiy moslashuv masalalari tahlil qilinadi. Yetuklik bosqichida esa shaxsning barqarorlashuvi, professional va oilaviy mas’uliyatning ortishi, ijtimoiy maqomning shakllanishi hamda emotsional muvozanatning kuchayishi ko‘rib chiqiladi. Keksalik davrida psixologik moslashuv, hayotiy tajribani umumlashtirish, yolg‘izlik hissi, sog‘liqdagi o‘zgarishlar va ularning shaxs psixologiyasiga ta’siri tahlil etiladi. Tadqiqotda har bir davrning o‘ziga xos psixologik ehtiyojlari, motivlari va ijtimoiy-ruhiy holatlari ilmiy adabiyotlar asosida yoritilgan. Maqola inson rivojlanishining izchil jarayon sifatida qaralishi va har bir bosqichda psixologik omillarning ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Yosh davri psixologiyasi, yetuklik psixologiyasi, keksalik psixologiyasi, rivojlanish bosqichlari, emotsional barqarorlik, shaxs shakllanishi, ijtimoiy moslashuv, qarilik davri, psixik rivojlanish, motivatsiya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются психологические особенности трех основных этапов развития личности: юности, зрелости и старости. В период юности анализируются процессы самосознания, мотивация выбора профессии, эмоциональная неустойчивость и проблемы социальной адаптации. На этапе зрелости подчеркиваются стабилизация личности, рост профессиональной и семейной ответственности, формирование социального статуса и укрепление эмоционального равновесия. В пожилом возрасте обсуждаются психологическая адаптация, осмысление жизненного опыта, чувство одиночества, изменения в состоянии здоровья и их влияние на психическое благополучие. В статье раскрываются специфические психологические потребности, мотивы и социально-эмоциональные состояния каждого этапа развития на основе научной литературы. Работа направлена на выявление роли психологических факторов в непрерывном процессе развития человека.

Ключевые слова: Психология развития, психология юности, психология зрелости, психология старости, эмоциональная стабильность, формирование личности, социальная адаптация, пожилой возраст, психическое развитие, мотивация.

Annotation: This article examines the psychological characteristics of three major stages of human development: youth, adulthood, and old age. The study analyzes the processes of self-awareness, career choice motivation, emotional instability, and social adaptation in youth. In adulthood, the article highlights personality stabilization, increased professional and family responsibility, the formation of social status, and the strengthening of emotional balance. In old age, psychological adaptation, reflection on life experience, feelings of loneliness, changes in health, and their impact on mental well-being are discussed. The article emphasizes the unique psychological needs, motivations, and socio-emotional conditions of each developmental stage based on scientific literature. It aims to demonstrate the importance of psychological factors throughout the continuous process of human development.

Keywords: Developmental psychology, youth psychology, adult psychology, aging psychology, emotional stability, personality development, social adaptation, elderly period, mental development, motivation.

Kirish

Inson rivojlanishi uzluksiz va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u bolalikdan boshlab keksalik davrigacha davom etadi. Har bir rivojlanish bosqichi o‘ziga xos psixologik, biologik va sotsiokulturn tarkibiy qismlarga ega. Yoshlik, yetuklik va keksalik inson hayotining eng muhim uch davri sifatida shaxsning xarakteri, dunyoqarashi, emotsional holati, xulq-atvori va motivatsiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur maqola ushbu davrlarning chuqur psixologik tahlili, ularning o‘zaro farqlari va umumiy jihatlarini yoritishga qaratilgan.

Yoshlik davri 16–25 yosh oralig‘ida kuzatiladi va insonning yetuklik sari qadam qo‘yishidagi eng muhim bosqichlardan biridir. Bu davrda shaxsning hayotiy qadriyatlari, dunyoqarashi, o‘zini anglash darajasi jadal o‘zgaradi. Yoshlar yangi ijtimoiy rollarga moslashadi, o‘z mustaqilligini izlaydi, professional yo‘nalishni tanlaydi va o‘z shaxsiy individual xususiyatlarini namoyon eta boshlaydi. Psixologlar bu davrni “identifikatsiya davri” deb atashadi.

Birinchidan, yoshlar o‘z shaxsiy “Men”ini shakllantiradi. Bu jarayonda kimman? Qayerga intilyapman? Qanday kasb egasiga aylanishni xohlayman? kabi savollar markaziy o‘rin egallaydi. Eriksonning ta’kidlashicha, identifikatsiya inqirozi bu

davrning eng asosiy psixologik masalasidir. To‘g‘ri tanlovlar shaxsning keyingi yillarda psixologik barqarorligiga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, emotsional hayotda beqarorlik kuzatiladi. Gormonlar faolligi, ijtimoiy bosim, hayotiy tajribaning kamligi yoshlar hissiyotida keskin o‘zgarishlarga olib keladi. Stress, ijtimoiy taqqoslash, tashqi ta’sirlarga tez beriluvchanlik kabi holatlar ko‘proq uchraydi.

Uchinchidan, yoshlar o‘z kelajagini qurishga intiladilar. Kasb tanlash, oliy ta’lim olish, munosabatlar o‘rnatish, iqtisodiy mustaqillikka erishish kabi omillar psixologik rivojlanishning ajralmas qismidir. Ijtimoiy guruhlar bilan integratsiya, yangi do‘stlar orttirish, jamoa ichida o‘z o‘rnini topish katta ahamiyatga ega.

Yoshlarning asosiy psixologik ehtiyojlari — tan olinishi, mustaqillik, erkinlik, muloqot, o‘z fikrini bildirish va o‘zini namoyon qilishdir. Bu ehtiyojlarning qondirilishi salomat ruhiy rivojlanishning asosiy omili hisoblanadi. Yetuklik davri 25–60 yoshgacha davom etib, shaxsning eng faol, barqaror va mas’uliyatli hayot bosqichi sifatida e’tirof etiladi. Bu davrda insonning ijtimoiy mavqei mustahkamlanadi, oila quriladi, professional faoliyatda yuksalish kuzatiladi. Psixologlar yetuklikni “stabilizatsiya davri” deb ham atashadi.

Birinchidan, emotsional barqarorlik kuchayadi. Yoshlikdagi hissiy beqarorlik o‘rnini tajriba asosidagi muvozanat egallaydi. Inson qarorlarni aniqroq, ongliroq qabul qiladi. Ikkinchidan, professional o‘sish shaxs hayotining markaziy nuqtasiga aylanadi. Mutaxassislik bo‘yicha yetuklik, malaka oshirish, lavozim o‘sishi, jamiyatda o‘z o‘rnini mustahkamlash — bularning barchasi yetuklikning asosiy psixologik omillaridir. Uchinchidan, oila va farzandlar tarbiyasi shaxsning psixologik hayotida alohida o‘rin tutadi. Ota-onalik mas’uliyati, iqtisodiy barqarorlikka intilish, oilaviy totuvlikni saqlash kabi omillar psixik jarayonlarga ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, yetuklik davrida inson o‘z qadriyatlarini qayta ko‘rib chiqadi, dunyoqarashi yanada aniq shakllanadi. O‘z-o‘zini baholash barqarorlashadi, inson o‘z kuchli va zaif tomonlarini real baholay oladi. Hayotiy tajribaning boyligi muammolarni hal etishda yuqori samaradorlikni ta’minlaydi.

Bu davrning asosiy ehtiyojlari — barqarorlik, professional tan olinishi, oilaviy farovonlik, ijtimoiy maqom va o‘zini oqlash ehtiyojidir.

Keksalik davri 60 yoshdan keyin boshlanib, jismoniy, psixologik va ijtimoiy o‘zgarishlarning eng sezilarli bo‘lgan davridir. Bu bosqichda insonning jismoniy imkoniyatlari pasayadi, faoliyat sur’ati sekinlashadi, biroq hayotiy tajriba va donolik oshadi.

Birinchidan, keksalar hayotini umumlashtiradi. Bu jarayon Erikson tomonidan “donolik va umidsizlik o‘rtasidagi qarama-qarshilik” sifatida ta’riflanadi. Agar inson o‘z o‘tgan hayotidan mamnun bo‘lsa, unda donolik va xotirjamlik yuzaga keladi; aks holda afsus va ichki ziddiyatlar paydo bo‘lishi mumkin.

Ikkinchidan, ijtimoiy faollikning pasayishi ruhiy holatga ta’sir qiladi. Pensiyaga chiqish, avvalgidek jamoa ichida bo‘lmaslik, tengdoshlarining vafoti, yolg‘izlik hissi — bular keksalik psixologiyasi uchun xos bo‘lgan holatlardir.

Uchinchidan, sog‘liqdagi o‘zgarishlar psixologik barqarorlikka ta’sir etadi. Sog‘liqni saqlashga ehtiyojning oshishi, stress va xavotir kuchayishi mumkin. Ammo ijtimoiy yordam, oila e’tibori, doimiy muloqot keksalarning ruhiy holatini sezilarli yaxshilaydi. Keksalar uchun asosiy ehtiyojlar — muloqot, e’tibor, hurmat, xavfsizlik va psixologik qo‘llab-quvvatlashdir. Ularning hayotiy tajribani avlodlarga yetkazish istagi kuchli bo‘ladi.

Yoshlik, yetuklik va keksalik bosqichlari bir-biridan keskin farq qilsa-da, umumiy jihatlar ham mavjud. Har uchala davrda shaxs o‘zini namoyon qilishga intiladi, ijtimoiy moslashuv jarayonidan o‘tadi, psixologik ehtiyojlarga ega bo‘ladi. Farqlar esa ularning motivatsiyasi, ehtiyojlari, ijtimoiy rollari va emotsional holatlarida namoyon bo‘ladi.

Xulosa

Yoshlik izlanish, sinovlar, o‘z o‘rnini topish davri. Yetuklik barqarorlik, mas’uliyat va professional o‘sish davri. Keksalik umumlashtirish, xotirjamlik va hayotiy donolik davri.

Ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash, to‘g‘ri munosabat va har bir bosqich ehtiyojlarini hisobga olish insonning ruhiy farovonligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Erikson E. *Identity: Youth and Crisis.* New York: Norton, 1968.
2. Papalia D., Feldman R. *Human Development.* McGraw-Hill, 2001.
3. Santrock J.W. *Life-Span Development.* McGraw-Hill, 2019.
4. Havighurst R. *Developmental Tasks and Education.* Longmans, 1953.
5. Zimbardo P., Ruch F. *Psychology and Life.* Harper Collins, 1991.
6. Божович Л.И. *Личность и её формирование в детском возрасте.* М.: Педагогика, 1968.
7. Шаманов А.К. *Возрастная психология.* T.: Universitet, 2020.
8. Бехтерев В.М. *Общие основы возрастной психологии.* М., 1983.
9. Бернс Р. *Развитие Я-концепции и воспитание.* М., 1986.

10. Abdukarimovich, Y. T., & Melikmurodovich, S. U. B. (2022). Art Therapy in Eliminating Aggressiveness in the Individual. Global Scientific Review, 9, 1-4.
11. Abdukarimovich, Y. T., Melikboboyevich, S. U., & Yusufaliyevna, H. S. (2024). Educator's Skill in Eliminating Aggressive Situations of Children Raised in Preschool Education Organization. Samaraly Ta'lim Va Barqaror innovatisyalar Jurnali, 1(6), 611-616.
12. MELIKBOBOYEVICH, S., QIZI, O., & QIZI, Q. (2024). INSONIY MUOMALA VA MULOQOTNING PSIXOLOGIK VOSITALARI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, *2*(2), 180-188.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №11 (2025). November
innovativepublication.uz

RENTPGEN DIAGNOZ MA'LUMOTLARIGA ASOSLANIB PERIODONTIT BILAN KASALLANGAN TISHNI BOSQICHMA-BOSQICH TA'RIFLASH ALGORITMI

Xabilov Nigman Lukmanovich
Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti
https://orcid.org/0000-0002-1404-507X
e-mail: nigman77@mail.ru

Annotatsiya

Rentgen nurlari stomatologiya amaliyotida keng tarqalgan vosita bo'lib, periodontitni tashxislashda keng qo'llaniladi. Bu davolash protokollarida qayd etilgan. KT hozirgacha bu maqsadlarda lozim ravishda qo'llanilgan. Radiologik diagnostika ma'lumotlariga asoslangan patologiyani bosqichma-bosqich tavsiflash protokoli qo'llanilganda kelajakda munosib davolash taktikasini ta'minlashi qayd etilgan. Biroq, radiologik diagnostika ma'lumotlariga asoslangan periodontit bilan zararlangan tishni bosqichma-bosqich tavsiflash bo'yicha diagnostika protokoli mavjud emas. Bu ishning dolzarbligini belgilaydi. Tadqiqotning maqsadi – radiologik diagnostika ma'lumotlariga asoslangan periodontit bilan og'rigan tishlarni bosqichma-bosqich tasvirlash bo'yicha taklif etilgan va sinovdan o'tkazilgan protokoldan ishchi versiyasini taqdim etish va uning zarurligini tushuntirishdir.

Kalit so'zlar: radiologik diagnostika, periodontit, apikal torayish, tish ildizini baholash.

Materiallar va usullar. Periodontitda rentgenologik diagnostika ma'lumotlariga asoslangan tishlar bo'yicha bosqichma-bosqich protokolni tavsiflash usuli M. Gorkiy Donetsk Milliy Tibbiyot Universitetining ortopedik stomatologiya, shuningdek rentgenologik diagnostika va nur terapiyasi kafedralarida taklif etilgan va sinovdan o'tkazilgan.

Natijalar. Radiologik diagnostika ma'lumotlariga asoslangan periodontit uchun sinovdan o'tkazilgan bosqichma-bosqich protokol quyidagi algoritmni taqdim etadi: tish va og'iz bo'shlig'ini baholash; pulpa bo'shlig'idagi buzilishlarni aniqlash; ildizlar sonini aniqlash; ildiz kanallarining soni va ularning patologik namoyishlarini tavsiflash; kanalning apikal xususiyatlari: tish ildizlari va kanallarining egri chiziqliligi hamda shakli; apikal periodontitning morfologik shakli; kanalni to'ldirish; perforatsiyalarni aniqlash; davolash samaradorligini baholash.

Xulosa. Radiografik ma'lumotlarga asoslangan periodontitni tish ko'rigini bosqichma-bosqich tavsiflovchi taqdim etilgan protokol tish holatini ko'p omilli baholash uchun samarali usuldir.

Tishni rentgenografik usullari bemorlarga stomatologik yordam ko'rsatishda asosli qadam hisoblanadi. Ular endodontik amaliyotda alohida o'rin tutadi.

Parodontit holatlarida rentgen tekshiruvi stomatologiya amaliyotining asosi hisoblanadi. Bu davolash protokollarida qayd etilgan. Qo'shimcha tekshiruvlarning eng keng tarqalgan usuli bo'lib, kompyuter tomografiyasi (KT) esa tekshiruv bosqichida lozim ravishda qo'llanadi.

Ushbu patologiyada tish holatini baholash uchun ma'lumot olish maqsadida tadqiqotlarni tahlil qilish bevosita stomatologlar tomonidan amalga oshiriladi.

Tadqiqot maqsadi. Rentgenografik diagnostika ma'lumotlariga asoslangan periodontitli tishni bosqichma-bosqich tasvirlash bo'yicha taklif etilgan va sinovdan o'tkazilgan protokoldan ishchi usulni taqdim etish va uning zarurligini tushuntirish.

Materiallar va usullar. Tadqiqot materiallari "Surunkali periodontitning endodontik davolanishining uzoq muddatli natijalari, salbiy oqibatlarning sabablari va ularni bartaraf etish yo'llari" mavzusidagi bo'limlararo tadqiqot ishlaridan iborat.

Protokoldagi tavsif metodologiyasi M. Gorkiy nomidagi Donetsk Milliy Tibbiyot Universiteti ortopedik stomatologiyasi kafedrasida taklif etilib sinovdan o'tkazildi.

Adabiyotlarda tish tuzilishining bir xil morfologik variantlarini tasvirlash uchun bir nechta noodatiy va turlicha atamalar ishlatilishi qayd etilgan. Boshqa tomondan, bir xil nomlar ikki xil anatomik variantni belgilash uchun ham qo'llaniladi. Vaqt o'tishi bilan soddaligi tufayli ommalashgan atamalar ko'pincha noto'g'ri va aniq emas. Bunday atamalar kanal joylashuvini anatomik jihatdan aniqlay olmaydi va ilmiy terminologiyada ularga mos keladigan analoglar yo'q. Hozirgacha hech qanday konsensusga erishilmagan.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda tahlil o'tkazishda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan anatomik tuzilmalar to'liq ro'yxati periodontit davolashda stomatologik yordam ko'rsatish protokollaridagi va Xalqaro kasalliklar klassifikatsiyasi MKB-10 mavjud ma'lumotlarga muvofiq taklif etilayotgan protokolda keltirilgan.

1. Tish kovaki bilan og'iz bo'shlig'i o'rtasidagi bog'lanishni baholash

1.1 Bog'lanish mavjudligi

